

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR
VAZIRLIGI AKADEMIYASI

TURAYEVA DILNOZA RUSTAMBOYEVNA

JINOYAT PROTSESSIDA
JABRLANUVCHINING
MANFAATLARINI MUHOFAZA QILISH-
NING XORIJIY TAJRIBASI

MONOGRAFIYA

TOSHKENT – 2026

***Yuridik fanlar doktori professor G.Z. Tulaganovaning umumiy tahriri
ostida***

T a q r i z c h i l a r :

Sultanov Abdulla Azamatovich,
yuridik fanlar doktori, professor;
Kodirova Moxigul Xamitovna,
yuridik fanlar doktori, professor v/b

T 86 Turayeva D. R.
**Jinoyat protsessida jabrlanuvchining manfaatlarini muhofaza
qilishning xorijiy tajribasi** Monografiya. – T.: O‘zbekiston
Respublikasi IIV Akademiyasi, 2026. – 235 b.

Monografiyada jinoyat protsessida jabrlanuvchilarning huquq va manfaatlarini muhofaza qilishning xorijiy tajribasi, xususan, ayrim xorijiy mamlakatlar jinoyat protsessida jabrlanuvchining maqomi, huquq va manfaatlarini muhofazasi hamda jinoyat natijasida yetkazilgan zararni qoplashning zamonaviy, muqobil usullari, shuningdek, xorijiy mamlakatlar jinoyat-protsessual qonunchiligida mazkur masala tartibga solinishining qiyosiy tahlili yoritilgan

Ushbu monografiya huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari, o‘qituvchilar, izlanuvchilar, IIV oliy ta’lim muassasalarining tinglovchi va kursantlari hamda boshqa yuridik o‘quv yurtlarining talabalari uchun mo‘ljallangan.

UO‘K 343.122(035.3) (575.1)

KIRISH

Dunyoda ro'y berayotgan globalizatsiya jarayonlarida yiliga 458 mingta shaxs qasddan odam o'ldirish jinoyatidan jabrlanadi, bu esa har 100 ming kishiga 5,8 holatdan to'g'ri keladi¹, 2024 yilda taxminan 51,100 nafar ayol va qizlar turmush o'rtog'i yoki yaqin qarindoshlari tomonidan o'ldirilgan². Bu kuniga taxminan 140 nafar, ya'ni har 10 daqiqada bitta jabrlanuvchi degani³. Yiliga 600 milliondan ortiq shaxslar turli xil jinoyatlar, jumladan, bezorilik, o'g'rilik, firibgarlik va boshqa huquqbuzarliklardan jabrlangan hamda BMT xalqaro sudining ma'lumotlariga ko'ra, jinoyatlarning yangi turlari paydo bo'layotganligi natijasida 18 mlndan ortiq jabrlanuvchilarning huquq va manfaatlari muhofaza qilinmagan va ushbu jinoyatlar natijasida 280 mlrd AQSH dollaridan ortiq zarar undirilmaganligi⁴ yer yuzida ijtimoiy adolatni o'rnatishda shaxs, jamiyat va davlat manfaatlari muhofazasini kafolatlash, BMTning normativ-huquqiy hujjatlari asosida qonunchilikni takomillashtirish, jinoyatdan jabrlangan har qanday shaxsning huquqi muhofaza qilinishi, jinoyat natijasida unga yetkazilgan ma'naviy, jismoniy va moddiy zarar qoplanishi nazarda tutilgan hamda reabilitatsiya qilish zarurligi masalaga alohida yondashishni taqozo etadi⁵.

Jahonda jabrlanuvchilarga yetkazilgan zararni qoplashning samarali mexanizmini o'rnatish, BMTning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashga huquq va siyosiy jarayonlarning globallasuvi, demokratiyaning rivojlanishi, inson huquqlarini himoya qilishning kuchayishi, fuqarolarning qonuniy manfaatlariga rioya etilishi ustuvorligi sharoitida shaxs huquqlarining jinoiy-protsessual kafolatlarini ta'minlash, muqobil tartibda ishlarni sudda yuritishning

¹The mission of the National Center for Victims of Crime
<https://unstats.un.org/UNSDWebsite/statistics@un.org>

² Department of Economic and Social Affairs Statistics <https://www.ohchr.org/en/get-involved/campaign/hrd2024>

³ The mission of the National Center for Victims of Crime // <https://victimsofcrime.org>.

⁴ БМТнинг Жиноят ва Адлия статистикаси бўйича Бошқармаси (UNODC) ҳисоботи БМТнинг Халқаро суди расмий веб-сайти// <https://www.icj-cij.org/ru>

⁵ Декларация основных принципов правосудия для жертв преступления и злоупотребления властью (утв. Резолюцией Генеральной Ассамблеи ООН 40/34 от 29 ноября 1985 г.) //Международные акты о правах человека сбор.документов. – М.: “Норма”, 2023. – С. 166-169.

ijtimoiy-huquqiy jihatlarini tahlil qilgan xolda muqobil tartibda yarashuv, xususiyy ayblovlar, aybga iqrorlik to'g'risidagi kelishuv, mediatsiya, transaksiya, xabeas korpus institutlarini qo'llash sohasini yanada takomillashtirish, ularning tartibi va turlarini kengaytirish odil sudlovning intensivlashtirish muammolarini xalq hal etish sifatida e'tirof etilib, jinoyat tufayli yuzaga kelgan ijtimoiy konfliktlarni maqsadga muvofiq, holda bartaraf etishga hamda jinoyat sodir etgan shaxsni ijtimoiylashuviga ko'mak berishni hamda jinoyat ishlari bo'yicha ish yuritishning soddalashtirilgan tartibini joriy etishga doir muammolarning ilmiy asoslangan yechimlarini topishga alohida e'tibor qaratilib, jabrlanuvchining manfaatlari muhofazasini ta'minlash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Shu bilan birga, jabrlanuvchining manfaatlari muhofazasini, ularning kafolatlarini kuchaytirish bo'yicha oldimizda ko'pgina vazifalar turganligini, jinoyat protsessi ishtirokchilarining, shu jumladan, jabrlanuvchining protsessual maqomi, uning muhofazasini takomillashtirishning ustuvor vazifalaridan biri etib belgilanib, mazkur jinoyat protsessual masalani har tomonlama tadqiq etish zarurligini ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga kundalik qoida va odat tarzida rioya etish xususida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoyev quyidagicha ta'kidlaydi: "Biz jamiyatimizda shunday huquqiy madaniyatni shakllantirishimiz kerakki, unga muvofiq, Konstitutsiya va qonunlarga amal qilish, boshqalarning huquq va erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish majburiyat emas, balki kundalik qoida va odatga aylanishi shart"⁶.

Bunday konseptual yondashuvning isboti sifatida fuqarolarning sha'ni va qadr-qimmatni poymol qilganlik uchun ma'naviy ziyonni undirishni talab qilish O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasida belgilanganidek, inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlari barcha narsadan ustun turishi bilan bog'liqdir.

⁶ *Мирзиёев Ш.М.* Билимли авлод – буюк келажакнинг, тадбиркор халқ – фаравон ҳаётнинг, дўстона ҳамкорлик эса тараққиётнинг кафолатидир. Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг қабул қилинганлигининг 26 йиллигини тантанали маросимдаги маърузаси. <http://uza.uz/posts/57958>

Ushbu monografiya xorijiy tajriba asosida O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual qonunchiligini tubdan takomillashtirishda hamda ushbu yo'nalishda ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshiruvchi izlanuvchilar, amaliyot xodimlari, shuningdek, ilmiy ishlarga qiziquvchilar uchun yangi manba bo'lishi bilan birga, bugun respublikamizda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlarini joriy etish ishiga muayyan darajada hissa qo'shadi, deb hisoblaymiz.

I BOB. JABRLANUVCHINING HUQUQ VA MANFAATLARINI MUHOFAZA QILISH TUSHUNCHASINING NAZARIY -HUQUQIY ASOSLARI

1-§. Jinoyat protsessida jabrlanuvchining manfaatlarini muhofazasining ijtimoiy zarurati

Mamlakatimizda jabrlanuvchining manfaatlari muhofazasini to'liq ta'minlash, uning huquqlarini kafolatlashga alohida e'tibor qaratilib, Yangi tahrirdagi Konstitutsiya hamda "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasidagi "qonun ustuvorligini ta'minlash, inson huquq va erkinliklarining ishonchli himoya qilish" vazifa sifatida belgilandi. "Inson qadri uchun" tamoyilini qonunchilikka singdirish, jabrlanuvchilarning buzilgan huquqlari tiklanishini huquqiy jihatdan kafolatlash, ularning huquq va manfaatlari muhofazasini xalqaro standartlar va ilg'or xorijiy tajribalar asosida raqamlashtirish, inson huquqlariga oid xalqaro normalarni milliy qonun hujjatlarga implementatsiya qilish jinoyat protsessining dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Birinchi Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "...biz jinoyat sodir etgan va undan jabrlangan har bir shaxs ortida tirik jon, bizning vatandoshimiz, uning alam-iztiroblarini birga tortayotgan o'g'il-qizlari, oilasi, qarindosh-urug'lari borligini hech qachon unutmasligimiz kerak"⁷.

O'tgan asr oxiridan beri doimiy islohotlar davrini boshdan kechirayotgan milliy jinoyat-protsessual huquq tizimiga har doim muayyan ziddiyatlar xos bo'lgan bo'lib, ularni qonun darajasida bartaraf etish ko'p hollarda yangi muammolar to'liqlinini yuzaga keltirgan. Ayniqsa, ayblanuvchining himoyalanih huquqini har taraflama ta'minlash paradigmasi asosida jinoyat-protsessual institutlarni shakllantirish, himoya tarafining huquqiy kafolatlarini yaratish yakunlanganidan so'ng, jinoyat protsessini

⁷ Каримов И. А. Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. Т. 10 – Тошкент, 2002. – Б. 36.

demokratlashtirish va uning repressiv mohiyatini kamaytirishga qaratilgan umumiy tendensiyalar o'rnini mutlaqo boshqa qarashlar egallay boshladi.

Avval ilmiy doiralarda va huquqni qo'llovchi amaliyotda, keyinchalik esa qonun chiqaruvchi darajasida jarayonda bir-biriga qarshi turuvchi ikki shaxs ayblanuvchi va jabrlanuvchining huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlashda adolatsizlik, nomutanosiblik ochiq-oydin namoyon bo'la boshladi. Himoya huquqini ta'minlash va jabrlanuvchining adolatga erishuviga oid jinoyat-protsessual mexanizmlardagi disbalans shunchalik ayon bo'ldiki, Konstitusiyaviy sud, undan so'ng Oliy sudi Plenumi va qonunchilik tashabbusiga ega subyektlar mavjud vaziyatning nomutanosibligi va adolatsizligini anglab yetib, uni tiklash, jabrlanuvchi manfaatlarini himoya qilishga doir samarali kafolatlarni yaratish yuzasidan faol ish olib borishni boshladi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi 29-moddasi talablaridan kelib chiqib, jabrlanuvchining manfaatlarini muhofaza qilish hamda jinoyat natijasida yetkazilgan zararlarni qoplashni odil sudlovning asosiy tamoyillaridan biriga aylantirishi jamiyatimizning har bir fuqarosi o'zining huquq va manfaatlarini davlat tomonidan muhofaza qilinish kafolatini sezilarli darajada oshirdi.

Mamlakatimiz Konstitusiyasining 29-moddasida "Huquqbuzarliklardan jabrlanganlarning huquqlari qonun bilan muhofaza qilinadi. Davlat jabrlanganlarga himoyalashni va odil sudlovdan foydalanishni ta'minlanishi" kafolatlanganligi va Jinoyat kodeksining 10-moddasiga muvofiq, "javobgarlikning muqarrarliligi prinsipi"ni va jinoyatdan jabrlangan shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini muhofaza qilish borasidagi jinoyat- protsessual kodeksining 18-moddasiga muvofiq, "fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish" prinsipi muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu "inson huquq va manfaatlarini muhofaza qilish – davlatning oliy maqsadi" sifatida belgilanishida o'z ifodasini topdi⁸.

Yangilangan Konstitusiya jinoyat-protsessual qonunchiligini inson huquqlarini himoya qilish, adolatli sudlovni ta'minlash va jabrlanuvchining qadr-qimmatini

⁸ Абдурахмонов Қ. Ўзбекистон тараққиётининг ҳуқуқий пойдевори// Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари илмий-маърифий журнал. 2(98)-2023 й. 48 Б.

protsessual jihatdan mustahkamlash maqsadida tubdan isloh qilish uchun mustahkam huquqiy asos yaratdi. Bu esa dissertatsion tadqiqot oldiga Konstitutsiyaviy normalarga to'liq mos keladigan, ilg'or xorijiy tajribaga asoslangan protsessual institutlarni ishlab chiqishdek muhim vazifani qo'yadi. Konstitutsiyaning inson qadr-qimmatini ulug'lash haqidagi yangi qoidalari jinoyatdan jabrlangan shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni yangi bosqichga olib chiqishni taqozo etadi.

Konstitutsiyada "jabrlanganlar" tushunchasidan foydalanilgan, bu ikki tushuncha orasidagi mutanosiblik zaruriy shart-sharoit munosabatidadir. YA'ni jabrlanganlik (zarar ko'rish fakti) jabrlanuvchi protsessual maqomini berish uchun zaruriy dastlabki shart bo'lib xizmat qiladi. Protsessual huquqlarni kafolatlash uchun esa, jabrlangan shaxs "jabrlanuvchi" sifatida rasmiylashtirilishi shart. Jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirishdagi asosiy vazifa bu jabrlangan shaxsning jabrlanuvchi sifatidagi maqomini rasmiylashtirish jarayonini tezkor, oson va kafolatli qilishdan iboratdir.

Fikrimizcha, jabrlanuvchining huquqiy maqomini belgilashdan oldin uning lug'aviy ma'nosini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. O'zbek tilining izohli lug'atida jabrlanuvchi: 1) jabrlanmoq, jabr-zulm qilmoq, qiynamoq, azob bermoq; 2) moddiy zarar ko'rmoq, ziyon tortmoq. Jinoyat natijasida ma'naviy, jismoniy yoki moddiy zarar ko'rgan shaxs tushuniladi⁹, deb keltirilgan.

Ensiklopedik lug'atlarda esa "jabrdiyda" so'zi jabrlanuvchi, qurbon, "azoblanuvchi taraf" ma'nosida berilgan¹⁰. Bu borada Huquqshunos olim M.A. Musayev ta'kidlaganidek, "jinoyat-huquqiy siyosat jamiyatda huquqiy tartibotni ta'minlash, jinoyatchilikka qarshi kurash va shaxs huquqlarini muhofaza qilishda muhim ahamiyatga ega. Uning mazmuni nafaqat davlatning jazo siyosatiga, balki jabrlanuvchining maqomi va huquqlariga ham ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, jinoyat qurbonining jabrlanuvchi sifatida tan olinishi huquqiy, ijtimoiy va axloqiy

⁹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. А.Мадвалиев таҳрири остида. "Ж" – харфи. – Т – 2020, – Б.61.

¹⁰ Ақобиров С. Ф. Русско-узбекский словарь: В 2-х т. Т.1 / С.Ф. Ақобиров, З.М. Мағруфов, Н.М. Мамамов и др. – Ташкент: Гл. ред. УЗСЭ, 1983. – Б. 292.

masaladir”¹¹. Amaldagi tajribada jabrlanuvchi maqomini belgilashda qator muammolar kuzatilmoqda. Jumladan, qurbon maqomiga yetarli e’tibor berilmasligi, ayniqsa, zo‘ravonlik va iqtisodiy zarar holatlarida shaxsning jabrlanuvchi sifatida tan olmasligi uning protsessual huquqlarini cheklaydi, bu esa xalqaro standartlarga zid hisoblanadi. Qonunchilikda maqomni rasmiylashtirish mexanizmlari aniq emasligi va qarorlarda subyektiv yondashuvlar mavjudligi fuqarolarning davlat organlariga ishonchini susaytiradi.

S.A. Sheyfer va V.A. Lazarevalar “moddiy huquq normalariga tayanadigan holda, jinoiy javobgarlik tajovuz uchun, jumladan, suiqasd va jinoyatga tayyorgarlikka doir holatlarda ham belgilanishini ta’kidlaydi, hamda jabrlanuvchi maqomidan foydalanishdagi protsessual vakolatlaridan mahrum etish uchun huquqiy asos mavjud emas”¹², degan xulosaga keladilar. Ushbu nuqtai nazarni qo‘llab-quvvatlagan holda, Vengriya va Polsha jinoyat-protsessual qonunchiligiga muvofiq, jabrlanuvchi maqomi faqat huquq va qonuniy manfaatlari buzilgan shaxslargagina emas, balki ularning buzilishi tahdid ostida qolgan shaxslarga ham berilishi nazarda tutilgan.

Jabrlanuvchi bu huquq falsafasida huquqiy fanlarning barcha sohalarini ya’ni jinoyat huquqi, jinoyat-protsessual huquqi, kriminologiya, kriminalistika, viktimologiya, sud-tibbiyot va sud-psixiatrik sohalarida umumiy tarzda ishlatiladigan, shu bilan birga, shaxsning huquqiy maqomidan kelib chiqadigan tushunchadir¹³.

Ayrim huquqshunos olimlarning ta’kidlashicha, jabrlanuvchi jinoyat protsessi ishtirokchisi hisoblanadi va faqat surishtiruv organi, tergovchi yoki prokuror uni jabrlanuvchi sifatida tan olish haqida qaror yoki ajrim chiqarganidan keyingina u rasman jabrlanuvchi maqomini oladi¹⁴. Ushbu olimlarning fikri qonun talablariga asoslangan bo‘lib, jinoyat protsessining rasmiy-huquqiy mexanizmlarini ifoda etadi.

¹¹ Мусаев М.А. Уголовно-правовая политика России и признание жертвы преступления потерпевшим// юридическая наука: история и современность.— 2012.—№1., 118-126 с.

¹² Шейфер С.А., Лазарева В.А // Государство и право. 1995. - № 2. - С. 152.

¹³ Мухитдинов Ф. М. Жабрланувчи ҳақидаги таълимот асослари: ўқув-услубий қўлланма. — Тошкент: ИИВ Академияси, 2019. — Б. 34–35.

¹⁴ Иноғомжонова З.Ф., Тўлаганова Г.З. Жиноят процесси иштирокчилари // Ўқув қўлланма. —Т., 2007. — 79 б.; Тиллаев Т. Н. Жиноят процессида фуқаровий даъво: Юрид. фан. номз. ... дис. — Тошкент: ИИВ Академияси, 2010. — Б. 94.

Biroq bu yondashuvni inson huquqlarini himoya qilishning zamonaviy standartlari bilan uyg'unlashtirish maqsadida qayta ko'rib chiqish zarur.

G.N. Muratova, K.B. Kalinovskiy, V.V. Lozovskiy va Y.M. Groshevoylar faktik jabrlanuvchi konsepsiyasini huquqiy dalillar bilan mustahkamlaydi ya'ni "shaxs real zarar ko'rgan bo'lsa, vaziyat qanday bo'lishidan qat'i nazar, jabrlanuvchi maqomi bilan huquqiy himoya olishi zarur"¹⁵ligini, S.N. Koldin esa "Jabrlanuvchi faqat "guvoh" darajasida emas, protsessning to'laqonli ishtirokchisi sifatida tan olinishi kerakligini"¹⁶ hamda jabrlanuvchi maqomi faqat qaror bilan berilishi bilan cheklanmasligi, faktik jabr ko'rgan shaxsga ham huquqiy himoya kafolatlanishi lozim.

YA'ni shaxsga jabr yetkazilgani aniq bo'lgan hollarda, u rasmiy tan olinishni kutmasdan himoya va yordam olish huquqiga ega bo'lishi lozim. Shu maqsadda "faktik jabrlanuvchi" institutini joriy etish, jabrlanuvchining huquqlarini ta'minlashga xizmat qiladigan muhim qadamlardan biri bo'lishi mumkin.

"Faktik jabrlanuvchi" institutini joriy etish – inson huquqlarini samarali himoya qilishning zamonaviy talabidir. Ushbu institut jinoyat sababli real zarar ko'rgan shaxslarni rasmiy qaror qabul qilingungacha ham himoya qilish imkonini yaratadi. Bu nafaqat jabrlanuvchining huquqiy maqomini mustahkamlaydi, balki davlatning huquqiy adolatga sodiq ekanini amalda namoyon etadi.

Jabrlanuvchi va uning yuqorida qayd qilingan huquq va majburiyatlarini o'z ichiga olgan jinoyat-protsessual sohadagi huquqiy maqomi bo'yicha yuridik fanda turlicha qarashlar mavjud¹⁷. Xususan, M.X. Raxmonqulovning ta'kidlashicha, "jabrlanuvchi deb jismoniy, ma'naviy yoki

¹⁵ Защита прав и законных интересов потерпевшего в уголовном судопроизводстве: сборник материалов Всероссийского круглого стола с международным участием / Ред. коллегия: В.В. Долгаев, Л.А. Зашляпин, К.Б. Калиновский, В.В. Конин, К.А. Корсаков, В.А. Шишлюк - СПб.: Астерион, 2024. 510 с. Системные требования: Windows 7/8/10; Adobe Reader. Текст: электронный. URL: https://kalinovskiy-k.narod.ru/b1/Zashchita_Prav_i_Zakonnyh_Interesov_Poterpevshego_.pdf

¹⁶ Колдин С. В. Защита прав и законных интересов потерпевшего по Уголовно-процессуальному кодексу Российской Федерации: дис. – Саратов: [Сарат. юрид. ин-т МВД России. Каф. уголов. процесса], 2004.

¹⁷ Базарова Д. Жиноят процессида шахс ҳуқуқларининг процессуал кафолатлари// юрид.фанлари доктори (DSc) автореферати. – Т., 2022. – 76 б.

mulkiy zarar yetkazilganligi oqibatida huquqbuzarlikdan jabrlangan shaxs”¹⁸ tushuniladi. Ushbu ta’rifda jabrlanuvchi tushunchasining mazmun-mohiyati huquqiy va ijtimoiy nuqtai nazardan keng qamrab olingan bo’lib, u jinoyat-protsessual huquqdagi subyektning huquqiy maqomini belgilashda asosiy mezon sifatida xizmat qiladi.

Birinchidan, mazkur ta’rif jabrlanuvchi maqomining universal belgilarini o’z ichiga olgan: ya’ni shaxsga yetkazilgan jismoniy, ma’naviy yoki mulkiy zarar. Bu uch xil zarar turi faqat jinoyatlar emas, balki huquqbuzarlikning boshqa turlaridan ham kelib chiqishi mumkinligini anglatadi, ya’ni ta’rif keng ma’noda fuqarolik, ma’muriy va jinoiy jarayonlarda ham qo’llanilishi mumkin bo’lgan huquqiy kategoriyani nazarda tutadi.

Ikkinchidan, M.X. Raxmonqulov ta’rifida huquqbuzarlik oqibatida jabrlanish alohida belgilangan, ya’ni jabrlanuvchi maqomi faqat subyektiv hissiyotga emas, balki obyektiv huquqbuzarlik faktiga bog’liq qilib belgilangan. Bu esa uning jinoyat-protsessual maqomini aniqlashda protsessual hujjat bilan tasdiqlash talabini anglatadi.

Uchinchidan, ta’rifda “shaxs” tushunchasi qo’llanilgan bo’lib, u faqat jismoniy shaxslargina emas, balki mulkiy yoki tashkiliy zarar ko’rgan yuridik shaxslarni ham o’z ichiga olishi mumkinligiga yo’l ochadi. Shu bois, ushbu ta’rif umumiy va turli huquq sohalarida qo’llashga mos keladigan huquqiy konstruktsiya hisoblanadi.

M.X. Raxmonqulovning jabrlanuvchiga bergan ta’rifi nazariy jihatdan mukammal va amaliy qo’llanma sifatida muhim ahamiyat kasb etib, u jinoyat protsessining adolatli va qonuniy tarzda yuritilishida jabrlanuvchining maqomini aniq belgilashda metodologik asos bo’la oladi.

Jinoyat-protsessual doktrinada jabrlanuvchining huquqiy maqomi masalasi muayyan bahslarga sabab bo’lib kelmoqda. Xususan, S.A. Sinenko ta’kidlaganidek, jinoyat natijasida zarar ko’rgan shaxsning protsessual maqomi shakllanishida uchta bosqich mavjud:

¹⁸ Рахмонқулов М.Х. Янгиланаётган Конституция. 100 саволга 100 жавоб. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Қонунчилик ва ҳуқуқий сиёсат институти. – Т.: “Адолат” миллий ҳуқуқий ахборот маркази, 2023 йил. – 180 б.

- 1) jinoyat oqibatida shaxsning real ravishda zarar ko'rish;
- 2) uning huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ariza bilan murojaat qilishi yoki dastlabki tekshiruv faoliyatiga jalb qilinishi;
- 3) shaxsni jabrlanuvchi deb tan olish va buni tegishli protsessual qarorda rasmiylashtirish lozim bo'ladi¹⁹.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mazkur bosqichlarning har birida shaxs o'z huquqlari himoyasiga ehtiyoj sezadi. Biroq rasmiy maqom faqat tergovchi, surishtiruvchi, prokuror qarori yoki sudning ajrimi bilan e'tirof etiladi. shunga qadar shaxs shartli ravishda "arizachi" deb yuritiladi. Har holda, ko'pgina olimlar "arizachi" tushunchasi shaxsning jinoyat protsessidagi real holatini aks ettirmasligini ta'kidlab, "jinoyatdan jabrlangan shaxs" kabi yangi protsessual figurani kiritishni taklif etmoqdalar²⁰.

Aksariyat hollarda "jabrlanuvchi" tushunchasi "jinoyat qurboni" bilan teng ma'noda qo'llaniladi va u har qanday uchinchi shaxsda hamdardlik tuyg'usini uyg'otadi. A.V. Pobedkin qayd etganidek, "jabrlanuvchining taqdiri jinoyatning o'zi bilan izdan chiqarilishi mumkin va bunday vaziyatda jinoyat-protsessual qonunchilik jabrlanuvchini qo'llab-quvvatlashning yagona vositasi hisoblanadi"²¹.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, S.A. Sinenkoning "jinoyatdan zarar ko'rgan shaxsga ariza bergan paytning o'zidayoq jabrlanuvchi maqomini berish"²² taklifi mantiqiy yechim sifatida baholanadi. YE.A. Proxorova esa ushbu yondashuvni yanada kengaytirib, shaxsni jabrlanuvchi deb tan olish uchun ariza yozish shart emas,

¹⁹ Синенко С. А. Правовой статус лица, потерпевшего от преступления, в стадии возбуждения уголовного дела // Российский следователь. – 2012. – №. 2. – С. 25-29.

²⁰ Загорьян С.Г., Котельникова О.А. Потерпевший как участник уголовного судопроизводства // Криминалистика: вчера, сегодня, завтра. 2021. Т. 18. № 2. С. 162.

²¹ Кулбаев А.К. Вопросы обеспечения потерпевшему доступа к правосудию на первоначальном этапе досудебного производства (по законодательству Российской Федерации и Кыргызской Республики); Защита прав и законных интересов потерпевшего в уголовном судопроизводстве: сборник материалов Всероссийского круглого стола с международным участием / Ред. коллегия: В.В. Долгаев, Л.А. Зашляпин, К.Б. Калиновский, В.В. Конин, К.А. Корсаков, В.А. Шиплюк - СПб: Астерион, 2024. - 500 с. Системные требования: Windows 7/8/10; Adobe Reader. – https://asterion.ru/db/temp/Zashchita_Prav_i_Zakonnyh_Interesov_Poterpevshego_v_Ugolo

²² Синенко С.А. Обеспечение прав и законных интересов потерпевшего в уголовном судопроизводстве: теоретические, законодательные и правоприменительные проблемы. Дисс.док.юрид. наук – М., 2014. – С. 418.

balki jinoyatdan zarar ko'rganligi haqida har qanday shaklda (hatto telefon orqali) murojaat qilishning o'zi yetarli bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi²³.

Qiyosiy tahlildan ma'lum bo'lishicha, ayrim normalarda (masalan, Qirg'iz Respublikasi JPK, Rossiya Federatsiyasi JPK, Qozog'iston Respublikasi JPKda xususiy-oshkora ayblovlash ishlari) arizachi jinoyat ishi qo'zg'atilgunga qadar ham "jabrlanuvchi" deb yuritiladi. Bu amaliyot muayyan mohiyatga ega bo'lsa-da, huquqiy aniqlik nuqtai nazaridan munozarali hisoblanadi

RF JPKsining 42-moddasiga ko'ra, shaxsni jabrlanuvchi deb tan olish to'g'risidagi qaror jinoyat ishi qo'zg'atilgan paytdayoq darhol qabul qilinishi lozim. Biroq "darhol qaror qabul qilish" tergovchining protsessual qarorlariga qo'yiladigan talablarga qonuniylik, asoslilik, isbotlanganlik bilan qay darajada uyg'un kelishi masala bo'lib qolmoqda. Shuningdek, shaxsni asossiz ravishda jabrlanuvchi deb tan olish ham uning huquqlariga aralashuv yuzaga keltirishi mumkin.

Shu bilan birga, Rossiya Federatsiyasi va Qirg'iz Respublikasi JPKlarida jabrlanuvchi maqomini tugatishning huquqiy mexanizmi mavjud emas. Qozog'iston JPKsida esa bunday qoida mavjud agar shaxsni jabrlanuvchi deb tan olish uchun asoslar yo'qligi aniqlansa, protsessual organ tegishli qaror bilan uning maqomini tugatadi (71-modda, 3-qism). Bu tajribani mamlakatimiz JPKsiga kiritish lozim bo'ladi.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, jabrlanuvchining protsessual huquqlarini ta'minlash faqat uning huquqlari hajmini belgilash bilan emas, balki uning maqomi qachon va qanday asosda yuzaga kelishini aniq belgilash bilan bog'liq.

Professor V.P. Bojyevning fikricha, jinoyat protsessida shaxsning jabrlanuvchi sifatida ishtirok etishi uchun ikki asos bo'lishi shart: birinchisi jinoyat-huquqiy asos

²³ Прохорова Е.А. Защита прав личности на стадии возбуждения уголовного дела: исторический опыт и перспективы совершенствования Актуальные проблемы российского права. 2014. № 12 (49) декабрь. С. 2854-2858. // <https://cyberleninka.ru/article/n/zaschita-prav-lichnosti-na-stadii-vozbuzhdeniya-ugolovnogo-dela-istoricheskii-opyt-i-perspektivy-sovershenstvovaniya>

jinoyat natijasida yetkazilgan zarar; ikkinchisi jinoyat-protsessual asos shaxsning maqomini belgilaydigan protsessual qaror²⁴.

Bu yondashuv jinoyat protsessida jabrlanuvchi maqomini aniq va aniqlangan huquqiy mexanizm asosida ta'minlash zarurligini isbotlaydi.

Aslida jabrlanuvchi shaxs jinoyat to'g'risida xabar berilgan paytdan boshlab huquqiy himoyaga muhtoj bo'ladi. Ammo amaliyotda uning huquqlari ko'pincha nazariy darajada qolib ketadi. Bu, ayniqsa, huquqiy bilimga ega bo'lmagan yoki og'ir jismoniy-ma'naviy zarar ko'rgan shaxslar uchun xos holatdir. Advokat esa huquqiy maslahat berish, shikoyatlar tayyorlash, dalillar to'plashda yordamlashish orqali bu huquqlarni amaliy jihatdan ro'yobga chiqaradi.

Shuningdek, jabrlanuvchi aybdor yoki uning atrofidagilar tomonidan bosimga duch kelgan taqdirda ham, advokatning ishtiroki uning xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayrim xorijiy mamlakatlar, xususan Germaniya va Yaponiyada davlat hisobidan jabrlanuvchiga advokat tayinlash tizimi mavjud. Bu tajriba jabrlanuvchining manfaatlarini samarali himoya qilishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, uning O'zbekiston qonunchiligiga ham joriy etilishi maqsadga muvofiq.

Qonunchilik texnikasi nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, Jinoyat kodeksi (JK)²⁵ning 14-moddasi 2-qismida "ushbu Kodeks bilan qo'riqlanadigan obyektlarga zarar yetkazuvchi yoki shunday zarar yetkazish xavfini vujudga keltiruvchi qilmish ijtimoiy xavfli qilmish deb e'tirof etiladi" deb belgilangan. Shu bilan birga, Jinoyat-protsessual kodeks (JPK)²⁶ning 54-moddasida "jinoyat yoki aqli noraso shaxs tomonidan sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish natijasida shaxsga ma'naviy, jismoniy yoki mulkiy zarar yetkazilgan deb hisoblash uchun yetarli dalillar mavjud bo'lsa, u jabrlanuvchi deb e'tirof etiladi" deb qayd etilgan. Ko'rinib turibdiki, mazkur ikki norma o'zaro to'liq muvofiq, kelmaydi.

Birinchidan, jinoyat huquqiga muvofiq, jinoyat deb hisoblash uchun to'rtta element bo'lishi shart: ya'ni obyekt, obyektiv tomon, subyekt va subyektiv tomon,

²⁴ Божьев В.П. Процессуальный статус потерпевшего // Российская юстиция. 1994. № 1. С. 48// <https://www.dissercat.com/content/uchenie-o-poterpevshem-v-ugolovnom-prave-rossii>

²⁵ Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси <https://www.lex.uz/acts/111453>

²⁶ Ўзбекистон Республикасининг жиноят-процессуал кодекси <https://lex.uz/docs/111460>

bundan ko‘rinadiki, agar shaxs jinoyat subyekti yoshiga yetmagan holatda ijtimoiy havfli qilmish sodir etgan bo‘lsa ya’ni bitta element mavjud emas bu degani jinoyat yo‘q biroq ijtimoiy xavfli qilmishdan jabrlangan mavjud, bunday holatlar qonunchiligimizda o‘z yechimini kutayotgan masalalardan biridir.

Ikkinchidan, JK 25-moddasining uchinchi qismiga muvofiq, “jinoyatga tayyorgarlik ko‘rganlik va jinoyat sodir etishga suiqasd qilganlik uchun javobgarlik ham ushbu Kodeks Maxsus qismining tamom bo‘lgan jinoyat uchun javobgarlikni belgilovchi moddasiga muvofiq, hal qilinadi” deb belgilangan. Tahlil qilingan jinoyat ishlari materiallaridan ma’lum bo‘lishicha, ba’zi hollarda o‘zgalar mulkini talon-toroj qilish bilan bog‘liq jinoyatlarda, hatto jinoyatga suiqasd qilish natijasida shaxsga ma’naviy, jismoniy yoki mulkiy zarar yetmagan bo‘lsa ham, uni jabrlanuvchi sifatida e’tirof etilgan holatlar kuzatilgan. Shuningdek, ayrim jinoyat ishlarida jabrlanuvchi umuman ishtirok etmagan hollar ham uchraydi. Vaholanki, JPKning 54-moddasiga muvofiq, shaxs faqat jinoyat natijasida unga zarar yetkazilgan taqdirdagina jabrlanuvchi sifatida tan olinishi mumkin. Jinoyat protsessida jinoyat orqali yetkazilgan zarar va uning miqdori tergov va sud harakatlari davomida aniqlanadi. Ammo bu holat shaxsning o‘zi arz qilgan paytdan boshlab uning jabrlanuvchi deb tan olinishiga to‘siq bo‘lmasligi kerak. Aks holda zarar ko‘rgan shaxs o‘zining huquq va qonuniy manfaatlarini o‘z vaqtida himoyasini amalga oshira olmaydi.

Ayrim protsessualist olimlar faqat tugallangan jinoyat ishlari bo‘yicha emas, balki tugallanmagan yoki suiqasd tarzidagi jinoyatlarda ham shaxs jabrlanuvchi deb e’tirof etilishi mumkinligini ta’kidlashadi²⁷.

Bir qator xorijiy davlatlar Shvetsiya, Germaniya, Ozarbayjon jinoyat protsessual qonunchiligida shaxsning huquqlari buzilishining o‘zi uni jinoyat qurboni sifatida tan olinishiga asos bo‘lib xizmat qilishini belgilagan.

M.A. Musayev “...shaxs huquqbuzarlik to‘g‘risida xabar berib, buzilgan huquqlarini tiklash uchun murojaat qilishi bilan jabrlanuvchi deb tan olinishi lozim”²⁸

²⁷ Клещина Е.Н., Шаров Д.В. Проблемы обеспечения прав и законных интересов потерпевших от преступлений на современном этапе судебно-правовой реформы. – М., 2012. – 38 с.

ligini bildirgan. Jinoyat protsessual munosabatlarda jabrlanuvchining huquqiy maqomini murojaat asosida belgilash, uning manfaatlarini to'liq himoya qilishda hal qiluvchi omildir. M.A. Musayev tomonidan ilgari surilgan ushbu yondashuv jinoyat protsessining insonparvarlik mohiyatini chuqur ifoda etadi hamda jabrlanuvchi huquqlarini rasimiylashtirishda faqatgina davlat emas, fuqaro tashabbusini ham huquqiy asos sifatida tan olish zarurligini asoslaydi.

P.K. Gadjiramazanova va M.K. Guseynovanning ta'kidlashicha, agar shaxsga nisbatan uning qonun bilan muhofaza qilinadigan manfaatlariga qarshi jinoiy tajovuz sodir etilganligini ko'rsatuvchi yetarli asoslar mavjud bo'lsa, u shaxs jabrlanuvchi sifatida e'tirof etilishi lozim²⁹. Bu fikr jinoyat protsessida jabrlanuvchining huquqiy maqomini rasman belgilash uchun faqat sud hukmi emas, balki ishda mavjud bo'lgan dastlabki ma'lumotlar, dalillar va voqea holatlarining o'zi ham yetarli asos bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Bu yondashuv esa jabrlanuvchining manfaatlarini jinoyat ishlarini yuritishning ilk bosqichidayoq himoya qilish zarurligini ko'rsatadi³⁰. Ushbu olimlar ilgari surgan mazkur nuqtayi nazar jinoyat protsessida jabrlanuvchi maqomini tan olish uchun formal yuridik dalillardan tashqari, ishdagi obyektiv va yetarli taxminlarni ham inobatga olish zarurligini anglatadi. Bu esa jabrlanuvchi huquqlarining dastlabki bosqichdayoq himoya qilinishiga yo'l ochadi va odil sudlov prinsiplariga to'la mos keladi.

D.SH. Bekmatovanning fikricha, jabrlanuvchi, ya'ni arz qiluvchi jinoyat ishini qo'zg'atishdan avval ichki ishlar organlariga ariza (og'zaki yoki yozma) bilan murojaat etishi bilan uning huquqlari buzilgan deb e'tirof etilmog'i lozimligini taklif etgan³¹. D.SH. Bekmatova tomonidan ilgari surilgan yondashuvga ko'ra, shaxs ichki ishlar organlariga og'zaki yoki yozma ravishda murojaat qilgan paytdayoq uning huquqlari buzilgan deb e'tirof etilishi lozim. Bu yondashuv jabrlanuvchining

²⁸ Сидоренко Э.Л. О статусе потерпевшего в уголовном праве // Журнал российского права № 4 - 2011 // file:///C:/Users/admin/Downloads/o-statuse-poterpevshego-v-ugolovnom-prave.pdf

²⁹ Гаджирамазанова П. К., Гусейнова М. К. Злоупотребление правом на защиту в уголовном судопроизводстве // Закон и право. – 2022. – №. 1. – С. 157-159.

³⁰ Гаджирамазанова П. К., Гусейнова М. К. Злоупотребление правом на защиту в уголовном судопроизводстве // Закон и право. – 2022. – №. 1. – С. 157-159.

³¹ Бекматова Д.Ш. Жиноят процессида жиноий таъкиб: ривожланиш тарихи, ҳозирги ҳолати ва такомиллаштириш истиқболлари. – Т., 2016. – 66 б.

huquqlarini erta va to'liq himoya qilish, ayniqsa, ijtimoiy jihatdan zaif qatlamlar manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan insonparvar huquqiy pozitsiya sifatida e'tirof etiladi. Unga ko'ra, jabrlanuvchi maqomi faqat jinoyat ishi qo'zg'atilgandan keyin emas, balki murojaatning o'zi yetarli asos bo'lishi lozim. Bunday yondashuv jabrlanuvchiga o'z vaqtida advokat yollash, dalil taqdim etish, shikoyat qilish kabi protsessual huquqlardan foydalanish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, mazkur yondashuvni amalga oshirishda ehtiyotkorlik talab etiladi, chunki har bir murojaat haqiqiy jinoiy tajovuzni anglatmasligi mumkin. Shu sababli jabrlanuvchi maqomini belgilashda murojaat bilan birga dastlabki huquqiy baholash ham talab etilishi, protsessual filtrlar orqali suiste'molchilikning oldi olinishi lozim. Demak, jabrlanuvchi maqomini erta belgilash insonparvarlik tamoyiliga mos, biroq u huquqiy ehtiyot mexanizmlari bilan muvozanatlashtirilishi shart.

Darhaqiqat, sodir etilgan bir ijtimoiy xavfli qilmish yuzasidan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror tomonidan jabrlanuvchi deb e'tirof etish to'g'risidagi qaror chiqarilgandan so'ng xuddi ushbu holat yuzasidan ikkinchi marotaba yuqoridagi subyektlar tomonidan fuqaroviy da'vogar deb e'tirof etish haqida yana qaror chiqariladi. Nazarimizda, amaliyotda ushbu holat JPKning 54-56-moddasi talablari mazmuni nuqtai nazaridan nomuvofiqlik, takrorlanish holatlari yuzaga kelmoqda. Shuning uchun agar shaxsga jinoyat natijasida zarar yetkazilsa, uni faqat 54-moddaga muvofiq, jabrlanuvchi deb e'tirof etishning uzi yetarli hisoblanadi. Jinoyat va jinoyat-protsessual huquqda "jabrlanuvchi" tushunchasi an'anaviy ravishda jismoniy shaxsga nisbatan qo'llanilib kelgan bo'lsada, zamonaviy huquqiy amaliyot yuridik shaxslarni ham jinoiy tajovuzlardan jabr ko'radigan mustaqil subyekt sifatida e'tirof etishni talab etmoqda. Bunday yondashuv, avvalo, jinoyat natijasida huquqiy imkoniyatlari cheklangan, mulkiy va iqtisodiy manfaatlariga zarar yetkazilgan tashkilotlarning himoyaga bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqadi. Ijtimoiy xavfli qilmishlar iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar (o'zgalar mulkini talon-taroj bilan bog'iq bo'lgan va firibgarlik, mansab vakolatini suiste'mol qilish, intellektual mulk huquqlarini buzish va b.) yuridik shaxsning faoliyatini izdan chiqarishi, uning tijorat aylanmasini buzishi yoki shartnomaviy munosabatlardagi manfaatlariga jiddiy zarar yetkazishi mumkin. Shu

sababli yuridik shaxsni jinoyat natijasida bevosita zarar ko'rgan subyekt sifatida tan olish jinoyat-protsessual munosabatlarning ijtimoiy adolatning ta'minlanishi uchun zarur sharti hisoblanadi³².

Yuridik shaxsning jabrlanuvchi sifatida tan olinishining asosiy sabablaridan biri uning mulkiy huquqlarining buzilishi va moddiy zarar yetkazilishi hisoblanadi. Iqtisodiy munosabatlar subyekt sifatida yuridik shaxs mol-mulkka, aktivlarga, intellektual mulk obyektlariga ega bo'ladi va ular jinoyatning predmeti bo'lishi mumkin. Shu jihatdan huquqshunos olimlar yuridik shaxsga yetkazilgan moddiy zararni jinoyatning bevosita oqibati sifatida baholaydi va uni jabrlanuvchi deb tan olishga asos sifatida ko'radi³³. Bu holat faqat fuqarolik-huquqiy emas, balki protsessual munosabatlar doirasida ham muhim ahamiyatga ega, chunki yuridik shaxs yetkazilgan zararni qoplanishi, javobgar shaxslarga nisbatan da'vo qo'zg'atilishi yoki ularning harakatlariga qarshilik qila olish imkoniyatiga ega bo'lishi uchun jinoyat-protsessual maqomga ega bo'lishi zarur.

Yuridik shaxsni jabrlanuvchi sifatida e'tirof etishning yana bir muhim asosi uning subyektiv huquqlari va qonuniy manfaatlarini davlat tomonidan himoya qilish zaruratidir. Bugungi iqtisodiy munosabatlar tizimida yuridik shaxslar faqat iqtisodiy emas, balki ijtimoiy munosabatlarning ham muhim ishtirokchisi hisoblanadi. Davlatning qonuniylikni ta'minlash vazifasi faqat shaxsning xavfsizligi bilan cheklanmay balki iqtisodiy barqarorlik, tadbirkorlik subyektlarining faoliyati, moliyaviy tashkilotlarning manfaatlari va bozor munosabatlari adolatli yuritilishi ham davlat muhofazasiga muhtojdir³⁴. Shu nuqtai nazardan, yuridik shaxsga yetkazilgan zarar uning huquqiy manfaatlaridagi buzilish sifatida baholanadi.

Mavjud xalqaro huquqiy tamoyillar va qonun chiqarish amaliyoti ham yuridik shaxslarni jabrlanuvchi deb tan olishni qo'llab-quvvatlaydi. Germaniya Jinoyat-

³² Загорьян С. Г., Котельникова О. А. Потерпевший как участник уголовного судопроизводства //Криминалистика: вчера, сегодня, завтра. – 2021. – №. 2. – С. 159-166.

³³ Уголовный процесс. Практикум: учебное пособие для вузов / А. В. Гриненко [и др.] ; под редакцией А. В. Гриненко, О. В. Химичевой. — 2-е изд., испр. и доп. — Москва: Издательство Юрайт, 2020. — 302 с.

³⁴ Защита прав и законных интересов потерпевшего в уголовном судопроизводстве : сборник материалов Всероссийского круглого стола с международным участием / Ред. коллегия: В.В. Долгаев, Л.А. Зашляпин, К.Б. Калиновский, В.В. Конин, К.А. Корсаков, В.А. Шиплюк — СПб.: Астерион, 2024. — 500 с.

protsessual kodeksi yuridik shaxslarga jinoyat natijasida yetkazilgan moddiy va huquqiy zararni qoplash maqsadida mustaqil protsessual huquqlar beradi³⁵. Yaponiyaning jinoyat-protsessual qonunchiligida ham yuridik shaxslarning jabrlanuvchi sifatida qatnashish imkoni nazarda tutilgan bo'lib, ular yetkazilgan zararining qoplanishi yuzasidan sudda mustaqil da'vo kiritish huquqiga egadir³⁶. Rossiya Federatsiyasi JPKning 42-moddasida esa yuridik shaxsga moddiy zarar yetkazilgan hollarda uni jabrlanuvchi sifatida tan olish to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilgan³⁷. Bunday qiyosiy tahlil yuridik shaxsning jabrlanuvchi sifatida e'tirof etilishi umumiy huquqiy tendensiya ekanini namoyon etadi.

Yuridik shaxsga yetkazilgan jinoiy zarar nafaqat bitta subyekt manfaatiga taxdid soladi, balki keng ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarga ham olib kelishi mumkin. Masalan, yirik korxonaning moliyaviy resurslariga yetkazilgan zarar ishlab chiqarish jarayoni to'xtashi, ishchilarning mehnat haqi o'z vaqtida berilmasligi, soliq tushumlarining kamayishi yoki bozorda raqobatning buzilishi kabi salbiy natijalarga olib keladi. Shu nuqtai nazardan, yuridik shaxsni jabrlanuvchi sifatida tan olish iqtisodiy xavfsizlik va huquqiy tartibotning muhim elementi hisoblanadi³⁸.

Shuningdek, yuridik shaxsning jabrlanuvchi sifatidagi maqomi uning jinoyat-protsessual huquqlarini amalga oshirish uchun asos yaratadi. Zararni qoplash to'g'risida ariza berish, jinoyat ishi yuzasidan qarorlar ustidan shikoyat qilish, dalillar taqdim etish va sud muhokamasida ishtirok etish kabi huquqlar yuridik shaxsga faqat jabrlanuvchi maqomi orqali berilishi mumkin. Aks holda, uning huquqlari faqat fuqarolik tartibida himoya qilinib, jinoyatning to'liq ijtimoiy xavfi inobatga olinmay qoladi. Shu bois, olimlar yuridik shaxsni jabrlanuvchi sifatida e'tirof etishni jinoyat-protsessual adolatning muhim sharti sifatida baholanadi.

³⁵ Суснило Е. Е., Ильяшевич Т. А. Сравнительно-правовой анализ процессуального положения потерпевшего в уголовном процессе Российской Федерации и Федеративной Республики Германии //ББК 67.411 У26. – 2021. – С. 125.

³⁶ Japanese Code of Criminal Procedure (Keiji Sosho Ho), Art. 260–262. <https://www.japaneselawtranslation.go.jp/en/laws/view/2056/en>

³⁷ Уголовно-процессуальный кодекс Российской Федерации// (в редакции, действующей по состоянию на 11.08.2025)

³⁸ Ширяева Т. И. Юридическое лицо как потерпевший: теоретические и практические проблемы участия в уголовном судопроизводстве. – 2010.

Fikrimizcha, jinoyat protsessual nazariyada jabrlanuvchi maqomini takomillashtirish maqsadida jabrlanuvchi tushunchasiga quyidagicha mualliflik ta'rifi shakllantirildi. Jabrlanuvchi bu jinoyat yoki huquqqa xilof qilmish (shu jumladan, jinoyat sodir etishga suiqasd) natijasida shaxsiy, mulkiy, jismoniy, ma'naviy, psixologik yoki ijtimoiy zarar ko'rgan jismoniy yoki yuridik shaxs bo'lib, u davlat tomonidan huquqiy va ijtimoiy himoya choralari bilan ta'minlanishi lozim bo'lgan subyekt hisoblanadi.

Shuning uchun JPKning 54-moddasida jabrlanuvchi bu ijtimoiy xavfli qilmish yohud shunday zarar yetkazishning real xavfini keltirib chiqaradigan qilmishi natijasida ma'naviy, jismoniy yoki moddiy, zarar yetkazilgan jismoniy shaxs, shuningdek, jinoyat natijasida mulkiga, ishbilarmonlik obro'siga yoki boshqa manfaatlariga zarar yetkazilgan yuridik shaxs ham jabrlanuvchi sifatida e'tirof etilishi lozim.

Ayrim manbalarda ta'kidlanishicha, jinoyat ishi bo'yicha jabrlanuvchi sifatida jinoiy tajovuz, ya'ni jinoyat belgilarini o'zida mujassam etgan ijtimoiy xavfli qilmish to'g'risida yetarli dalillar bo'lgan va ular asosida qo'zg'atilgan jinoyat ishi bo'yicha jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan manfaatlari – hayoti, sog'lig'i, sha'ni va qadr-qimmati, shuningdek, siyosiy, mehnat, mulkiy yoki boshqa huquq va erkinliklariga zarar yetkazilgan shaxs jabrlanuvchi sifatida e'tirof etiladi³⁹.

Aytish lozimki, jinoyatlarni tergov qilish bosqichida jabrlanuvchining ishtiroki uning jinoyat ishi bo'yicha ish yurituviga ta'sir qilish va huquqlarini muhofaza qilishda asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. "Jabrlanuvchi" jinoyat protsessining barcha bosqichlarida asosiy ishtirokchilaridan biri hisoblanadi, ayniqsa, jinoyat shaxsga nisbatan sodir etilgan bo'lsa. Shuning uchun, "jabrlanuvchiga nisbatan bo'lgan munosabatni o'zgartirgan holda uni jinoyat protsessining mustaqil va teng

³⁹ Яни П. С. Законодательное определение потерпевшего от преступления // Российская юстиция. – 1995. – № 4. – С. 41.

huquqli ishtirokichisi sifatida baholab, uning manfaatlarini maksimal darajada himoya qilish lozim”⁴⁰.

Protsessual xujjat (surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning qarori, sudning ajrimi) jabrlanuvchi deb kimga nisbatan chiqarilgan bo'lsa, o'sha shaxs jinoyat protsessi subyekti sifatida jabrlanuvchi hisoblanadi.⁴¹

Jinoyat natijasida shaxsga bevosita ma'naviy, jismoniy va moddiy zarar yetkazilganligi to'g'risidagi taxmin jabrlanuvchi deb etirof etish haqida qaror chiqarishiga asos bo'ladi.

Fuqaro jabrlanuvchi deb e'tirof etish paytidan boshlab u qator huquqlarga ega bo'ladi, ulardan foydalangan holda u protsessda ishtirok etadi va o'z huquqlarini hamda qonuniy manfaatlarini himoya qiladi.

Jismoniy va yuridik shaxslar jinoiy qilmishlardan jabrlangan bo'lishlari mumkin, chunki ularning har biriga jazolanadigan jinoiy qilmish orqali zarar yetkazilishi mumkin. “Jabrlanuvchi” tushunchasining jinoiy - huquqiy tushunchasidan farqi jinoyat - protsessual ma'noda faqat jismoniy shaxs, jabrlanuvchi bo'lishi mumkinligi O'zbekiston Respublikasi JPKning 54-moddasida faqat fuqaroni jabrlanuvchi deb e'tirof etish belgilangan. Yuridik shaxsga esa jinoyat tufayli zarar yetkazilgan bo'lsa, u ish yuritishda fuqaroviy da'vogar sifatida ishtirok etishi mumkinligi belgilangan. (JPKning 56-m.).

Jinoyat sodir etilishi bilan yetkazilgan ma'naviy zarar kishini haqorat qilish, uning sha'ni va qadr - qimmatini kamsitish, unga ruhan azob berish bilan ifodalanadi.

Haqiqiy zarar fuqaroga tan jarohati, jismoniy azob, sog'ligiga ziyon yetkazishdan iborat. Mulkiy zarar esa fuqaroni moddiy boyliklaridan, mulkidan, qimmatliklaridan va pullaridan mahrum qilish ma'nosini anglatadi

Shaxsga bir jinoyat natijasida bir necha turdagi zarar yetkazilishi mumkin bunda shaxs o'zining iltimosi bilan yoki ish yuritishni olib borayotgan shaxslar tashabbusi bilan jabrlanuvchi deb e'tirof etiladi.⁴²

⁴⁰ Аширбекова М.Т. Принцип публичности уголовного судопроизводства: понятие, содержание и пределы действия.//автореф.доктора...юрид...наук. – Екатеринбург, 2009, С.62.

⁴¹ Jinoyat- protsessual huquqi. Darslik. O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, yuridik fanlar doktori, professor M.X.Rustambaevning umumiy tahriri ostida tayyorlangan. Mualliflar jamsoasi. – 2024 y. – 648 b.

Jinoiy qilmish orqali zarar yetkazish holati emas, balki protsessual hujjat fuqaroni jabrlanuvchi deb e'tirof etish haqidagi qaror, ajrim chiqarish jabrlanuvchining jinoyat-protsessual munosabatlarga kirishi bilan bog'liq yuridik faktdir⁴³. Jinoyat tufayli zarar yetkazish, aniqrog'i bunday zarar yetkazilganligi haqidagi ma'lumotlar fuqaroni jabrlanuvchi deb e'tirof etish haqida qaror chiqarilishi uchun huquqiy asosdir. Qonunchilik mazkur qaror chiqarilishini jinoiy qilmish orqali zarar yetkazish bilan bog'lar ekan, jinoyat tufayli bevosita zarar yetkazilgandagina fuqaroni jabrlanuvchi deb e'tirof etadi. Shuning uchun S.M. Achilov o'zining ilmiy izlanishlarida "jinoyat yoki ijtimoiy xavfli qilmishga tayyorgarlik ko'rish yoki suiqasd tufayli ma'naviy, jismoniy yoki mulkiy zarar yetishining real xavfi tug'ilgan bo'lsa, shuningdek, yuridik shaxs, uning mulkiga yoki ishchanlik orbo'yiga zarar yetgan taqdirda ham ko'rsatilgan subyektlarni jabrlanuvchi sifatida e'tirof etish lozim deb ta'kidlaydi"⁴⁴. Jinoyat va uning natijasida zarar, basharti yetkazilgan zarar mazkur jinoyatning bevosita oqibati bo'lsa, to'g'ridan - to'g'ri zarur ichki bog'likka ega bo'lishi kerak. Haqiqatdan ham zarar shu jinoyat orqali yetkazilganligi, uning miqdorlari haqidagi masala faqat tergov olib borish va ishni sudda ko'rish bilan hal etilishi mumkin. Lekin u o'zaro zarar yetkazilganligi haqida arz qilsa, uni jabrlanuvchi deb e'tirof etish uchun asos bo'lmasligi kerak. Aks xolda jinoyatdan jabr ko'rgan shaxs o'zining qonuniy manfaatlarini himoyalashda, isbotlashda ishtirok etish uchun o'z vaqtida o'zining huquqlaridan foydalana olmaydi.

Zarar noqonuniy xatti-harakatlar bilan yetkazilgan taqdirda ham shaxs jabrlanuvchi deb etirof etilishi kerak. Bu holat jinoiy javobgarlik chorasini aniqlashda hisobga olinishi mumkin, lekin bu holat uni jabrlanuvchi sifatida huquqlaridan mahrum qilmaydi.

Shaxsni jabrlanuvchi deb e'tirof etish faqat tamomlangan jinoyatda emas, balki tamomlanmagan jinoyatda yoki jinoyatga suiqasd qilishda ham o'rin tutadi.

⁴² Кухта К. И. Правовой статус жертвы преступления (потерпевшего) в уголовном процессе США. Дисс. . к.ю.н. М. 2006. С. 12.

⁴³ Голиков О.В. Совершенствование российского законодательства в сфере защиты потерпевшего в уголовном процессе. Автореф. дисс... канд. юрид. наук. - М., 2003. - С. 21.

⁴⁴ Ачилов С.М. Возможности усиления защиты прав потерпевшего в уголовном процессе: Дисс. ...канд. юрид. наук. – Ташк.ент: ТГЮИ, 2010. – С. 153.

Jinoyat-protsessual kodeksning 55-moddasiga muvofiq, jabrlanuvchi qator protsessual huquqlarga ega. U ko'rsatuvlar berish, dalillar taqdim etish, iltimosnoma berish va ularning rad etilishi haqida qaror qabul qilish, o'z ona tilidan hamda tarjimon xizmatidan foydalanish, o'z manfaatlarini himoya qilish uchun vakil jalb etish huquqiga ega. Shuningdek, surishtiruvchi yoki tergovchining ruxsati bilan tergov harakatlarida ishtirok etishi, surishtiruv yoki dastlabki tergov yakunlanganidan so'ng ishning barcha materiallari bilan tanishishi, zarur ma'lumotlarni yozib olishi, hujjatlardan o'z hisobidan ko'chirma nusxalar tayyorlashi yoki ularni boshqacha shaklda qayd etishi mumkin. Qonun bilan belgilangan hollarda jabrlanuvchi yarashuv to'g'risida ariza berish, yarashuv ishlari bo'yicha birinchi instansiya, apellyatsiya, kassatsiya va taftish instansiyasi sudi majlislarida ishtirok etish, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning harakatlari yoki qarorlari ustidan shikoyat keltirish, shaxsan o'zi yoki vakili orqali sudda ayblovni qo'llab - quvvatlash, sud majlisining bayonnomasi bilan tanishish va unga nisbatan o'z mulohazalarini bildirish, ish bo'yicha keltirilgan shikoyat va protestlardan xabardor bo'lish hamda ularga e'tiroz bildirish huquqiga egadir. Shu bilan birga, jabrlanuvchi surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud chaqiruviga binoan hozir bo'lishi, haqqoniy ko'rsatuvlar berishi, haqiqatni aniqlashga to'sqinlik qiluvchi qonunga xilof harakatlardan, jumladan, dalillarni yo'q qilish, soxtalashtirish yoki guvohlarni ko'ndirish urinishlaridan tiyilishi, tergov va sud jarayonida tartib qoidalarga rioya qilishi shart. Shuningdek, jabrlanuvchi ko'rsatuv berishdan bosh tortgan yoki bila turib yolg'on ko'rsatuvlar bergan taqdirda, qonunga muvofiq, javobgarlikka tortiladi. Ishning barcha holatlarini to'liq, har tomonlama va xolisona tekshirish jarayonida jabrlanuvchining ishtirokini inkor etish, jinoyat sudlov ishlarining demokratiya va tortishuv prinsiplariga zid ravishda olib borilayotganini ko'rsatadi hamda uning isbotlashda ishtirok etish huquqining cheklanishiga sabab bo'ladi. Shu bilan birga, bu ishtirokchilar ishning barcha holatlarini to'la va xolisona tekshirish vazifasi yuklatilmagani sababli isbotlash faoliyatini to'liq amalga oshirish imkoniyatiga ega emaslar⁴⁵.

⁴⁵ Пономаренков В.А., Николайченко В.В., Громов Н.А. Процессуальная форма доказывания. //

Sud adolat timsoli sifatida ishlarni beg‘araz va xolisona hal etadi. Sud faoliyati mustaqil va faqat O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga hamda uning asosida qabul qilingan qonunlarga bo‘ysunishi, oshkoralik, taraflar tortishuvi va teng huquqliligi, aybsizlik prezumpsiyasi kabi prinsiplarga va jinoyat protsessining boshqa demokratik asoslariga tayanadi. Jinoyat-protsessual kodeksning 25-moddasida “taraflar” atamasiga qo‘llanilgan bo‘lib, unga ko‘ra taraflar o‘zaro qarama-qarshi manfaatlarga ega ishtirokchilar hisoblanadi. Ular ikki guruhga ayblov va himoya taraflariga bo‘linadi. Ayblov tomoniga prokuror, shuningdek, ayrim hollarda ayblovni quvvatlash vakolati berilgan jabrlanuvchi va uning vakili, fuqaroviy da‘vogar hamda uning vakili kiradi. Himoya tomoni esa ayblanuvchi, uning qonuniy vakili va himoyachidan iborat bo‘ladi⁴⁶.

Xorijiy davlatlarining huquqshunos olimlari tomonidan jinoyat ishi bo‘yicha jabrlanuvchi sifatida jinoiy tajovuz, ya’ni jinoyat belgilarini o‘zida mujassam etgan ijtimoiy xavfli qilmish to‘g‘risida yetarli dalillar bo‘lgan va ular asosida qo‘zg‘atilgan jinoyat ishi bo‘yicha jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadigan manfaatlari hayoti, sog‘lig‘i, sha’ni va qadr-qimmat, shuningdek, siyosiy, mehnat, mulkiy va boshqa huquq va erkinliklariga zarar yetgan shaxs e’tirof etiladi⁴⁷. Bu borada B.T.Bezlepkin har bir tergovchi va surishtiruvchi uchun mo‘ljallangan qo‘llanmasida “jabrlanuvchi jinoyat sodir etilishi natijasida jismoniy, ma’naviy, mulkiy yoki boshqa turda zarar ko‘rgan, qonuniy huquqlari cheklangan va faqat jismoniy shaxs bo‘lishi mumkin bo‘lgan shaxsdir”⁴⁸, deb ta’kidlaydi.

Biroq Yevropa mamlakatlarida jabrlanuvchi maqomining o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Masalan, Germaniya jinoyat - protsessual qonunchiligida jinoyatdan jabrlangan shaxs xususiy ayblov shaklida o‘zining huquq va manfaatlarini muhofaza qilishi mumkin, Polshada esa jabrlanuvchi qonunchilikda uchta toifasi,

Следователь. -1998. -№9. –Б.29.

⁴⁶ Бахронов Х. Мустамлакачиликдан мустақилликгача: Ўзбекистон Республикаси жиноят – процессуал қонунчилигининг ривожланиш тарихи// маъсул муҳаррир Ф.М.Мухитдинов. – Т.: 2007.– 228 б.

⁴⁷ Яни П.С.: Законодательное определение потерпевшего от преступления // Российская юстиция. 1995. – №4. –С.41.

⁴⁸ Безлепкин Б.Т. Настольная книга следователя и дознавателя (м). ISBN. 978-5-392-38513-3. Издательство. Проспект. Год издания. 2023. С.256.

ya'ni maqomi belgilangan: "jinoyat qurboni", "jabrdiyda", "jabrlangan shaxs" hamda "jabrlanuvchi", Chexiyada ham xuddi shunday tendensiya amal qiladi, lekin Fransiya jinoyat protsessual qonunchiligida "jinoyatdan jabrlangan shaxs" yoki "jabrlanuvchi" tushunchasi aniq belgilanmagan, faqatgina jinoyat protsessida fuqaroviy da'vogar sifatida ishda ishtirok etishi mumkin⁴⁹.

Demak, yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda aytish mumkinki, jabrlanuvchining huquqiy maqomi tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organlar va sud tomonidan belgilanishi lozim bo'ladi. Ushbu masala yuzasidan V.P. Bojyevning fikricha, "...jinoyat ishlarini yuritishda jabrlanuvchini faol ishtirokchi sifatida jalb etilishi ikki maqsadni ko'zlaydi: jabrlanuvchiga o'z huquq va qonuniy manfaatlarini vakolatli subyektlar bilan birgalikda himoya qilishni kuchaytirishga imkon yaratish hamda odil sudlovni amalga oshirishga yordam berishda ifodalanadi"⁵⁰. O'zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual qonunchiligi normalarining tahlili shuni ko'rsatadiki, jabrlanuvchi dastlabki tergov bosqichlarida hamisha ham faol ishtirok etish imkoniga ega bo'lavermaydi, ya'ni u belgilangan ayrim huquqlaridan tergovchining ruxsati bo'lgandagina foydalanishi mumkin.

Qonunchilikda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud jismoniy, mulkiy, ma'naviy zararining mavjudligi va uning jinoiy qilmish bilan o'zaro bog'liqligini aniqlashi, so'ngra shaxsni jabrlanuvchi deb e'tirof etish to'g'risida qaror chiqarishi, jabrlanuvchi yoki uning qonuniy vakilini ushbu qarordan xabardor etishi, jabrlanuvchiga huquq va majburiyatlarini tushuntirib berishi va bu haqida bayonnomada qayd etishi kerak. Surishtiruvchi, tergovchi yoki sudya jabrlanuvchining huquqlarini kafolatlovchi quyidagi harakatlarni amalga oshirishlari lozim:

- jinoyat ishini qo'zg'atish yoki ishni to'xtatish to'g'risidagi materiallar bilan tanishtirish;
- jabrlanuvchiga ishning to'xtatilish sabab va asoslari haqida xabar berish yoki uning qonuniy vakilini ushbu materiallar bilan tanishtirish;

⁴⁹ Уголовно-процессуальный кодекс Франции. М. 2016.

⁵⁰ Божьев, В.П. Избранные труды / В.П. Божьев. – М.: Юрайт, 2010. – 715 с.

– jabrlanuvchi yoki uning qonuniy vakilining iltimosiga binoan uning qonuniy huquq manfaatlariga ta'sir etuvchi protsessual qarorlar (jinoyat ishini rad etish, jabrlanuvchi yoki fuqaroviy da'vogar deb e'tirof etish, jinoyat ishini to'xtatish to'g'risidagi hamda sud qarorlari va x.k.)ning nusxalarini berish.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi JPKda jabrlanuvchining jinoyat ishi bo'yicha shaxsni ayblanuvchi tariqasida jalb qilish to'g'risidagi qaror nusxasini olish huquqini belgilovchi normalar mavjud emas. Jabrlanuvchining ushbu hujjatni olishi, ish bo'yicha rasmiy ayblovni bilish imkonini yaratadi. Amaldagi jinoyat-protsessual qonunchilikdagi tartib bo'yicha, jabrlanuvchi shaxsga e'lon qilingan ayblovni bilish maqsadida tergovchi yoki prokurorga murojaat qilishi va ular o'z navbatida ayblovni mazmunini tushuntirib berishlari lozim.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, surishtiruvchi, tergovchi va prokuror, shaxsni ayblanuvchi tariqasida ishga jalb qilish to'g'risidagi qarorni qabul qilgandan so'ng, jabrlanuvchining huquq va majburiyatlari hamda ayblovni mazmuni bilan tanishtirishni majburiy tartibini joriy etilishini asosli deb hisoblaymiz hamda JPKning 361-moddasining 1-qismini 4-band bilan to'ldirish taklif etiladi:

361-modda. Jinoyat ishida ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish to'g'risidagi qaror

1-qism 4-band "Jinoyat ishida ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish to'g'risidagi qarorning ko'chirma nusxasini ushbu ishda jabrlanuvchi deb e'tirof etilgan shaxsga yuboriladi"– degan jumlar bilan to'ldirish maqsadga muvofiqdir.

Bu kabi qo'shimchalarni JPKda joriy etilishi jabrlanuvchi huquqlarini ma'lum ma'noda muhofazasining kafolati bo'lib xizmat qiladi.

Dunyo tajribasida shaxsning hayoti, sog'ligi va mol-mulkini sug'urta qilish orqali uni jinoyat qurboni bo'lishidan keyingi oqibatlardan himoyalash keng tarqalgan. Bu, ayniqsa, huquqbuzar tomonidan yetkazilgan zararni qoplash imkoni cheklangan holatlarda jabrlanuvchini moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlashda muhim o'rin tutadi. Ayrim xorijiy mamlakatlarda ushbu amaliyot qonunchilik bilan mustahkamlangan. Masalan, Ozarbayjon Respublikasi JPKning 3-bo'lim, 19-bob,

181-modda, 3.3-qismi “Zarar jinoyat tufayli kelib chiqqan bo‘lsa, u yetkazilgan shaxsning jinoyatlardan jabrlanish holati sug‘urtalanganda sug‘urta to‘lovlari orqali to‘lanishi mumkin”⁵¹, Qozog‘iston Respublikasi JPKning 5-bo‘lim, 20-bob, 166-modda 1-bandida “Jabrlanuvchiga yetkazilgan zarar jinoyat oqibatida kelib chiqqan bo‘lsa, u davlat yoki sug‘urta tashkilotlari hisobidan qoplanishi mumkin”⁵², Qirg‘iziston Respublikasi JPKning 50-modda 1-qismida “Jabrlanuvchiga moddiy va ma‘naviy zararni davlat, huquqbuzar yoki sug‘urta kompaniyasi qoplashi mumkin”⁵³, Moldova Respublikasi JPKning 60-modda 1-qismi, Rossiya Federatsiyasi JPKning 42-modda 2-qismlari bilan “Davlat jabrlanuvchiga sug‘urta to‘lovlari yoki maxsus fondlar orqali yordam berishi mumkin “Davlat jabrlanuvchiga sug‘urta to‘lovlari yoki maxsus fondlar orqali yordam berishi mumkin”. JPKda jabrlanuvchi tomonidan dastlabki tergovda jinoyat ishini to‘xtatish to‘g‘risida qabul qilingan qaror va ushbu ish materiallari bilan tanishish huquqi belgilanmagan. Bunday holatda jabrlanuvchi o‘z huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish imkoniga ega bo‘lmaydi. Aksariyat xorijiy davlatlarda bunday vaziyatlarda shaxsning hayoti, sog‘ligi hamda mol mulkini sug‘urta qilish instituti samarali tajriba hisoblanadi. Shuni ham ta’kidlash joizki, ko‘p holatlarda aybli ijtimoiy xavfli qilmish oqibatida jabrlangan shaxsni mulki sug‘urtalangan bo‘lishi mumkin va sug‘urta to‘lovlarini olish uchun to‘xtatilgan jinoyat ishi yuzasidan ma’lumotnoma taqdim etish zarur bo‘ladi.

Fikrimizcha, jabrlanuvchilarning manfaatlarini samarali ta’minlash uchun har bir shaxsning xayoti, sog‘ligi, mol-mulkini sug‘urta qilish institutini jamiyatimizda joriy qilish unga asosan muayyan jinoyat, voqea (hodisa) yuz berganda yetkazilgan zararining o‘rnini qoplash, tovonlar va boshqa to‘lovlar to‘lash uchun maqsadli pul jamg‘armalarini tashkil etish hamda ulardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan,

⁵¹ Уголовно-процессуальный кодекс Азербайджанской Республики (утвержден Законом Азербайджанской Республики от 14 июля 2000 года № 907-IQ) (с изменениями и дополнениями по состоянию на 29.11.2024 г.)// https://continent-online.com/Document/?doc_id=30420280

⁵² Уголовно-процессуальный кодекс Республики Казахстан Кодекс Республики Казахстан от 4 июля 2014 года № 231-V ЗРК. // <https://adilet.zan.kz/rus/docs/K1400000231>

⁵³ Уголовно-процессуальный кодекс Кыргызской Республики г.Бишкек, от 28 октября 2021 года № 129 (Вводится в действие Законом КР от 28 октября 2021 года № 126) <https://mvd.gov.kg/rus/ministry/normative-bases/23>

jismoniy va yuridik shaxslarning manfaatlarini muhofaza qilishga doir munosabatlarni qonunchilikka joriy etish maqsadga muvofiq.. Agar sug'urta shartnomasida nazarda tutilgan sug'urta jinoyat hodisasi yuz berganda sug'urta qildiruvchiga, sug'urtalangan shaxsga (naf oluvchiga) har bir sug'urtalangan shaxs uchun sug'urta summasi doirasida to'lanadigan pul mablag'lari summasi sug'urta to'voni to'lab berilishi lozim.

Dastlabki tergovda jinoyat ishi to'xtatilgan holatlarda tergovchi JPKning 369-modda 2-qismiga muvafiq bu haqda boshqa ishtirokchilar kabi jabrlanuvchini ham xabardor qiladi. YA'ni belgilangan tartib bo'yicha tegishli qaror nusxasini olish uchun jabrlanuvchi dastlabki tergovni olib boruvchi mansabdor shaxsga iltimosnoma bilan murojat qilishi va faqat shundan so'nggina uni olishi mumkin.

Shu sababli jabrlanuvchi huquqlari kafolatlarini ta'minlash maqsadida tergovchi tomonidan boshqa ishtirokchilar kabi jabrlanuvchini faqatgina xabardor qilib qolmasdan, balki tegishli qaror nusxalarini yuborishni majburiylikini ta'minlovchi normalarni JPKga kiritilishini maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Fikrimizcha, jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishda, jazoni yengilrog'i bilan almashtirish va amnistiya aktini qo'llash haqidagi masalani ko'rib chiqishda jabrlanuvchining fikrini e'tiborga olinishi lozim, chunki jinoyat ishini tugatish natijasida jabrlanuvchining mulkiy huquqlari buzilishi yoki hisobga olinmay qolishi, ya'ni jinoyat oqibatida yetkazilgan zarar miqdori qoplanmay qolishligi mumkin.

Keyingi holat shundan iboratki, JPKning 388-modda 2-qismiga muvofiq, prokuror yoki uning o'rinbosari ayblanuvchiga va himoyachiga ayblov xulosasi va unga qilingan ilovalarning tasdiqlangan nusxalarini yuboradi, jabrlanuvchiga esa ayblov xulosasining nusxasi faqatgina uning iltimosnomasiga asosan berilishi mumkin. Jabrlanuvchi iltimosnomani qay yo'sinda kiritishi tartibi qonunchilikda aniq ko'rsatilmagan. Jabrlanuvchining manfaatlari ta'minlanishi samaradorligini oshirish uchun fikrimizcha, ushbu vaziyatda jabrlanuvchiga ayblanuvchi bilan bir qatorda ayblov xulosasini ilovalari bilan taqdim etilishini JPKda belgilash taklif etiladi.

V.V.Novikning fikricha “Nizoni adolatli hal etish imkoniyatini yaratuvchi va to‘g‘ri qaror qabul qiluvchi tortishuv prinsipi huquqiy madaniyatning bebaho yutug‘idir”– deb e‘tirof etgan.⁵⁴ Jumladan, tortishuv prinsipining mazmuniga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, tortishuv prinsipi himoya huquqining asosiy kafolati sifatida namoyon bo‘ladi, ya‘ni mazkur prinsip asosida “taraflar” va qarshi xususiyatga ega bo‘lgan barcha fikrlarni taqqoslash yo‘li orqali haqiqatni aniqlashga erishish mumkin.

E‘tiborimizni shunga qaratishimiz kerakki, “jinoyat qurboni”, “jinoyatdan jabrlangan shaxs” tushunchasi “jabrlanuvchi” umumiy tushunchasiga nisbatan alohida ahamiyatga ega. Gap shundaki, xalqaro miqiyosda anglo-sakson huquq oilasiga tegishli mamlakatlarning aksiyatida “jinoyat qurboni” atamasi qo‘llaniladi va u asosan “guvox” maqomidan foydalanadi. “jinoyat qurboni” bu jinoyat natijasida jismoniy, ma‘naviy va moddiy zarardan jabrlangan har qanday jismoniy va yuridik shaxs tushunilsa, romano-german huquq oilasiga mansub ayrim davlatlar qonunchiligida “jabrlanuvchi” atamasi alohida qaror bilan e‘tirof etilgan jinoyatdan jabrlangan shaxslar tushuniladi.

Xalqaro miqiyosda jabrlanuvchining huquqiy maqomini mustahkamlovchi asosiy xujjat BMTning 1985 yil 29 noyabrdagi “Jinoyatdan va hokimiyat vakolatini suiiste‘mol qilishdan jabrlanganlar uchun odil sudlovning asosiy prinsiplari to‘g‘risida” gi deklaratsiyasi hisoblanadi. (Milan, Italiya 40/34 rezolyusiyasi)⁵⁵, Yevropa Kengashining 1985 yil 28 iyundagi NR (85) 11 Jinoyat va jinoyat-protsessual huquqi doirasida jabrlanuvchining maqomi to‘g‘risidagi ko‘rsatmasi⁵⁶, bundan tashqari, BMTning bosh kotibi tomonidan IX Kongressida jinoyatdan jabrlanganlarni huquq va manfaatlarini muhofaza qilish maqsadida, yuqoridagi deklaratsiyadan samarali foydalanishlari to‘g‘risida fikr bildirilgan.

⁵⁴ Тишутина И.В., Дяблов А.В. Защитник по уголовному делу: субъект формирования доказательственной информации или противодействия расследованию; Новик В.В.Состязательность сторон и противодействие адвоката уголовному преследованию: процессуальные и криминалистические аспекты //Вестник криминалистики М.: Спарк, 2007. Вып 2(22).

⁵⁵ Международно-правовая защита прав и основных свобод человека: сб.международных соглашений и рекомендаций: в 2 ч.//сост. Л.А. Новикова Орел, 2015 ю ч.2. С.47-49.

⁵⁶ Защита прав человека и борьба преступностью: сб. документов Совета Европы/ под ред. В.В.Черникова. 2-е изд., доп. М., 2015. С. 172-175.

Jabrlanuvchining huquqiy maqomi bilan bog'liq munozarali va hal qilinishi kerak bo'lgan muammolar orasida huquqshunos olimlar tomonidan jabrlanuvchining qonunchilik ta'rifidagi kamchiliklarini ta'kidlab o'tish lozim, bu esa savolga aniq javob berishga imkon bermaydi: "Agar shaxsga real zarar yetkazilmagan bo'lsa, biroq uning manfaatlariga suiqasd yoki tajavuz qilingan, shuningdek, noto'g'ri hulq-atvori unga qarshi jinoyat sodir etilishiga ta'sir qilgan shaxs jabrlanuvchi sifatida tan olinishi mumkinmi? oqibatda jabrlanuvchining o'limiga sabab bo'lgan jinoyatlar bo'yicha jabrlanuvchi masalasi ham muammoli holatlarni tashkil etadi⁵⁷.

Yuqorida sanab o'tilgan manbalarda zamonaviy qonunchilikka real baho berish nuqtai nazaridan e'tiborga olish muhim bo'lgan jinoyat qurbonlarning manfaatlarini muhofaza qilishda jinoyat natijasida yetkazilgan moddiy, jismoniy, ma'naviy yoki emotsional zarar yohud ruhiy⁵⁸ azob-uqubatlar hamda ularning asosiy huquqlari sezilarli darajada buzilishi milliy qonunchilikka muvofiq, adolat mexanizmlaridan foydalanish va ularga yetkazilgan zararni kompensatsiya qilish huquqini belgilaydi. Shu bilan birga, jinoyat protsessi nazariyasida jabrlanuvchining manfaatlarini to'g'ri muhofaza qilish masalalariga e'tibor qaratish lozim bo'ladi.

Jabrlanuvchining manfaatlari bu jinoyat yoki huquqbuzarlik natijasida buzilgan yoki xavf ostida qolgan shaxsning shaxsiy (jismoniy, ma'naviy, psixologik), moddiy (mulkiy, iqtisodiy) va ijtimoiy (obro', xavfsizlik, oilaviy, mehnat) huquq hamda erkinliklar majmuidir. Ushbu manfaatlarning muhofazasi, tiklanishi va kafolatlanishi jabrlanuvchining jinoyat-protsessual munosabatlarda mustaqil ishtirokchi sifatidagi maqomi orqali ta'minlanadigan huquqiy kategoriya hisoblanadi;

Turli davrlarda ushbu qismda jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirishning ko'plab jihatlari faol muhokama qilingan. Faqat so'nggi yillarda ushbu muammoga bir qator fundamental ishlar bag'ishlangan. Xususan,

⁵⁷ Алексеев Н.С., Даев В.Г., Кокорев Л.Д. Очерк развития науки советского уголовного процесса. Воронеж, 2012. [Электрон манба мурожаат этилган вақт 19.01.2025й.] <https://www.hse.ru/data/2012/09/23/1245662930>

⁵⁸ Рухий зарар — бу инсоннинг ички ҳолатига етган психик травма бўлса, маънавий зарар — бу шу травма ёки ҳуқуқ бузилиши учун давлат томонидан тан олинадиган ҳуқуқий товон талаб қилиш асосидир.

jinoyat protsessida jabrlanuvchining manfaatlarini ilmiy tadqiq qilish⁵⁹, uning jinoyat ishi bo'yicha dalillarni isbotlashda ishtirok yetishi⁶⁰, jinoyat natijasida yetkazilgan zararning xususiyati va miqdorini aniqlash, shuningdek, uni qoplash masalalari⁶¹, protsessning ushbu ishtirokchisining huquqlari va qonuniy manfaatlarini tiklash⁶², jabrlanuvchiing shaxsi⁶³, jabrlanuvchi va ayblanuvchining protsessual maqomining nisbati⁶⁴, jinoyat-protsessual huquqi jabrlanuvchining xavfsizligini ta'minlash⁶⁵ masalalalari yuzasidan bir qator ilmiy mushohadalar yuritilgan, biroq jabrlanuvchining manfaatlarini muhofaza qilish kompleks yondashuvni taqozo etadi.

Jabrlanuvchi huquqlarini muhofaza qilishning nazariy konsepsiyalariga protsessual, kompensatsiya, adolatni tiklash modellari kiradi. Jinoyat protsessida jabrlanuvchining huquq va manfaatlarini muhofaza qilish masalasi huquqiy tizimning qaysi modeliga tegishli ekanligiga qarab, turli nazariy yondashuvlar asosida shakllanadi. Zamonaviy huquqshunoslik doktrinasida jabrlanuvchiga nisbatan munosabatni belgilaydigan bir qancha fundamental modellar mavjud bo'lib, ular orasida protsessual, kompensatsiya ya'ni zararni qoplash modeli va adolatni tiklash (restorativ adolat) yo'nalishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Har bir model

⁵⁹ Танцеров М.В. Потерпевший и его функция в уголовном процессе. Дисс. канд.юрид.наук. Томск, 1999., 185 с.

⁶⁰ Дымченко Е.В. Участие потерпевшего и его представителя в доказывании: автореф. дисс..канд.юрид.наук. М., 2001. 28 с.; Гунарис Ю.С. Участие потерпевшего в уголовном преследовании по делам публичного обвинения: автореф. дисс..канд.юрид.наук. Ставрополь, 2004. 25 с.; Круглов С.В. Участие потерпевшего в доказывании на предварительном следствии по УПК РФ: автореф. дисс..канд.юрид.наук. Саратов, 2006. 27 с.;

⁶¹ Mavlonov T.A. Jinoyat natijasida etkazilgan mulkiy ziyonni qoplashni takomillashtirish: Yurid. fan. dok.(PhD) ... dis. avtoref. – T.: O'z. Res. IIV Akademiyasi, 2024. – B.55.; Владимирова В.В. Компенсация морального вреда – мера реабилитации потерпевшего в российском уголовном процессе: автореф.дисс..канд.юрид.наук. Саранск, 2004. 26 с. Криванцёв Н.В. Моральный вред, устанавливаемый в ходе производства по уголовному делу (на стадии предварительного расследования): автореф. дисс..канд.юрид.наук.Красноярск, 2004. 25 с.; Тиллаев Т.Н. Жиноят процессида Фукаровий даъво: Автореф...дисс.канд. юрид. наук. – Т., 2010. – 24 б.

⁶² Ачилов С. Возможности усиления защиты прав потерпевшего в уголовном процессе: Дис. ... канд. юрид. наук. – Т., 2010. – 153 с.

⁶³ Жеребятёв И.В. Процессуально- правовое положение личности потерпевшего в современном уголовном судопроизводстве России. Автореф...дисс.канд. юрид. наук. – Челябинск, 2004. 26 с.

⁶⁴ Корнелюк О.В. Баланс процессуальных статусов потерпевшего и обвиняемого при досудебном производстве: дис. ... канд. юрид. Наук. Н.Новгород, 2003. 256 с.; Ибрагимов И.М. Правомерные возможности защиты прав потерпевшего в российском уголовном судопроизводстве: монография М., 2008. 241 с.; Чепрасов М.Г. Уголовно-процессуальное соотношение законных интересов обвиняемого и потерпевшего в рамках российского уголовного процесса //Оренберг. 2012. 26 с.

⁶⁵ Умарханов А.Ш. Одил судловга кўмаклашувчи шахслар хавфсизлигини таъминлашнинг ҳукукий чоралари. –Т., 2005. – Б.76.; Маматалиева Ш. Х. Жабрланувчилар, гувоҳлар ва жиноят процесси бошқа иштирокчилари хавфсизлигини таъминлашнинг жиноят-процессуал жихатлари. Юрид.ф.б.ф.д. (PhD) дис.автореферати – Т., 2025. – Б.49.

jabrlanuvchining huquqiy maqomi, uning manfaatlarini muhofaza qilish vositalari va davlatning unga nisbatan majburiyatlarini turlicha talqin qiladi.

1. “Protsessual model”da (procedural model) jabrlanuvchining huquqlarini jinoyat protsessining muqobil ishtirokchisi sifatida tan oladi va uning asosiy maqsadi adolatli sud jarayonini ta’minlashdan iborat. Mazkur yondashuvda jabrlanuvchining roli ayblov tomoni va sud o’rtasidagi munosabatda muayyan protsessual funksiyalarga ega subyekt sifatida belgilab beriladi. Ushbu model jinoyat ishi bo’yicha axborot olish, arizalar va iltimosnomalar kiritish huquqi; tergov harakatlarida ishtirok etish imkoniyati (masalan, ekspertiza tayinlash haqida iltimosnoma, dalil taqdim etish); sud jarayonida fikr bildirish, bayonot berish, ishlar materiallari bilan tanishish, shikoyatlar berish kabi kafolatlar; ayrim mamlakatlarda xususiy ayblovni ko’tarish yoki davlat ayblovi bilan birga jamoaviy ayblovchi sifatida ishtirok etish huquqi bilan tavsiflanadi. Ushbu model asosan Germaniya, Fransiya, Italiya kabi roman-german huquq oilasiga mansub davlatlarda keng rivojlangan. Unda jabrlanuvchi jinoyat protsessida faol subyekt hisoblanadi, biroq uning huquqlari ayblovchini qo’llab-quvvatlash bilan chegaralanib, mustaqil “uchinchi markaz” sifatidagi maqomgacha yeta olmaydi. Protsessual modelning afzalligi shundaki, u jabrlanuvchining sud jarayonidagi ishtirokiga yetarli imkoniyat beradi, ammo jinoyat natijasida yetkazilgan zararni qoplash masalasini to’la qamrab olmaydi.

2. Zararni qoplash “kompensatsiya modeli” (compensatory model) jinoyat natijasida yetkazilgan zararni qoplash modeli jabrlanuvchi manfaatlarining markaziy elementi sifatida moddiy va ma’naviy zararni qoplash masalasini belgilaydi. Mazkur yondashuvning mohiyati jinoyat oqibatida yetkazilgan zararni bartaraf etish va jabrlanuvchining iqtisodiy barqarorligini tiklashdan iborat. Bu modelda davlat ham, ayblanuvchi ham jabrlanuvchi oldida muayyan majburiyatlar yuklanadi. Kompensatsion model jinoyat natijasida yetkazilgan zararni to’g’ridan-to’g’ri aybdor tomonidan qoplash; davlat tomonidan kompensatsiya fondlari orqali qo’shimcha yordam; jinoyatdan jabrlangan shaxslar uchun maxsus rehabilitatsion dasturlar; davlatning ijtimoiy, tibbiy, psixologik va huquqiy yordam ko’rsatish majburiyati

mexanizmlari orqali amalga oshiriladi. Bu modelning o'ziga xos jihati u jinoyat protsessidagi "adolatli jazo"dan ko'ra "adolatli qoplash"ga ko'proq e'tibor qaratadi. Jabrlanuvchining huquqiy maqomi sud jarayonida emas, balki uning zararni qoplanishi tizimida namoyon bo'ladi. Ushbu yondashuv Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida, ayniqsa, Skandinaviya davlatlarida keng qo'llaniladi.

3. "Adolatni tiklash" modeli (restorative justice model) restorativ adolat modelining maqsadi jabrlanuvchi, ayblanuvchi va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni qayta tiklashni amalga oshiradi. U klassik jinoyat protsessidagi "ayblanuvchi-davlat" munosabatlarini "ayblanuvchi-jabrlanuvchi" o'qiga ko'chiradi va jinoyat oqibatlarini bartaraf etishda ijtimoiy hamjihatlik va insonparvarlik prinsiplariga tayanadi. Restorativ adolat mediatsiya (victim-offender mediation); yarashuv protseduralari va restitutsiya to'lovlari; aybdorning jamiyatga foydali mehnat orqali zararni qoplashi; hayot sifatiga ta'sir ko'rsatgan oqibatlarni psixologik himoya orqali bartaraf etish institutlar orqali amalga oshiriladi. Mazkur modelda jabrlanuvchi markaziy o'rinda bo'lib, uning ehtiyojlari, xissiy holati, xavfsizlik talablari va ijtimoiy reabilitatsiyasi asosiy vazifa sifatida belgilanadi. Avstraliya, Yangi Zelandiya, Kanada, Niderlandiya kabi davlatlarda ushbu model samarali tatbiq qilinmoqda.

Yuqoridagi uch model jinoyat protsessida jabrlanuvchi huquqlarining turli yo'nalishlarda ta'minlanishini namoyon etadi. Protsessual model jabrlanuvchining jarayondagi ishtirokini kafolatlasa, kompensatsiya model uning moddiy manfaatlarini himoya qiladi, adolatni tiklash esa jinoyat oqibatlarini insonparvarlik asosida bartaraf etishga yo'naltiriladi. Zamonaviy huquq tizimlarida ushbu modellarni aralash holatda qo'llash eng samarali hisoblanadi, chunki har bir yondashuvning afzalliklari jinoyatdan jabrlanganlarni manfaatlarini muhofaza qilishga xizmat qiladi.

2-§. Xalqaro huquqiy xujjatlarda jabrlanuvchining huquq va manfaatlari muhofaza qilinishi

Xalqaro huquqda jabrlanuvchining huquq va manfaatlarini himoya qilish masalasiga XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab alohida e'tibor qaratila boshladi.

Avvalo, inson huquqlarini ta'minlash va adolatli sud muhitini yaratish nuqtai nazaridan, xalqaro tashkilotlar jinoyat qurbonlarining huquqiy maqomini mustahkamlashga intila boshladilar.

Yangi O'zbekiston taraqqiyotining ustuvor g'oyasiga aylangan inson huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini to'laqonli himoya qilish hamda adolatni qaror toptirishni dalat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida xalqaro tashabbuslar muallifi bo'lgan davlat sifatida tanilmoqda va e'tirof etilmoqda.

So'nggi yillarda mamlakatimizda "Inson qadri uchun" degan ezgu g'oyani to'liq ro'yobga chiqarish, inson huquq va erkinliklari sohasidagi xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implemmentatsiya qilish, davlat organlari faoliyatiga tizimli va bosqichma-bosqich joriy etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Inson huquqlari va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish hamda qonun ustuvorligini ta'minlash, shuningdek, jamiyat va har bir fuqaro hayotiga ularni tadbqiq etish Yangi O'zbekistonning ichki va tashqi siyosatida markaziy o'rinni egallab kelmoqda.⁶⁶

Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasida "Har bir inson o'z huquq va erkinliklarini mustaqil amalga oshirishida davlatning roli alohida ahamiyatga ega hisoblanadi", ya'ni davlat tuzilishi va siyosiy rejimidan qat'iy nazar, inson huquqlarini ta'minlashi zarur.

Mazkur xaqaro xujjatda belgilangan normalar yangi tahrirda qabul qilingan Konstitusiyaning 19-moddasiga asosan, "O'zbekiston Respublikasida insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalariga binoan hamda ushbu Konstitusiyaga muvofiq, e'tirof etiladi va kafolatlanadi. Inson huquq va erkinliklari har kimga tug'ilganidan boshlab tegishli bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar"⁶⁷Jeneva shahrida bo'lib o'tgan BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashining 46-sessiyasida O'zbekiston Prezidenti

⁶⁶ "Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси қабул қилинганлигининг 75 йиллигини кенг нишонлаш тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони ПФ-70-сон 2023 йил 12 май. // Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари // Илмий-маърифий журнал 2(98)-2023. 39-б.

⁶⁷ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси.—Т.: "Адолат" миллий ҳуқуқий ахборот маркази, 2024.—12 б.

SH.Mirziyoyev ishtirok etib, soʻzlagan nutqida “Oʻzbekiston Inson huquqlari boʻyicha kengash aʼzosi sifatida xalqaro huquqning inson huquqlariga oid umumeʼtirof etilgan prinsip va normalarini qatʼiy himoya qiladi va faol ilgari suradi”⁶⁸, deb taʼkidladi. Davlatimiz rahbarining ushbu nufuzli tadbirda ishtiroki, hech shubhasiz, tarixiy ahamiyatga ega hodisa boʻldi.

Shu munosabat bilan “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyili asosida keyingi besh yillikda mamlakatimizda amalga oshiriladigan islohotlarning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-maʼrifiy asoslarini yaratib berishga qaratilgan Yangi Oʻzbekistonning 2022–2026 yillarga moʻljallangan taraqqiyot strategiyasida inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish hamda mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish ustuvor vazifa qilib belgilandi⁶⁹.

Oʻzbekiston inson huquqlari boʻyicha 80 dan ortiq xalqaro xujjat, jumladan, BMTning 6 ta Asosiy shartnomasi va 4 ta fakultativ protokoliga qoʻshilgan. Ularning amalga oshirilishi yuzasidan BMTning inson huquqlari boʻyicha kengashi va shartnomaviy qoʻmitalariga muntazam ravishda milliy maʼruzalar taqdim etib kelmoqda. Ushbu xalqaro xujjatlar bevosita jabrlanuvchilarning inson huquqlari sohasida zimmasiga olgan Milliy strategiyasida belgilangan vazifalarning izchil amalga oshirilayotgani uning xalqaro maydondagi obroʻsi yanada mustahkamlanishiga hamda mamlakatimizda jabrlanuvchilarning huquqlari va manfaatlari muhofazasiga xizmat qilmoqda.

2022 yil 5–6 dekabrda Samarqand shahrida oʻtkazilgan “Inson huquqlari sohasida taʼlim” Global forumida inson huquqlari sohasida Yangi Oʻzbekiston siyosatini keng yoritish masalalariga alohida eʼtibor berildi. Forum soʻnggida qabul

⁶⁸ Президент Шавкат Мирзиёевнинг БМТ Инсон ҳуқуқлари бўйича кенгашининг 46-сессиясидаги нутқи 22.02.2021 йили // <https://president.uz/uz/lish/view/4179>

⁶⁹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-60-сон 2022 йил 28 январь “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида” фармони (электрон манба) <https://lex.uz/pdfs/5841063>

qilingan Samarqand harakatlar rejasida jabrlanuvchilarning huquq va manfaatlarini muhofaza qilish yuzasidan bir qator takliflar va tavsiyalar ishlab chiqildi.

O‘zbekiston Hukumati BMTning ustaviga oid, shartnomaviy organlari hamda Inson huquqlari bo‘yicha Kengashning maxsus protsedura va mexanizmlari bilan muloqot olib boradi⁷⁰.

Dunyo miqiyosida jinoyatdan jabrlanganlar bilan BMT, Yevropa Ittifoqi, Xalqaro yuristlar komissiyasi (XYUK) nodavlat tashkiloti, Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa sudi, “Human Rights Watch”, “Amnesty International” va boshqa tashkilotlar shug‘ullanadilar.

XYUK butun jahonda qonun ustuvorligi va inson huquqlarining qonuniy himoyalashini tushuntirish, unga rioya qilishni targ‘ib qiladi.

Jinoyat natijasida jabrlanuvchilarning huquqiy holatining xorijiy tajribasini o‘rganish ikki yo‘nalishda olib borilishi lozim: uzoq xorijiy mamlakatlar va MDH davlatlarida jabrlanuvchining huquqiy maqomini o‘rganish.

Xalqaro huquqiy standartlarda jinoyatdan jabrlanganlarning buzilgan huquq va erkinliklarini tiklashga alohida e‘tibor qaratilgan. Ushbu masalalarni hal etishda xalqaro huquqiy hujjatlarning turli darajalarga bo‘lib o‘rganish mumkin:

1. BMTning universal hujjatlari. Mavjud qonunchilikni tahlil qilishdan oldin, milliy qonunchilikning rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan bir qator xalqaro-huquqiy hujjatlardan biri BMTning 1948 yil 10 dekabrda qabul qilingan “Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi”dir. Unda jabrlanuvchilarning holati to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatilmasa-da, ammo ba’zi qoidalari ushbu maqomni shakllantirish uchun zarur bo‘lgan asosni yaratadi: 3-moddasida: “Har bir inson yashash, erkin bo‘lish va shaxsiy daxlsizlik huquqlariga egadir”, 8-moddasida: “Har bir inson unga konstitutsiya yoki qonun orqali berilgan asosiy huquqlari buzilgan hollarda nufuzli milliy sudlar tomonidan bu huquqlarning samarali tiklanishi huquqiga ega”, 28-moddada: “Har bir inson ushbu Deklaratsiyada

⁷⁰ Инсон ҳуқуқлари бўйича кенгашнинг № 5/1 резолюциясининг иловаси 15 а) бандига кўра тақдим қилинган Миллий маъруза, Ўзбекистон, 2008 йил 1–15 декабр, А/HRC/WG.6/3/UZB/1, 19-банд.

bayon etilgan huquq va erkinliklar to‘liq amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy va xalqaro tartib bo‘lishi huquqiga egadir”, deb belgilangan⁷¹.

Keyinchalik BMTning 1966 yil 19 dekabrda “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt” qabul qilindi. Paktning 2-moddasi 3-qismida belgilanishicha, ushbu paktda ishtirok etuvchi har bir davlat o‘z zimmasiga quyidagi majburiyatlarni oladi:

a) mazkur Paktda tan olingan huquq va erkinliklari buzilgan har bir shaxsning, agar bu xol rasmiy sifatda harakat qilgan shaxslar tomonidan sodir etilgan bo‘lsa ham, huquqiy himoyalanişning samarali vositalari bilan ta’minlanishi shart;

b) ana shu himoya talab qiluvchi har qanday shaxs uchun yuridik himoya nufuzli sud, ma’muriy yoki qonuniy hokimiyatlar tomonidan yoki davlatning tizimida nazarda tutilgan boshqa nufuzli organlar tomonidan ta’minlansin va sud orqali himoyalaniş imkoniyati rivojlantirilsin;

s) huquqiy himoya vositalari berilganda, nufuzli hokimiyatlar buni qo‘llashni ta’minlasinlar.

Ushbu paktda ishtirok etuvchi davlatlardan nafaqat himoya qilish huquqini balki uni amalga oshirishning samarali mexanizmini yaratishni ham talab qiladi. 1998 yil 17 iyulda qabul qilingan Xalqaro jinoyat sudining Rim statutining⁷² alohida bo‘limi “jabrlanuvchilarga yetkazilgan zararni qoplash”ga ajratilgan. BMT Bosh Assambleyasi Rezolyusiyasi 60/147 (16 dekabr 2005 yil)

Inson huquqlari xalqaro normalarining qo‘pol ravishda buzilishi va xalqaro gumanitar huquqning jiddiy ravishda buzilishidan jabrlanganlarning huquqini tiklash yetkazilgan zararni qoplash huquqi to‘g‘risidagi Asosiy tamoyillar va qo‘llanma qoidalar⁷³.

⁷¹ БМТнинг Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон Декларацияси. (электрон манба) <https://constitution.uz/uz/pages/humanright>

⁷² Принят Дипломатической конференцией полномочных представителей под эгидой ООН по учреждению Международного Уголовного Суда, Рим, 17 июля 1998 г. /.

⁷³ Resolution adopted by the General Assembly [on the report of the Third Committee (A/60/509/Add.1)] 60/147. Basic Principles and Guidelines on the Right to a Remedy and Reparation for Victims of Gross Violations of International Human Rights Law and Serious Violations of International Humanitarian Law. https://legal.un.org/avl/pdf/ha/ga_60-147/ga_60-147_ph_r.pdf

Rezolyusiyaning asosiy maqsad va ahamiyati shaxsni jabrlanuvchi sifatida e'tirof etilishi, ularning huquqiy maqomini xalqaro miqyosda himoya qilinishi, ijtimoiy adolatga erishish huquqi, kompensatsiya olish huquqi hamda davlat tomonidan samarali huquqiy vositalar orqali jabrlanuvchilarning huquqlarini tiklash, jinoyatchilarni tergov qilish va jazolash, jabrlanuvchilarning huquqlarini to'liq tiklash va ularga yordam ko'rsatish hamda jinoyat natijasida yetkazilgan zararni qoplashning quyidagi shakllarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilish:

Restitusiya jabrlanuvchining buzilgan huquqlarini oldingi holatga tiklash;

Kompensatsiya moddiy va ma'naviy zararni pul bilan qoplash,

Reabilitatsiya tibbiy, psixologik, ijtimoiy yordam ko'rsatish,

Jamiyatdagi ijtimoiy obro'sini saqlash ommaviy kechirim so'rash, aybiga iqrorlik kelishuvi, adolatni tiklash,

Ikkinchi bor qayta jabrlanmaslik kafolatlari institusional islohotlar, qonunchilikda jazolash orqali jinoyatning qayta sodir etilmasligiga kafolat berishdan iborat⁷⁴.

2. BMTning tarkibiy bo'limlari tomonidan qabul qilingan hujjatlar. Jinoyatlar oqibatida aziyat chekkan shaxslarning huquqiy maqomi xalqaro huquq tizimida mustaqil tahlil obyekti sifatida shakllangan. Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1985 yil 29 noyabrdagi 40/34-sonli Rezolyusiyasi bilan qabul qilingan "Jinoyatdan va hokimiyat vakolatini suiiste'mol qilishdan jabrlanganlar uchun odil sudlovning asosiy prinsiplari to'g'risidagi Deklaratsiya"da jabrlanuvchi tushunchasiga keng ta'rif beriladi. Unga ko'ra, jabrlanuvchi – bu jinoyat yoki hokimiyat vakolatini suiiste'mol qilish natijasida jismoniy, ruhiy, moddiy yoki iqtisodiy zarar ko'rgan shaxs hisoblanadi⁷⁵.

Bundan tashqari, mazkur hujjatda jabrlanuvchining qarindoshlari va jabrlanuvchi vafot etgan hollarda uning huquqiy vorislari ham ushbu maqomda tan

⁷⁴ Элизабет Баумгартнер Участие потерпевших в судопроизводстве Международного уголовного суда file:///D:/DSc статистика /277-323.pdf

⁷⁵ UN General Assembly. (1985). *Declaration of Basic Principles of Justice for Victims of Crime and Abuse of Power*. Resolution 40/34, 29 November 1985. <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/declaration-basic-principles-justice-victims-crime-and-abuse>

olinadi. Bu esa xalqaro huquqda «jabrlanuvchi» tushunchasini faqat protsessual subyekt emas, balki ijtimoiy-huquqiy himoya obyekt sifatida ham talqin qilishga imkoniyat beradi⁷⁶. Xalqaro huquqda jabrlanuvchilarni himoya qilish bo'yicha qator meyoriy hujjatlar qabul qilingan bo'lib, ularning ayrimlari majburiy (bandliq) xarakterga, boshqalari esa tavsiyaviy xususiyatga ega.

BMT Deklaratsiyasi (1985) – jabrlanuvchilarning huquqlari sifatida quyidagilarni belgilaydi:

odil sudlovga teng va erkin kirish huquqi;

tovon (kompensatsiya) talab qilish huquqi;

jamiyat tomonidan ko'mak, sog'liqni tiklash, psixologik va ijtimoiy reabilitatsiyadan foydalanish huquqi⁷⁷.

Ushbu darajadagi hujjatlar orasida eng muhim akt, jabrlanuvchilarning huquqlarini himoya qilish masalalarini aks ettirgan hamda jinoyat protsessida odil sudlovga qo'yilgan minimal talablardan tashqari xalqaro normalar jinoyatdan jabrlanganlarga ko'maklashish zarurligini nazarda tutgan hujjat BMT Bosh Assambleyasining 1985 yil 29 noyabrdagi rezolyusiyasi bilan “Jinoyatchilikka qarshi kurash va huquqbuzarlar bilan muomilada bo'lish to'g'risida”gi VII Kongressida “Jinoyatdan va hokimiyat vakolatini suiiste'mol qilishdan jabrlanganlar uchun odil sudlovning asosiy prinsiplari to'g'risidagi Deklaratsiya”⁷⁸ (Milan, Italiya) qabul qilingan. Mazkur Deklaratsiyaga muvofiq, jabrlanuvchilarga nisbatan hamdardlik asosida yondashish va ularning qadr-qimmatini hurmatlash lozim bo'ladi. Ular odil sudlov mexanizmiga bevosita yordam huquqiga ega bo'lib, milliy qonunchilik bo'yicha ularga yetkazilgan zararni qisqa muddat ichida qoplanishini talab qilish huquqiga ega. Ushbu bandni O'zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual qonunchiligiga tadbiq etish maqsadga muvofiqdir.

⁷⁶ Grozdanova, S. (2017). *Victims before the International Criminal Court*. Journal of International Criminal Justice, 15(4). [https://www.icc-cpi.int/sites/default/files/NR/rdonlyres/8FF91A2C-5274-4DCB-9CCE-37273C5E9AB4/282477/160910VPRSBooklet English.pdf](https://www.icc-cpi.int/sites/default/files/NR/rdonlyres/8FF91A2C-5274-4DCB-9CCE-37273C5E9AB4/282477/160910VPRSBooklet%20English.pdf)

⁷⁷ Doak, J. (2008). *Victims' Rights, Human Rights and Criminal Justice*. Oxford: Hart Publishing <https://www.bloomsbury.com/uk/victims-rights-human-rights-and-criminal-justice-9781847314246/>

⁷⁸ Принята на девяносто шестом пленарном заседании Генеральной Ассамблеи ООН 29 ноября 1985 г. См.: Зайцев О.А. Государственная защита участников уголовного процесса. – М., 2002. – С.338–343.

Deklaratsiyaga muvofiq, restitutsiya (lot. restitutio – tiklash) – buzilgan huquqlarini qayta tiklash, mulkni qaytarish yoki yetkazilgan zararni qoplashni talab qiladi.

Shu bilan birga, mazkur Deklaratsiyaga a'zo davlatlar jinoyat qonunchiligida restitutsiya qilish sanksiyasini kiritishni taqozo etadi. Jinoyat sodir qilgan shaxsdan kompensatsiya to'liq hajmda olinmasa, u holda davlat moliyaviy jihatdan jabrlanuvchilarga quyidagi holatlarda yordam beradi:

a) jabrlanuvchilarga og'ir tan jarohati yetkazilsa yoki ularning jismoniy, ruhiy holati og'ir jinoyatlar sodir etilishi natijasida buzilgan bo'lsa, fikrimizcha, jinoyat ishlarini tahlil qilishda, ayniqsa, tan jarohati bilan bog'liq jinoyatlarda tergovchi, surishtiruvchi sud psixiatrik ekspertizasini tayinlashlari lozim;

b) jabrlanuvchi vafot etsa va boquvchisidan mahrum bo'lgan yaqin qarindoshlari yoki jismoniy, ruhiy jihatdan majruh bo'lib qolsalar; fikrimizcha, jabrlanuvchi vafot etsa JPKning 278-moddasiga ko'ra jabrlanuvchini dafn etish xarajatlarini fuqaroviy da'vo asosida qoplash masalasi e'tibordan chetda qolgan.

Deklaratsiyani qabul qilgan davlatlar oldiga jinoyat jabrlanuvchilariga kompensatsiya pullarini berish uchun tegishli milliy fondlarni tashkil etish vazifasi yuklatilgan.

Deklaratsiyada ishtirokchi davlatlar milliy qonunchiligiga jinoyat oqibatida jabrlanganlarga muhofaza vositalarini qo'llash tavsiya etilgan. Bunday vositalar qatoriga restitutsiya, kompensatsiya, zaruriy moddiy, tibbiy, ruhiy va ijtimoiy yordam hamda qo'llab-quvvatlash kabilarni kiritish maqsadga muvofiqdir.

Jabrlanuvchining qonuniy huquq va manfaatlarini muhofaza qilishning jinoiy va ma'muriy-huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqib, ularni mustahkamlash zarur. Chunki jabrlanuvchilar rasmiy yoki norasmiy tartiblar asosida kompensatsiya olish imkoniyatiga ega bo'lishlari shart⁷⁹. Ushbu tartiblar tezkor, kamchiqim va sodda ravishda amalga oshirilishi lozim.

⁷⁹ Принята на девяносто шестом пленарном заседании Генеральной Ассамблеи ООН 29 ноября 1985 г. См.: Зайцев О.А. Государственная защита участников уголовного процесса. – М., 2002. – С.338-343

M.S. Strogovichning ta’kidlashicha, “jinoyat-protsessual qonunchilikning oldida turgan vazifalarni samarali hal etish uchun, birinchi navbatda, jinoyat ishida ishtirok etayotgan shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan maxsus protsessual kafolatlar tizimini yaratish lozim”⁸⁰.

JPKda jabrlanuvchilarning qonuniy huquq va manfaatlarini muhofaza qilish lozim bo’lgan bir qator talablar mavjud bo’lib, ularning bajarilishi nafaqat shaxsning huquq va erkinliklarini ta’minlashga, balki jinoyat-protsessual qonun vazifalarining ijro etilishiga ham xizmat qiladi. Xalqaro hujjatlarning bunday talqin qilish, jinoyat qurbonlari bilan muomala qilishning xalqaro standartlarini belgilab bergan, ular orasida huquqiy va ma’muriy himoya mexanizmiga kirish, adolatli munosabatda bo’lish, ma’lumotlarga ega bo’lish, zararni qoplash va kompensatsiyaga bo’lgan huquq, shuningdek, ijtimoiy xizmatlarning keng tizimidan foydalanishga qaratilgan normalarga alohida ajratilgan.

Jabrlanuvchilarga nisbatan hamdardlik bilan munosabatda bo’lish va ularning sha’ni qadr-qimmatini hurmat qilish va ularga ijtimoiy yordam berish tizimini takomillashtirish lozim. Huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari jabrlanuvchilarni huquq va qonuniy manfaatlarini muhofaza qilish mexanizmi bilan tanishtirishi va ularga yetkazilgan zararni tezlik bilan kompensatsiya qilishlarini ta’minlashlari belgilangan.

Ushbu Deklaratsiyaning tamoyillari ayrim rivojlangan mamlakatlarning qonunchiligida o’z ifodasini topgan. Uni aks ettirishning darajasi va turli shakllari ko’p hollarda bir qator mamlakatlar milliy qonunchiligining rivojlanish tendensiyalarini qamrab oldi. Ushbu muhim hujjatning asosiy g’oyalari va qarashlari sayyoraning turli burchaklarida va keyinchalik, ayniqsa, ijtimoiy siyosiy rivojlanishning o’tish davridagi mamlakatlarda huquqiy tizim islohotlarini belgilab beradi.

Fikrimizcha, Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1985 yili 29 noyabrda qabul qilingan “Jinoyatdan va hokimiyat vakolatini suiiste’mol

⁸⁰ Строгович М.С. Избранные труды. Т.2. – М., электрон манба – 277 с. / <https://www.twirpx.com/file/2056605/> мурожат этилган вақт 10.10.2016.

qilishdan jabrlanganlar uchun odil sudlovning asosiy prinsiplari to'g'risidagi Deklaratsiya" sini O'zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilinishi va unda jabrlanuvchining huquqlarini muhofaza qilinishiga xizmat qiluvchi normalarni milliy qonunchiligimizga implementatsiya qilish ahamiyatlidir.

Jabrlanuvchining jinoyat protsessidagi ishtiroki va huquqlarini Yevropa va Shimoliy Amerika davlatlarining odil sudlov tizimini shartli ravishda uch asosiy guruhga bo'lish mumkin. Birinchi guruhda qonunchiligi jabrlanuvchiga odatiy tarzda ayblanuvchining ta'qibida ishtirok etish hamda fuqaroviy da'volarini bevosita jinoyat protsessida keltirish huquqini beruvchi sharqiy Yevropa davlatlarini (Finlyandiya, Norvegiya, Shvetsiya) birlashtirish mumkin.

Ikkinchi guruhga jabrlanuvchi jinoyat protsessida fuqaroviy taraf bo'lishi mumkin bo'lgan va shu asosda fuqaroviy da'volar keltirish huquqiga ega bo'lgan, odil sudlovning fransuz tizimida bo'lgan Markaziy va G'arbiy Yevropa davlatlari (Fransiya, Germaniya, Ispaniya) kiradi.

Nihoyat, uchinchi guruhga jinoyat qurbonining holati guvohning roli bilan odatiy cheklangan, umumiy huquq tizimidagi davlatlar (Buyuk Britaniya, Irlandiya, AQSH, Kanada, Avstraliya, Hindiston) tashkil etadi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, jahonda jinoyat qurbonlarini qo'llab-quvvatlovchi harakatlar tobora kengayib borishi bilan jabrlanuvchilarni muhofaza qiluvchi dasturlar ortib bormoqda. Ushbu dasturlar mahalliy sharoitlarni, davlatning moliyaviy imkoniyatlarini hisobga olgan holda ixtisoslashuv jarayoni kechmoqda. Masalan: G'arbiy Yevropa va shimoliy Amerika mamlakatlari, Avstraliya, Lotin Amerikasi kabi davlatlar uchun xosdir.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2002 yil 24 iyulidagi "Jinoyat ishlari bo'yicha Restitutsiya (adolatni tiklash) dasturlarini qo'llashning asosiy prinsiplari to'g'risida" gi 2002/12-sonli rezolyusiyasiga (Ottava, Kanada)⁸¹ nazar tashlaydigan bo'lsak, unda a'zo davlatlar qonunchiligida "adolatni tiklash dasturi", "adolatni

⁸¹ БМТ 2002 йил 24 июлидаги "Жиноят ишлари бўйича Реституция (адолатни тиклаш) дастурларини қўллашнинг асосий принциплари тўғрисида"ги 2002/12-сонли резолюциясига (Оттава, Канада) // <https://digitallibrary.un.org/collection/HumanRights>.

tiklash jarayoni”, “adolatni tiklanish natijasi” va “taraflar”, “mediator” tushunchalari keng yoritib berilgan. Ushbu rezolyusiya 23 banddan iborat bo‘lgan tavsiyaviy xarakterga ega bo‘lgan huquqiy hujjatdir.

“Odil sudlovga adolatni tiklash dasturini joriy qilinishi” deb nomlangan ikkinchi bobda jinoyat jarayonining barcha bosqichida adolatni tiklash tamoyili ustun bo‘lishi lozimligi, jabrlanuvchi va ayblanuvchi tomon ixtiyoriy ravishda jarayonning xohlagan bosqichida o‘zaro kelishuv, taraflar tengligi va tomonlarning xavfsizligi ta’minlash va adolat tamoyillari asosida javobgarlik masalasini hal qilishlari mumkin.

Adolatni tiklash dasturini sud organlarining nazorati ostida amalga oshiradilar va yakuniy xulosa, qaror yoki ajrim sud tomonidan tasdiqlanadi. Adolatni tiklashda taraflar davlat tomonidan bepul yuridik xizmat bilan ta’minlanadi.

Ushbu Rezolyusiya jinoyat protsessida jabrlanuvchilarning huquq va manfaatlarini muhofaza qilishning eng samarali yo‘nalishlari sifatida belgilanganligini kuzatishimiz mumkin.

Fikrimizcha, O‘zbekiston Respublikasida BMTning 2002 yil 24 iyuldagi “Jinoyat ishlari bo‘yicha Restitusiya (adolatni tiklash) dasturlarini qo‘llashning asosiy prinsiplari to‘g‘risida” gi 2002/12-sonli rezolyusiyasini (Ottava, Kanada) ratifikatsiya qilish tavsiya etiladi.

BMT Bosh assambleyasining 1990 yil 14 dekabrda qabul qilingan 45/107-sonli “Jinoyat qurbonlari uchun kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi rezolyusiyasida belgilangan jabrlanuvchilarni himoya qilish, ularga yordam berish va yetkazilgan zararni qoplashni o‘z ichiga olgan qo‘llanma chop etildi.

Jabrlanuvchi va fuqaroviy da’vogar jinoyat natijasida yetkazilgan zararni undirishda ba’zan qiyinchiliklarga duch kelishadi. Bunday holatlarda BMT tomonidan 1985 yil 29 noyabrdagi “Jinoyatdan va hokimiyat vakolatini suiiste’mol qilishdan jabrlanganlar uchun odil sudlovni amalga oshirishning asosiy prinsiplari to‘g‘risida”gi deklaratsiya (Milan, Italiya, VII kogressi) 12-moddasida “jinoyat natijasida yetkazilgan zararni ayblanuvchidan to‘liq undirishning imkoni bo‘lmagan

taqdirda, davlatlar ushbu zarar miqdorini qoplab berish choralarini ko‘rishlari lozim”⁸² deb ta’kidlangan.

Holbuki, BMTning normativ-huquqiy hujjatlarida jinoyatdan jabrlangan har qanday shaxsning huquqi – uning jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar – muhofaza qilinishi, jinoyat natijasida unga yetkazilgan ma’naviy, jismoniy va moddiy zarar qoplanishi nazarda tutilgan, reabilitatsiya qilish shartlari belgilanganligi esa bu masalaga alohida yondashish zarurligidan dalolat beradi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, jinoyat protsessida jabrlanuvchining huquq va manfaatlarini muhofaza qilish mexanizmini takomillashtirish maqsadida, birinchidan, O‘zbekiston Respublikasida BMTning 1985 yil 29 noyabrdagi “Jinoyatdan va hokimiyat vakolatini suiiste’mol qilishdan jabrlanganlar uchun odil sudlovning asosiy prinsiplari to‘g‘risida” deklaratsiyasini (Milan, Italiya) ratifikatsiya qilishi hamda jabrlanuvchilarning huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun uning qoidalarini milliy qonunchiligimizga implementatsiya qilish; ikkinchidan, O‘zbekiston Respublikasining BMTning 2002 yil 24 iyuldagi Jinoyat ishlarida restitutsiya (lot. restitutsiya - tiklash) dasturini qo‘llashning asosiy prinsiplari to‘g‘risidagi 2002/12-son rezolyusiyasini (Ottava, Kanada) ratifikatsiya qilish; uchinchidan, davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari va xizmatchilarining qonunga xilof deb topilgan qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) natijasida jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan va sudning qonuniy kuchga kirgan qarori bilan aniqlangan zararlar hududiy kompensatsiya jamg‘armalari tomonidan qoplab berilishi hamda tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar, surishtiruv, dastlabki tergov, prokuratura organlari va sudning qonunga xilof deb topilgan harakatlari yoki harakatsizligi tufayli yetkazilgan zarar va ma’naviy ziyonlar to‘lab berilishi maqsadida “Davlat organining yoki uning mansabdor shaxsining qonunga xilof qarori yoki harakati yohud harakatsizligi tufayli yetkazilgan zararining o‘rnini qoplash

⁸² Декларация основных принципов правосудия для жертв преступления и злоупотребления властью (утв. Резолюцией Генеральной Ассамблеи ООН 40/34 от 29 ноября 1985 г.) //Международные акты о правах человека сбор.документов. – М.: 2019. – С. 166-169.

to'g'risida" qonun loyihasini qabul qilish; to'rtinchidan, jinoyat sodir etilishi natijasida jabrlanuvchilarga yetkazilgan zararining to'liq qoplanishini ta'minlash maqsadida sud tomonidan undirilgan majburiy to'lovlar; protsessual majburiyatlarni bajarmaganlik uchun sud tomonidan belgilanadigan jarimalar; axloq tuzatish ishlari yuzasidan sudning qonuniy kuchga kirgan xukmi yoki pul bilan bog'liq jazolardan tushgan tushumlar; regress tartibda undiriladigan pul mablag'lari; O'zbekiston Respublikasi qonunlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan maxsus fond tashkil qilish; beshinchidan, inson huquqlari sohasidagi xalqaro standartlarni qonunchilikka va huquqni qo'llash amaliyotiga implementatsiya qilish hamda monitoring qilish mexanizmlarini takomillashtirish; inson huquqlari sohasida huquqiy savodxonlikni oshirish, jumladan, bu borada axborot tarqatish, ta'lim berish faoliyatini samarali tashkil etish; oltinchidan, inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi xalqaro va mintaqaviy tuzilmalar, xorijiy mamlakatlarning inson huquqlari bo'yicha milliy institutlari bilan hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha ustuvor chora-tadbirlar nazarda tutiladi.

Xalqaro huquqda jinoyat qurbonlarining huquq va manfaatlarini himoya qilish sohasida muhim xalqaro huquqiy asoslar shakllangan. BMT, YEI, Yevropa Kengashi va Xalqaro jinoyat sudi kabi tuzilmalarning hujjatlari bu boradagi kafolatlarni aniq belgilab bergan.

O'zbekiston uchun mazkur xalqaro standartlarning huquqiy va institusional asoslarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda:

- 1) "Jinoyatdan jabrlanganni huquq va manfaatlarini muhofaza qilish to'g'risida" alohida Qonun qabul qilish;
- 2) Davlat byudjeti hisobidan kompensatsiya fondi tashkil etish;
- 3) Sud jarayonida jabrlanuvchining fikrini bildirish, axborot olish va himoya olishini kafolatlash;
- 4) Psixologik, ijtimoiy va huquqiy yordamni tizimlashtirish orqali jabrlanuvchilarning jamiyatga qayta integratsiyasini ta'minlash tavsiya etiladi.

Bu orqali inson huquqlari sohasidagi xalqaro majburiyatlarni bajarish bilan birga, O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning davlatga ishonchi va huquqiy himoya darajasi yanada kafolatlanadi.

Rim statuti (1998) – Xalqaro jinoyat sudining (XJS) asosiy nizomi hisoblanib, unda jabrlanuvchilarning huquqiy maqomi mustaqil tarzda mustahkamlangan. Xususan: 68-modda jabrlanuvchining xavfsizligi, shaxsiy daxlsizligi va daxldorlik huquqini kafolatlaydi;

75-modda tovon to'lash mexanizmlarini joriy etadi, bu esa XJS doirasida maxsus Tovuq jamg'armasini tashkil etish orqali amalga oshiriladi⁸³.

Yevropa Ittifoqi Direktivasi **2012/29/EU** – Yevropa Ittifoqi davlatlari uchun majburiy bo'lib, u jinoyat jabrlanuvchilariga nisbatan hurmat, axborot, huquqiy va ijtimoiy yordam, jismoniy xavfsizlikni ta'minlash, tarjima va psixologik xizmatlar ko'rsatish kabi huquqlarni belgilab beradi⁸⁴.

Inson huquqlari bo'yicha Yevropa Sudi amaliyoti – masalan, Davlat oilaviy zo'ravonlikka qarshi faol chora ko'rmasa, javobgar bo'ladigan ishlarida sud davlatning o'z fuqarolarini jabrlanishdan himoya qilishda yetarli chora ko'rmagani sababli inson huquqlarining buzilishini aniqlagan⁸⁵.

Jabrlanuvchilar huquqlarining mintaqaviy himoya mexanizmlari

Xalqaro himoyadan tashqari, qator mintaqaviy tashkilotlar doirasida ham jabrlanuvchilar huquqlarini ta'minlovchi mexanizmlar mavjud:

Amerika davlatlari tashkiloti doirasidagi Amerika inson huquqlari xartiyasi va Amerika inson huquqlari sudi amaliyotida davlatning jinoyat qurbonlarini himoya qilish majburiyati yuridik jihatdan mustahkamlangan⁸⁶;

⁸³ Rome Statute of the International Criminal Court (1998). Articles 68 and 75. <https://www.icc-cpi.int/sites/default/files/2024-05/Rome-Statute-eng.pdf>

⁸⁴ Directive 2012/29/EU of the European Parliament and of the Council of 25 October 2012. <https://eur-lex.europa.eu/eli/dir/2012/29/oj/eng>

⁸⁵ European Court of Human Rights. *M.C. v. Bulgaria*, App. No. 39272/98; *Opuz v. Turkey*, App. No. 33401/02. [https://hudoc.echr.coe.int/fre#{%22itemid%22:\[%22001-92945%22\]}](https://hudoc.echr.coe.int/fre#{%22itemid%22:[%22001-92945%22]})

⁸⁶ Inter-American Court of Human Rights. *González et al. ("Cotton Field") v. Mexico*, Judgment of 16 November 2009. https://www.corteidh.or.cr/docs/casos/articulos/seriec_205_ing.pdf

Afrika ittifoqining “Afrika inson va xalqlar huquqlari xartiyasi” da ham jabrlanuvchilarning huquqlari, ayniqsa, ommaviy zo‘ravonliklardan keyingi jarayonlarda, keng tarzda nazarda tutilgan⁸⁷.

Yuqorida keltirilgan xalqaro hujjatlar milliy qonunchilikda jabrlanuvchi huquqiy maqomini, uning protsessual huquqlarini, tovon va reabilitatsiya mexanizmlarini mustahkamlashda mezon vazifasini o‘taydi. Hozirgi kunda ko‘pgina davlatlar o‘z milliy qonunlariga BMT, XJS va Yevropa Ittifoqi kabi xalqaro institutlar tavsiyalarini integratsiya qilmoqda. Bu jarayonning huquqiy va institusional uyg‘unligi xalqaro standartlarga mos milliy tizimni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, *jabrlanuvchilarning huquq va manfaatlarini himoya qilish xalqaro huquqda mustaqil institusional yo‘nalish sifatida shakllangan. Mazkur huquqlar adolatli sudlov, tovon to‘lash, kompensatsiya, xavfsizlik, reabilitatsiya, axborot va himoya kabi asosiy mezonlar orqali ta‘minlanadi. Xalqaro hujjatlardagi qoidalar milliy qonunchilikni takomillashtirish uchun huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Milliy va xalqaro mexanizmlarning uyg‘unligi jabrlanuvchilarning samarali huquqiy himoyasini ta‘minlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi.*

3-§. Germaniya Federativ Respublikasi jinoyat-protsessual qonunchiligida jabrlanuvchining manfaatlarini muhofaza qilishning nazariy-huquqiy asoslari

Germaniya Federativ Respublikasi kontinental huquq oilasi mamlakatlari tajribasida jinoyat qurbonining huquqlarini huquqiy tartibga solish Germaniya Federativ Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi, Germaniya Jinoyat kodeksining bir qator normalari (xususan, §46-a bu jinoyat sodir etgan shaxs (aybdor) va jabrlanuvchi o‘rtasida ixtiyoriy muloqot va kelishuvga asoslangan tiklovchi adolat instituti, 59-a) va uchta

⁸⁷ African Commission on Human and Peoples’ Rights. *Principles and Guidelines on the Right to a Fair Trial and Legal Assistance in Africa* (2003). <https://achpr.au.int/en/node/879>

maxsus qonun 1976 yil 11 maydagi Zo‘ravonlik jinoyatlari qurbonlariga tovon to‘lash to‘g‘risidagi qonuni (1985 yil 7 yanvardagi tahrirda amal qiladi), 1998 yil 8 maydagi “Zo‘ravonlik jinoyatlaridan jabrlanganlarning da‘volarini ta‘minlash to‘g‘risida”gi qonuni va 2004 yil 25 iyundagi “Jinoyat protsessida jabrlanuvchilar huquqlarini isloh qilish to‘g‘risida”gi qonuni hamda bir qator boshqa maxsus qonunlar orqali amalga oshiriladi.

Germaniya jinoyat protsessida jabrlanuvchining huquqiy holati asosiy jihatlari bo‘yicha jinoyatdan zarar ko‘rgan shaxs zararining qoplanishi bo‘yicha jinoyat ishi yuritish jarayoniga ta‘sir o‘tkazishning turli imkoniyatlari mavjud. Germaniyada jinoyat ishlari bo‘yicha dastlabki tergovning deyarli yagona shakli qaror chiqarilgan paytdan boshlab, jabrlanuvchiga tergov organlarining uni qanoatlantirmagan qarorlari ustidan shikoyat qilish imkoniyati beriladi, agar u zarar yetkazgan shaxsni jinoiy javobgarlikka tortishga intilayotgan bo‘lsa, ish bo‘yicha majburiy ayblov ishini ochishni talab qilish huquqiga ega.

Jabrlanuvchining iltimosiga ko‘ra, uning advokatiga ish materiallari bilan tanishish imkoniyati berilishi mumkin, bosharti bu boshqa shaxsning qonuniy manfaatlariga zid kelmasa, ish bo‘yicha tergov maqsadiga erishish uchun xavf tug‘dirmasa yoki jarayonning sezilarli darajada cho‘zilishi xavfini yuzaga keltirmasa (406e GFR JPK).

Jabrlanuvchi protsessda advokat tomonidan himoya qilinishi mumkin. jabrlanuvchining advokati prokuratura va sudda jabrlanuvchining so‘roq qilinishida ishtirok etish; guvohlar va protsessning boshqa ishtirokchilariga savollar berish; ishni ko‘rib chiqishning oshkora yoki yopiq tartibda ko‘rilishini jabrlanuvchi bilan kelishish huquqiga ega.

Agar zarar xususiy shikoyat shaxsiy ayblov asosida ta‘qib qilinadigan huquqbuzarlik (delikt) natijasida yetkazilgan bo‘lsa, jabrlanuvchi sud yoki prokuraturaga xususiy ayblov ishi bo‘yicha jinoyat ishi qo‘zg‘atish haqida iltimos qilishga haqlidir, prokuratura ushbu ishda bunday ishni qo‘zg‘atishni o‘z zimmasiga olish uchun yetarli darajada “jamoat manfaati”ni ko‘rmagan holatlar mustasno.

Agar ish bo'yicha ommaviy ayblov qo'zg'atiladigan bo'lsa, jabrlanuvchi keyinchalik xuddi shu maqomda sud majlisida (Hauptverhandlung ya'ni sudda dalillar tekshiriladigan va ish mohiyati hal qilinadigan asosiy bosqich.) ishtirok etish uchun qo'shimcha ayblovchi Nebenkläger ya'ni Germaniya jinoyat protsessida jabrlanuvchi (yoki uning qonuniy vakili)ning prokuror bilan bir qatorda ayblov tomonida faol ishtirok etishini anglatadi. Bunday holatda jabrlanuvchi o'z iltimosnomalarini va shikoyatlarini prokuraturadan mustaqil ravishda kiritishi mumkin. Zarar yetkazishda aybdor bo'lgan shaxsga ayblov e'lon qilinishidan oldin ham, jabrlanuvchi advokat xizmatlaridan foydalanishi mumkin. Bundan tashqari, u sud muhokamasida, guvohlarni sudyalardan so'roq qilishda va yuzlashtirish tergov harakatlarida ishtirok etishga, kechiktirib bo'lmaydigan holatlarda, jabrlanuvchiga protsessual yordam (Beistand - jinoyat (yoki boshqa) protsessida asosiy ishtirokchiga huquqiy, ma'naviy yoki protsessual yordam berish uchun jalb etiladigan shaxs) tartibida sud tomonidan advokat tayinlanishi mumkin (masalan, jinsiy zo'rqlash to'g'risidagi xususiy ayblov ishlari bo'yicha §406g GFR JPK).

Jabrlanuvchi jinoyat protsessi doirasida yetkazilgan zararni undirish bo'yicha jinoyat ishidagi fuqarolik da'vosini ko'rib chiqishda ishtirok etishi mumkin. Bunday ishlar sud tomonidan GFR Fuqarolik-protsessual kodeksi normalari asosida ko'rib chiqiladi. Ushbu ish yuritishda prokuratura ham ishtirok etadi.

Jinoyat ishi yuzasidan fuqarolik da'vosi bildirilganda, jabrlanuvchidan unga qarshi jinoyat sodir etilishi jarayonida olib qo'yilgan ko'char mulklar agar uchinchi shaxs da'vo qilmagan holatlarda, imkon qadar tezroq jabrlanuvchiga qaytarilishi kerak (§111k GFR JPK).

Bundan tashqari, jinoyatning mulkiy predmeti, agar u musodara qilinishi lozim bo'lmasa, ushbu ashyoni saqlash va keyinchalik jabrlanuvchiga topshirish maqsadida hibsga olinishi mumkin (§111b, §111g, §111l GFR JPK).

Sud muhokamasi davomida sud jabrlanuvchining manfaatlarini himoya qilish maqsadida ishni oshkora yoki yopiq holatda o'tkazishi mumkin, shu bilan birga, jabrlanuvchi sud majlisiga qatnashishi lozim (§171b, §175 Sud tuzilishi to'g'risidagi qonun).

Yuqorida ta'kidlanganidek, Germaniyada ichki (milliy) huquq bilan bir qatorda Yevropa huquqining ta'siri ham juda kuchlidir. Shu sababli kompensatsiya to'g'risidagi qonunchilik ham BMT huquqiy hujjatlariga, ham Yevropa Kengashi huquqiy hujjatlariga tayanadi.

Yevropa Kengashi hujjatlari orasida 1983 yilda qabul qilingan va 1988 yilda kuchga kirgan, Germaniya tomonidan ratifikatsiya qilingan "Zo'ravonlik jinoyatlari qurbonlariga kompensatsiya to'g'risidagi Yevropa Konvensiyasi"ni alohida qayd etish lozim. "Konvensiya mazmuni ancha ilg'or bo'lishiga qaramay, davlatning jinoyat qurbonlariga moddiy yordam ko'rsatish majburiyatini yuklaydi. Ushbu Konvensiya normalarini rivojlantirish maqsadida 1985 yil 28 iyunda Yevropa Kengashi Vazirlar Qo'mitasining §R(85) 11§ -sonli Tavsiyasi qabul qilingan. Germaniyaning 1976 yil 11 maydagi "Jinoyat qurbonlariga zararni qoplash to'g'risida"gi Qonunni yetakchi hisoblanadi. 1-§ ga muvofiq, "kimda-kim ushbu qonun amal qiladigan hududda yoki Germaniya dengiz yoki havo kemasida o'ziga nisbatan amalga oshirilgan qasddan, g'ayriqonuniy va oshkora zo'ravonlik hujumi oqibatida yoxud zaruriy mudofaa jarayonida salomatligiga zarar yetgan bo'lsa, u bergan iltimosnomasiga asosan Federal ijtimoiy ta'minot to'g'risidagi qonunning tegishli normalarini qo'llash orqali ijtimoiy ta'minot oladi". Ushbu qonun qoidasini qo'llash, hatto hujum qilgan shaxs o'z harakatlarining qonuniyligini noto'g'ri anglagan (yuridik xato) vaziyatda harakat qilgan bo'lsa ham istisno etilmaydi.

Bunda haqiqiy (oshkora) zo'ravonlik hujumi juda keng talqin qilinadi, xususan, jabrlanuvchiga qasddan zahar berish va bunda uning yoki jamiyatning hayoti va sog'lig'iga tasodifan bo'lsa ham xavf soluvchi umumiy xavfli vositalarni yaratish ham unga teng deb topiladi. Avtohalokat va boshqalar natijasida sog'liqqa yetkazilgan zarar ham xuddi shunday baholanadi.

1976 yilgi Qonunning 1-§, 4-qismiga ko'ra, xorijiy fuqaro jinoyatdan sog'lig'iga yetkazilgan zarar uchun ijtimoiy ta'minotni talab qilish huquqiga ega, agar u Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlardan birining fuqarosi bo'lsa, unga nisbatan xorijiy fuqarolarga nemislar bilan teng munosabatda bo'lishni belgilaydigan Yevropa Ittifoqining huquqiy hujjatlari qo'llanilsa Xorijiy davlat fuqarosi bo'lgan Germaniya

fuqarolariga o'zaro yoki xalqaro kafolati beriladi. Xorijiy fuqarolar va qarindoshlarning huquqlari Yevropa standartlari asosida himoyalanaadi.

Kompensatsiya asosida "Nemislar kabi" nafaqa Germaniya Federativ Respublikasi hududida kamida uch yil qonuniy va uzluksiz ravishda bo'lib turgan xorijiy fuqarolarga berilishi belgilangan bo'lsada istisno tariqasida daromad miqdoriga bog'liq bo'lmagan to'lovlarni Germaniya hududida hali uch yil uzluksiz va qonuniy yashamagan xorijiy fuqarolar ham olishlari mumkin.

Jinoyatdan jabrlangan shaxsning qarindoshlari ham, ayniqsa, jinoyat qurboni vafot etgan taqdirda, o'z talablari (iltimosnomalari) asosida Federal ijtimoiy ta'minot to'g'risidagi qonun normalariga muvofiq, ta'minot olishadi. Yevropa Ittifoqining a'zosi sifatida Germaniyada jinoyat qurbonlariga nafaqat sud jarayonida, balki bu jarayondan oldin va keyin ham jabrlanuvchilarga yordam berish bo'yicha bir qator tadbirlarni amalga oshirishda yuqori darajadagi himoya ta'minlanadi. Bu holat Germaniyani, Yevropa Ittifoqining boshqa a'zo davlatlari kabi, 2001 yil 15 martdagi Yevropa Kengashining "Jinoiy jarayonda jabrlanuvchining holati to'g'risida"gi umumiy qarori ishtirokchisiga aylantiradi. Natijada, Germaniya 2001 yildan so'ng jinoyat protsessida jabrlanuvchining holatini mustahkamlaydigan va uning huquqlarini, xususan, ko'rgan zararini qoplash bo'yicha huquqlarini kengaytiradigan bir qator yangi normativ hujjatlarni qabul qilishga majbur bo'lgan. Ular orasida eng muhimi 1998 yil 8 maydagi "Jabrlanuvchining da'volarini ta'minlash to'g'risida"gi Qonuni hisoblanadi. U jabrlanuvchi ko'rgan moddiy zararni kompensatsiya qilish tartibini har tomonlama tartibga soladi, unga qarshi sodir etilgan jinoyat xarakterini hisobga olgan holda, yetkazilgan zararining to'liq kompensatsiyasiga erishishning turli mexanizmlarini taklif qiladi. Masalan, agar jabrlanuvchiga nisbatan zo'ravonlik tajovuzi sodir etilgan bo'lsa, uning kompensatsiya talabi bilan bergan arizasiga javoban, unga Federal ijtimoiy ta'minot to'g'risidagi qonun (*Bundesversorgungsgesetz*) qoidalariga muvofiq, davlat tomonidan zararining qoplanishi ta'minlanadi.

Agar ish materiallarida ayblanuvchining prokuratura va sud bilan sudgacha hamkorlik to'g'risidagi kelishuvi mavjud bo'lsa, kelajakdagi hukmda jazoni

yengillatish va ehtimoliy shartli hukm qo'llashning majburiy sharti sifatida unga yetkazilgan zararni ixtiyoriy ravishda qoplash majburiyatini yuklash masalasi hal qilinadi. Masalan, Ijtimoiy ta'minot to'g'risidagi Qonunning §459-a-§ sida ayblanuvchi tomonidan yetkazilgan zararni qoplashning, sud tomonidan jazo sifatida tayinlangan jarimadan (transaksiya), shuningdek, protsessual xarajatlarni undirishdan ko'ra ustuvorligi e'lon qilinadi.

Tadqiqotimiz uchun o'ziga xos va, shubhasiz, qiziqarli bo'lgan jihat bu Germaniya soliq qonunchiligining, jinoyat sodir etganlik uchun hukm qilingan shaxslar o'zlarining "jazoni ijro etish" hayotini tasvirlash orqali qilish va bunday materiallarni nashr etish huquqi uchun OAVdan gonorar olish huquqiga egaligi to'g'risidagi qoidadir. Shu bilan birga, jabrlanuvchilarga ko'pincha sud tomonidan tan olingan moddiy va ma'naviy zararni aynan shunday gonorarlardan undirish qiyin bo'ladi. Shuni hisobga olgan holda, Germaniyaning "Ijtimoiy ta'minot to'g'risidagi Federal Qonuni" 1-§ da jabrlanuvchining yuqorida tilga olingan gonorarlarni olishga bo'lgan hukm qilingan ayblanuvchining talablariga nisbatan bevosita huquqini nazarda tutadi.

1976 yildagi "Zo'ravonlik jinoyatlari qurboniga zararni qoplash to'g'risida"gi Qonunining 1-§, 1-qismi sog'liqqa yetkazilgan zararni qoplashda qasddan, g'ayriqonuniy, ushbu yoki boshqa shaxsga qaratilgan hujum oqibatida yoxud bunday hujumni qonuniy qaytarish jarayonida sog'liqqa zarar yetkazilganda amalga oshiriladi. Agar bunda qurbonning o'zi (jabrlanuvchi) o'ldirilgan bo'lsa, uning oila a'zolarining ta'minoti ularning talabi (arizasi) asosida "Jinoyatlardan jabrlanganlarga zararni qoplash to'g'risidagi Federal Qonun"ning tegishli normalari asosida amalga oshiriladi. Bu talablarning mazmuniga kelsak, gap birinchi navbatda davolash va boshqa tibbiy yordam ko'rsatish, kasbiy reabilitatsiya choralari, boquvchisini yo'qotganlik uchun pensiya huquqini rasmiylashtirishga yordam va shu kabilar haqida boradi.

Shu bilan birga, mazkur Qonunning 2-§ da zararni qoplashni istisno eadigan holatlari (1- va 3-qismlar) ko'rsatilgan. Agar jabrlanuvchining o'zi zarar yetkazgan yoki jinoyatga undagan bo'lsa yoki uning xatti-harakati da'vo bildirish uchun

noqonuniy asoslari (unbillig wäre) bo'lsa; yoxud jabrlanuvchi jinoyat fakti haqida darhol vakolatli organlarga xabar bermagan va shu orqali ish holatlarini tergov qilish hamda ayblanuvchini muvaffaqiyatli ta'qib qilishga yordam berish uchun qo'ldan kelgan barcha ishni qilishdan o'zini olib qochgan bo'lsa. Qayd etilayotgan 1976 yilgi Qonunga muvofiq, Germaniya davlati jabrlanuvchiga nafaqa to'laydi, shuningdek, jabrlanuvchilarni tezroq rehabilitatsiya qilishga qaratilgan quyidagi kompensatsion imtiyozlarni taqdim etadi: umumiy tibbiy yordam; stomatologik yordam; sanatoriya-kurortda davolanish; ro'zg'or ishlarini olib borish uchun ijtimoiy xodim ajratish; mehnatga layoqatsizlik uchun to'lov; nogironlik uchun to'lov; jabrlanuvchining og'ir kasalligi yoki nogironligi sababli ishga joylashishdagi qiyinchiliklar bo'lgan taqdirda kompensatsiya to'lovlari (kuniga 36 yevrodan).

Qonunda jabrlanuvchiga zarar yetkazgan ayblanuvchiga qarshi fuqarolik-huquqiy da'volarini jinoyat protsessida ko'rib chiqishni talab qilish huquqini beradi. Sud hech qanday bahona bilan buni rad etishga haqli emas. Shuningdek, fuqarolik-huquqiy da'volar bo'yicha tomonlar kelishuvlarini tuzish imkoniyati paydo bo'ldi, bu kelishuv barcha ishtirokchilar tomonidan majburiy ijro etilishi kerak (406-§ GFR JPK). Shuni ta'kidlash joizki, jabrlanuvchi o'zining mulkiy da'volari bo'yicha ishini yer sudiga (Landgericht) o'tkazishni qat'iy talab qilsa, sud hokimiyati unga yon berishi mumkin, hatto boshqa mezonlar bo'yicha ish uchastka sudida (Amtsgericht) ko'rilishi lozim bo'lsa ham.

1976 yildagi "Zo'ravonlik jinoyatlari qurbonlariga zararni qoplash to'g'risidagi Qonun"i (1-§) ga muvofiq, zo'ravonlik jinoyati natijasida yetkazilgan zararni qoplashga bo'lgan da'voni, Germaniya hududida (shu jumladan, Germaniya kemasi yoki samolyotida) qasddan, g'ayriqonuniy va zo'ravonlik hujumi natijasida, ushbu yoki begona shaxsga qaratilgan bo'lsa-da, yoxud bunday hujumdan qonuniy mudofaa natijasida sog'lig'iga zarar yetkazilgan shaxs bildirishga haqlidir. Jabrlanuvchining talabiga ko'ra, unga "Ijtimoiy ta'minot to'g'risidagi Federal Qonun" normalariga muvofiq, nafaqa beriladi. Bunda zo'ravonlik hujumiga quyidagilar tenglashtiriladi:

a) qasddan zaharlash;

b) kamida ehtiyotsizlik yoki beparvolik tufayli begona shaxsning hayoti va sogʻligʻi uchun xavfli vaziyatni yaratish.

Jinoyat natijasida yetkazilgan zararni qoplash sifatida toʻlovlarni tayinlash muammosiga nemis yondashuvining oʻziga xos xususiyatini qayd etish lozim. Germaniyada yozma qonunni qoʻllashga asoslangan Yevropa kontinental huquqi mamlakati boʻlishiga qaramay, Germaniya sud amaliyotini sud pretsedentlaridan foydalanishga yoʻnaltiradi (aslida Germaniyada bu mumkin, chunki zararni qoplash masalalari boʻyicha barcha sud qarorlari tizimlashtirilgan va doimiy ravishda eʼlon qilib boriladi). Bundan tashqari, maʼnaviy zararni kompensatsiya qilish haqida gap ketganda, ishlar deyarli 100% holatda pretsedentlar asosida koʻrib chiqiladi.

Davlat organlaridan tashqari, jinoyat natijasida yetkazilgan zararni qoplashda jabrlanuvchilarga xayriya tashkilotlari ham bepul yordam koʻrsatadilar. Ular buni tezkorlik bilan (jabrlanuvchi politsiyaga murojaat qilgandan keyin toʻrt kun ichida) va qatʼiy maxfiylik asosida amalga oshiradilar.

Germaniyada, xuddi AQSH va Buyuk Britaniyada boʻlgani kabi, davlat hisobidan kompensatsiya dasturi faqatgina hayot va sogʻliqqa qarshi sodir etilgan jinoyatlar natijasida yetkazilgan zararga nisbatan amal qiladi. Boshqa holatlarda zarar keng tarmoqli sugʻurta tizimi, shu jumladan, majburiy sugʻurta hisobidan qoplanadi.

Qoplash summasi fuqarolik-huquqiy jarimalar bilan solishtirilganda ham gʻayrioddiy katta boʻlishi mumkinligini hisobga olib, bir qator mamlakatlarda, jumladan, Germaniyada ham, zararni qoplash normalari jinoyat qonunchiligiga kiritilgan. Bizningcha, bu qonun chiqaruvchi tomonidan jinoyat natijasida yetkazilgan zararni qoplash institutining ikki tomonlama tabiati tan olinganidan dalolat beradi. Ushbu institut adolat ishiga maksimal foyda keltirish uchun, deyarli mukammal uygʻunlikda tartibga solingan fuqarolik huquqi va himoya xususiyatiga ega boʻlgan, fuqarolik huquqida mavjud boʻlmagan oʻziga xos va oʻta qatʼiy huquqiy tartibga solish usuliga urgʻu beradigan jinoyat huquqi oʻrtasida “boʻlingan”.

Germaniya jinoyat protsessi fanida jabrlanuvchi shaxsi haqida koʻpincha jinoyatdan jabrlangan va xususiy ayblovchi sifatida jinoyat jarayonida ishtirok etish huquqiga ega boʻlgan shaxs sifatida soʻz yuritiladi. Biroq amaldagi Germaniya JPKda

aynan jabrlanuvchiga, jabrlanganga emas, balki kompensatsiya to'lashga bag'ishlangan bob mavjudligini hisobga olsak, bunday pozitsiyaga qo'shilish qiyin. Bunda Germaniya JPKning 5-kitobining 3-bobi nazarda tutiladi. Bundan tashqari, GFR JPKning 4-kitobi "Jabrlanuvchining boshqa vakolatlari" (404-§ "Jabrlanuvchining iltimosnomasi") deb nomlanadi. 5-kitobning 3-bobi esa umuman "Jabrlanuvchiga zararni qoplash" deb nomlangan. Ushbu kodeks "jabrlanuvchi" tushunchasining to'liq va benuqson ta'rifini o'z ichiga olmaydi. Shu bilan birga, 403-§ ning qisqacha qoidasiga amal qilish mumkin, u jabrlanuvchini Germaniya JKda ko'rsatilgan bir yoki bir nechta harakat sodir etilgan shaxs sifatida belgilaydi.

Germaniyalik tadqiqotchi M. Daymagyuler jinoiy jazolanadigan harakatdan zarar ko'rgan jabrlanuvchi huquqlariga bag'ishlangan ishida jabrlanuvchiga o'ziga xos ta'rif beradi "jinoiyatdan tibbiy yoki iqtisodiy zarar ko'rgan shaxs" bu zararni aybdordan fuqarolik-huquqiy tartibda qoplashni talab qilishi mumkin. Tegishli fuqarolik da'vosini bildirish ko'pincha yetarli bo'ladi, lekin amalda bu har doim ham mumkin emas, chunki adliya aybdorni hibsga ola olmaydi, ayni paytda aybdorda zararni qoplash uchun mulk yetishmasligi mumkin, jabrlanuvchi fuqarolik huquqida yetarli darajada qoplashni nazarda tutmagan juda katta zarar ko'rgan holatlarni aytmasa ham bo'ladi. Bunday vaziyatda jabrlanuvchini moddiy qo'llab-quvvatlashning alohida muhim vositasi "Jinoiyat qurbonlariga zararni qoplash to'g'risidagi Qonun" hisoblanadi.

1976 yil 11 maydagi mazkur qonun muayyan shartlar mavjud bo'lganda zo'ravonlik tajovuzlaridan jabrlanganlarga davlat hisobidan zararni qoplashni talab qilish huquqini beradi. Qonunning o'zi ikki g'oyaga asoslanadi: 1) fuqarolarning asosiy huquqlarini konstitutsiyaviy himoya qilishni amalga oshirishga majbur bo'lgan davlat, shaxs huquqlarining buzilishini davlatning hokimiyat monopoliyasini amalga oshirishga to'sqinlik sifatida qaraydi; 2) davlatning zo'ravonlik tajovuzlari qurbonlariga g'amxo'rlik qilish majburiyati Germaniya Konstitutsiyasida mustahkamlangan ijtimoiy davlat tamoyilidan kelib chiqadi.

Ko'rib chiqilayotgan qonun vaqt va makonda qo'llaniladi, ularning chegaralari aniq belgilab qo'yilgan. 1976 yil 11 maydagi Qonunning 1-§,

1-qismiga ko'ra, jinoyatdan zararni qoplash huquqi faqat jabrlanuvchining sog'lig'iga zarar yetkazilishi Germaniya Federativ Respublikasi hududida, yoki Germaniya kemasida, yoxud Germaniya havo kemasida sodir etilgan taqdirdagina beriladi. Xorijda yetkazilgan zarar uchun Germaniya fuqarolari va ularga tenglashtirilgan xorijiy fuqarolar 1976 yil 11 maydagi Qonunning 3-a-§ si asosida qoplashni talab qilishlari mumkin, bu modda zararni qoplash sharti sifatida jabrlanuvchining Germaniyada doimiy va qonuniy yashash joyiga ega bo'lishi hamda jinoyat sodir etilgunga qadar GFR hududidan tashqarida olti oydan ortiq yashamagan bo'lishi lozimligini belgilaydi.

Vaqt jihatidan ushbu qonun, asosan, faqat 1976 yil 16 maydan mazkur qonun kuchga kirgan sanadan kech bo'lmagan holda sodir etilgan harakatlarga nisbatan tatbiq etiladi. Sobiq GDR hududida sodir etilgan jinoyatlarga kelsak, ulardan yetkazilgan zararni qoplash faqat jinoyat sodir etilgan vaqt 1990 yil 2 oktabrdan keyingi davrga to'g'ri kelgan taqdirdagina mumkin bo'ladi (1976 yil 16 maydagi Jinoyatdan zararni qoplash to'g'risidagi Qonunning 10-§ i). 1990 yil 2 oktabrgacha GDRda sodir etilgan harakatlardan zararni qoplashga faqat istisno tariqasida ruxsat beriladi (3-a va 10-§, 6-qism).

Sud jarayonida jabrlanuvchining guvohlik ko'rsatmalari video yozuv orqali qayd etilishi mumkin.

Politsiya, prokuratura va sud organlari ayblanuvchi jinoyatchiga sud hukmi bilan belgilangan jazo muddati boshlangani yoki tugagani haqida jabrlanuvchini doimiy ravishda xabardor qilib turish majburiyatiga ega.

Biroq bunday ma'lumotni olish uchun jabrlanuvchi sudga maxsus ariza bilan murojaat qilishi kerak bo'ladi. Bu ariza jabrlanuvchiga nisbatan jinoyat sodir etgan shaxsning ozodlikka chiqishi yoki jazoning muddati tugashi haqida oldindan xabardor bo'lish imkonini beradi.

Shuningdek, jabrlanuvchi sud raisi nomiga maxsus yozma ariza yozib, davlat hisobidan advokat tayinlanishini so'rash huquqiga ega. Bunday huquq voyaga yetmagan jabrlanuvchilarga (18 yoshga to'lmaganlarga) avtomatik ravishda beriladi.

Katta yoshdagilar esa faqat ayrim hollarda ya'ni jinoyat juda og'ir turdagi bo'lganda, yoki jabrlanuvchi jismoniy yoki psixologik jihatdan o'z huquqlarini mustaqil himoya qila olmaydigan holatda bo'lgandagina davlat hisobidan himoyachi tayinlanish huquqiga ega bo'ladi.

Jinoyat adliyasi tizimining "jabrlanuvchiga yo'naltirilgan" modeli jabrlanuvchining faol rolini mustahkamlaydi, uni passiv guvoh emas, balki protsessning teng huquqli ishtirokchisi sifatida tan oladi.

Jabrlanuvchiga yetkazilgan moddiy yoki ma'naviy zararining qoplanishi jinoyat protsessi doirasida talab qilinishi mumkin.

Agar jabrlanuvchi jismoniy zo'ravonlik natijasida jabr ko'rgan bo'lsa, davlat uning zararini o'z hisobidan qoplash majburiyatini olgan (*Bundesgesetz vom 8. Mai 1998 – Gesetz zur Sicherung der Ansprüche von Verletzten*).

Ushbu islohotlar natijasida Germaniya jinoyat-protsessual huquqi "jabrlanuvchi markazlashgan adolat tizimi" tomon harakat qila boshladi. Bu holat jabrlanuvchining protsessdagi faol ishtiroki, shaxsiy daxlsizligi, davlat tomonidan himoyalaniish va kompensatsiya olish huquqlarini amaliy jihatdan mustahkamlaydi.

4-§. Angliya jinoyat-protsessual huquqi doktrinasida jabrlanuvchi huquqiy maqomining ilmiy-nazariy talqin etilishi

Angliya jinoyat-protsessual huquqi doktrinasida jabrlanuvchining genezisi, tarixdan ma'lumki "guvoh" maqomidan zamonaviy "manfaatli shaxs" maqomiga o'tishini aks ettiradi.

Zamonaviy doktrinal yondashuvlar jabrlanuvchini muhofaza qilish, uni xabardor qilishga va sud jarayonidagi ishtirokini ta'minlashga qaratilgan, lekin bu ayblanuvchining asosiy huquqlarini buzmasligi kerak, degan an'anaviy prinsipni saqlab qolgan.

Ayblanuvchi o'rtasidagi raqobatli (adversarial) jarayondir. Jabrlanuvchi jinoyat ishining protsessual tarafi (ayblovchi yoki fuqaroviy da'vogar) sifatida emas, balki davlatning asosiy guvohi sifatida qatnashadi.

Angliyada birinchi bosqich 1990-yil 22 fevralda jabrlanuvchilar uchun "Jabrlanuvchilar Huquqlari To'g'risidagi Xartiya" qabul qilinishi bilan bog'liq bo'lib, biroq hujjat majburiy huquqiy kuchga ega emas edi, balki asosan ma'muriy tavsiyaviy xarakterga ega hisoblangan. 1990 va 1996 yillarda qabul qilingan Jinoyat qurbonlari huquqlari bo'yicha hukumat xartiyalarida odil sudlov organlari jinoyat qurbonlari bilan muomalada bo'lish jarayonida rioya etishi lozim bo'lgan asosiy qoidalar (meyoriy standartlar) bayon etilgan. Biroq mazkur hujjatlar 2005 yilda qabul qilingan Jinoyat qurbonlari bilan muomala qilish amaliyoti kodeksi (Code of Practice for Victims of Crime) bilan almashtirilgan.

Shuningdek, jinoyat qurbonlari bilan muomala qilish amaliyoti kodeksi (keyingi o'rinlarda Kodeks amaliyoti, *Code of Practice for Victims*) deklarativ xususiyatga ega bo'lib, jabrlanuvchilarga asl huquqiy kafolatlar bermagan⁸⁸.

Asosiy islohotlar ikkinchi bosqichda 2004-2006 yillar amalga oshirilgan bo'lib, jabrlanuvchilarni muhofaza qilishning huquqiy manbasi sifatida majburiy kuchga ega bo'lgan "Jinoyat qurbonlari uchun protsessual kodeksi" qabul qilingan. Uning qabul qilinishiga asos bo'lgan Qonun 2004 yilda qabul qilingan va 2006 yil 3 aprelda kuchga kirgan. Kodeksga muvofiq, jabrlanuvchining shaxsiy arizasi asosida jinoyat natijasida yetkazgan jismoniy, ruhiy yoki moddiy ta'sirini sudga tushuntirish imkonini beradi. Bu bayonot ayblovning asosiga emas, balki asosan jazo tayinlash bosqichida sudya tomonidan e'tiborga olingan. Bu jabrlanuvchining "eshitilish" (to be heard) huquqini ta'minlaydi, lekin uning "adolatga erishish" (to achieve justice) huquqini to'liq qamrab olmaydi. Angliyada prokuraturasi (CPS) jinoyat ishini tugatish yoki ayblovni qo'llashdan bosh tortish to'g'risida qaror qabul qilsa, jabrlanuvchi ushbu qarorni qayta ko'rib chiqishni talab qilish huquqiga ega. Bu

⁸⁸ *Code of Practice for Victims of Crime (2005)* — декларатив хужжат бўлиб, жабрланувчиларга ҳуқуқий мажбуриятлар юклатмаган, балки амалий йўриқнома сифатида хизмат қилган// <https://www.gov.uk/government/publications/the-code-of-practice-for-victims-of-crime/>

kontinental huquq tizimidagi yuqori turuvchi prokurorga shikoyat qilishga o'xshash, lekin aniq va belgilangan protsessual tartibga ega bo'lgan o'ziga xos mexanizm bo'lib, jabrlanuvchiga Davlat ayblovidagi sustkashlikka ta'sir qilish imkonini beradi.

Angliya jinoyat protsessida jabrlanuvchi muhofazasining o'ziga xosligi bu protsessual taraf sifatida to'liq ishtirok etish huquqi emas, balki davlat tomonidan muhofaza qilish, axborot va yordam olish huquqining ustunligidadir. Xususan, agar biror kishi jinoyat jabrlanuvchisiga aylansa, u hech bo'lmaganda quyidagi huquqlarga ega bo'ldi:

- jabrlanuvchining huquqlari to'g'risida politsiyani xabardor qilish;
- jabrlanuvchilarni qo'llab-quvvatlash tashkilotlari to'g'risida axborot olish (ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va psixologik yordam beruvchi tashkilotlar);
- muntazam ravishda ishning qaysi bosqichda ko'rilayotganligi to'g'risida xabardor bo'lish;
- ayblanuvchining qachon hibsga olinishi, sudlanishi va jazolanishi hamda qachon ozodlikka chiqarilishi to'g'risida jabrlanuvchi xabardor qilib turiladi;
- jabrlanuvchining kompensatsiya olish huquqi va boshqalar.

Shuningdek, Buyuk Britaniyada jabrlanuvchiga ikki xil shaklda kompensatsiya to'lovlari amalga oshiriladi:

1. Sud hukmiga asosan jinoyat sodir etgan ayblanuvchi tomonidan;
2. Davlat fondi tomonidan to'lanadigan kompensatsiya⁸⁹.

Buyuk Britaniyada ichki ishlar vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan kompensatsiya to'lash dasturi mavjud. Unga ko'ra:

- Angliya, Uels, Shotlandiyada jinoyat natijasida yetkazilgan zararni qoplash jadvali; (The Criminal injuries Compensation Scheme 2009)⁹⁰;
- Shimoliy Irlandiyada jabrlanuvchilarga jinoyat natijasida yetkazilgan tan jarohatining darajasiga qarab to'lanadigan kompensatsiya jadvali (Northern Ireland Criminal Injuries Compensation Scheme 2012);

⁸⁹ Савицкий В. Возмещение ущерба –государством. На кем именно, в каких случаях и из каких средств? / Российская юстиция. – 2012. – № 6. – С.12-13.

⁹⁰ Criminal injuries Compensation Act 1995. <https://www.sentencingcouncil.org.uk/wp-content/uploads>.

– Angliya va Uelsda fond hisobidan juda muhtoj hamda kam ish haqi oladigan fuqarolarga to‘lanadigan kompensatsiya to‘lovlari jadvali (Hardship Fund);

– Angliya va Uelsda ommaviy tartibsizliklar oqibatida yetkazilgan zararni qoplash jadvali (Criminal injuries compensation a guide). Ushbu fond 2016 yil tashkil etilgan.

Angliyada kompensatsiya miqdori ichki ishlar vazirligining 1988 yil qabul qilingan maxsus yo‘riqnomasi asosida belgilangan. Bunda jinoyatning og‘irlik darajasiga qarab taqsimlangan. Masalan, biror tanasi yaralansa 50 funt sterling, oldidagi tishini yo‘qotsa 1000 funt sterling, yon tishlarni yo‘qotsa 250-800 funt sterling, burni sinsa 550 funt sterling, jag‘i sinsa 1750 funt sterling, jinsiy zo‘rlik ishlatsa 5000 funt sterling, ko‘z nurini yo‘qotsa 13 000 funt sterling va boshqalar.

Angliya umumiy huquq tizimiga mansub davlatlarda raqobatbardosh sudlov tizimining shakllanishi va rivojlanishi natijasida jinoyat protsessida tub o‘zgarishlar sodir bo‘lgan. Davlat ayblovi va ayblanuvchi o‘rtasidagi tortishuvga asoslangan mazkur tizimda jabrlanuvchining ishtiroki deyarli yo‘qolgan. Raqobatbardosh adolat modeli o‘z mohiyatiga ko‘ra faqat huquqbuzarni jazolashni emas, balki ayblov va himoya taraflari o‘rtasida protsessual tenglikni ta‘minlashni ham maqsad qilgan bo‘lib, natijada jinoyat protsessi ustidan davlatning monopol nazoratini qaror toptirgan.

Jinoyat ishini ko‘rib chiqish jarayonida sud oldida turgan asosiy masala davlat tomonidan ayblanuvchining aybini taraflar to‘plagan va taqdim etgan dalillar asosida har qanday aqliy shubhadan xoli ravishda isbotlash imkoniyati mavjud yoki mavjud emasligini aniqlashdan iboratdir.

Umumiy huquq tizimiga mansub davlatlarda, xususan, Buyuk Britaniyada jinoyat protsessidagi raqobatbardoshlik to‘g‘risidagi an‘anaviy tasavvurlar hozirgi vaqtga qadar jabrlanuvchining ishtirokini amalda nazarda tutmagan. Shu bois, jabrlanuvchi protsessda ikkinchi darajali ishtirokchi sifatida yoki faqatgina guvoh maqomida namoyon bo‘ladi.

Advokatlar va huquqiy kasb egalari jabrlanuvchini odil sudlov tizimining faoliyatini ta‘minlovchi vositalardan biri sifatidagina baholab kelganlar.

Vaqt o'tishi bilan Buyuk Britaniya jinoyat protsessida jabrlanuvchining maqomiga oid qarashlarda ma'lum darajada o'zgarishlar kuzatila boshladi. Jabrlanuvchiga maxsus huquqlar berish zarurati haqidagi talablar tobora ko'proq ilgari surilmoqda. Xususan, jinoyat ishi bo'yicha tergov va sud jarayonining borishi to'g'risida ma'lumot olish huquqi, shuningdek, huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan hurmat va hamdardlikka asoslangan munosabatni ta'minlash masalalari shular jumlasidandir.

Ilgari jinoyat huquqi va protsessi bo'yicha ilmiy adabiyotlarda jabrlanuvchi ko'p hollarda "unutib yuborilgan shaxs", "mutaxassislar ko'zida inson emas", yoki "jinoyat huquqining zolushkasi" sifatida ta'riflangan. XXI asrda esa huquqshunolar va siyosatchilarning fikriga ko'ra, jabrlanuvchi shaxsi odil sudlov tizimining markaziga chiqishi, unga nisbatan e'tibor faqat xayriya tashkilotlari emas, balki odil sudlov tizimiga kiruvchi barcha muassasalar tomonidan ham ta'minlanishi lozim.

Buyuk Britaniya odil sudlov tizimida jabrlanuvchi maqomiga oid islohotlar doirasida xalqaro odil sudlov standartlarini joriy etish hamda ayrim inkvizitsion (tergovga asoslangan) tizim unsurlarini kiritish to'g'risidagi talablar ham ilgari surilmoqda.

So'nggi yillardagi Britaniya qonunchiligida amalga oshirilgan yangiliklarning asosiy qismi jabrlanuvchining jinoyat protsessidagi huquqiy maqomini mustaqamlashga emas, balki uning uchun taqdim etiladigan xizmatlar doirasini kengaytirishga qaratilgan. Bu xizmatlar jinoyat ishi bo'yicha dastlabki tergov, sud jarayoni va hukm chiqarilgandan keyingi bosqichlarda ko'rsatiladigan moddiy va psixologik yordam turlarini, shuningdek, ularning aniq standartlarini belgilashni o'z ichiga oladi.

Hukumat darajasida, xususan, Buyuk Britaniya Ichki ishlar vazirligi tomonidan jabrlanuvchilarni qo'llab-quvvatlash va ularni eng keng qamrovli xizmatlar bilan ta'minlashga doir qator normativ-hujjatlar tayyorlangan va e'lon qilingan.

2002 yilda Parlamentga taqdim etilgan "Barcha uchun adolat" nomli oq kitobda mazkur sohada radikal islohotlar o'tkazish bo'yicha takliflar umumlashtirilgan bo'lib, ular jabrlanuvchilar manfaati yo'lida muvozanatni tiklash, odil sudlov tizimini

modernizatsiya qilish va jamoatchilik ishonchini oshirishni ko‘zda tutadi. Mazkur hujjat keng jamoatchilik muhokamasidan so‘ng 2003 yilda qabul qilingan “Odil sulov to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilinishiga zamin yaratgan.

Buyuk Britaniyada jinoyat-protsessual qoidalar yagona kodeks shaklida kodifikatsiya qilinmaganligi sababli ular turli darajadagi qonunchilik hujjatlariga, ya’ni asosiy qonunchilik hisoblangan statutlarga va ikkilamchi qonunchilik sifatida qabul qilingan qonunosti hujjatlariga kiritilgan holda amal qiladi.

Jabrlanuvchilarning huquqlariga oid alohida qonun qabul qilish bo‘yicha bir necha bor urinishlar qilingan bo‘lsa-da statut darajasida jabrlanuvchining umumiy huquqiy maqomi hanuzgacha to‘liq tartibga solinmagan.

Angliya va Uelsda qabul qilingan ko‘plab qonun hujjatlari avvalo jabrlanuvchilarga kompensatsiya to‘lash masalalariga oid bo‘lgan. YA’ni jinoyat oqibatida sog‘lig‘iga yoki mulkiga zarar yetkazilgan shaxs foydasiga sud tomonidan chiqariladigan kompensatsiya to‘g‘risidagi buyruqlar, uning miqdori, to‘lov navbatligi, restitutsiya va reparatsiya masalalari shular jumlasidandir⁹¹.

Xuddi shunday tartib jabrlanuvchilarning kompensatsiya olish huquqini ta’minlash bo‘yicha Shotlandiya va Shimoliy Irlandiya qonunchiligida ham shakllantirilgan⁹².

2004 yilda qabul qilingan “Oilaviy zo‘ravonlik, jinoyatchilik va jinoyat qurbonlari to‘g‘risida”gi Qonun jabrlanuvchining huquqiy maqomiga ayrim o‘zgarishlar kiritgan. Ushbu qonun bilan quyidagilar nazarda tutilgan:

- jinoyat qurbonlari bilan muomala qilish amaliyoti bo‘yicha Kodeksni qabul qilish (jabrlanuvchilarni hamrohlik qiluvchi organlar doirasini belgilash hamda jabrlanuvchining huquqbuzarning muddatidan ilgari ozod qilinishi haqida ma’lumot olish huquqini ta’minlash uchun);

- jinoyat qurbonlari ehtiyojlari uchun mahkumlardan qo‘shimcha to‘lov undirish tartibini joriy etish;

⁹¹*Criminal Justice Act 1988? Powers of Criminal Courts (Sentencing) Act 2000* ;// <https://www.legislation.gov.uk/id/ukpga/2000/6>

⁹² *Victims and Witnesses (Scotland) Act 2014; Northern Ireland Criminal Injuries Compensation Scheme*

– jinoyat qurbonlari va guvohlar masalalari bo'yicha parlament vakili lavozimini ta'sis etish⁹³.

2009 yilda qabul qilingan “Koronerlar va adolat to'g'risida”gi Qonun⁹⁴ jinoyat ishlari bo'yicha tergov tizimini takomillashtirishga qaratilgan islohotlarning tarkibiy qismi sifatida qabul qilingan bo'lib, unda tergov jarayonlarining samaradorligi va ochiqqligini oshirish orqali jinoyat qurbonlari, guvohlar hamda yaqinlarini yo'qotgan oilalarning huquqlarini ta'minlash masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Qonunga muvofiq, ushbu shaxslarga tergov jarayonida bevosita ishtirok etish imkoniyatini berish, ma'lumot olish va apellyatsiya tizimiga murojaat qilish huquqini ta'minlash nazarda tutilgan⁹⁵.

2015 yilda e'lon qilingan Buyuk Britaniya Konservativ partiyasining Manifestida jinoyat qurbonlari huquqlariga oid yangi qonun loyihasini ishlab chiqish bo'yicha takliflar ilgari surilgan. Unda maxsus qonun orqali jinoyat qurbonlarining asosiy huquqlarini qonuniy jihatdan mustahkamlash nazarda tutilgan bo'lib, jumladan, quyidagilarni o'z ichiga olgan:

- hukm chiqarilishidan yoki mahkumni shartli ravishda muddatidan ilgari ozod etish to'g'risida qaror qabul qilinishidan oldin sudda shaxsiy bayonot berish huquqi;
- tezkor tarzda kompensatsiya olish huquqi;
- barcha bola-guvohlar uchun vositachi (mediator) tayinlanishi;
- jinsiy jinoyatlardan jabr ko'rgan har bir shaxs uchun sudgacha terapevtik yordam ko'rsatilishi va boshqalar⁹⁶.

Shu yilning o'zida Elizaveta II tomonidan so'zlangan Taxt nutqida ham jinoyat qurbonlari huquqlarini kengaytirish zarurati ta'kidlangan⁹⁷. Biroq mazkur yo'nalishda

⁹³ *Domestic Violence, Crime and Victims Act 2004* (Part 1–2) — жабрланувчиларга оид институтлар ва ваколатларни белгилайди.// <https://www.legislation.gov.uk/id/ukpga/2004/28>

⁹⁴ *Coroners and Justice Act 2009* — қонун Буюк Британияда коронерлик терговларини ислоҳ қилиш ва жабрланувчи ҳамда гувоҳлар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш тизимини кучайтириш мақсадида қабул қилинган.

⁹⁵ Ушбу қонун 2009 йил 12 ноябрда кучга кирган бўлиб, тергов жараёнида қурбонлар ва уларнинг оила аъзолари учун ахборот олиш ва шикоят қилиш ҳуқуқини таъминлайди.

⁹⁶ *The Conservative Party Manifesto 2015*, Chapter “Strengthening justice for victims” — жиноят қурбонлари ҳуқуқларини мустаҳкамлашга қаратилган сиёсий дастурий йўналиш

⁹⁷ *Queen's Speech 2015* — парламент очилиш маросимида маликанинг расмий нутқи бўлиб, унда “Victims' Rights Bill” ташаббуси тилга олинган;

asosiy (statut) darajada alohida qonun qabul qilinmagan va 2016 yilgi Taxt nutqida jabrlanuvchilarga oid masalalar tilga olinmagan⁹⁸.

Shunday qilib, jabrlanuvchilarning huquqlarini ta'minlashga qaratilgan asosiy qoidalar qonunosti darajasidagi hujjat - Jinoyat qurbonlari bilan muomala qilish amaliyoti kodeksida mustahkamlangan. Ushbu Kodeks ilk bor 2005 yilda qabul qilingan bo'lib, 2013 yilgi tahriri 2015 yildagi o'zgartishlar bilan amalda bo'lgan⁹⁹.

Kodeks Buyuk Britaniya Adliya vazirligi tomonidan 2004 yilda qabul qilingan "Oilaviy zo'ravonlik, jinoyatchilik va jinoyat qurbonlari to'g'risida"gi Qonunning 32-moddasiga muvofiq, ishlab chiqilgan¹⁰⁰. Unda Yevropa Ittifoqining quyidagi xalqaro-huquqiy hujjatlarida belgilangan meyorlar implementatsiya qilingan:

- 2012/29/YES Direktivasi jinoyat qurbonlarining huquqlari, qo'llab-quvvatlanishi va himoya qilinishi bo'yicha minimal standartlar haqida¹⁰¹;
- 2011/92/YES Direktivasi bolalarga nisbatan jinsiy zo'ravonlik va jinsiy ekspluatatsiyaga qarshi kurashga oid¹⁰²;
- 2011/36/YES Direktivasi odam savdosining oldini olish, unga qarshi kurashish, jabrlanuvchilarni himoya qilish hamda YEI Kengashining 2002/629/YES Ramaviy qarorini almashtirish to'g'risida¹⁰³.

Ko'rinib turibdiki, jabrlanuvchining maqomiga oid eng muhim o'zgarishlar 2015 yil oktabr oyidagi Kodeks amaliyoti tahririda kiritilgan. Jumladan, ilk bor jabrlanuvchiga (biroq bu uning majburiyati emas) jinoyat ishi bo'yicha sud hukmi chiqarilishidan oldin ariza taqdim etish va uni sud jarayonida og'zaki bayon qilish huquqi berildi¹⁰⁴.

⁹⁸ *Queen's Speech 2016* — жиноят қурбонлари ҳуқуқлари масаласи қайта тилга олинмаган, натижада "Victims' Law" лойиҳаси амалда қонун даражасига кўтарилмаган

⁹⁹ *Code of Practice for Victims of Crime (Ministry of Justice? 2015 Edition)* — 2005 /

¹⁰⁰ *Domestic Violence, Crime and Victims Act 2004, Section 32* — Адлия вазирлигига жиноят қурбонларига оид Кодексни ишлаб чиқиш ваколатини беради.

¹⁰¹ *Directive 2012/29/EU of the European Parliament and of the Council of 25 October 2012* — қурбонлар ҳуқуқлари ва ҳимоясига оид минимал стандартларни белгилайди.

¹⁰² *Directive 2011/92/EU of the European Parliament and of the Council of 13 December 2011;*

¹⁰³ *Directive 2011/92/EU of the European Parliament and of the Council of 13 December 2011;*

¹⁰⁴ *Code of Practice for Victims of Crime (Ministry of Justice, October 2015 Edition)* — 2015 йилги таҳрирда илк бор Victim Personal Statement институти ҳуқуқий жиҳатдан мустаҳкамланган.

Bu huquq jabrlanuvchining shaxsiy bayonoti deb ataladi va u guvohlik ko'rsatmalariga nisbatan mazmun jihatidan farq qiladi. YA'ni jabrlanuvchiga u bilan bog'liq jinoyat oqibatida yetkazilgan zarar va qiyinchiliklarni jismoniy, ma'naviy yoki moddiy ko'rinishlarda batafsil bayon etish, shuningdek, kelgusida zarur bo'lishi mumkin bo'lgan yordam va qo'llab-quvvatlash zaruratini ko'rsatish imkoniyatini beradi¹⁰⁵.

Biroq jabrlanuvchi jinoyatchiga nisbatan qo'llanilishi mumkin bo'lgan jazo turi yoki choralari haqida o'z fikrini bildirish yoki taklif kiritish huquqiga ega emas¹⁰⁶.

Angliyalik huquqshunoslarning fikricha, "jabrlanuvchining shaxsiy bayonoti institutining joriy etilishi, jabrlanuvchiga odil sudlov jarayonida o'z ovoziga ega bo'lish huquqini ta'minlab berdi, bu esa jabrlanuvchi maqomining mazmun jihatidan kengayishini anglatadi. Xususan, mazkur institut orqali jabrlanuvchi quyidagi huquq va imkoniyatlarga ega bo'ldi¹⁰⁷:

- jinoyatning unga jismoniy, psixologik, moddiy yoki boshqa har qanday shakldagi ta'sirini tizimli va rasmiy tarzda bayon etish imkoniyati;
- ayblanuvchini kafillikka asosan ozod qilish yoki uning tomonidan (yoki uning nomidan) bo'lishi mumkin bo'lgan tahdid yoki zo'rvonlik xavfi haqida o'z xavotirini ifoda etish imkoniyati;
- jinoyatning milliy, diniy, irqiy adovat, yosh, jins yoki nogironlik asosida sodir etilgani haqidagi shaxsiy fikrini bayon etish huquqi;
- jinoyatdan jabrlanganlarga yordam ko'rsatuvchi tashkilotlardan kompensatsiya yoki boshqa ko'mak turlarini talab qilish ehtiyoji haqida bayonot berish imkoniyati;
- huquqni muhofaza qiluvchi va sud organlarini jinoyatning jabrlanuvchi yoki (qotillik holatida) uning oila a'zolariga qanday ta'sir ko'rsatgani haqidagi qo'shimcha ma'lumot manbai bilan ta'minlash imkoniyati;

¹⁰⁵ *Code of Practice for Victims of Crime (Ministry of Justice, October 2015 Edition)* — 2015 йилги таҳрирда илк бор Victim Personal Statement институти ҳуқуқий жиҳатдан мустаҳкамланган.

¹⁰⁶ *Code of Practice for Victims of Crime (Ministry of Justice, October 2015 Edition)* — 2015 йилги таҳрирда илк бор Victim Personal Statement институти ҳуқуқий жиҳатдан мустаҳкамланган.

¹⁰⁷ *Code of Practice for Victims of Crime? Ministry of Justice? 2015 — Victim Personal Statement bycnbnbnb jhkfbk ;f,hkfyedxbuf ;byjzn nf]cbhbyb ,f y 'nbbybyu hfcvbq vt[fybpvb ,thbkufy/*

- 2003 yilgi “Odil sudlov to‘g‘risida”gi Qonunning 143-moddasiga muvofiq, sud hukm chiqarishda “jinoyat natijasida yetkazilgan har qanday zararni” inobatga olish kafolatini oldi¹⁰⁸.

Shuningdek, jabrlanuvchi o‘z bayonotini qanday shaklda taqdim etishini mustaqil hal qiladi ya’ni u uni shaxsan o‘qib eshittirishi, texnik vositalar orqali namoyish etishi yoki bayonotni uning o‘rniga boshqa shaxs (masalan, oila a’zosi yoki prokuror) o‘qib berishi mumkin¹⁰⁹.

Bundan tashqari, 2004 yilda qabul qilingan “Jinoyatdan jabrlanganlar bilan ishlash bo‘yicha kodeks”¹¹⁰ nazarda tutilgan jabrlanuvchi bilan muntazam hamkorlik tizimi jabrlanuvchiga qator muhim huquqlarni taqdim etadi.

Mazkur tizimga muvofiq, agar shaxs zo‘ravonlik yoki jinsiy xarakterdagi jinoyat qurboni bo‘lgan bo‘lsa va aybdor shaxs 12 oydan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum etish jazosiga hukm qilingan yoki 1983 yilgi “jinoyat natijasida yetkazilgan ma’naviy zarar to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq tibbiy muassasada majburiy davolanishga joylashtirilgan bo‘lsa jabrlanuvchi:

- sud majlisida ayblanuvchiga nisbatan shartli ravishda ozod qilish muddatlari va sharoitlari haqida shaxsiy bayonot berish,

- ayblanuvchining shartli ozod qilinishi jabrlanuvchining manfaatlariga qanday ta’sir ko‘rsatishi haqida ma’lumot olish huquqiga ega bo‘ladi¹¹¹.

Jabrlanuvchilar bilan ishlash bo‘yicha Kodeks o‘ziga xos tarzda tuzilgan bo‘lib, u huquqiy hujjatdan ko‘ra amaliy dastur xususiyatiga ega. Hujjatning muhim jihati shundaki, u jinoyatdan jabrlanganlar uchun mo‘ljallangan yengil, tushunarli tilda bayon etilgan. Ushbu Kodeks orqali turli toifadagi jabrlanuvchilarga nogironlar, voyaga yetmaganlarga va ayrim hollarda yuridik shaxslarga (jinoyat qurboni sifatida yuridik shaxslarning kompensatsiya olish huquqi ularda mavjud bo‘lmasa-da) jinoyat

¹⁰⁸ *Mental Health Act 1983*, Section 37 — жиноят содир этган шахсни мажбурий тарзда тиббий муассасада даволаниш учун жойлаштириш ҳуқуқий асосларини белгилайди.

¹⁰⁹ *Victims’ Commissioner Annual Report 2016–2017*, London, 2017 — VPS ни баён этиш шакли жабрланувчининг ихтиёрига боғлиқ эканлиги қайд этилган.

¹¹⁰ *Domestic Violence, Crime and Victims Act 2004*, Part 2 — жиноят қурбонларига доир маълумотлар бериш ва улар билан алоқа тизимини белгилайди.

¹¹¹ *Code of Practice for Victims of Crime*, Ministry of Justice, 2015 — Victim Contact Scheme бўйича жабрланувчининг ахборот олиш ва баёнот бериш ҳуқуқларини назарда тутди.

ishi yuzasidan muayyan bosqichlarda qaysi idora yoki xizmat ko'rsatuvchi subyektdan qanday xizmatlar olish huquqiga egaligi sodda va amaliy shaklda tushuntirib beriladi¹¹².

Bundan tashqari, "Jinoyat jabrlanuvchilari bilan ishlash bo'yicha amaliy yo'riqnoma"ga muvofiq, jabrlanuvchilar quyidagi huquqlarga egadirlar¹¹³:

- politsiya tomonidan jinoyat haqidagi xabar qabul qilingani va jinoyatning asosiy holatlari ko'rsatilgan yozma tasdiqnoma olish huquqi;

- jinoyatning og'ir turlaridan jabr ko'rganlar, doimiy ta'qib yoki zo'ravonlik qurbonlari, hamda himoyasiz yoki tahdid qilingan, qo'rqitilgan jabrlanuvchilar uchun yaxshilangan xizmat ko'rsatilishi;

- jabrlanuvchining ehtiyojlarini baholashda yordam olish huquqi;

- jinoyat protsessi tizimida ularning hatti harakatlarining natijasi yuzasidan ma'lumot olish huquqi;

- jinoyatdan jabrlanganlarga yordam ko'rsatuvchi tashkilotlar haqida axborot olish huquqi;

- politsiya tomonidan tergov jarayoni to'g'risida, jumladan, gumon qilinuvchining qo'lga olinishi, unga ayblov qo'yilishi yoki garov evaziga ozod etilishi shartlari haqida xabardor qilinish huquqi;

- ayblov qo'yishdan bosh tortilgan hollarda bu haqda ma'lumot olish huquqi;

- politsiya yoki prokuraturaning jinoyat ishini qo'zg'atmaslik to'g'risidagi qarorini qayta ko'rib chiqishni so'rash huquqi;

- sud majlislari vaqti, joyi va natijalari haqida ma'lumot olish huquqi;

- sudda guvohlik berish vaqtida o'zini qanday tutish lozimligi bo'yicha tavsiyalar hamda guvohlarni qo'llab-quvvatlash xizmati tomonidan ko'rsatiladigan yordam haqida ma'lumot olish huquqi;

- sud binolari bilan tanishuv uchun tashkil etilgan tashrifda ishtirok etish (gumondor bilan uchrashmasdan va alohida kutuv zonasida bo'lish sharti) huquqi;

¹¹² *Victims' Commissioner Report 2016*, London Кодекснинг мақсади ва унинг тушунарли тилда ёзилиши ҳақида маълумот беради.

¹¹³ *Code of Practice for Victims of Crime*, Ministry of Justice, London, 2015.

- prokuratura vakillari bilan uchrashuv o‘tkazish va sud jarayoni bilan bog‘liq savollarga javob olish huquqi;
- mahkum tomonidan hukm yoki jazoga nisbatan shikoyat berilgan taqdirda, bu haqda xabardor qilinish huquqi;
- amaldagi qonunchilikka muvofiq, kompensatsiya so‘rab ariza berish huquqi;
- restarativ, tiklovchi adolat (restorative justice) dasturlari haqida ma‘lumot olish huquqi;
- axborot yoki xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq shikoyat kiritish va tegishli idoradan asosli javob olish huquqi.

Shu bilan birga, Shotlandiyada 2014 yilda qabul qilingan “Jinoyat qurbonlari va guvohlar to‘g‘risida”gi qonun¹¹⁴ ham mazkur sohadagi Yevropa Ittifoqining 2012/29/YES Direktivasini amalga oshirish va jabrlanuvchilar hamda guvohlarning huquqiy ahvolini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ushbu qonunga muvofiq jinoyat jabrlanuvchilari va guvohlarga xizmat ko‘rsatishning aniq standartlari belgilangan bo‘lib, ularni ishlab chiqish majburiyati Shotlandiya bosh prokurori, Shotlandiya vazirlari, politsiya bosh konstebli¹¹⁵, Shotlandiya sud xizmati hamda shartli ravishda ozod etish bo‘yicha Shotlandiya kengashiga yuklatilgan¹¹⁶; jabrlanuvchi tergov va sud jarayoniga oid ma‘lum ma‘lumotlarni olish huquqiga ega; sudda himoyasiz guvohlar uchun qo‘shimcha qo‘llab-quvvatlash choralari joriy etilgan; ayblanuvchi tomonidan jabrlanuvchilar fondiga maxsus majburiy badal to‘lash tartibi joriy qilingan; umrbod ozodlikdan mahrum etilgan shaxsga nisbatan shartli ravishda ozod etish masalasini ko‘rib chiqishda jabrlanuvchining og‘zaki bayonot berish huquqi nazarda tutilgan.

2015 yilda qabul qilingan “Jinoyat qurbonlarining huquqlari to‘g‘risidagi qoidalar”¹¹⁷ Qonun hamda 2014 yilgi “Jinoyat qurbonlari va guvohlar to‘g‘risida”gi

¹¹⁴ *Victims and Witnesses (Scotland) Act 2014*, Scottish Parliament, Edinburgh, 2014.

¹¹⁵ Шотландияда полиция констебли бу полиция хизматининг энг асосий (бошланғич) лавозими ҳисобланадиган, қонунни ижро этувчи касбий полиция ходимидир.

¹¹⁶ *Directive 2012/29/EU of the European Parliament and of the Council establishing minimum standards on the rights, support and protection of victims of crime.*

¹¹⁷ *Victims' Rights (Scotland) Regulations 2015*, Scottish Statutory Instrument No. 93, Edinburgh, 2015.

qonun ni¹¹⁸ sezilarli darajada to'ldirdi. Xususan, mazkur hujjat Shotlandiyada "Jabrlanuvchilar bilan muomala qilish kodeksi"ni ishlab chiqishni nazarda tutdi, unda jabrlanuvchilarning tegishli xizmatlardan foydalanish huquqlari va xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarning majburiyatlari oddiy va tushunarli shaklda bayon etilgan.

Shuningdek, Shimoliy Irlandiyada ham ushbu sohada mustaqil milliy qonunchilik tizimi shakllangan bo'lib, unga "Jinoyat qurbonlari va jabrlanuvchilar to'g'risidagi farmon (shimoliy Irlandiya) 2006 yil" 2006) hamda "Jinoyat qurbonlari va jabrlanuvchilar komissiyasi to'g'risidagi qonun" kiradi¹¹⁹.

Bundan tashqari, Shimoliy Irlandiyaning tarif tizimi hozirda Angliya, Uels va Shotlandiyada amalda bo'lgan 2012 yilgi Sxemaga mazmun jihatdan o'xshashdir¹²⁰.

2011 yilda Shimoliy Irlandiya Adliya vazirligi aholi ishtirokidagi keng jamoatchilik muhokamalaridan so'ng "Jinoyat qurbonlari bilan ishlash bo'yicha yangi amaliy qo'llanma"ni e'lon qildi¹²¹.

Shuningdek, 2011 yilda qabul qilingan "Adliya to'g'risida"gi qonun 2011)¹²² bilan mahkumlardan jinoyat qurbonlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida qo'shimcha yig'im joriy etilgan, ushbu mablag'lar "Jinoyat qurbonlar fondi"ga yo'naltiriladi.

Jabrlanuvchilarga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish maqsadida Adliya vazirligi "2015–2018 yillarga mo'ljallangan milliy strategiya"ni ham ishlab chiqdi¹²³.

Britaniya jinoyat - protsessual tizimida jabrlanuvchining rasman mustahkamlangan maqomi mavjud emas. Jinoyat qurboni (jabrlanuvchi) tushunchasiga oid hech qanday qonunchilik ta'rifi (definitsiyasi) ham belgilanmagan. Bu holat Britaniya huquq tizimida jabrlanuvchi shaxsning maqomini birlamchi va ikkilamchi qonun hujjatlarida jinoyat natijasida yetkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi normalar, jinoyat qurbonlariga nisbatan muomala qilish amaliyoti

¹¹⁸ *Victims and Witnesses (Scotland) Act 2014* — жиноят қурбонлари ва гувоҳлар ҳуқуқий мақомини белгилайди.

¹¹⁹ *Victims and Witnesses (Northern Ireland) Order 2006*, The Northern Ireland Office, Belfast, 2006.

¹²⁰ *Criminal Injuries Compensation Scheme 2012*, Ministry of Justice, London, 2012.

¹²¹ *Code of Practice for Victims of Crime in Northern Ireland*, Department of Justice, Belfast, 2011.

¹²² *Justice (Northern Ireland) Act 2011*, The Stationery Office, London, 2011.

¹²³ *Victims and Witnesses Strategy 2015–2018*, Department of Justice, Northern Ireland.

kodeksi hamda amaldagi huquqni qo'llash tajribasi mazmunidan kelib chiqib belgilash imkonini beradi¹²⁴.

Jinoyat qurboni tushunchasi yakka ta'rifga emas, balki bunday shaxsga xos bo'lgan xususiyatlar yig'indisiga asoslanadi. Biroq "jinoyat qurboni" atamasi hali to'liq shakllanmagan va uning mazmuni turli vaqtlardagi o'zgarishlar orqali takomillashib kelayotgani bilan izohlanadi¹²⁵.

Qonunchilik tahlili shuni ko'rsatadiki, "jinoyat qurboni" tushunchasining mazmuni "jabrlanuvchi" bilan bir xil emas va u jabrlanuvchining nimani talab qilayotganiga bog'liq holda o'zgaradi ya'ni u jinoyat natijasida yetkazilgan zarar uchun kompensatsiya olishni istayaptimi yoki adolat tizimi organlari hamda ularga bog'liq xizmat ko'rsatuvchi muassasalardan yordam va xizmatlar olishni maqsad qilgan¹²⁶. Masalan, Angliya va Uelsda kompensatsiya to'lovlari faqat zo'ravonlik bilan bog'liq jinoyatlar qurbonlariga beriladi, ammo huquqiy va psixologik xizmatlar barcha jinoyat qurbonlariga taqdim etiladi. Shu bilan birga, ayrim kengaytirilgan xizmatlar turi faqat maxsus toifadagi shaxslar uchun mo'ljallangan¹²⁷.

Davlat tomonidan amalga oshiriladigan kompensatsiya to'lovi sxemalariga murojaat qilganda, "jinoyat qurboni" tushunchasining mazmuni avvalroq ancha tor ma'noda talqin etilganini ko'rish mumkin. Xususan, 1964 yilda qabul qilingan birinchi hukumat hujjatlarida kompensatsiya faqat zo'ravonlik jinoyatining "aybsiz qurboni" ga, ya'ni jinoyat sodir etilishiga hech qanday tarzda sababchi bo'lmagan shaxsga berilar edi¹²⁸.

Keyinchalik esa bu huquq oilaviy zo'ravonlik qurbonlariga ham berildi, hatto ayrim hollarda jabrlanuvchining harakatlari jinoyatchi xulqini bilvosita rag'batlantirgan bo'lsa ham, ular kompensatsiya olish huquqidan mahrum etilmagan¹²⁹.

¹²⁴ *Code of Practice for Victims of Crime in England and Wales*. Ministry of Justice, London, 2020.

¹²⁵ Doak, J. (2005). *Victims' Rights, Human Rights and Criminal Justice: Reconceiving the Role of Third Parties*. Oxford: Hart Publishing.

¹²⁶ Davies, P., Francis, P., & Greer, C. (2017). *Victims, Crime and Society*. 3rd ed. London: Sage Publications.

¹²⁷ *Code of Practice for Victims of Crime in England and Wales*. Ministry of Justice, 2020.

¹²⁸ *Criminal Injuries Compensation Scheme 1964*. Home Office, London.

¹²⁹ Miers, D. (2014). *Compensating Crime Victims: A European Survey*. Cambridge: Cambridge University Press.

2012 yilgi Jinoyat natijasida yetkazilgan zarar uchun davlat kompensatsiyasi sxemasi jinoyatdan ko‘rilgan zarar uchun kompensatsiya olish huquqiga ega bo‘lgan shaxsni zo‘ravonlik jinoyatining bevosita qurboni sifatida belgilaydi¹³⁰.

Biroq bu ta‘rif faqat jismoniy shaxsning o‘ziga nisbatan sodir etilgan o‘lim, jismoniy, ruhiy yoki emotsional ziyon, yoki iqtisodiy zarar yetkazilgan holatlardagina qo‘llaniladi degani emas. Aksincha, “Sxema 2012” da belgilanishicha, bunday huquqqa jabrlanuvchining yaqin qarindoshlari ham ega bo‘lishi mumkin, agar ularning hayoti, salomatligi yoki moddiy holati jinoyat oqibatida zarar ko‘rgan bo‘lsa¹³¹.

Britaniya huquq tizimida jinoyat qurboni tushunchasi faqat jismoniy jabrlanuvchi bilan cheklanmay, balki uni bevosita yaqin munosabatda bo‘lgan shaxslar doirasini ham qamrab oladi. Bu yondashuv jinoyatning ijtimoiy va emotsional ta‘sirini keng qamrovli ravishda hisobga olishga xizmat qiladi¹³².

Ma‘lumki, Buyuk Britaniya qonunchiligida tipik zo‘ravonlik jinoyatlari qatoriga o‘ldirish, zo‘rlash va boshqa jinsiy jinoyatlar, og‘ir holatlardagi hujum (aggravated assault), uyga bosqin (burglary), hamda oilaviy zo‘ravonlik kiradi. Shu bilan birga, “zo‘ravonlik jinoyati” tushunchasining yagona qonuniy ta‘rifi amalda mavjud emas¹³³.

Shu sababli ushbu atama qonun darajasida emas, balki amaliy va statistik tavsiflar orqali mazmunan shakllantirilgan. Masalan, Buyuk Britaniya Ichki ishlar vazirligining rasmiy statistikasida “Zo‘ravonlik jinoyatlari” deb turli huquqbuzarliklar majmuasi nazarda tutiladi jismoniy zarar yetkazmagan yengil hujumlardan (masalan, turtki berish, urish) tortib, o‘ldirish kabi og‘ir jinoyatlargacha bo‘lgan keng qamrovli holatlar shular jumlasidandir¹³⁴.

¹³⁰ *The Criminal Injuries Compensation Scheme 2012* (SI 2012 No.1711). Ministry of Justice, UK.

¹³¹ *The Criminal Injuries Compensation Scheme 2012* (SI 2012 No.1711). Ministry of Justice, UK.

¹³² Doak, J. (2008). *Victims' Rights, Human Rights and Criminal Justice: Reconceiving the Role of Third Parties*. Oxford: Hart Publishing.

¹³³ Criminal Injuries Compensation Scheme 2012; Home Office Guidance on Crime Recording (Counting Rules for Recorded Crime).

¹³⁴ Office for National Statistics (ONS). *Crime in England and Wales: Year Ending March 2024*.

Ichki ishlar vazirligi tomonidan tayyorlanadigan jinoyatlar statistik yig'ma jadvalida zo'ravonlik jinoyatlarining ro'yxati bir necha sahifani egallaydi, bu esa mamlakatda ushbu turdagi huquqbuzarliklarning xilma-xilligidan dalolat beradi.

Shu bilan birga, barcha zo'ravonlik jinoyatlari ikki toifaga ajratiladi:

1. Jismoniy (tan jarohati bilan bog'liq) zo'ravonlik jismoniy yoki psixik zarar yetkazilgan holatlar;
2. Ruhiy (tan jarohatisiz) zo'ravonlik zo'ravon harakatlar bo'lgan, lekin jabrlanuvchi real jarohat olmagan holatlar¹³⁵.

Davlatdan kompensatsiya olish huquqi barcha zo'ravonlik jinoyati jabrlanuvchilariga berilmaydi, balki faqat 2012 yilgi Sxemaning "V" ilovasida¹³⁶ nazarda tutilgan ta'rifga mos keluvchi shaxslargina bu huquqdan foydalanishi mumkin.

Shunday qilib, jabrlanuvchi o'z sog'ligiga yetkazilgan zarar uchun kompensatsiya olish haqida murojaat qilish huquqiga ega, agar u shaxsga nisbatan quyidagi holatlardan biri sodir etilgan bo'lsa:

- jismoniy hujum sodir etilgan bo'lsa;
- unga nisbatan zo'ravonlik xususiyatiga ega bo'lgan har qanday harakat yoki harakatsizlik, ya'ni faol harakat yoki harakatsizlik orqali jismoniy zarar yetkazilgan bo'lsa;
- jabrlanuvchi zo'ravonlik qo'llanishidan qo'rqish holatiga tushgan bo'lsa, ya'ni inson bu vaziyatda real tahdid sifatida qabul qilgan bo'lsa;
- jabrlanuvchining rozilgisiz jinsiy zo'ravonlik sodir etilgan bo'lsa;
- yoqib yuborish (yoqish yoki ehtiyotsizlik bilan yong'in chiqarish) natijasida zarar yetkazilgan bo'lsa.

¹³⁵ Home Office. *Crime Recording General Rules (Counting Rules for Violence Against the Person, 2023 edition)*.

¹³⁶ The Criminal Injuries Compensation Scheme 2012, Appendix B — Буюк Британияда жиноятлардан жабр кўрган шахсларга давлат томонидан тўлов ва ёрдам кўрсатиш шартларини белгилайдиган асосий ҳуқуқий ҳужжат ҳисобланади.

Bundan tashqari, jinoyat aybdor shaxs ruhiy kasallikka chalingan yoki jinoiy javobgarlik yoshiga yetmagan, biroq o'z harakatlarining oqibatlarini anglay oladigan hollarda ham zo'ravonlik jinoyati sifatida baholanishi mumkin.

Shu bilan birga, yuridik shaxslar (karxona muassasa va tashkilotlari) huquqni muhofaza qiluvchi organlardan ma'lum xizmatlarni olish huquqiga ega bo'lsalar-da, jinoyat qurboni (jabrlanuvchi) sifatida e'tirof etilmaydi.

2012 yilgi Sxemaga¹³⁷ muvofiq, zo'ravonlik jinoyati deb faqat jismoniy yoki psixologik zarar yetkazishga qaratilgan harakatlar, shuningdek, shunday oqibatga olib kelishi mumkin bo'lgan tahdidlar e'tirof etiladi.

Aqli noraso shaxs tomonidan agar u jinoyat sodir etilgan paytda o'z harakatlarining ijtimoiy xavflilik darajasi va oqibatlarini anglay olgan bo'lsa, bunday holat ham zo'ravonlik jinoyati deb topiladi¹³⁸.

Jinoiy javobgarlik yoshiga yetmagan shaxs tomonidan Buyuk Britaniya qonunchiligida bu yosh odatda 10 yoshdan past bo'lganlar uchun belgilangan bo'lib, ular jinoiy javobgarlikka tortilmasa ham, ularning harakatlari zo'ravonlik sifatida baholanishi mumkin.

Jabrlanuvchining yordam va xizmatlar olish huquqi hozirgi kunda Angliya va Uelsda barcha jinoyat jabrlanuvchilari bunday huquqqa ega¹³⁹. Ilgari esa, 2012 yildagi Amaliyot kodeksiga ko'ra, bu huquq faqat zo'ravonlik jinoyatlaridan jabrlangan shaxslargagina berilgan bo'lib, bu holat jabrlanuvchilarning yordam va xizmatlardan foydalanish imkoniyatini ancha cheklagan edi.

2015 yil oktabrida "jinoyat qurboni", "jabrlanuvchi", "jabrdiyda" tushunchalari kengaytirildi¹⁴⁰, shu tariqa Angliya va Uels sudlari yurisdiksiyasiga kiradigan va politsiyaga xabar berilgan har qanday jinoyatdan jabr ko'rgan shaxslar Amaliyot kodeksi doirasida huquqlaridan foydalanish ya'ni yordam olish huquqiga ega bo'ldilar.

¹³⁷ The Criminal Injuries Compensation Scheme 2012, Appendix B.

¹³⁸ Crown Prosecution Service (CPS) Guidelines on Mentally Disordered Offenders, 2018.

¹³⁹ Code of Practice for Victims of Crime (Ministry of Justice, 2012).

¹⁴⁰ Code of Practice for Victims of Crime (Ministry of Justice, 2015), Section 1.

2015 yildagi Amaliyot kodeksiga muvofiq, “jinoyat qurboni”, jabrlanuvchi sifatida jinoyat natijasida vafot etgan shaxsning yaqin qarindoshlari ham e’tirof etiladi¹⁴¹. Bular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- turmush o‘rtog‘i
- to‘g‘ri avlod bo‘yicha qarindoshlar (ota-ona, farzandlar, nabiralar),
- aka-uka va opa-singillar,
- jabrlanuvchi qaramog‘idagi shaxslari.

Shuningdek, oilaning boshqa a‘zolar, jumladan, vasiylar va homiylar, xizmat ko‘rsatuvchi organ tomonidan yaqin qarindosh sifatida e’tirof etilishi mumkin.

Shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, hozirgi kunda Buyuk Britaniyadagi huquqni qo‘llash amaliyotida shunday yondashuv shakllanganki, unga ko‘ra ayrim jabrlanuvchilar toifalariga yuqori sifatli xizmatlardan foydalanish huquqi beriladi. Xususan, quyidagi uch toifa jabrlanuvchilar bunday huquqqa ega deb belgilangan:

1. ayniqsa, og‘ir jinoyatlardan jabr ko‘rgan shaxslar¹⁴²;
2. doimiy ravishda ta’qib qilinayotgan jabrlanuvchilar¹⁴³;
3. himoyaga muhtoj, zo‘ravonlik yoki qo‘rquv ostidagi jabrlanuvchilar¹⁴⁴;

Ayniqsa, og‘ir jinoyatlardan jabr ko‘rgan shaxslar toifasiga jinoyat natijasida vafot etgan shaxsning yaqin qarindoshi; oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik jabrlanuvchilari; qasos, nafrat asosida sodir etilgan jinoyatlar qurbonlari; terrorizm oqibatida jabr ko‘rganlar; jinsiy jinoyatlar, jumladan, zo‘rlash va jinsiy ekspluatatsiya qurbonlari; odam savdosi jabrlanuvchilari; qasddan odam o‘ldirish jinoyati sodir etilganlar ya’ni suiqasd qurbonlari; odam o‘g‘rilash yoki zo‘rlik ishlatib g‘ayriqonuniy ravishda ozodligidan mahrum qilish jinoyatlari jabrlanuvchilari; tiriklayin yoqib yuborish, yong‘in qurbonlari; qasddan og‘ir tan jarohati yetkazish jinoyatidan jabr ko‘rgan shaxslar

¹⁴¹ Home Office Guidance on Victim Support Services, 2016.

¹⁴² Victims’ Code (Code of Practice for Victims of Crime, 2020) mazkur hujjatda jabrlanuvchilarni toifalarga ajratiш va ularning хизматлардан фойдаланиш даражаси аниқ белгилаб берилган.

¹⁴³ “Victims of the most serious crime” бу тоифа жиноятнинг хусусияти ва оғирлик даражасига қараб, энг жиддий жабрланувчиларни қамраб олади (масалан, терроризм, зўрлаш, одам ўлдириш, одам савдоси)

¹⁴⁴ “Vulnerable or intimidated victims” бу категорияга кўпинча болалар, ногиронлар, руҳий жиҳатдан заиф шахслар ёки айбдор томонидан қўрқитилган шахслар киради.

bunday holatlar 1861 yilgi “Shaxsga qarshi jinoyatlar to‘g‘risidagi qonun”¹⁴⁵ bilan tartibga solinadi.

Shuningdek, jabrlanuvchilarning ikkinchi toifasi bu doimiy ravishda ta‘qib qilinayotgan jabrlanuvchilar hisoblanadi. Ushbu toifaga shunday shaxslar kiradiki, ular muayyan vaqt mobaynida qasddan sodir etilgan bir necha jinoyatlar yoki uzoq muddatli ta‘qib qurboni bo‘lganlar. Bunday jabrlanuvchilar ko‘p hollarda aybdor tomonidan doimiy kuzatuv, tahdid, psixologik bosim yoki zo‘ravonlikning turli shakllariga duchor bo‘ladilar. Shu sababli ularning huquqlarini ta‘minlash va daxlsizligini himoya qilish maxsus huquqiy va ijtimoiy choralar orqali amalga oshiriladi. Himoyaga muhtoj yoki qo‘rquv ostidagi jabrlanuvchilarga jabrlanuvchining jismoniy yoki ruhiy holati, yoshi yoxud ijtimoiy zaifligi sababli uning huquqiy jarayonda faol ishtirok etishi qiyinlashadigan shaxslar kiradi. Qonunchilikka ko‘ra, ular ojiz ahvoldagi jabrlanuvchilar deb e‘tirof etiladi ularga jinoyat sodir etilgan vaqtda 18 yoshdan kichik bo‘lgan shaxslar bu 1999 yilgi “Yoshlar adliyasi va jinoiy ishlar bo‘yicha isbotlar to‘g‘risidagi qonun”ning 16, 17-moddalariga muvofiq, belgilangan¹⁴⁶; ruhiy xastaliklardan aziyat chekayotgan shaxslar 1983 yilgi “ma‘naviy zarar to‘g‘risidagi qonun” bilan tartibga solinadi¹⁴⁷; intellektual va ijtimoiy faoliyat qobiliyati keskin pasaygan shaxslar, ya‘ni ruhiy yoki jismoniy nuqson tufayli to‘liq faol ishtirok eta olmaydiganlar kiradi. Bundan tashqari, qo‘rquv ostidagi jabrlanuvchilar deb aybdor yoki boshqa shaxslar tomonidan tahdid, bosim yoki qasos xavfi tufayli jinoyat protsessida erkin guvohlik berishdan yoki ishtirok etishdan qo‘rqadilar. Bu holatda sud yoki tergov organlari jabrlanuvchining xavfsizligini ta‘minlash uchun maxsus vositalarni masalan, yopiq sud majlisi, audio-video aloqa orqali ko‘rsatma berish kabi choralarni qo‘llashi mumkin¹⁴⁸.

Jinsiy jinoyatlar yoki odam savdosidan jabr ko‘rgan shaxslar avtomatik ravishda qo‘rquv ostidagi jabrlanuvchilar toifasiga kiritiladi (Kodeksning 1.12-

¹⁴⁵ “Offences Against the Person Act 1861” Буюк Британияда шахсга қарши жиноятларни (ўлдириш, жароҳат етказиш, зўрлаш ва ҳ.к.) белгилаб берувчи асосий тарихий ҳуқуқий манба ҳисобланади.

¹⁴⁶ *Youth Justice and Criminal Evidence Act 1999*, Sections 16–17 (UK).

¹⁴⁷ *Mental Health Act 1983* (UK Parliament).

¹⁴⁸ *Code of Practice for Victims of Crime (Victims’ Code)*, Ministry of Justice, 2020, Part 2, §2.

bandiga muvofiq) va ular o'z roziligi mavjud bo'lgan taqdirda kengaytirilgan xizmatlar olish huquqiga egadirlar¹⁴⁹.

Ba'zi jabrlanuvchilar bir vaqtning o'zida bir nechta toifalar bo'yicha kengaytirilgan xizmatlardan foydalanish huquqiga ega bo'lishi mumkin. Masalan, oilaviy zo'ravonlik qurboni bo'lgan shaxs eng og'ir jinoyatlardan jabr ko'rgan shaxs sifatida yordam olish huquqiga ega bo'ladi hamda shu bilan birga, o'z ahvoldagi jabrlanuvchilar yoki qo'rquv ostidagi jabrlanuvchi sifatida ham baholanishi mumkin¹⁵⁰.

Barcha xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar o'z ixtiyoriga ko'ra har qanday jabrlanuvchiga uning shaxsiy holati va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda qo'shimcha yoki yaxshilangan xizmat ko'rsatish huquqiga ega¹⁵¹.

Jabrlanuvchining bir yoki bir necha toifaga mansubligi to'g'risidagi yakuniy qaror tegishli xizmat ko'rsatuvchi tashkilotning vakolati doirasiga kiradi. Shu bilan birga, tergov yoki sud jarayoni davomida jabrlanuvchining ehtiyojlari va sharoiti o'zgarishi mumkinligi sababli uning maqomi ham qayta ko'rib chiqilishi mumkin¹⁵².

Jinoyat qurbonlarining tasniflanishi ilmiy adabiyotlarda manfaatlarini muhofaza qilish zaruratiga qarab uch toifaga ajratiladi¹.

Birinchisi texnik xizmatga muhtoj shaxslar toifasidir. Bu toifaga kompensatsiya olish, sud jarayonida tegishli qo'llab-quvvatlash, guvohlik berishda yordam ko'rsatish kabi amaliy yordamlarga muhtoj shaxslar kiradi¹⁵³.

Ikkinchisi ekspressiv ehtiyojga ega shaxslar bo'lib, ular jinoyat protsessining turli bosqichlarida o'z his-tuyg'ulari va pozitsiyalarini ifoda etish ehtiyojiga ega jabrlanuvchilardir¹⁵⁴.

Uchinchi toifa ayrim tadqiqotchilar fikriga ko'ra, jinoyat-protsessida tortishuv, raqobat tizimi uchun tahdid soluvchi shaxslar hisoblanadi. Bu sudlov organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarda ishtirok etuvchi yoki ularning yakuniy

¹⁴⁹ *Code of Practice for Victims of Crime (Victims' Code)*, Ministry of Justice, 2020, §1.12.

¹⁵⁰ *Domestic Abuse Act 2021*, Part 2 (Support for victims).

¹⁵¹ *Victims' Commissioner for England and Wales, Annual Report 2022–2023*, p. 45.

¹⁵² *Home Office Guidance on Victim and Witness Care*, 2021, §4.6.

¹⁵³ Wemmers, J.-A. *Victims in the Criminal Justice System*. Routledge, 1996, p. 45.

¹⁵⁴ Rock, P. *Understanding Victims and Restorative Justice*. Oxford University Press, 2017, p. 63.

qarorlariga ta'sir ko'rsatuvchi shaxslardir. Masalan, kafillik to'g'risidagi qaror, jazo tayinlash yoki shartli ravishda muddatidan oldin ozod qilish masalalari shular jumlasidandir¹⁵⁵.

Terminologiya masalasiga kelsak, jinoyat qurbonlari masalalari bo'yicha Angliya va Uelsning vakolatli ombudsmani o'z hisobotlarida, shuningdek, boshqa ingliz tadqiqotchilari ta'kidlashicha, "jinoyat qurboni" atamasi, rasman ingliz qonunchiligida, sud amaliyotida va yuridik adabiyotlarda qo'llanilsa-da, u psixologik yuklamaga ega bo'lib, jamiyat ongida salbiy emotsiyalarni keltirib chiqaradi¹⁵⁶.

Buning sababi shundaki, "jabrlanuvchi" ko'pincha ojiz, yordamga muxtoj, jabrdiyda sifatida tasavvur etiladigan shaxsni shakllantiradi. YA'ni jamiyatda bunday shaxslar, osongina aldanishi mumkin bo'lgan yoki o'zini xuquqiy ongi yetishmasligi oqibatida jabrlanish xavfini keltirib chiqaruvchi shaxslar sifatida qabul qilinadi¹⁵⁷.

Shuning uchun ayrim hollarda shaxs "jabrlanuvchi" sifatida belgilanishni istamaydi va bu holat uning muhim qaror qabul qilishiga masalan, yordam so'rab murojaat qilish yoki qilmaslikka ta'sir ko'rsatishi mumkin¹⁵⁸.

Shu munosabat bilan jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatuvchi ko'plab nodavlat tashkilotlar va xayriya institutlari o'z faoliyatida "jabrlanuvchi" atamasi o'rniga "jabrdiyda", "Xavfli holatdan jon saqlab qolgan" "qiyinchilik bilan jon saqlaganlar" yoki "jabr chekkan" "yomon voqeani boshidan kechirgan", kabi so'zlarni ishlatishni afzal ko'radi. Ular bu atamalar jabrlanuvchining hissiy holatiga kamroq salbiy ta'sir ko'rsatadi, deb hisoblaydilar¹⁵⁹.

Qayd etish joizki, Shimoliy Irlandiya qonunchiligida jabrdiydalar atamasi jabrlanuvchilar atamasi bilan birgalikda ishlatiladi. Bu ikki so'z ma'nodosh bo'lsa-da, ular turli tarixiy va ijtimoiy kontekstdagi shaxslar toifasini ifodalaydi.

¹⁵⁵ Davies, P., Francis, P., & Jupp, V. *Victimology: Research, Policy and Activism*. Palgrave Macmillan, 2017..

¹⁵⁶ Victims' Commissioner for England and Wales. *Annual Report 2020–2021*, London: Ministry of Justice, 2021.

¹⁵⁷ Christie, N. *The Ideal Victim*. In: Fattah, E.A. (ed.) *From Crime Policy to Victim Policy*. London: Macmillan, 1986, p. 18.

¹⁵⁸ Rock, P. *Constructing Victims' Rights: The Oxford Handbook of Criminology*. Oxford University Press, 2017, p. 456.

¹⁵⁹ Walklate, S. *Imagining the Victim of Crime*. Open University Press, 2007, pp. 63–65.

Bu yerda jabrlanuvchi atamasi hozirgi davrda sodir etilgan jinoyatlardan jabr chekkan shaxslarga, “jabrdiyda” “omon qolganlar” atamasi esa din asosidagi biror bir ziddiyatli holatda aziyat chekkan muayyan shaxslar toifasiga nisbatan ishlatiladi.

Ushbu mojaro loyalistlar–protestantlar (Shimoliy Irlandiyaning Buyuk Britaniya tarkibida qolishini qo‘llab-quvvatlovchilar) va respublikachilar katoliklar (yoki millatchilar) (Irlandiya bilan birlashishni talab qilganlar) o‘rtasida kechgan.

1969 yilda Olsterda yuz bergan mazkur mojaro har ikki tarafda ham qurolli noqonuniy tuzilmalarning faollashuviga sabab bo‘ldi¹⁶⁰. Ular orasida eng mashhurlari milliy yo‘nalishdagi Irlandiya Respublikaparvar armiyasi (IRA)¹⁶¹, loyalistik qarashga ega Olster mudofaa uyushmasi, hamda Olster ixtiyoriy xizmati tuzilmalari. Vaziyatni barqarorlashtirish maqsadida Buyuk Britaniya markaziy hukumati provinsiya hududiga armiya qismlarini jo‘natishga majbur bo‘ldi. 1972 yilda esa mojaroni tinch yo‘l bilan hal etish belgilarining yo‘qligi sababli keng vakolatlarga ega bo‘lgan Shimoliy Irlandiya parlamenti Stormont faoliyatini vaqtincha to‘xtatish to‘g‘risida qaror qabul qilindi.

Afsuski, keyingi voqealar aholining deyarli barcha qatlamlariga ta’sir ko‘rsatdi va ko‘plab qurbonlarga sabab bo‘ldi. Shimoliy Irlandiyaning jabrlanuvchilar va omon qolganlar ishlari bo‘yicha komissiyasi¹⁶²ning baholashicha, 40 yildan ortiq davom etgan mojaro natijasida 3 700 dan ortiq inson halok bo‘lgan, minglab shaxslar esa tan jarohati olgan yoki yaqinlarini yo‘qotgan.

Shimoliy Irlandiya qonunchiligiga muvofiq, 1968 yildan boshlab Olster mojarosi davrida jabr ko‘rgan shaxslar quyidagi holatlar mavjud bo‘lgan taqdirda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash choralarini olish huquqiga ega bo‘ladilar: ularga jinoyat natijasida zarar yetkazilgan bo‘lsa; mazkur sharoitda zarar ko‘rgan shaxslarga

¹⁶⁰ Northern Ireland Commission for Victims and Survivors (NICVS) ҳисоботларига кўра, “Troubles” деб аталувчи Шимолій Ирландия моjarоси 1960-йиллар охирида бошланган бўлиб, 1998 йилдаги *Good Friday Agreement* (Яхши Жума келишуви) қабул қилинишигача давом этган.

¹⁶¹ ИРА — *Irish Republican Army* — Ирландиянинг Британиядан мустақиллигини қўллаб-қувватловчи миллий-революцион қуролли ташкилот бўлган.

¹⁶² Ольстер муdefaa уюшмаси (*Ulster Defence Association* — *UDA*) ва Ольстер ихтиёрий хизмати (*Ulster Volunteer Force* — *UVF*) эса Британия таркибида қолишни ҳимоя қилган протестант лоялист гуруҳлар ҳисобланади.

g'amho'rlik yoki parvarish xizmatlarini amalga oshirib kelayotgan bo'lsalar; ular yaqin qarindoshlarini yo'qotgan bo'lsalar¹⁶³.

Shunday qilib, qonun chiqaruvchi "omon qolganlar" atamasi ostida Shimoliy Irlandiyadagi mojaroda ishtirok etgan har ikki tomon vakillarini jumladan, terroristik tashkilotlar tomonida harakat qilgan shaxslarni ham nazarda tutadi.

Shuni qayd etish lozimki, bunday huquqiy yechim jamiyatning barcha qatlamlari tomonidan birdek qo'llab-quvvatlanmayapti va hanuzgacha qattiq tanqid hamda qonunchilikdagi ushbu ta'rifni o'zgartirish haqidagi talablar mavjud¹⁶⁴.

Avstraliya Ittifoqi. Avstraliya qonunchiligida jinoyat qurbonlariga nisbatan munosabat federativ tuzum xususiyatini aks ettiradi. Bu jabrlanuvchilarning huquqiy maqomi va ularga ko'rsatiladigan yordam choralari har bir shtat va hududning qonun hujjatlari bilan alohida tartibga solinadi. Federal darajada umumiy konseptual yo'nalish belgilangan bo'lsa-da, uning amaliy ifodasi mahalliy organlar salohiyatiga bog'liq¹⁶⁵

Avstraliya Ittifoqida jinoyat qurbonlariga yordam ko'rsatishning huquqiy asoslari, avvalo, "Jinoyat qurbonlari huquqlari to'g'risidagi deklaratsiyalar" orqali ifoda etilgan. Bunday deklaratsiyalar har bir shtatda qabul qilingan bo'lib, ular jabrlanuvchilarga quyidagi kafolatlarni beradi:

- jinoyat to'g'risidagi ma'lumotni o'z vaqtida olish huquqi;
- tergov va sud jarayonida himoya va psixologik yordam olish huquqi;
- kompensatsiya va moddiy zararni qoplash to'g'risidagi talab bilan chiqish huquqi;

¹⁶³ *The Victims and Survivors (Northern Ireland) Order 2006*, Article 3 — ushbu hujjat Shimoliy Irlandiyada "jabrlanuvchi" va "omon qolgan" shaxslarning huquqiy maqomini belgilaydi hamda ularga nisbatan davlat e'rdaminning turлари va shartlarini tartibga soladi.

¹⁶⁴ *The Victims and Survivors (Northern Ireland) Order 2006*, Art. 3 — hujjat "victim" va "survivor" tushunchalarini birlalikda qullaydi, ularni mojarodan jabr kurgan barcha shaxslarga, shu jumladan mojaroda qatnashgan kurolli guruhlar a'zolariga ham taallukli deb belgilaydi. Bu holat jamoatchilik va siyosiy doiralarda baхsli munosabat uyotgan.

¹⁶⁵ *Victims of Crime Act 1994 (ACT)*; *Victims' Rights and Support Act 2013 (NSW)*; *Victims of Crime Assistance Act 2009 (QLD)* va boshqalar

– sudda o‘z fikrini ifoda etish imkoniyati, xususan jinoyat ishi yurituvda jabrlanuvchining bayonotini taqdim etish huquqi¹⁶⁶.

Shuningdek, Avstraliyaning bir qator shtatlarida (masalan, Viktoriya, Yangi Janubiy Uels va Kvinslend) jinoyat qurbonlariga yordam markazlari faoliyat yuritadi. Ular davlat mablag‘lari hisobiga moliyalashtiriladi va jabrlanuvchilarga psixologik, huquqiy hamda moddiy ko‘mak ko‘rsatadi¹⁶⁷.

Jabrlanuvchilarning huquqlari to‘g‘risidagi asosiy tamoyillar quyidagicha shakllangan:

- har bir jabrlanuvchiga hurmat va insoniy munosabat;
- qayta jabrlanishga yo‘l qo‘ymaslik;
- xavfsizlik va shaxsiy ma‘lumotlarni himoya qilish;
- kompensatsiyani o‘z vaqtida va odilona asosda berish.

Shu bilan birga, Avstraliya Ittifoqida jinoyat qurbonlari huquqlarining kafolati asosan qonuniy majburiyatlar emas, balki etik tavsiyalar va ma‘muriy qoidalar darajasida ifoda etilgan. Bu holat ayrim olimlar tomonidan tanqid qilinadi, chunki bunday tizimda huquqiy majburlov mexanizmi yetarli emas¹⁶⁸.

Avstraliya Ittifoqi Yangi Janubiy Uels shtatidagi 2013 yilgi “Jabrlanuvchilarning huquqlari va qo‘llab-quvvatlanishi to‘g‘risida”gi Qonun jabrlanuvchilarni bir nechta toifalarga ajratadi. Har bir toifaga jinoyat natijasida yetkazilgan zararni qoplash va turli ko‘rinishdagi yordamni olish uchun alohida huquqlar beriladi. Qonunga muvofiq, quyidagi jabrlanuvchi toifalari belgilangan:

- 1) asosiy jabrlanuvchilar;
- 2) ikkilamchi jabrlanuvchilar;
- 3) oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik jabrlanuvchilar

Asosiy jabrlanuvchi bu jinoyat sodir etilishi natijasida jismoniy jarohat olgan yoki vafot etgan shaxsdir. Bunda jabrlanuvchiga nafaqat to‘g‘ridan-to‘g‘ri tajovuz

¹⁶⁶ *Victims of Crime Charter (Victoria), 2015* — жиноят қурбонларига тегишли ахборот бериш ва уларнинг изҳор этиш ҳуқуқини таъминлайди.

¹⁶⁷ *Australian Institute of Criminology. Victims of Crime Services in Australia*, Canberra, 2020.

¹⁶⁸ *Doak, J. Victims' Rights, Human Rights and Criminal Justice: Reconceiving the Role of Third Parties*, Oxford, 2008.

natijasida, balki ayblanuvchiga qarshi harakat qilganda, ya'ni uni tutish yoki jinoyatni to'xtatishga uringanda, shuningdek, boshqa jabrlangan shaxsga yordam ko'rsatish vaqtida yetkazilgan bo'lishi ham mumkin.

Ikkilamchi va oilaviy zo'ravonlik jabrlanuvchilarning huquqiy maqomi bu jinoyat sodir etilishiga guvoh bo'lgan shaxs bo'lib, mazkur jinoyat natijasida asosiy jabrlanuvchining sog'lig'iga zarar yetgan yoki u halok bo'lgan holatlarda jabrlanuvchi sifatida e'tirof etiladi¹⁶⁹.

Shuningdek, qonunga ko'ra, ikkilamchi jabrlanuvchi sifatida voyaga yetmagan asosiy jabrlanuvchining ota-onasi yoki qonuniy vasiysi ham tan olinishi mumkin, agarda ular jinoyatni to'g'ridan-to'g'ri ko'rmagan bo'lsalar ham, keyinchalik ushbu voqea haqida xabar topgan bo'lsalar¹⁷⁰.

Oilaviy jabrlanuvchi esa jinoyat tufayli halok bo'lgan asosiy jabrlanuvchining oila a'zosi yoki yaqin qarindoshi hisoblanadi. Ushbu toifa shaxslar marhum jabrlanuvchi bilan yaqin munosabatda bo'lgani uchun ularga ma'naviy zararni qoplash va davlat tomonidan maxsus moddiy yordam olish huquqi beriladi.

II - BOB. ANGLO-SAKSON HUQUQ OILASIDA JABRLANUVCHINI MUHOFAZA QILISH TAJRIBASI

1-§. Yevropa mamlakatlarida jabrlanuvchiga jinoyat natijasida yetkazilgan zararni qoplash masalalari

XX asrning oxiri va XXI asrning boshlarida dunyo hamjamiyatidagi tanqidiy, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy chalkashliklar va ular bilan bog'liq huquqiy oqibatlar qonunchilikdagi global o'zgarishlarga olib keldi.

Jinoyat protsessi ham bundan mustasno emas edi, yangi shartlar, talablar, tendensiyalar ya'ni modernizatsiyaga moslashtirildi. Jinoyat protsessini takomillashtirish bir tomondan, inson huquqlari va erkinliklarini haqiqiy muhofaza

¹⁶⁹ *Victims Rights and Support Act 2013 (NSW)*, s. 21(1) — иккиламчи жабрланувчи тушунчаси ва унинг қонуний асоси.

¹⁷⁰ *Victims Rights and Support Act 2013 (NSW)*, s. 21(1) — иккиламчи жабрланувчи тушунчаси ва унинг қонуний асоси.

qilishni ta'minlash, G'arbiy Yevropa davlatlarida umume'tirof etilgan xalqaro huquqiy qoidalarni amalga oshirishning obyektiv zarurati bilan bog'liq.

Buyuk Britaniyada jinoyat tufayli yetkazilgan zararni qoplash sud (jinoiy yoki fuqarolik) tartibida yoki davlat tomonidan maxsus markaziy va mahalliy fondlar hisobidan amalga oshiriladi. Anglo-sakson huquq oilasining asosiy manbalaridan biri sud pretsidenti bilan umumiy huquqda ildiz otgan shaxsning sog'ligiga qarshi (Trespass to the person)¹⁷¹ jinoyatlarda nazarda tutilgan kompensatsiya to'lash so'nggi 30 yil ichida faqat ingliz jazo tizimining doimiy va muhim elementiga aylandi.

– fuqarolik da'vosi jabrlanuvchining huquqlarini samaraliroq ta'minlaydi, bu unga fuqarolik nizosining harakatini nazorat qilish imkonini beradi, chunki da'vogarni sud muhokamasidan yoki muzokaralardan chetlatib bo'lmaydi;

– kompensatsiya miqdori juda katta summalarda bo'lishi mumkin (bir necha o'n million funt sterlinggacha, davlat kompensatsiyalari esa 500 ming funt sterlingdan oshmaydigan miqdorni tashkil qiladi;

– jabrlanuvchi uch yil ichida fuqarolar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar uchun kompensatsiya pullarini undirish uchun ariza bilan murojaat etish ikki yil ichida esa davlat fondlaridan kompensatsiya olish uchun murojaat qilish huquqiga egadir.

Ma'lumki, aksariyat fuqarolik da'volari sudgacha hal qilinadi, bu esa vaziyatning konfidensialligini (yashirin, maxfiyligini) ta'minlaydi. Bundan tashqari, bunday da'volarda jabrlanuvchi ishning natijalaridan qat'iy nazar sud harajatlarini to'lamaydi.¹⁷²

Angliya va Uelsda XX asrning 70-yillaridan boshlab jinoyat protsessida kompensatsiya to'lash qoidalari bosqichma-bosqich joriy etilgan va ular (1972 y. "Jinoiy adliya to'g'risida"gi qonun; 1973 y. "Jinoyat sudlarining vakolatlari to'g'risida" qonun; 1968 y. "O'g'rilik to'g'risida"gi qonun; 1982 y. "Jinoiy odil

¹⁷¹Артемьев В.Ю., Власов И.С., Голованова Н.А [и др.] Прововая защита потерпевших в зарубежных странах: монография/ Институт законодательства и сравнительного правоведения при правительстве Российской Федерации: ИНФРА– М, 2024.–304 с.

¹⁷² Civil Justice for Victims of Crime in England and Wales[электрон манба: мурожаат этилган вақт:22.07.2024.] <https://www.gov.uk/government/publications/the-code-of-practice-for-victims-of-crime/code-of-practice-for-victims-of-crime-in-england-and-wales-victims-code>

sudlov to'g'risida"gi qonun; 1988 y. "Jinoiy adliya to'g'risida"gi qonun; 1991 y. "Jinoiy adliya to'g'risida"gi qonun; 2000 y. "Jinoyat sudlari vakolatlari to'g'risida" 2004 y. "Oilaviy zo'ravonlik, jinoyatchilik va jinoyat qurbonlari to'g'risida"gi qonun; 2015 y. "Zamonaviy qullik to'g'risida"gi qonun¹⁷³) qonunlarida o'z aksini topgan.

Bugungi kunda jinoyat natijasida yetkazilgan zararni qoplash (*Compensation orders*) 2000 yilgi "Jinoyat sudlari vakolatlari" (jazolar tayinlash, xukmlar chiqarish) to'g'risidagi qonunning 130-moddasiga muvofiq, jinoyat natijasida o'lim yuz bergan bo'lsa, har xil turdagi shikastlanish, mulkiy zarar yoki yo'qotish bilan bog'liq har bir holatda zararni qoplash to'g'risidagi ishni ko'rib chiqishi va yetkazilgan zararni bartaraf etish choralarini ko'rish yuzasidan hukm, qaror va ajrim chiqarishga majburdir.

Pretsident buyrug'iga muvofiq, agar jabrlanuvchida ruhiy stress va tashvish uyg'otgan bo'lsa ham sud ushbu holat yuzasidan qaror qabul qilishi lozim¹⁷⁴.

Ushbu buyruq mahkumning jabrlanuvchiga jinoyat natijasida yetkazilgan har qanday jarohatlar, yo'qotishlar yoki zararlar, shuningdek, dafn marosimiga sarflangan mablag'lar yoki shaxsning o'limi bilan bog'liq boshqa harajatlar uchun tavon to'lash majburiyatini o'z ichiga oladi, yo'l-transport hodisasi natijasida yuzga kelgan o'lim holati bundan mustasno. Qonunga muvofiq, kompensatsiya miqdori belgilanmagan, shuning uchun sud holat yuzasidan 18 yoshga to'lgan va undan katta yoshdagi shaxs tomonidan sodir etilgan jinoyat natijasida yetkazilgan zararni sudning xulosasiga ko'ra belgilashga haqli. (2000 yilgi Qonunning 130-m)

Kompensatsiya cheklovlari faqat Magistratlar sudiga tegishli bo'lib, u 5000 (besh ming) funt sterlinggacha kompensatsiya to'lashi mumkin: 18 yoshgacha bo'lgan huquqbuzar 1000 (bir ming) funt sterling miqdorda, 14 yoshgacha bo'lgan shaxslar uchun 250 funt sterling miqdorda to'lashi mumkin.

¹⁷³ Criminal Justice Act 1972, Powers of Criminal Courts (Sentencing) Act 1973, Theft Act 1968, Criminal Justice Act 1982, Criminal Justice Act 1988, Criminal Justice Act 1991, Powers of Criminal Courts (Sentencing) Act 2000, Domestic Violence, Crime and Victims Act 2004, Modern Slavery Act 2015.

¹⁷⁴ Bond v. Chief Constable of Kent (1982) 4 Cr App R (S) 314, Godfrey (1994) 15 Cr App R(S) 536.
В Великобритании уголовной ответственности подлежат лица, достигшие 10 лет.

Qirollik sudlari uchun hech qanday cheklov mavjud bo'lmasa-da, jazolovchi mustaqil organ sifatida (*The Sentencing Council for England and Wales 2010.*) hamda (*Coroners and Justice Act 2009.*)¹⁷⁵ mamlakatda o'rnatilgan qonunchilikka muvofiq, xukm chiqaradilar.

Sud amaliyoti agar ayblov tomon oldindan isbotlanmagan bo'lsa kompensatsiya miqdori dastlabki kelishuv asosida amalga oshiriladi. (*Vivian (1978) 68 Sg Arr R 53*)¹⁷⁶. Agar yetkazilgan zararning aniq miqdorini aniqlash qiyin bo'lsa, sud kelishilgan yoki extimoliy zararni ifodalovchi miqdorda kompensatsiya to'lash to'g'risida qaror qabul qiladi. Agar sud tegishli ma'lumotga ega bo'lmasa, uni taqdim etishni kechiktirishga haqli.

Magistrat sudining yakuniy hukm chiqarish bo'yicha yo'riqnomasiga ko'ra kompensatsiya tayinlashda ishning barcha holatlari, ishga tegili dalillar, shu jumladan, har qanday tibbiy dalillar, jabrlanuvchining yoshi va shaxsiy holatini hisobga olgan xolda, yetkazilgan zararni ikki turini inobatga olishi zarur:

1) moliyaviy yo'qotishlar (masalan, jismoniy shikastlanish yoki ta'mirlash bilan bog'liq har qanday yo'qotilgan daromad yoki tibbiy harajatlar);

2) jarohat tufayli kelib chiqqat og'riq va azob uqubatlar natijasida yuzaga kelgan (qo'rquv, zarba yoki stress holatlari);

Kengashning xukm chiqarish to'g'risidagi xulosasiga ko'ra, to'langan kompensatsiya jinoyat qurboniga qo'shimcha yoki yangi ruhiy zarar, azob uqubat keltirmasligi kerak, chunki ba'zan jinoyatchidan olingan moddiy mablag' jabrlanuvchining ruhiy azobini yanada kuchaytirishi mumkin. Binobarin, jabrlanuvchining kompensatsiya miqdori to'g'risidagi fikri oldindan taktik shaklda aniqlashtirilib olinishi lozim. Shuningdek, Sud jabrlanuvchining kompensatsiyadan voz kechish yuzasidan talabini ham qo'llab quvvatlashi kerak.

¹⁷⁵Совет призван обеспечить согласованный подход к вынесению наказаний, облегчить деятельность судебных органов в ходе назначения наказаний, а также повысить доверие к системе уголовного правосудия; он отвечает за разработку руководящих принципов назначения наказания, осуществляет контроль над использованием принципов, оценку и обзор широкого спектра решений, связанных с назначением наказаний; наделен правом законодательной инициативы.

¹⁷⁶Однако, если определенный минимум убытков выходит за пределы спора, крупный ущерб доказан, но его возмещение трудно осуществить, суд должен издать приказ о компенсации в меньшем размере (*James [2003] 2 Sg App R (S) 574*).

Bundan tashqari, xukm chiqarish kengashi sudlarga jarohat va kompensatsiya miqdorini baholashda izchil yondashuvni ta'minlashi uchun "Jinoyat natijasida yetkazilgan zararni qoplash sxemasi"dan (2012 y.) foydalanishini taklif etadi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, jabrlanuvchi jinoyat toifasiga qarab, ixtisoslashtirilgan jamg'armalarga kompensatsiya undirish uchun ariza berish huquqiga ega.

Qonun darajasida bu huquq 1995 yildagi "Jinoyat natijasida yetkazilgan zarar uchun kompensatsiya to'g'risida"gi qonun bilan tartibga solinadi, garchi u qabul qilinishidan ancha oldin, 1954 yildan boshlab Buyuk Britaniya ichki ishlar vazirligi tomonidan tayyorlangan kompensatsiya dasturi mavjud edi.

Davlat tomonidan kompensatsiya to'lash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- Angliya, Uels va Shotlandiyada Jinoyat natijasida yetkazilgan zararni qoplash sxemasiga muvofiq, (*The Criminal Injuries Compensation Scheme 2012*) amalga oshiriladi¹⁷⁷;

- Shimoliy Irlandida tartibga solingan qonunchiligiga muvofiq, jinoiy kompensatsiya sxemasiga asoslanadi (*Northern Ireland Criminal Injuries Compensation Scheme 2009*)¹⁷⁸;

- Xorijiy davlatlarda sodir etilgan terrorizm qurbonlariga yordam berish sxemasi (*The Victims of Overseas Terrorism Compensation Scheme 2012*);

- Angliya va Uelsda ijtimoiy himoyaga muxtoj kam ta'minlanganlar va muqim oylik maoshiga ega bo'lmagan shaxslarni qo'llab quvvatlash uchun mo'ljallangan jamg'arma (*Hardship Fund*)¹⁷⁹, hisobidan moddiy yordam berish;

- Angliya va Uelsda ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etish sxemasi (2016 y.) bo'yicha ommaviy tartibsizlik jabrlanuvchilariga tartibsizlik natijasida yetkazilgan zararni qoplash politsiya mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi;¹⁸⁰ 2016 yilga qadar

¹⁷⁷URL:https://www.gov.uk/government/uploads/system/uploads/attachment_data/file/243480/1085121_17.pdf.

¹⁷⁸URL: <https://www.justice-ni.gov.uk/topics/justice-and-law/compensation-services>

¹⁷⁹URL: <https://www.gov.uk/guidance/the-hardship-fund-a-guide>.

¹⁸⁰ Riot Compensation Act 2016 //Riot (Damages) Act 1886; Regulations under the Riot (Damages) Act 1886, as to claims for compensation (1921).

1886 yilgi tartibsizliklar uchun tavon tshlash va 1921 yilgi tartibsizliklar uchun zararni qoplash to'g'risidagi Nizom amalda bo'lgan.

Jinoyat natijasida yetkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi sxema juda murakkab, tizimli xujjat hisoblanadi va u Buyuk Britaniyaning xukumat veb-saytiga joylashtirilgan. "Jinoyat natijasida yetkazilgan tan jarohatlari uchun kompensatsiya"¹⁸¹ uchun sxemaga muvofiq, 35 ta darajali jarohatlarni tavsiflash tizimiga asoslanadi va ikki blokga bo'linadi. "A" blokda turli jarohatlarni (kuyish, falaj, tibbiy tasdiqlangan orttirilgan kasallik, ruhiy buzilish, pereferik va psxomotor xarakatlanish tizimi shikastlanishlari, bosh va bo'yin jarohatlari, tananing yuqori va pastki ekstremitalarini) qamrab oladi.

"V" blokda esa og'ir tan jarohati va o'limga olib keladigan jarohatlarni o'z ichiga oladi, jumladan, kattalar va bolalarning jismoniy va jinsiy zo'ravonligi, zo'ravonlik natijasida yuqumli kasallaiklarni yuqtirish, OIV va OITS infeksiyasi, gepatit V va S, shuningdek, xomilani yo'qotish va boshqa og'ir asoratli kasallaiklarni o'z ichiga oladi.

Amerikalik ekspertlarning fikricha, Britaniya kompensatsiya tizimi ma'muriy nuqtai nazardan shaffof va sodda, jamiyatning o'zgaruvchan extiyojlarini hisobga olgan holda qo'llash oson hisoblanadi¹⁸².

Kompensatsiya olish uchun arizalarni topshirishning oxirgi muddati shikastlangan kundan boshlab ikki yilni tashkil etadi, u faqat istisno xollarda uzaytirilishi mumkin. Biroq yetkazilgan zararni qoplash sxemasining mavjudligi va kompensatsiya olish huquqini bilmaslik, qoida tariqasida, belgilangan muddatni o'tkazib yuborish uchun sabab bo'la olmaydi.

Da'vo arizasini tekshirish va kompensatsiya berish tartibi 1996 yilda tashkil etilgan bo'lib, Buyuk Britaniya Adliya vazirligi tarkibidagi jinoyat natijasida

¹⁸¹ A guide to applying for compensation under the Criminal Injuries Compensation Scheme / URL: <https://www.gov.uk/guidance/criminal-injuries-compensation-a-guide>; Reporting crimes and getting compensation / URL: <https://www.gov.uk/browse/justice/reporting-crimes-compensation>; After a crime: your rights / URL: <https://www.gov.uk/your-rights-after-crime>.

¹⁸² Herman S., Waul M. Repairing the Harm: A New Vision for Crime Victim Compensation in America, (Washington, DC: National Center for Victims of Crime, 2004) // URL: <http://www.victimsofcrime.org/docs>.

yetkazilgan zararni qoplash boshqarmasi vakolati doirasiga kiradi. Ilgari ushbu vazifani Buyuk Britaniya Ichki ishlar vazirligi tomonidan amalga oshirgan.

Jabrlanuvchi talab qilishi mumkin bo'lgan minimal kompensatsiya miqdori bir ming funt sterlingni (01.08.2025-yil holatiga ko'ra 16 mln 300 ming so'm) tashkil qiladi. Miqdor, shuningdek, yengil jarohatlar uchun to'lanishi kerak bo'lgan summalarni qo'shish yo'li bilan ham aniqlanishi mumkin, yohud zararni qoplash sxemasi stavkasi ushbu chegaradan oshib ketadigan bitta jarohat uchun tayinlanishi mumkin.

Yetkazilgan zarar uchun to'lanadigan tavonning maksimal miqdori 250 000 (ikki yuz ellik ming) funt sterlingni (4 mlrd.75mln. so'm) tashkil etadi.

Bundan tashqari, xuddi shu miqdor yo'qotilgan yoki boy berilgan foydani qoplash uchun to'lanishi mumkin, ammo kompensatsiyaning umumiy miqdori 500 000 (besh yuz ming) funt sterlingdan (8 mlrd. 150 mln. so'm) oshmasligi kerak. Jabrlanuvchi voyaga yetmagan (18 yoshga to'lmagan) bo'lsa kompensatsiya uning jamg'arma hisob varag'iga o'tkaziladi va unga faqat voyaga yetgandagina beriladi.

Agar jabrlanuvchiga bir necha marta tan jarohati yetkazilgan bo'lsa, kompensatsiya hisoblashda eng og'ir uchta jarohat e'tiborga olinadi.

Yakuniy miqdor birinchi og'ir jarohat uchun bitta to'liq stavka miqdorida, ikkinchi og'ir jarohat uchun stavka miqdorining +30 %, uchinchi og'ir shikastlanish uchun stavka miqdorining +15% qo'shilishi bilan hisoblanadi.

Agar jinoyat natijasida jabrlanuvchining o'limi vujudga kelgan bo'lsa, kompensatsiya undirish uchun ariza berish huquqi quyidagi shaxslarga beriladi: uning turmush o'rtog'i yoki fuqarolik tartibda birga yashovchi o'rtog'i; sobiq turmush o'rtog'i; biologik ota-ona; farzandi; vafot etgan shaxsning o'limidan oldin u bilan kamida ikki yil yashagan turmush qurmagan sherigi;

Bunday xolda, to'lanadigan maksimal miqdor 11 000 (o'n bir ming) funt sterling, agar ikki yoki undan ortiq shaxs kompensatsiya olish uchun ariza topshirsa, ularning har biriga 5500 (besh ming besh yuz) funt sterling to'lab beriladi.

Yetkazilgan zararni qoplash sxemasiga muvofiq, dafn marosimi harajatlari kabi boshqa harajatlar ham to'lab beriladi.

Bundan tashqari, marhumning qaramog'idagi shaxslarga – 18 yoshgacha bo'lgan farzandlariga, ota-onalariga moddiy yordam ko'rsatiladi. Ular yiliga 2000 funt sterlinggacha moliyaviy yordam olishlari mumkin.

Jabrlanuvchilar kompensatsiya olishi uchun jinoyatchi sudlanishi shart emas, hatto xuquqbuzar noma'lum yoki politsiya tomonidan topilmagan yoxud sud tomonidan ayblanuvchi aybsiz deb topilgan, prokuror tomonidan jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etgan, jinoyat ish materiallari sudga yuborilgan bo'lsa ham jabrlanuvchi tavon puli olish huquqidan mahrum etilmaydi.

Ma'lum darajada kompensatsiya olish yoki uning miqdori arizachining o'talmagan jazosiga ta'sir qilishi mumkin. Ushbu masalani hal qilish Boshqarmaning ixtiyoriga yuklatilgan. Kompensatsiya to'lashdan bosh tortish yoki uning miqdorini kamaytirish to'g'risidagi qaror ariza beruvchiga shikoyat qilish uchun 90 kun muddat beriladi. Rad etish to'g'risidagi qaror ustidan ma'muriy tartibda yuqori turuvchi organga Departamentga yoki mustaqil ravishda sudga shikoyat qilinishi mumkin. Ichki apellyatsiya tugagandan so'ng, arizachi bunday shikoyatlarni ko'rib chiqadigan yetti palatadan biri bo'lgan birinchi darajali sudga murojaat qilishi mumkin.

Shikoyat sudya tomonidan 10 ish kuni ichida ko'rib chiqiladi, shundan so'ng arizachi uni ko'rib chiqish vaqti, sanasi va joyi to'g'risida xabardor qilinadi va ish bo'yicha boshqa ma'lumotlarni oladi. Tribunal sudining qarori ustidan jinoyatdan jabrlanganlar shikoyat qilish huquqi mavjud emas.

Shimoliy Irlandiyada 1977 yildan buyon jinoyat qurbonlariga kompensatsiya to'lashning alohida tartibi mavjud bo'lib, 2002 va 2009¹⁸³ yillardagi tarif sxemasi takomillashtirilgan va Angliya, Uels va Shotlandiyadagi amaldagi sxemaga o'xshashligini ko'rish mumkin.

1990 yilning 22 fevral kuni Buyuk Britaniya hukumati "Jabrlanuvchilar nizomi"ni qabul qildi, unda jabrlanuvchilarning xavfsizligi, ularga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish masalalari bo'yicha qonunchilik va sud amaliyotidagi o'zgarishlar

¹⁸³ The Northern Ireland Criminal Injuries Compensation Scheme (2009) / URL: <https://www.dojni.gov.uk/sites/default/files/publications/doj/compensation-tariff-scheme-legislation-2009.pdf>.

batafsil bayon etilgan. Yevropada har yili ushbu sana “Jinoyatdan jabrlanganlarni himoya qilish kuni” sifatida nishonlanadi.

Buyuk Britaniyaning jinoyat natijasida zarar ko‘rgan jabrlanuvchilarga kompensatsiya to‘lashni tartibga soluvchi qonunchilik tajribasini o‘rganish jarayonida shuni kuzatish mumkinki, 1982 yildagi “Jinoiy odil sudlov to‘g‘risidagi qonun”i bilan kompensatsiya yagona sanksiya sifatida belgilanishi mumkinligi to‘g‘risidagi qoida (67-modda) kiritilgan. YA’ni sud tomonidan jarima jazosi bilan bir vaqtda yetkazilgan ziyon uchun kompensatsiya belgilash zarurati mavjud bo‘lsa-yu, sudlanuvchining har ikkisini to‘lash uchun moddiy ahvoli yetarli bo‘lmasa, sud faqatgina yetkazilgan ziyon uchun kompensatsiya to‘lash bo‘yicha qaror chiqarishi mumkin.

Buyuk Britaniyada jinoyat qurbonlari uchun kompensatsiyaning ikki shakli mavjud:

- 1) sud hukmi bilan aybdor shaxs tomonidan to‘lanadigan to‘lovlar;
- 2) davlat mablag‘lari hisobidan to‘lanadigan kompensatsiya.

Davlat hisobidan amalga oshiriladigan kompensatsiya nomli davlat tashkiloti tomonidan amalga oshiriladi. Bunda kompensatsiya to‘lashda AQShdagi tartibdan farqli o‘laroq, kimdir hibsga olinganmi yoki sud hukmi bilan aybdor deb topilganmi, muhim emas, aksincha bu jabrlanuvchilarga qo‘llaniladigan oxirgi chora hisoblanadi. YA’ni davlat jabrlanuvchilarning jinoyat sodir etishda aybdor deb topilgan shaxsdan zararni undirilishi uchun imkoniyat yaratadi, jinoyat sodir etgan shaxs topilmasa yoki ushbu shaxsning zararni qoplashga moddiy imkoniyati mavjud bo‘lmasa ushbu dastur ishga tushadi. Asosiysi, jabrlanuvchilarga nisbatan zarar yetkazilganligi faktining mavjudligidir. Bu dastur asosan zo‘ravonlik jinoyatlari qurbonlariga yetkazilgan jismoniy va ruhiy jarohatlar bilan bog‘liq holatlarni qoplab beradi va bu quyidagilarni o‘z ichiga oladi: shikastlanish uchun to‘lovlar, daromadni yo‘qotganligi uchun to‘lovlar, boquvchisini yo‘qotganlik uchun to‘lovlar, bolalar uchun to‘lovlar, dafn marosimi uchun to‘lovlar. Shuningdek, quyidagi xarajatlarni ham o‘z ichiga olishi mumkin: mulkiy zarar, avtomobillarni ta‘mirlash, rekonstruktiv jarrohlik, yashash joyini almashtirish. Jabrlanuvchilar huquqbuzar javobgarlikka tortilgunga qadar

jinoyat tufayli ularga yetkazilgan zararni qoplash huquqini davlatdan oladi va kelajakda davlatning o'zi regress tartibida mahkumdan jabrlanuvchiga yetkazilgan zararni to'lash bo'yicha barcha xarajatlarni undiradi. Yevropa amaliyotida jinoyat qurbonlariga zararni qoplashning bunday tartibi **subrogatsiya instituti** deb ataladi.

Subrogatsiya rivojlangan davlatlar qonunchiligida zararni qoplashning asosiy tamoyillaridan biridir. Xususan, sug'urta kompaniyalari ham ushbu tamoyil asosida faoliyat yuritadi. YA'ni jinoyat natijasida sug'urta obyektiga zarar yetkazilgan taqdirda sug'urta kompaniyasi oldindan belgilangan sug'urta summasini sug'urtalovchi mijozga to'lab beradi, keyinchalik u aybdor deb topilgan shaxslardan ushbu summani undirib olishi mumkin.

Buyuk Britaniyada "jinoyat qurbonlari uchun amaliyot kodeksi" asosida qo'llaniladigan sug'urta to'lovlari uchun maxsus tarif sxemasi mavjud. Ushbu sxema muayyan sug'urta hodisasi holatlariga qarab sug'urta to'lovlarining asoslari, shartlari va miqdorlarining batafsil tavsifini o'z ichiga oladi. Buyuk Britaniyadagi politsiya va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi idoralar jabrlanuvchilar bilan ishlashda ushbu Kodeksga tayanadi, bu kodeksda politsiya va jinoiy adliya tizimidagi mansabdor shaxslar tomonidan jabrlanganlarni qo'llab-quvvatlashning asosiy qoidalari belgilangan.

2-§. Amerika Qo'shma Shtatlarida jabrlanuvchining muhofazasi

AQSH Jinoyat-protsessual qonunchiligida "jabrlanuvchi" va "jinoyat qurboni" tushunchalari bir xil tushunchalar sifatida ko'rib chiqiladi. Biroq K.I.Kuxta tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda "jinoyat qurboni" va "jabrlanuvchi" tushunchasi AQShning turli federal va shtatlar qonunchiligida turlicha talqin etiladi, hatto jabrlanuvchining huquq va majburiyatlarida jiddiy farqlar mavjud¹⁸⁴ligini tasdiqlaydi.

AQSH qonunchiligiga ko'ra jinoyat natijasida yetkazilgan zararni qoplash faqat ayrim turdagi jinoyatlar uchun qo'llaniladi:

¹⁸⁴ Кухта К.И. Институт жертвы преступления (потерпевшего) в уголовном процессе США// Уголовное судопроизводство. – М., 2005. – № 4. – С.82.

- odam savdosi yoki odamni undan foydalanish maqsadida “qul” sifatida mehnatidan foydalanish shu jumladan, qarzдорlik va jinsiy ekspluatatsiya;
- terrorizm;
- badanga shikast yetkazish, qiynoqqa solish yoki zo‘ravonlik bilan tahdid qilish;
- qurol bilan yoki qurolsiz noqonuniy tajavuz natijasida sog‘likka zarar yetkazish bilan tahdid qilish;
- shahvoniy xarakterdagi zo‘ravonlik jinoyatlari, jabrlanuvchi 18 yoshdan oshgan, voyaga yetmagan yoki voyaga yetganidan keyin jinsiy tajavuzga uchragan shaxs, shu jumladan, nomusiga tegish, yoki nomusiga tegishga suiqasd qilish, jinsiy tajavuz, fohishalik, g‘ayritabiiy usulda jinsiy ehtiyojni qondirish, jinsiy faoliyatdan daromad olish ya’ni qo‘shmachilik qilish yoki fohishaxona saqlash va boshqa noqonuniy hatti-harakatlar;
- voyaga yetmaganlarga nisbatan jinoyatlar;
- voyaga yetmaganlarga nisbatan zo‘ravonlik jinoyatlari, jumladan, oilaviy zo‘ravonlik;
- ota-ona yoki uning o‘rmini bosuvchi boshqa shaxs tomonidan voyaga yetmagan shaxsga nisbatan jinsiy xarakterdagi jinoyatlar;
- uyushgan gurux tarkibida sodir etilgan jinoyatlar (banditizm); va boshq.

Jinoyat natijasida jabrlanganlarga 1984-yilda mamlakatda “Jinoyat qurbonlari jamg‘armasi” tuzilgan bo‘lib, ushbu jamg‘arma jinoyatdan jabr ko‘rgan shaxslarning huquqiy-moddiy holatini tiklash maqsadida tuzilgan ko‘plab dasturlarni moliyaviy jihatdan ta‘minlash bilan shug‘ullanadi. Ushbu jamg‘arma soliq to‘lovchilar hisobidan emas, balki sudlangan federal jinoyatchilar tomonidan to‘langan jarima va boshqa undiruvlar hisobidan moliyalashtiriladi. AQShning 1968 yilgi jinoyatchilikka qarshi kurash to‘g‘risidagi kompleks qonuniga ko‘ra, sud davlat foydasini ko‘zlab amalga oshirilayotgan harakatlarda ma‘lum shartlar asosida protsess ishtirokchilariga “immunitet” huquqini beradi. Bu jabrlanuvchi va guvohlik ko‘rsatuvlarining o‘ziga qarshi ishlatilmasligi va uning jinoiy ta‘qibdan ozod bo‘lishining kafilidir. Mazkur tamoyil 1970 yilda qabul qilingan jinoyatchilikka qarshi kurash to‘g‘risidagi qonunga

ham kiritildi¹⁸⁵. Ushbu qonun orqali jahonda ilk bora sudda o'ta ashaddiy jinoyatchilarga qarshi chiquvchi shaxslar xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan va davlat tomonidan moliyalashtiriladigan dastur ishga tushdi.

AQSH prezidenti Ronald Reygan davrida jinoyat qurbonlari masalasiga alohida e'tibor qaratilishi bevosita o'sha davrda AQSH jamiyatida jinoyatchilikning o'sishi va jabrlanuvchining adolat tizimida "unutilgan shaxs"ga aylanib qolgani bilan bog'liq edi. Reygan "qonun va tartib" tamoyilini ilgari surib, jinoyat faqat davlatga qarshi qilmish emas, balki avvalo inson taqdiriga yetkazilgan zarar ekanini ta'kidladi. Bu pozitsiya uning shaxsiy hayotiy tajribasi bilan ham mustahkamlandi. 1981 yil 30 mart kuni prezidentlik vazifasini bajarayotgan paytida Ronald Reyganga suiqasd uyushtirilib, u og'ir jarohat oldi, matbuot kotibi Jeyms Breydi esa umrbod nogiron bo'lib qoldi. Ushbu voqea jinoyatning oqibati nafaqat aybdorga jazo qo'llash, balki jabrlanuvchiga real yordam ko'rsatish orqali ham bartaraf etilishi lozimligini Reygan uchun yanada aniq namoyon qildi. Shu sharoitda u jinoyat qurbonlarini himoya qilishni davlat siyosati darajasiga ko'tarib, 1984 yilda "Victims of Crime Act" qabul qilinishi va jinoyatchilardan undiriladigan mablag'lar hisobidan shakllanadigan "Crime Victims Fund" tashkil etilishini qo'llab-quvvatladi. Natijada jabrlanuvchi birinchi marta jinoyat adolati tizimida mustaqil qadriyat sifatida e'tirof etildi va Reygan tashabbusi jabrlanuvchilar huquqlarini institusional himoya qilishning zamonaviy modeliga asos soldi.

1984 yilda AQShning "Jabrlanuvchini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi qonuni asosida "Federal Fond" tashkil etilgan va ushbu fond XX asrning 80-yillaridan hozirgi kunga qadar faoliyat yuritib kelmoqda¹⁸⁶.

Jinoyat qurbonlariga to'lovlar qonunga muvofiq, AQSH adliya vazirligi qoshida faoliyat yurituvchi maxsus fond orqali amalga oshiriladi. "Jinoyat qurbonlari

¹⁸⁵ Green, Diane L. Helping victims of violent crime: assessment, treatment and evidence-based practice/ Diane L., Green, Albert R. Roberts. – P. 53.; см. – N.Y.: Springer series on social work. LLC. 2008. – 256 p.

¹⁸⁶ См.: Дубровин В. В. Возмещение вреда, причиненного преступлением, путем компенсации со стороны государства (отечественный и зарубежный опыт) // Международное уголовное право и международная юстиция. 2010. № 3.

fondi” sarmoyasi davlat byudjeti yoki soliqlar hisobidan emas, balki jinoyatchilarning o‘zi tomonidan to‘langan mablag‘lar asosida shakllantirilgani bilan o‘ziga xosdir.

Fondning asosiy manbalari quyidagilardan iborat:

- federal jinoyat ishlari bo‘yicha sudlar tomonidan tayinlanadigan jarimalar, ya’ni jinoyat sodir etilganligi uchun majburiy badallar belgilangan;
- penyalar va moliyaviy sanksiyalar;
- sud tomonidan musodara qilingan ayrim mablag‘lar;
- Jinoyat yo‘li bilan topilgan va davlat foydasiga musodara qilingan aktivlar yoki garov pullari;
- jinoyat qurbonlariga yordam berish fondiga o‘tkazish uchun sud tomonidan belgilangan mablag‘lar;
- ixtiyoriy xayriyalar va ijtimoiy davturlarni amalga oshirish hisobidan to‘ldiriladi;

2021 yilda qabul qilingan yangi qonunga ko‘ra, korporativ jinoyatlar bo‘yicha ayblovni kechiktirish yoki jinoiy ta‘qib qilmaslik evaziga kompaniyalar to‘laydigan yirik mablag‘lar endi to‘g‘ridan-to‘g‘ri ushbu fondga yo‘naltiriladi. Bu fond barqarorligini ta‘minlashdagi eng muhim qadam bo‘ldi.

Muhim jihati shundaki, Fondga kongress tomonidan ajratiladigan byudjet mablag‘lari kiritilmaydi, ya’ni “jabrlanuvchi uchun jinoyatchi to‘laydi” degan prinsip qat’iy saqlanadi. Dastlab Fond sarmoyasi taxminan 150 million dollar atrofida bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik jinoyat ishlari soni va undiriladigan mablag‘lar oshishi hisobiga u yirik moliyaviy resursga aylandi. 2025-2026 yillar uchun fondning balansi 3,5 milliard dollarni tashkil etadi. Masalan, 2026 yil uchun hukumat ushbu fondan jabrlanuvchilarga yordam ko‘rsatish maqsadida 1,9 milliard dollardan ortiq mablag‘ ajratishni rejalashtirgan. Shuningdek, terrorizmdan jabrlanganlar uchun alohida maxsus to‘lovlar ham ko‘zda tutilgan.

Ilmiy jihatdan qaralganda, mazkur mexanizm davlat byudjetiga yuk solmaslik, jinoyat oqibati uchun aybdorning moddiy javobgarligini kuchaytirish, jabrlanuvchilarga barqaror va maqsadli yordam ko‘rsatish kabi ustunliklarni ta‘minlagan samarali institusional model hisoblanadi.

Jinoyat qurbonlariga yordam berish federal fondining mablag‘lari faqat jabrlanuvchi uchun boshqa chorasi mavjud bo‘lmagan xollarda qo‘llanilishi mumkin. Biroq asosiy sharti jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan bo‘lishi shart.

Fondan jabrlanuvchiga:

1) jinoyat natijasida yetkazilgan zararni qoplash to‘g‘risida da‘volar qo‘zg‘atilganda yordam ko‘rsatiladi (tegishli xujjat shakllarni to‘ldirish va zarur xujjatlarni to‘plash choralari ko‘riladi, jabrlanuvchi bilan uning kompensatsiya olishi bo‘yicha manzilli chora -tadbirlar amalga oshiriladi)

2) jinoyat protsessining istalgan bosqichida, shu jumladan, xukm qonuniy kuchga kirgandan keyin ularning huquqlarini amalga oshirishda jinoyat jabrlanuvchisining vakilligi ta‘minlanadi;

3) konsalting xizmatlari tashkil etilgan psixologlar va psixoterapevtlar bilan maslahatlar, professional yuridik maslaxat, bundan tashqari, ushbu turdagi maslaxatlar fond joylashgan joyda ham, jinoyat sodir etilgan joyda ham, jabrlanuvchining yashash joyida ham bir martalik yoki doimiy ravishda amalga oshirilishi belgilangan;

4) jamg‘arma huzurida faoliyat yurituvchi va xaftada 7/24 kunu-tun ishlaydigan ishonch telefoni orqali dastlabki psixologik maslahatlar, shuningdek, jamg‘arma faoliyati to‘g‘risidagi ma‘lumotlar taqdim etiladi;

5) zarur hollarda shoshilinch moliyaviy yordam ko‘rsatiladi. Sayohat xarajatlari, oziq-ovqat, kiyim-kechak va uy-joy bilan ta‘minlash uchun mablag‘ ajratilishi mumkin;

6) qariyalar yoki bolalarga nisbatan zo‘ravonlik holatlarida ehtiyot chorasi yoki boshqa himoya choralari olish zarur bo‘lganda, shoshilinch yuridik yordam ko‘rsatiladi. Bunday yuridik yordam jinoyat ishlarida ishtirok etishni, shuningdek, faqulodda bo‘lmagan fuqarolik ishlari bo‘yicha vakillini o‘z ichiga olmaydi;

B.T.Akramxodjayev to‘g‘ri ta‘kidlaganidek, “AQShda Jinoyatdan jabrlanganlar to‘g‘risidagi qonunda jabrlanuvchilarga jinoyat oqibatida yetkazilgan zarar uchun kompensatsiya masalalariga katta e‘tibor qaratildi. Ushbu qonunga muvofiq, AQSH davlat byudjetida maxsus xarajatlar moddasi ajratilib, keyinchalik jinoyat qurbonlarini qo‘llab-quvvatlovchi fondlar tashkil etildi. Qonunda jabrlanuvchilar

uchta toifaga bo‘lingan bo‘lib, ular zo‘ravonlik qurbonlari; maishiy jinoyat qurbonlari va voyaga yetmagan jinoyat qurbonlaridir”¹⁸⁷.

Kompensatsiya to‘lab berish muddati jinoyat sodir etilgan kundan boshlab 2 yil muddat qilib belgilangan. AQSH mutaxassisleri tomonidan Britaniya kompensatsiya jadvali boshqa davlatlarnikidan farqli o‘laroq oddiy va shaffof ravishda tuzilganligi, qo‘llash mexanizmi aniq belgilanganligini tan olishadi¹⁸⁸.

AQShning ellikta shtatida 1996 yilda “Majburiy Restitusiya to‘g‘risida” qonun qabul qilingan. Ularda fuqaroviy da’vo instituti mavjud emas, lekin Restitusiya instituti AQShda yetarlicha rivojlangan va ikkita yo‘nalishda faoliyat olib boradi¹⁸⁹.

- jinoyat qurbonlariga yordam berish;
- yetkazilgan zararni qoplash.

“Majburiy Restitusiya to‘g‘risida”gi qonunga asosan majburiy va qo‘shimcha restitusiyani sud ayblanuvchi topilmasa yetkazilgan zarar davlat tomonidan to‘lab beriladi. Jabrlanuvchilarga yetkazilgan zararni qoplash masalasi bevosita jinoyat protsessida ko‘riladi. Bu borada jinoyat sodir etgan shaxs ushlangan yoki aybdor aniqlanishidan qat’i nazar jabrlanuvchi davlat tomonidan kompensatsiya qilinishi, fuqaroning huquq va qonuniy manfaatleri ta’minlanishi zarur.

Yuqoridagi xorijiy davlatlarning jabrlanuvchining huquq va manfaatlarini muhofaza qilishning zamonaviy mexanizmini takomillashtirish maqsadida AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Yaponiya, Ozarbarjon va Qozog‘iston davlatlarining bu boradagi jinoyat oqibatida jabrlanganlarga yetkazilgan zarar xususan, moddiy, ma’naviy va jismoniy zararni bartaraf etish qonunchiligi va amaliyotining samarali jihatlarini mamlakatimiz qonunchiligini takomillashtirish va amaliyotga joriy qilish maqsadga muvofiqdir.

Amerika Qo‘shma Shtatlari umumiy huquq tizimiga ega davlatlar huquqiy an‘analarining izchil davomchisidir. Shu boisdan mamlakat qonunchiligida ham

¹⁸⁷ *Акрамходжаев Б.Т.* Обеспечение прав и законных интересов потерпевших от преступлений (обзор практики США) // Бюллетень Главного следственного управления МВД СССР. – № 3. – 1991. – С. 93-98.

¹⁸⁸ Возмещение материального вреда потерпевшим. Сравнительно-правовое исследование: науч.-прак. Пособие. URL: https://www.gov.uk/government/uploads/system/uploads/attachment_data/file/243480/17.pdf.

¹⁸⁹ *Кухма К.И., Махов В.Н.* Указ соч. – С.62.

jinoyat qurbonlarining asosiy huquqlarini mustahkamlash yo‘li tanlangan. Ushbu yo‘nalish Amerika qonunchilik tizimida fuqarolik huquq va erkinliklarini amalga oshirish sohasidagi muvaffaqiyatli ilg‘or qadamlardan biri sifatida e‘tirof etilgan.

Jinoyat qurbonlari huquqlarini tan olish bilan bog‘liq ilk burilish nuqtasi sifatida AQSH Oliy sudining 1972 yilda “Linda R.S. Richard D.ga qarshi” jinoyat ishi bo‘yicha chiqargan qarori e‘tirof etiladi.

Mazkur ishda sud Texas shtati Jinoyat kodeksining 602-moddasini qo‘llashdagi diskriminatsion amaliyot masalasini ko‘rib chiqqan. Unga muvofiq, ota-onadan biri bolaga aliment to‘lamasa, ikkinchi tomon uning ustidan jinoyat ishi qo‘zg‘atish haqida ariza bilan murojaat qilish huquqiga ega edi. Biroq okrug prokurori tomonidan berilgan ichki ko‘rsatmalarga ko‘ra, jinoyat ishi faqat nikohda bo‘lgan ota-onalarga nisbatan qo‘zg‘atilishi mumkin edi.

Nikohsiz (rasmiy nikohdan o‘tmagan) munosabatlar natijasida tug‘ilgan bolalarning manfaatlarini himoya qilish maqsadida aliment to‘lamaslik holatlarida esa jinoiy ta‘qib choralari ko‘rilmasligi belgilangan bo‘lib, sud ushbu amaliyotni teng huquqlilik prinsipiga zid, diskriminatsion tartib sifatida baholagan.

Mazkur ish bo‘yicha AQSH Oliy sudi okrug prokurori xizmatining jinoyat ishini qo‘zg‘atishdan bosh tortish to‘g‘risidagi qarorida diskriminatsiya alomatlarini topmadi, chunki xususiy shaxs bunday protsessual qarorlarga ta‘sir ko‘rsatish huquqiga ega emas.

Shu bilan birga, sud masalaning jamiyat uchun muhim ahamiyat kasb etishini anglab, AQSH Kongressi bunday holatlarda jinoyat qurbonlariga, hatto ularning sog‘lig‘iga bevosita ziyon yetmagan taqdirda ham, belgilangan huquqlardan foydalanish imkoniyatini beruvchi maxsus qonun qabul qilishi zarurligini ta‘kidlagan.

Keyingi o‘n yil mobaynida jinoyat qurbonlarining huquqiy maqomini mustahkamlash bo‘yicha nazariy asoslar ishlab chiqildi, qonunchilik takliflari tayyorlandi va ularni amalga oshirish bo‘yicha qonunchilik jarayonlari olib borildi.

Ushbu say-harakatlar natijasida 1982 yilda AQSH Prezidenti huzuridagi jinoyat qurbonlari bo‘yicha maxsus ishchi guruh tomonidan tahliliy hisobot tayyorlandi. Shu

yili Kongress “Guvohlar va jinoyat qurbonlarining huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunning ilk qismlarini qabul qildi.

Aynan shu davrdan boshlab, jinoyat qurbonining jinoyat protsessidagi rolini qonunchilik asosida kuchaytirish jarayoni federal darajada ham, shtatlar miqyosida ham izchil rivojlana boshladi.

Ta’kidlash lozimki, jinoyat qurbonlarining huquqiy maqomini mustahkamlashga qaratilgan normalar 33 ta shtat konstitusiyalariga kiritilgan. Shu bilan bir vaqtda, sud amaliyoti ham jinoyat qurbonlarining huquqlarini tan olish va ularni kengaytirish yo‘nalishida rivojlandi.

Xususan, “Tennisi shtatiga qarshi” ishi bo‘yicha AQSH Oliy sudi qotillik qurbonining oila a‘zolari ham jabrlanuvchi sifatida tan olinishi mumkinligini rasman ta’kidlab o‘tgan.

Natijada, AQShda federal va shtat darajalarida jinoyat qurbonlarining huquqlarini tartibga soluvchi katta miqdordagi normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. AQSH jinoyat protsessining o‘ziga xosligi, eng avvalo, mamlakatning federativ tuzilishi bilan shartlangan. Shuning uchun har bir shtatda federal qonunlar bilan birgalikda, xususiy jinoyat-protsessual qonunchiligi mavjud. Federal jinoyat-protsessual huquqi AQSH Konstitusiyasiga; Kongress hujjatlarga; Federal sudlar uchun jinoyat protsessining federal qoidalariga; AQSH Oliy Sudi, Federal sudlar, Federal ijroiya hokimiyatlari chiqargan boshqa qoidalarga, hamda AQSH Oliy sudi o‘rnatgan jinoiy sudlov ishlarining qoidolari va sud pretsedentlari asoslanadi.

Shu bilan birga, mazkur federal qonun turli darajadagi qonunchilik tizimlarini muvofiqlashtirish va yagona huquqiy yondashuvni ta’minlash funksiyasini bajaradi, ya’ni federal hukumat faoliyatini muvofiqlashtirish hamda federal va shtat organlari o‘rtasidagi hamkorlik tartibini belgilab berdi.

Jinoyat qurbonlarining huquqiy maqomini takomillashtirishning keyingi bosqichi 1990 yilda qabul qilingan “Jinoyat qurbonlarining huquqlari va restitutsiyasi to‘g‘risida”gi qonun bilan bog‘liqdir. Mazkur qonun AQSH Qonunlar to‘plamining 42-bo‘limi 112-bobida mustahkamlanib, jinoyat tufayli yetkazilgan zararni aybdor

hisobidan undirish mexanizmini joriy etdi va restitusiya institutining huquqiy asosini yaratdi.

1996 yilda qabul qilingan “Terrorizmga qarshi kurash va o‘lim jazosining samaradorligi to‘g‘risida”gi qonun esa mazkur yo‘nalishdagi qonunchilikni yanada kengaytirdi. Unga ko‘ra, zo‘ravonlik xususiyatiga ega bo‘lgan jinoyatlar bo‘yicha restitusiya majburiy tartibda joriy etildi, shuningdek, terroristik hujumlardan jabr ko‘rgan shaxslarning huquqlari kengaytirildi, endi ularning huquqlari teraktning AQSH hududida yoki undan tashqarida sodir etilganligiga bog‘liq emas.

2004 yilda Kongress tomonidan qabul qilingan “Hamma uchun adolat to‘g‘risida”gi qonun esa jinoyat qurbonlarining huquqiy kafolatlarini yanada mustahkamladi. Mazkur qonun tarkibiga mustaqil bo‘lim sifatida kiritilgan “Jinoyat qurbonlarining huquqlari to‘g‘risida”gi qonun esa AQSH Qonunlar to‘plamining 18-bo‘limi, 237-bobi, §3771-paragrafi sifatida rasmiylashtirilgan bo‘lib, u jinoyat qurbonlarining huquqlarini tartibga soluvchi asosiy normativ-huquqiy hujjatlardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot olib borilayotgan sohaning muhim jihatlaridan biri shundaki, jinoyat qurbonining huquqiy maqomini tartibga soluvchi qonunlar ro‘yxati ancha keng qamrovlidir. Ular qa toriga quyidagilar kiradi:

Umuman olganda, AQShda jinoyat qurbonlarining huquqlarini huquqiy tartibga solish quyidagi yo‘nalishlarga yo‘naltirilgan:

- jinoyat qurbonlarining huquqlarini tan olish;
- qurbonlar huquqlariga oid qonunlarga rioya etilishini ta‘minlash;
- jinoyat qurbonlariga yordam ko‘rsatish fondi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash;
- qurbonlarni himoya qilish bo‘yicha qonunchilik talablariga amal qilishni majburlovchi mexanizmlarni ta‘minlash¹⁹⁰.

Jinoyat qurboni (jabrlanuvchi) jinoyat harakati bevosita uning shaxsiga nisbatan sodir etilgan shaxs e‘tirof etiladi; agar u voyaga yetmagan yoki muomala

¹⁹⁰ U.S. Department of Justice. Office for Victims of Crime. Victims’ Rights Legislation Overview, 2022.

layoqatsiz bo'lsa, uning qonuniy vakili, yaqin qarindoshi yoki sud tomonidan shunday deb topilgan boshqa shaxs qurbon maqomiga ega bo'ladi. Agar jabrlanuvchi vafot etgan bo'lsa, uning huquqlari oila a'zolari, yaqin qarindoshlari yoki sud qaroriga ko'ra boshqa shaxs tomonidan amalga oshiriladi¹⁹¹.

Jinoyat qurbonlarining subyektiv huquqlari turli-tuman bo'lib, ularning doirasi shtatdan shtatga farq qilishi mumkin. Biroq federal darajada AQSH Qonunlar to'plamining (U.S. Code) 18-bo'limi, 237-bobi, §3771-paragrafida quyidagi asosiy huquqlar mustahkamlangan:

ayblanuvchidan yetarli darajada himoyalaniş huquqi; ommaviy sud muhokamasi, shartli ravishda ozod qilish to'g'risidagi eshituv hamda ayblanuvchining qochib ketishi haqida oqilona, aniq va o'z vaqtida xabardor etilish huquqi; ommaviy sud muhokamasida shaxsan va bevosita ishtirok etish huquqi; sudda bevosita o'z fikrini bildirish imkoniyatiga ega bo'lish huquqi;

o'z advokati yoki vakili bilan maslahatlashish huquqi; jinoyat orqali yetkazilgan zarar uchun moddiy kompensatsiya olish huquqi, shu jumladan, qonunga muvofiq, qo'shimcha xarajatlar va to'lovlarni qoplash huquqi; ishni imkoni boricha tez va asossiz kechiktirishlarsiz ko'rib chiqish huquqi; shaxsiy qadr-qimmat va daxlsizligini hurmat qilish huquqi; aybni tan olish bo'yicha kelishuv yoki jinoiy ta'qibni kechiktirish to'g'risidagi bitim haqida o'z vaqtida ma'lumot olish huquqi; jinoyat qurbonlarining huquqlarini himoya qilish bo'yicha departamentga aloqa ma'lumotlari taqdim etilgan holda, jabrlanuvchi (jinoyat qurboni)ga berilgan barcha huquqlar to'g'risida to'liq va ishonchli ma'lumot olish huquqi belgilangan¹⁹².

Qonun jinoyat qurbonining huquqlariga mos ravishda davlat organlari va mansabdor shaxslarning majburiyatlarini ham belgilab beradi. Masalan, sud jabrlanuvchi bevosita jarayonda ishtirok etmagan hollarda ham uning huquqlarini eng to'liq amalga oshirish uchun mumkin bo'lgan barcha choralarni ko'rishi lozim.

Adliya vazirligi hamda jinoyatlarni aniqlash, tergov qilish yoki jinoiy ta'qibni amalga oshirish bilan shug'ullanuvchi boshqa idora va muassasalarning mansabdor

¹⁹¹ *Crime Victims' Rights Act (18 U.S.C. § 3771).*

¹⁹² *Crime Victims' Rights Act (18 U.S.C. § 3771).*

shaxslari ham jinoyat qurbonlarini tegishli tarzda xabardor etish va qonunchilikda nazarda tutilgan ularning huquqlarini ta'minlash uchun barcha say-harakatlarni amalga oshirishlari shart.

Ayblovni qo'llab-quvvatlovchi shaxs esa jinoyat qurbonini o'z huquqlarini amalga oshirishda huquqiy yordam olish imkoniyati borligi to'g'risida xabardor qilishi lozim.

AQSH Bosh prokuroriga Jinoyat qurbonlarining huquqlari to'g'risidagi qonun talablariga muvofiq, jinoyat qurbonlarining huquqlarini ta'minlash hamda mansabdor shaxslarga yuklatilgan majburiyatlarga rioya etilishini ta'minlashga qaratilgan idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish topshiriladi. Shuningdek, Adliya vazirligi tuzilmasi doirasida jinoyat qurbonlarining huquqlari buzilishi holatlari yuzasidan shikoyatlarni ko'rib chiqish vakolatiga ega ma'muriy organ tashkil etilishi belgilangan.

Alohida tartibda jabrlanuvchining huquqlari cheklangan hollarda shikoyatlarni ko'rib chiqishning tezlashtirilgan tartibi ham nazarda tutilgan. Bunday hollarda apellyatsiya shikoyati 72 soat ichida, apellyatsiya ish yuritishining umumiy qoidalariga muvofiq, ko'rib chiqiladi. Agar jabrlanuvchining qaysidir huquqini amalga oshirish rad etilsa, rad etishning sabablari apellyatsiya instansiyasi qarorida aniq bayon etilishi shart.

AQSH qonunchiligida "jabrlanuvchi" tushunchasining huquqiy ta'rifi mavjud emas. Jinoyat-protsessual nuqtai nazardan, jabrlanuvchi jinoyat ishi bo'yicha guvoh maqomini egallaydi¹⁹³ Ammo, jabrlanuvchining huquqiy maqomini ta'minlovchi keng qamrovli qonunchilik tizimi mavjudligi sababli AQShda jinoyat qurbonlarining quyidagi toifalarini ajratish mumkin¹⁹⁴:

Jinoyat qurbonlari toifalariga balog'atga yetgan shaxs (AQShning ayrim shtatlarida 18, ayrimlarida esa 21 yosh qilib belgilangan) u voyaga yetmagan vaqtda jinsiy zo'ravonlikka duchor bo'lgan bo'lsa,¹⁹⁵ balog'atga yetgan shaxs, jinsiy

¹⁹³ *U.S. Code, Title 18 — Crimes and Criminal Procedure*, Part II, Chapter 237 — Crime Victims' Rights.

¹⁹⁴ Crime Victims' Rights Act (CVRA), Pub. L. No. 108–405, §102, 118 Stat. 2260 (2004).

¹⁹⁵ Federal Child Abuse Prevention and Treatment Act (CAPTA), 42 U.S.C. §5106.

zo‘ravonlik qurboni bo‘lsa; zo‘ravonlik qurboni, unga og‘ir tan jarohati yetkazilgan yoki shunday jarohat (yoki o‘lim) yetkazish bilan qo‘rqitish yoki zo‘rlilik ishlatish bilan tahdid qilingan; talonchilik yoki bosqinchilik qurboni, natijada sog‘lig‘iga zarar yetgan yoki shunday zo‘rlilik ishlatish bilan tahdid qilingan bo‘lsa; qasddan tiriklayin yoqib yuborish yoki suiqasd qurboni; agar bu jinoyat turar joy, jamoat joyi, transport vositasi (shu jumladan, suv yoki havo transporti), yoki shaxsiy mulkka nisbatan sodir etilgan bo‘lsa; voyaga yetmagan shaxs ya’ni 18 yoshga to‘lmagan yoki muayyan shtat qonunchiligida 21 yoshga to‘lmagan shaxs¹⁹⁶ voyaga yetmagan shaxs, u o‘z ota-onasi yoki boshqa katta yoshdagi shaxs tomonidan jismoniy zo‘ravonlikka (urish, kuydirish, bo‘g‘ishga urinish, tishlash va boshqalar) duchor bo‘lgan; voyaga yetmagan shaxs, u o‘z ota-onasi yoki boshqa katta yoshdagi shaxs tomonidan jinsiy zo‘ravonlikka duchor bo‘lgan; oilaviy zo‘ravonlik qurboni; sobiq turmush o‘rtog‘i yoki yaqin munosabatda bo‘lgan shaxs tomonidan jinoyat sodir etilgan qurbon; yo‘l-transport hodisasi qurboni, agar hodisa mastlik holat sodir etilgan bo‘lsa.¹⁹⁷

AQShda jinoyat qurbonlarining yana quyidagi toifalari ajratiladi:

- Qari yoki boshqa ojiz ahvoldagi shaxsga nisbatan sodir etilgan jinoyat qurboni, shu jumladan, aybdor shaxsga bog‘liq yoki unga qaram bo‘lgan holdagi jabrlanuvchi;¹⁹⁸
- Iqtisodiy jinoyat qurboni, ya’ni noqonuniy foyda olish yoki moddiy zarar yetkazish bilan sodir etilgan jinoyat qurboni;¹⁹⁹
- Uyushgan jinoiy guruh hujumi qurboni, ya’ni uch yoki undan ortiq shaxsdan iborat, muntazam jinoiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi va o‘zini umumiy nom yoki belgi ostida tanituvchi guruh tomonidan qilingan hujum qurboni;²⁰⁰

¹⁹⁶ Age of majority — muayyan shtat qonunchiligiga kўra 18 ёш ёки бошқа ёш чегараси билан белгиланиши мумкин.

¹⁹⁷ *Driving Under the Influence (DUI) Victim Compensation Provisions* — ҳар бир штатнинг алоҳида йўл ҳаракати ва жиноят қонунларида назарда тутилган.

¹⁹⁸ Elder Justice Act, Pub. L. No. 111–148, Title VI, Subtitle H, §6703, 124 Stat. 782 (2010).

¹⁹⁹ Fraud Enforcement and Recovery Act (FERA), Pub. L. No. 111–21, 123 Stat. 1617 (2009).

²⁰⁰ Racketeer Influenced and Corrupt Organizations Act (RICO), 18 U.S.C. §§1961–1968.

– Odam savdosi qurboni, agar u jinsiy ekspluatatsiya maqsadida aldov, zo‘ravonlik yoki majburlash yo‘li bilan, qarzni to‘lash yoki qullikka sotish niyati bilan amalga oshirilgan bo‘lsa;²⁰¹

– Voyaga yetmagan shaxs odam savdosi qurboni, jinoyat maqsadidan qat’i nazar;

– Shaxsiy ma’lumotlar (identifikatsiya ma’lumotlari) o‘g‘rilanishi qurboni;²⁰²

– talonchilik jinoyati qurboni, ya’ni jabrlanuvchining pul mablag‘lari yoki mulki ochiqdan – ochiq talon - toroj olib qo‘yilgan holatlar (masalan, g‘ayriqonuniy ravishda kirib sodir etilgan);

– bosqinchilik qurboni, ya’ni xayot yoki sog‘lik uchun xavfli bo‘lgan zo‘rlik ishlatib yoki shunday zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqitib mulkini tortib olish holati;

– Jinsiy xarakterdagi uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyat qurboni, ya’ni jinsiy tazyiq, fohishalik, noqonuniy jinsiy aloqa yoki jinsiy ehtiyojni g‘ayritabiiy usulda qondirish yoki jinsiy faoliyatdan foyda olish maqsadida qilingan boshqa noqonuniy xatti-harakatlar;

– Qayta-qayta ta’qib yoki kuzatish qurboni, ya’ni ikki shaxs o‘rtasidagi har qanday noxush muloqot yoki harakat, jabrlanuvchini bevosita yoki bilvosita qo‘rquv holatiga soluvchi holat;

– Qotillik qurbonining yaqin qarindoshi yoki yaqin munosabatda bo‘lgan shaxs;

– Terroristik akt qurboni;

– Nogironligi bo‘lgan shaxs, u jinoyat qurboniga aylangan holat.

Shu bilan birga, AQShda “ikkilamchi viktimizatsiya” yoki “reviktimizatsiya” nazariyasi keng tarqalgan.

Masalan, qotillik qurbonining qarindoshlari yoki yaqinlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri jinoyat qurboni sifatida e’tirof etiladi. Shuningdek, zo‘ravonlik jinoyati guvohlari ham jinoyat qurbonlari deb tan olinishi mumkin²⁰³.

²⁰¹ Trafficking Victims Protection Act (TVPA), 22 U.S.C. §7102.

²⁰² Identity Theft and Assumption Deterrence Act, Pub. L. No. 105–318, 112 Stat. 3007 (1998).

Asosan, ikkilamchi viktimizatsiya bu birlamchi viktimizatsiyadan kelib chiqadigan hodisa bo‘lib, ikki turga bo‘linadi:

- bir holatda u ikkilamchi jabrlanuvchilarni (jinoyat guvohlari, sug‘urtalovchilar va boshqalarni) nazarda tutadi;
- ikkinchi holatda esa jabrlanuvchining o‘ziga nisbatan sodir etilgan jinoyatni qayta-qayta ruhan boshdan kechirishi bilan bog‘liq bo‘ladi²⁰⁴.

Ikkilamchi viktimizatsiyaning ikkinchi turi ayniqsa, zo‘ravonlik, xususan, jinsiy jinoyatlar misolida yaqqol namoyon bo‘ladi. Bunday hollarda jabrlanuvchi sud jarayoni yakunlangach ham jamiyatning nomaqbul munosabati, ayniqsa, an’anaviy yoki diniy jihatdan qattiq qarashlar ustun bo‘lgan jamoalarda, boshdan kechirishi mumkin. Masalan, zo‘rlanish natijasida bokiralikni yo‘qotish holati ba’zan jamiyat tomonidan ayb sifatida baholanadi²⁰⁵.

Judit Xermanning fikricha, travmani o‘rganish faqat tibbiy masala emas, balki siyosiy masaladir. “Jabrlanuvchilar o‘z boshidan kechirganlarini gapirishi uchun jamiyatda buni eshita oladigan xavfsiz muhit bo‘lishi kerak, agar jamiyat jinoyatchini himoya qilsa yoki voqeani inkor etsa, jabrlanuvchining sog‘ayishi imkonsiz bo‘ladi” deb ta’kidlaydi²⁰⁶. Judit Xerman jabrlanuvchilarni “kasal” emas, balki “o‘ta og‘ir sharoitda omon qolgan qahramonlar” (survivors) deb ataydi. Uning fikricha, jabrlanuvchini sog‘ayishi uchun unga faqat dori emas, balki ijtimoiy adolat va jamiyatning qo‘llab-quvvatlashi kerak.

Bunday ikkilamchi viktimizatsiyaning oqibatlari quyidagicha bo‘lishi mumkin:

- a) jamoat ayblovidan so‘ng o‘zini ijtimoiy izolyatsiya qilish;
- b) qoralanish va “tamg‘alash” natijasida do‘stlar yoki yaqinlardan uzilish;

²⁰³ National Organization for Victim Assistance (NOVA). *Understanding Secondary Victimization*. Washington, DC, 2018.

²⁰⁴ Karmen, A. (2016). *Crime Victims: An Introduction to Victimology*. 9th ed. Boston: Cengage Learning.

²⁰⁵ Herman, J. (1992). *Trauma and Recovery: The Aftermath of Violence*. New York: Basic Books. <https://psycnet.apa.org/record/1992-97643-000>

²⁰⁶ Herman, J. (1992). *Trauma and Recovery: The Aftermath of Violence*. New York: Basic Books. <https://psycnet.apa.org/record/1992-97643-000>

v) ichki psixologik to'siqlar, ya'ni nikohga kirishdan voz kechish yoki majburiy ajrashish holatlarigacha borib yetishi mumkin²⁰⁷.

Ikkilamchi viktimizatsiya masalalari sudning buyruq tartibida yoki aybdorni sudlash jarayoni doirasida ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga, ikkilamchi viktimizatsiyadan qat'i nazar, AQShda jinoyat qurbonlariga oid dinamik statistik ma'lumotlar ham yuritiladi²⁰⁸.

Anglo-sakson huquq oilasida esa jabrlanuvchi jinoyat protsessida asosan guvoh tariqasida ishda ishtirok etadi. Asosiy jinoyat protsessi "davlat ayblanuvchi" o'rtasida kechadi. Jabrlanuvchi sud jarayonida mustaqil huquqiy subyekt sifatida emas, balki prokuratura orqali vakillikda qatnashadi.

Anglo-sakson tizimida jinoiy ish bo'yicha ayblov davlat, aniqrog'i prokuratura yoki okrug prokurori tomonidan qo'yiladi. M: jinoyatchiga nisbatan ishni jabrlanuvchi emas, davlat boshlaydi, jabrlanuvchi qatnashmasa ham, davlat ishni yuritishda davom etadi, ayblov "halq nomidan" (inglizcha "*The People vs. Defendant*") yoki "davlat nomidan" qo'yiladi,; Faqat ayrim hollarda jabrlanuvchi "ta'sir bayonoti" (victim impact statement) bilan chiqishi mumkin, lekin qaror qabul qilishda asosiy rol o'ynamaydi.

*Xulosa sifatida anglo-sakson huquq tizimida davlatning rolini markaziy, jabrlanuvchini esa yordamchi (guvoh) sifatida ko'rish tizimning asosiy xususiyatlaridan biridir. Bu, bir tomondan, jamoat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, jabrlanuvchining ehtiyoj va manfaatlarini kamroq hisobga olishi mumkin. Shu bois, bu tizimda jabrlanuvchi "marginal"*²⁰⁹ *rolda bo'ladi, deb aytish mumkin. Ramon-german huquq oilasida jabrlanuvchining huquqlarini faol himoya qiladi, uni jinoyat protsessining mustaqil ishtirokchisi sifatida tan oladi. Uning moddiy va protsessual huquqlari yaxshiroq himoyalangan.*

²⁰⁷ Orth, U. (2002). *Secondary Victimization of Crime Victims by Criminal Proceedings*. *Social Justice Research*, 15(4), 313–325.

²⁰⁸ Bureau of Justice Statistics (BJS). *Criminal Victimization in the United States, 2023: Statistical Tables*. Washington, DC: U.S. Department of Justice, 2024.

²⁰⁹ "Маргинал" сўзи луғавий жиҳатдан лотинча "margo" "чегара", "ён", "чет" сўзидан олинган. *Жабрланувчи маргинал рольда қолади* дегани – яъни у суд жараёнида марказий шахс эмас, ёрдамчи ёки чекланган иштирокчи// Ўзбек тилининг изоҳли луғати. А.Мадвалиев таҳрири остида. "М" – ҳарфи. – Т – 2020, – Б.61.

Fikrimizcha jinoyatdan jabrlangan shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish zamonaviy huquqiy davlatchilikning eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Tadqiqot jarayonida anglo-sakson va romano-german huquq oilalarining bu boradagi tajribasini qiyosiy tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, har ikki tizim jabrlanuvchining protsessual maqomini mustahkamlashda o‘ziga xos, biroq bir-birini to‘ldiruvchi mexanizmlarga ega. AQSH tajribasida jabrlanuvchiga “Victim Impact Statement” instituti orqali o‘z ovozigacha ega bo‘lish va his-tuyg‘ularini sudga yetkazish imkoniyati berilishi uning ruhiy tiklanishida muhim ahamiyat kasb etsa, Germaniyaning romano-german modelida jabrlanuvchiga berilgan “qo‘shimcha ayblovchi” maqomi unga jarayon ustidan faol huquqiy nazorat o‘rnatish imkonini beradi.

Jabrlanuvchiga ko‘rsatiladigan yordam faqatgina ayblanuvchini jazolash bilan cheklanmasligi lozim. AQShdagi “Crime Victims Fund” kabi fondlarning shakllanish manbalarini tahlil qilganda, davlat byudjetiga yuk tushirmasdan, korporativ jarimalar va musodara qilingan aktivlar hisobidan jabrlanuvchilarga real moddiy va psixologik ko‘mak berish mexanizmining naqadar samarali ekanligi isbotlandi. Bu tizim jabrlanuvchining davlatga bo‘lgan ishonchini oshirish bilan bir qatorda, jinoyatning ijtimoiy oqibatlarini yumshatishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, monografiyada “reviktimizatsiya” muammosiga alohida urg‘u berildi. Tergov va sud jarayonlarida jabrlanuvchining ikkilamchi travma olishini oldini olish uchun jamiyatdagi "qurbonni ayblash" (victim blaming) tendensiyasiga barham berish va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining psixologik tayyorgarligini oshirish zarurligi aniqlandi. Xususan, voyaga yetmagan jabrlanuvchilar va terrorizm qurbonlari uchun alohida himoya standartlarini joriy etish, ularni ayblanuvchi bilan yuzma-yuz kelishdan himoya qilish va da’vo muddatlarini uzaytirish bo‘yicha xorij tajribasini milliy qonunchilikka implementatsiya qilish maqsadga muvofiq.

Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinmi, ideal himoya tizimi bu jabrlanuvchini nafaqat jinoyat subyekti sifatida, balki uning qadr-qimmati va ruhiy yaxlitligini tiklashga qaratilgan kompleks yondashuvdir. Yuqorida tahlil qilingan

xalqaro standartlar va Judit Xermanning tiklanish bosqichlariga oid nazariyalari milliy jinoyat-protsessual qonunchilikni isloh qilishda va jabrlanuvchilarga yordam berish fondlarining huquqiy asoslarini yaratishda poydevor bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Milliy qonunchilikni takomillashtirish maqsadida xorijiy tajribaning ijobiy jihatlarini O‘zbekiston Respublikasining amaldagi jinoyat va jinoyat-protsessual tizimiga implementatsiya qilish bo‘yicha bir qator konseptual takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir.

Birinchi navbatda, O‘zbekistonda ham byudjetdan tashqari “Jinoyatdan jabrlanganlarga ko‘mak berish davlat jamg‘armasi”ni tashkil etish va uning mablag‘larini shakllantirishda davlat byudjetiga emas, balki jinoyat sodir etgan shaxslardan undiriladigan majburiy badallar, musodara qilingan jinoiy aktivlar va iqtisodiy jinoyatlar bo‘yicha qo‘llaniladigan jarimalar tizimiga tayanish lozim. Bunday mexanizm jabrlanuvchining davlat tomonidan ijtimoiy himoya qilinishini ta’minlash bilan birga, ayblanuvchi tomonidan yetkazilgan zararining restitutsiya qilinishini institusional darajaga ko‘taradi.

Ikkinchidan, jabrlanuvchining protsessual maqomini kengaytirish maqsadida, “birgalikdagi ayblovlari” yoki “subsidiar ayblovlari” institutini milliy qonunchilikka joriy etish taklif etiladi. Bunda jabrlanuvchi nafaqat guvoh yoki passiv ishtirokchi, balki prokuror bilan teng ravishda dalillarni tekshirishda qatnashadigan va sudlanuvchiga savol berish huquqiga ega bo‘lgan faol subyektga aylanishi lozim.

Uchinchidan, reviktimizatsiyaning oldini olish maqsadida, ayniqsa voyaga yetmaganlar va zo‘ravonlik qurbonlari ishtirok etadigan ishlar bo‘yicha “Jabrlanuvchining bayonoti” tartibini joriy etish, bu orqali qurbonning ruhiy holatini sud hukmiga ta’sir etuvchi muhim omil sifatida qonunan mustahkamlash zarur.

To‘rtinchidan, jinoyat-protsessual qonunchilikka jabrlanuvchining “unutilib qolish huquqini” va uning shaxsiy hayoti daxlsizligini kafolatlovchi maxsus normalarni kiritish, xususan, og‘ir jinoyatlar bo‘yicha jabrlanuvchining ism-sharifini ommaviy axborot vositalarida e’lon qilishni cheklash va sud jarayonlarida masofaviy so‘roq qilish tizimini kengaytirish taklif etiladi. Ushbu takliflarning amalga oshirilishi

O‘zbekiston Respublikasining “Inson qadri uchun” tamoyili asosidagi huquqiy islohotlarini yangi bosqichga olib chiqishga va jabrlanuvchining adolatga bo‘lgan ishonchini to‘laqonli tiklashga xizmat qiladi.

3-§ Anglo-amerika huquq oilasiga mansub mamlakatlarda jabrlanuvchiga jinoyat natijasida yetkazilgan zararni qoplash masalalari

XX asrning oxiri va XXI asrning boshlarida dunyo hamjamiyatidagi tanqidiy, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy o‘zgarishlar va ular bilan bog‘liq huquqiy oqibatlar qonunchilikdagi global taraqqiyotga olib keldi.

Skotland Yard Xenri de Brakton, Edvard Kok, Vilyam Blekstoun, Djeyms Medison, Aleksandr Hamilton²¹⁰ anglo-amerika huquq oilasining shakllanishi va rivojlanishiga unda jinoyat qurbonlarining huquq va manfaatlari muhofazasi qoidalari hal etuvchi ta’sir ko‘rsatganligini qayd etish shart. Zamonaviy huquqshunoslikda mazkur huquq tizimini ifodalashda terminologiya masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ilmiy adabiyotlarda tarixan “anglo-sakson huquq oilasi” atamasi qo‘llanilgan bo‘lib, u asosan o‘rta asr Angliyasidan shakllangan umumiy huquq (common law) an‘analari bilan bog‘liq holda ishlatilgan. Biroq ushbu atama huquq tizimining keyingi taraqqiyoti, ayniqsa AQSH, Kanada, Avstraliya, Yangi Zellandiya kabi boshqa davlatlardagi institusional rivojlanishini to‘liq qamrab olmaydi hamda ko‘proq tarixiy-etnik mazmunga ega bo‘lgan tushuncha sifatida baholanadi. Shu sababli zamonaviy qiyosiy huquqshunoslikda “anglo-amerika huquq oilasi” atamasini qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Anglo-amerika huquq oilasi tizimida e’tibor eng avvalo huquqni qo‘llash amaliyotiga beriladi, ko‘pincha bu xususiyat – sud presedenti deb ataladi.

²¹⁰Sir William Blackstone, Commentaries on the Laws of England in Four Books, vol. 1 [1753] http://files.libertyfund.org/files/2140/Blackstone_1387-01_EBk_v6.0.pdf; Institutes of the Lawes of England" https://openlibrary.org/books/OL7028846M/Institutes_of_the_laws_of_England; "The Concept of Law" (1961) <https://academic.oup.com/ajj/article/7/1/169/213851>

Hozirgi zamon xorij mamlakatlarining jinoyat ishlar bo'yicha ish yurituvining keng tarqalgani tizimi anglo-amerika huquq tizimi bo'lib, unga bir qator davlatlar Buyuk Britaniya, AQSH, Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Filippin va boshqalarni kiritish mumkin. Ushbu tizimning shakllanishida Angliyaning o'ziga xos o'rni mavjud. Zero anglo-amerika huquq tizimining negizini ikkita huquq sohasi umumiy huquq va adolat huquqi tashkil etadi. Umumiy huquq Vestminster sudyalari tomonidan shakllantirilgan bo'lsa, adolat sudi esa kansler sudining xukmlari asosida shakllantirilgan. Aynan shuning uchun ham ingliz-sakson huquq tizimiga ba'zan presedent huquqi deb baho beriladi. Ushbu huquq tizimida jinoyat-prosessual huquqning asosiy manbasi bo'lib sud presidenti xizmat qiladi. Presedent - lotincha "praecedens" avvalgisi, oldingisi ma'nosini anglatadi va sud yoki ma'muriy organing yozma yoki og'zaki qarori, kelgusida barcha shunga o'xshash ishlarni ko'rib chiqish va hal qilish uchun asos bo'ladigan namuna, etalon, norma sifatida qabul qilinsa, u presedent bo'ladi²¹¹. Yuridik ensiklopediyada esa "Presedent huquqi sud presedentiga asoslangan davlatlarda huquq manbai sifatida qo'llaniladi. YA'ni ma'lum bir ish bo'yicha chiqarilgan qarorni aynan shu kabi ishlarni ko'rishda boshqa instansiya sudlari tomonidan majburiy tarzda bir xil qaror chiqarilib, hal etishga asoslangan huquq tizimi"²¹² deb tushuncha berilgan. Angliyada "Jabrlanuvchilar kodeksi" 2004 yildagi Oiladagi zo'ravonlik, jinoyatchilik va qurbonlar to'g'risidagi qonunning 32-bo'limiga muvofiq, Adliya Davlat kotibi tomonidan chiqarilgan²¹³

"Angliya va Uelsda jinoyat qurbonlari uchun amaliyot kodeksi "Jabrlanuvchilar kodeksi" bu jinoyat qurbonlariga davlat organlari, xususan polisiya, prokuratura, sud va boshqa idoralar tomonidan qanday munosabatda bo'lish lozimligi, ularga qanday huquq va xizmatlar taqdim etilishi kerakligini belgilab beruvchi huquqiy-meyoriy hujjatdir.

²¹¹ Марченко М. Н. Правовые системы современного мира: Учеб. пособие. - М., 2001. - С. 152

²¹² Юридик энциклопедия / Юридик фанлар доктори, профессор У.Таджихановнинг умумий тахририда. - Т., 2001. - 656 б

²¹³ "The Code of Practice for Victims of Crime in England and Wales (Victims' Code) was updated on 29 January 2025." <https://www.gov.uk/government/publications/the-code-of-practice-for-victims-of-crime/code-of-practice-for-victims-of-crime-in-england-and-wales-victims-code#fnref:1>

Jabrlanuvchilarga jinoyat to'g'risida xabar bergandan boshlab, ularning huquqlarini qanday amalga oshirish lozimligi belgilab beriladi;

- Jinoyat yuzasidan olib borilayotgan ishlar to'g'risida axborot olish;
- Tergov va sud jarayonida himoyalash, yordam va maslahatlardan foydalanish;
- Ehtiyojga qarab psixologik yoki moliyaviy yordam olish;
- Jinoyat oqibatida ko'rilgan ta'sirlar to'g'risida shaxsiy bayonot berish;
- Jinoyatchi ozod qilinsa, bu haqda xabardor bo'lish va boshq;

Barcha huquqni amalga oshirish bo'yicha mas'uliyatli idoralar belgilangan. Bu jabrlanuvchilarning jinoyat prosessidagi huquqiy maqomini mustahkamlash, uni eshitish, ruhiy va moddiy zararlarini, og'riqlarini yengillashtirishga qaratilgan.

“Jabrlanuvchilar kodeksi”da “shikoyatchi” va “jabrdiyda” atamaları ko'pincha jinoiy sudlov tizimida polisiyaga jinoiy ariza bergan shaxsni tasvirlash uchun qo'llanilishini tan oladi. Jabrlanuvchi deb jinoiy qilmish tufayli bevosita yetkazilgan zarar, shu jumladan, jismoniy, ma'naviy, ruhiy zarar yoki iqtisodiy zarar ko'rgan shaxs²¹⁴, yoki o'limiga bevosita jinoiy huquqbuzarlik sabab bo'lgan shaxsning yaqin qarindoshi jabrlanuvchining ota-onasi yoki vasiysi, agar jabrlanuvchi 18 yoshga to'lmagan bo'lsa yoki agar jabrlanuvchi aqliy nuqsoni bo'lsa yoki jinoiy huquqbuzarlik tufayli ular muloqot qila olmaydigan yoki bunday qilish qobiliyatiga ega bo'lmagan darajada og'ir shikastlangan bo'lsa, oilaning tayinlangan vakili jabrlanuvchi hisoblanadi²¹⁵.

Kodeksga muvofiq, jabrlangan shaxslar “999” qisqa raqami orqali 12 turdagi jabrlanuvchilarga xizmat ko'rsatish provayderlari jabrlanuvchining manfaatlarini muhofaza qiladilar va jabrlanuvchining yoshi, aqli rasoligi, ehtiyojlari va tashvishlarini to'liq hisobga oladilar.

²¹⁴ "The Code of Practice for Victims of Crime in England and Wales (Victims' Code) was updated on 29 January 2025// 2- изох <https://www.gov.uk/government/publications/the-code-of-practice-for-victims-of-crime/code-of-practice-for-victims-of-crime-in-england-and-wales-victims-code#fn:2>

²¹⁵ "The Code of Practice for Victims of Crime in England and Wales (Victims' Code) was updated on 29 January 2025// 5- изох <https://www.gov.uk/government/publications/the-code-of-practice-for-victims-of-crime/code-of-practice-for-victims-of-crime-in-england-and-wales-victims-code#fnref:5>

Angliya fuqarolariga nisbatan chel elga chiqqanida yoki biror bir jinoyatdan jabrlansa yoki jinoyat natijasida vafot etsa Tashqi ishlar, Xamdo'stlik va taraqqiyot idoralariga murojaat qilishlari kerak. Ular yordam va voqea sodir bo'lgan mamlakatdagi jarayonlar, jumladan, marhumning vatanga qaytarilishi, shuningdek, ular marhumning oilasini ixtisoslashtirilgan qo'llab quvvatlash xizmatlariga yuborishlari mumkin.

Britaniya fuqarosi xorijda jinoyat qurboni bo'lsa yoki jinoyat natijasida vafot etsa Angliya va Uelsdagi Tashqi ishlar, Hamdo'stlik va taraqqiyot idorasi, polisiiya va sud tergovchilarining rolini aniqlashtirishga yordam beradigan o'zaro anglashuv memorandumini mavjud. Memorandum marhumga ham, ularning oilasiga ham e'tibor qaratadi va qanday turdagi yordam mavjudligini tushuntiradi²¹⁶.

Qonunchilikka muvofiq, manzilli ishlarni tashkil etish uchun "jabrlanuvchilar bo'yicha komissar" lovozimi joriy etilgan. Ular jabrlanuvchilarning fikrlarini tinglash, jabrlanuvchilar nuqtai nazaridan jinoiy adliya tizimini va mavjud xizmatlar va xuquq va manfaatlarini muhofazasi va xuquqiy yordam berish Komissarning asosiy vazifasi hisoblanadi²¹⁷. Biroq jabrlanuvchilar bo'yicha komissar jinoiy adliya organlariga turli qarorlar qabul qilishga chaqirish huquqiga ega emas.

Singapur Respublikasi Singapur huquq tizimi anglo-amerika huquq oilasiga tegishli deb hisoblanadi. Bu degani, Singapur huquqi Britaniya huquqiga asoslangan va presedent huquq tizimiga ega. Singapur Britaniyaning sobiq koloniyasi bo'lgan va uning huquq tizimi Britaniya mustamlakachilik davrida shakllangan²¹⁸. Singapur jinoyat-prosessual huquqida jabrlanuvchi Yevropa mamlakatlaridagi kabi mustaqil prosessual tomon sifatida belgilanmagan. Biroq u jinoyat ishlari yuzasidan ayblov tomoni yoki himoyachi sifatida qatnashmaydi, ayblov tarafi uchun asosiy guvoh sifatida chiqishi mumkin²¹⁹. Singapurda tergov asosan polisiya tomonidan amalga

²¹⁶ "The Code of Practice for Victims of Crime in England and Wales (Victims' Code) was updated on 29 January 2025// 7- изох <https://www.gov.uk/government/publications/the-code-of-practice-for-victims-of-crime/code-of-practice-for-victims-of-crime-in-england-and-wales-victims-code#fnref:7>

²¹⁷ <https://www.gov.uk/get-support-as-a-victim-of-crime>

²¹⁸ Реховский А.Ф., Замароева И.Е. Роль прокурора в Сингапуре//<https://cyberleninka.ru/article/n/rol-prokurora-v-singapore/viewer>

²¹⁹ Criminal Procedure Code 2010 (Singapore)// <https://sso.agc.gov.sg/Act/CPC2010>

oshiriladi, jabrlanuvchi bu jarayonda faol ishtirok etmaydi. Uning bevosita dalillar keltirish huquqi mavjud emas²²⁰. Ayblanuvchiga jazo tayinlashda sud jabrlanuvchining fikrini hisobga olishi mumkin, ayniqsa, tovon puli masalasida jabrlanuvchilar uchun maxsus yordam markazlari ishlaydi²²¹.

Singapurda jabrlanuvchi prosessual tomon sifatida e'tirof etilmasa-da, u polisiya, sud va qonunlar orqali funksional tarzda himoyalanaadi. So'nggi yillarda jabrlanuvchilar, ayniqsa, jinsiy zo'ravonlik va oilaviy zo'ravonlik jabrlanuvchilari huquqlarini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda²²².

Singapur huquq tizimida sudlarning qarorlari presedent hisoblanadi, ya'ni boshqa sudlar o'z qarorlarida ularga tayanadilar²²³. Singapur sudlari qonunlarni talqin qilish va ishlatishga mas'ul bo'lib, ular qonunlarni o'zgartira olmaydilar. Biroq Singapur huquq tizimida kontinental huquq oilasining ta'siri ham mavjud. Masalan, Singapurda qonunchilik hujjatlari ham muhim rol o'ynaydi va sudlar qonunlarni talqin qilishda ularga tayanishlari kerak. Shuningdek, Singapurning huquq tizimida o'ziga xos xususiyatlaridan biri hukumatning davlat ishlariga aralashuvi ba'zi davlatlardagiga qaraganda kuchliroq²²⁴. Xulosa qilib aytganda, Singapur huquq tizimi asosan anglo-amerika huquq oilasiga tegishli bo'lsa ham, kontinental huquq oilasi va o'ziga xos xususiyatlarning ta'siri ham mavjud. Jinoyat-prosessual qonunchiligida biz o'rganishimiz va o'zimizga tatbiq etishimiz mumkin bo'lgan bir qancha ijobiy qoidalar mavjud. Xususan, sud aybdor shaxsga o'zi yetkazgan zarar summasini quyidagi usullar orqali to'lash imkoniyatini berishi mumkin: to'lash muddatini ma'lum muddatga uzaytirish; umumiy summani bo'lib to'lash imkoniyatini berish. Shuningdek, aybdor shaxsning xatlangan mol-mulki, shuningdek, xatlangan mol-mulkidan olingan daromadlar zararni qoplashga qaratilishi mumkin. Aybdor shaxsdan qarz olgan shaxsni sudga chaqirish va u to'lashi lozim bo'lgan summani

²²⁰ Singapore Ministry of Law – Criminal Legal Aid Scheme// <https://pdo.mlaw.gov.sg/about-us/our-history/>

²²¹ Chan Wing Cheong (2014), "Crime Victims in Singapore: A Review of Recent Legal Developments", *Asian Journal of Criminology*// <https://law.smu.edu.sg/faculty/profile/2266/chan-wing-cheong>

²²² Singapore Women's Charter (защита от домашнего насилия). // <https://www.scwo.org.sg/resources/womens-charter/>

²²³ Application of English Law Act 1993 (Singapore) <https://sso.agc.gov.sg/Act/AELA1993>

²²⁴ Обзор правовых и институциональных основ Сингапура в контексте осуществления Конвенции Организации Объединенных Наций против коррупции <https://docs.un.org/ru/CAC/COSP/IRG/I/4/1/Add.17>

zararni qoplash uchun yo‘naltirish bizningcha faqatgina ushbu davlat tajribasidagina kuzatiladi²²⁵.

Jabrlanuvchiga jinoyat oqibatida yetkazilgan moddiy zararni qoplash va tavon puli to‘lashni o‘z ichiga oladi (masalan, mol-mulkka ziyon, tibbiy xarajatlar).²²⁶

Ayollar va bolalar ya‘ni oilaviy zo‘ravonlik qurbonlarini himoya qiluvchi qonunga muvofiq, sud jabrlanuvchiga nisbatan tajovuz qilgan shaxsdan xarajatlarni qoplashni talab qilishi mumkin. masalan: tibbiy, uy-joy xarajatlari, psixologik rehabilitatsiya xizmatlari yoki jabrlanuvchiga tahdid, kamsitish, internetda ta‘qib kabi harakatlar qurboni bo‘lsa²²⁷, bunda sud zararning turiga qarab tovon tayinlaydi²²⁸. Jabrlanuvchi, agar u qoniqarli tovonni jinoyat ishi doirasida ololmasa, fuqarolik sudi orqali da‘vo arizasiga muvofiq, moddiy zarar ma‘naviy zarar, tibbiy xarajatlar, ishga chiqolmagan kunlar uchun tavon puli undirishi mumkin²²⁹.

Jinoyat natijasida yetkazilgan zarar aybdor shaxs tomonidan to‘lanmagan taqdirda, sud ushbu shaxsga nisbatan qo‘shimcha ravishda qamoq jazosini tayinlashi mumkin va bu qo‘shimcha jazo to‘lanmagan zarar summasiga qarab belgilanadi²³⁰:

(a) to‘lanadigan pul 50 AQSH dollari miqdoridan oshmasa, qamoq jazosi 1 xaftagacha muddatga qo‘llanilishi mumkin;

(b) to‘lanadigan pul 50 AQSH dollari miqdoridan oshsa, lekin 200 dollardan oshmasa, qamoq jazosi 1 oydan ortiq bo‘lmagan har qanday muddatga qo‘llanilishi mumkin;

(v) to‘lanadigan pul 201-500 AQSH dollari miqdorida bo‘lsa qamoq jazosi 3 oydan ortiq bo‘lmagan muddatga belgilanishi mumkin;

(g) to‘lanadigan pul 501-2000 AQSH dollari miqdorida bo‘lsa qamoq jazosi 6 oydan ortiq bo‘lmagan muddatga belgilanishi mumkin;

²²⁵ Tan Yock Lin, "Liability of Servant for Criminal Breach of Trust: An Exercise in Hermeneutics" [2019] Sing JLS 177- 203 https://law.nus.edu.sg/wp-content/uploads/2020/04/CV_Tan_YockLin.pdf

²²⁶ Criminal Procedure Code 2010 (Cap. 68), **Section 359**: <https://sso.agc.gov.sg/https://sso.agc.gov.sg/Act/CPC2010>

²²⁷ Protection from Harassment Act 2014: <https://sso.agc.gov.sg/Act/POHA2014>

²²⁸ Women’s Charter (Cap. 353): <https://sso.agc.gov.sg/Act/WC1961>

²²⁹ Civil Law Act (Cap. 43): <https://sso.agc.gov.sg/Act/CLA1909>

²³⁰ Compensation for Crime Victims in Singapore: How to Obtain Last updated on December 12, 2024 <https://singaporelegaladvice.com/law-articles/criminal-compensation- m>

(d) to‘lanadigan pul 2000 AQSH dollari miqdoridan oshsa qamoq jazosi 12 oydan ortiq bo‘lmagan muddatga belgilanishi mumkin²³¹.

Ushbu belgilangan qamoq jazosi to‘liq o‘tab bo‘linishidan avval belgilangan zarar summasi qoplansa, shaxs jazoning qolgan qismini o‘tashdan ozod qilinadi, biroq qamoq jazosi tovon pulini to‘lashni majburlash mexanizmi sifatida qo‘llaniladi. Ammo bu jazoni o‘tab bo‘lgan taqdirda ham tovon qarzi bekor qilinmaydi, ya’ni jabrlanuvchi kompensatsiya olish huquqidan mahrum etilmaydi.

Jabrlanuvchilarning huquqiy maqomi haqida to‘liq ma’lumotni alohida jinoyatdan jabrlanganlarning huquqlarini ifolaovchi alohida qonun²³²da, Jabrlanuvchilarning huquqiy, ijtimoiy va institusional himoyasi to‘g‘risida tahliliy ma’lumot ²³³ tahlili yo‘lga qo‘yilgan.

Fond mablag‘lari hisobidan Nyu-York, Merioyend va Kaliforniya²³⁴ shtatlarida jinoyatdan jabrlanganlarga sog‘lig‘ini tiklash, o‘qishi yoki malakasini oshirish yoki xo‘jaligini ta‘minlash uchun eng kam kompensasiya miqdori 1000 dollardan 5000 dollargacha eng ko‘p miqdori 10 000 dollardan 15 000 dollargacha qilib belgilangan²³⁵. Fond mablag‘lari sodir etilgan huquqbuzarliklar natijasida to‘lanadigan jarima, undirilgan soliqlar, garov, har xil davlat bojlari, sud xarajatlari va huquqbuzarlar tomonidan to‘lanadigan to‘lovlar hisobidan to‘ldiriladi.

Anglo-amerika huquq oilasida jabrlanuvchining huquqlarini muhofaza qilish masalasi tarixiy jihatdan bir necha bosqichlarda rivojlangan va bugungi kunda ham davom etmoqda. Bu huquq tizimida jabrlanuvchining huquqlari quyidagi yettita tamoyillar asosida muhofaza qilinadi:

²³¹ Information Note on General Sentencing Principles. Pdf.
https://www.sentencingpanel.gov.sg/files/Informationtencing_source=chatgpt.com

²³² Crime Victims’ Rights Act (CVRA), 18 U.S.C. § 3771 (2004, USA)//
www.justice.gov/usao/resources/crime-victims-rights-ombudsman/victims-rights-act

²³³ Doerner, W. G., & Lab, S. P. (2017). *Victimology* (8th Ed.). Routledge

²³⁴ Папуи А.В. Потерпевший от преступления на досудебных стадиях уголовного судопроизводства в США (сравнительно-правовое исследование): Автореф....дис.канд.юрид.наук. – Волгоград, 1997. – С.14.

²³⁵ Юношев С.В. Государственные компенсации жертвам преступлений в практике зарубежных стран. Уголовное судопроизводство. – М., 2018. – С.64.

birinchi tamoyil, odil sudlov²³⁶ bunda jabrlanuvchi sud jarayonida ma'lum darajada ishtirok etish, guvoh sifatida so'roq qilinishi, o'z fikrini bildirish hamda sudning adolatli qaror chiqarishini talab qilish huquqiga ega. Bu tamoyil sud jarayonining barcha ishtirokchilari uchun teng imkoniyatlar yaratilishini nazarda tutadi;

ikkinchi tamoyil, jabrlanuvchining axborot olish huquqi²³⁷ jabrlanuvchi jinoyat ishining holati, gumonlanuvchi shaxsning ushlanishi, sud sanasi va qarorlari haqida axborot olish huquqiga ega. Masalan, AQShda 2004 yilda qabul qilingan qonun²³⁸ bu huquqni mustahkamlaydi;

uchinchi tamoyil, jabrlanuvchining jinoyat prosessining barcha bosqichlarida ishtirok etish huquqi (Right to Participate)²³⁹ bunda jabrlanuvchilar sud jarayonida o'z nuqtai nazarini bayon etish (victim impact statement), guvoh sifatida ishtirok etish, aybdorga nisbatan jazo choralari tanlashda ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega;

to'rtinchi tamoyil, jabrlanuvchini himoya qilish²⁴⁰ jabrlanuvchi aybdor yoki uning yaqinlari tomonidan tahdid yoki zo'ravonlikka uchrash ehtimoli bor hollarda uni himoya qilish choralari ko'riladi (masalan, shaxsiy ma'lumotlar maxfiyligini ta'minlash, sudda alohida guvoh sifatida ko'rsatma berish va h.k.);

beshinchisi tamoyil, jabrlanuvchining tovon puli va kompensatsiya olish huquqi (Right to Compensation) Anglo-amerika huquq tizimida, ayniqsa, AQSH va Buyuk Britaniyada, davlat tomonidan moliyalashtiriladigan maxsus fondlar (masalan, AQShdagi VOCA, 1984)²⁴¹ orqali jabrlanuvchilarga moliyaviy yordam ko'rsatiladi. Bu yordam tibbiy xarajatlar, psixologik yordam, ish haqi yo'qotish va boshqa zararlarni qoplashni o'z ichiga oladi;

²³⁶ Cassell, P. G. (2004). *Balancing the Scales of Justice: The Case for and the Effects of Utah's Victims' Rights Amendment*. Utah Law Review, 2004(1), 137–177.

²³⁷ Karmen, A. (2016). *Crime Victims: An Introduction to Victimology* (ninth Ed.). Cengage Learning. <https://www.cengage.com/c/crime-victims-an-introduction-to-victimology-9e-karmen/9781305261037/>

²³⁸ Crime Victims' Rights Act (CVRA) <https://www.justice.gov/usao/resources/crime-victims-rights-ombudsman/victims-rights-act>

²³⁹ Doerner, W. G., & Lab, S. P. (2017). *Victimology* (8th ed.). Routledge. <https://www.taylorfrancis.com/books/mono/10.4324/9781315537054/victimology-william-doerner-steven-lab>

²⁴⁰ Crime Victims' Rights Act (CVRA) <https://www.justice.gov/usao/resources/crime-victims-rights-ombudsman/victims-rights-act>

²⁴¹ Victims of Crime Act – VOCA, 1984 <https://ovc.ojp.gov/program/victims-crime-act-voca-administrators/welcome>

oltinchi tamoyil jabrlanuvchilarga huquqiy va psixologik yordam (Right to Support Services)²⁴², jabrlanuvchilarga huquqiy maslahatlar, psixologik konsultatsiyalar va ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyati yaratiladi hamda ayrim yurisdiksiyalarda bunday xizmatlar davlat tomonidan bepul taqdim etiladi.

yettinchi tamoyil ikkilamchi jabrlanishdan himoya²⁴³ jabrlanuvchini qaytadan ruhiy jabrlanishga uchratmaslik uchun polisiya, prokuror va sud organlari tarafidan ehtiyot choralari ko‘riladi. Masalan, sud jarayonida ortiqcha so‘roqlardan saqlanish, shaxsiy hayotga daxldor ma’lumotlarni sir saqlash va xak.

Jabrlanuvchilarga jinoyat natijasida kompensatsiyalar jinoyatda aybdor shaxs tomonidan to‘lanadigan tovonidan farq qiladi. Jabrlanuvchi tovon talab qilish huquqiga ega, lekin aybdorda mablag‘ bo‘lmasa, davlat kompensatsiya dasturi yordam beradi.

AQSH hukumati Adliya vazirligining rasmiy veb-sayti “Office for Victims of Crime” deb nomlangan oltita dastur idoralaridan biri “jinoyat qurbonlari idorasi” (OVC) faoliyati yo‘lga qo‘yilgan²⁴⁴. Ushbu idorani bugungi kunda Kristina Rouz boshchiligidagi “Jinoyat qurbonlari (jabrlanuvchilari) ishlari bo‘yicha idora (boshqarma)” jinoyat qurbonlariga yordam berish va adolatni targ‘ib qilish hamda jinoyat qurbonlarining huquqlarini tiklash, millatning huquqiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Jamg‘arma jinoyat sodir bo‘lganidan so‘ng darhol jabrlanganlarga yordam berishga qaratilgan keng ko‘lamli dasturlar va xizmatlarni qo‘llab quvvatlaydi. Har yili AQShning har bir Shtati va xududida jabrlanuvchilarga tovon puli va yordamga, shuningdek, xizmat qo‘rsatuvchi provayderlarning mamlakat bo‘ylab jamiyatda jinoyat qurbonlarini qo‘llab-quvvatlash qobiliyati oshirishga qaratilgan o‘qitish, texnik yordam va boshqa salohiyatni oshirish dasturlari uchun har yili millionlab dollar sarmoya kiritiladi.

²⁴² Right to Support Services <https://advocacy.org.nz/code-of-rights-right-to-support/>

²⁴³ Protection against Secondary Victimization// <https://eucpn.org/document/toolbox-7-preventing-secondary-victimization-policies-practices>

²⁴⁴ National Association of Crime Victim Compensation Boards (NACVCB), *State Compensation Programs*, <https://www.nacvcb.org>

Sayt tomonidan boshqariladigan jinoyat qurbonlari jamg'armasi har yili jabrlanuvchilarga davlat yordami kompensatsiya dasturlarini qo'llab- quvvatlaydi. Jinoyat qurbonlari to'g'risidagi qonuniga muvofiq, yillik tovon to'lash formulasini moliyalashtirish butun mamlakat bo'ylab minglab qurbonlarga yordam berish dasturlarini qo'llab quvvatlaydi²⁴⁵.

2021-2023 yillarda VOCA davlat boshqaruvchi agentliklardan Jinoyat qurbonlari (jabrlanuvchilari) ishlari bo'yicha idora (boshqarma) OVC tomonidan asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari va ma'lumotlarini ko'rish uchun butun ommaga ochiq panellarni e'lon qilgan.

Jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatish bo'yicha chora-tadbirlar xizmat ko'rsatilgan jabrlanuvchilar soni va ularning demografiyasi, jabrlanganlik turlari haqida ma'lumotlarni to'playdi hamda ushbu ma'lumotlarning tahlilini amalga oshiradi.

Jabrlanuvchilarga yordam dasturlari mahalliy to'g'ridan – to'g'ri xizmat dasturlarini qanday qo'llab – quvvatlashini va jabrlanuvchilarga tovon to'lash dasturlari jinoyat natijasida kelib chiqqan harajatlar masalan: 2023 yilda jami 7 808 408 jinoyat qurbonlari butun mamlakat bo'ylab jabrlanuvchilarga yordam berish dasturlari bo'yicha ko'mak oldilar, ular 6 430 sub grant tomonidan 9 808 ta sub mukofot bilan va jabrlanuvchilarga kompensatsiya to'lash bo'yicha davlat dasturlari butun mamlakat bo'ylab 202,830 ta da'vo arizasiga jami 359 652,096 mil. AQSH dollari miqdorida kompensatsiya amalga oshirilgan²⁴⁶, boshqarma vise-direktori bayonotida 2025 yilda OVCning umumiy mablag' ajratishi haqida umumiy ma'lumot bor: misol uchun, ular jami \$1.4 milliard kompensasiya da'volari uchun xizmat qilgan va 20 milliondan ortiq jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatilgan²⁴⁷.

“Jinoyatdan jabrlanganlar to'g'risida”gi qonuniga muvofiq, Jinoyat qurbonlari jamg'armasi soliq mablag'lari hisobidan emas, federal jinoiy ishlar bo'yicha sudlanganlik uchun jarimalar, bekor qilingan garovlari, jarimalar va AQSH

²⁴⁵ United Nations Office on Drugs and Crime. Witness Protection, United Nations Office on Drugs and Crime, 2018 // URL: <https://www.unodc.org/e4j/en/organized-crime/module-9/key-issues/witness-protection.html>.

²⁴⁶ Office for Victims of Crime//<https://ovc.ojp.gov/topics/victim-compensation>

²⁴⁷<https://ovc.ojp.gov/about/from-the-directors-desk/archive/january-8-2025>

advokatlik idoralari, federal sudlar byurosi tomonidan to'plangan maxsus baholardan tushgan depozitlar, JIEMning tushumlari, 2001 yilgi AQShning "Terrorizmning oldini olish va unga to'sqinlik qilish uchun zarur bo'lgan tegishli vositalarni taqdim etish orqali Amerikani birlashtirish va mustahkamlash to'g'risidagi qonuni"ga muvofiq, xususiy shaxslarning sovg'alari, xayriyalar va vasiyatlaridan kelib tushgan mablag'lar hisobidan moliyalashtiriladi. 2024 yil oktabr holatida jamg'arma balansi 3,2 milliard dollardan ortiq bo'lib, 2021 yil 22 iyuldagi AQSH prezidenti Bayden tashabbusi bilan Fondni barqarorlashtirish bo'yicha "Jinoyatdan jabrlanganlar to'g'risida" gi qonuniga federal kechiktirilgan jinoiy ta'qib va jinoiy ta'qibdan voz kechish bilan bog'liq muqobil kelishuvlar mediatsiya va trasaksiya kelishuvlaridan tushgan pul mablag'larini ham yo'naltirilishi yuzasidan qonunga o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi²⁴⁸.

Yuqoridagi xorijiy davlatlarning jabrlanuvchining huquq va manfaatlarini muhofaza qilishning zamonaviy mexanizmini takomillashtirish maqsadida AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Yaponiya, Ozarbayjon va Qozog'iston davlatlarining bu boradagi jinoyat oqibatida jabrlanganlarga yetkazilgan zarar xususan, moddiy, ma'naviy va jismoniy zararni bartaraf etish qonunchiligi va amaliyotining samarali jihatlarini mamlakatimiz qonunchiligini takomillashtirish va amaliyotga joriy qilish maqsadga muvofiqdir.

Shu bilan birga, anglo-amerika huquq tizimida jabrlanuvchilarning huquqlarini himoya qilishda ayrim muammolar ham mavjud. Masalan, jabrlanuvchilarning sudda o'z huquqlaridan foydalanish imkoniyatlari hali ham cheklangan, jabrlanuvchilar sud jarayonidan xabardor bo'lmasligi mumkin, jabrlanuvchilarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha resurslar yetarli emas.

Anglo-amerika huquq tizimida jabrlanuvchilarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha hali ham rivojlanish ishlari davom etmoqda va bugungi kunda yaxshi natijalarga erishilgan. Anglo-amerika huquq oilasiga tegishli davlatlar huquq tizimida Angliya huquqining ta'siri sezilarli. Ularning huquq tizimlari presedent huquqiga

²⁴⁸ Office for Victims of Crime <https://ovc.ojp.gov/news/announcements/victim-assistance-and-victim-compensation-data-dashboards>

asoslangan. Anglo-amerika huquq oilasiga kiruvchi asosiy davlatlar Angliya va Uels Huquq tizimi uzoq tarixiga ega bo'lgan va boshqa ko'pgina davlatlar uchun namuna bo'lgan. AQSH, Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Hindiston, Pokiston, Bangladesh, Nigeriya, Gonkong, Singapur, Janubiy Afrika, Irlandiya Angliyadan mustaqillikka erishgandan keyin ham Angliya huquqining ta'sirini saqlab qolgan. Bu davlatlarning huquq tizimlarida bir-biriga o'xshash tomonlari, masalan, presedent huquqining asosiy manbasi ekanligi, sud tizimida sudlarning muhim roli bo'lishi va hakozo bor. Ammo, har bir davlatning o'ziga xosligi va madaniyati sababli ularning huquq tizimlarida ayrim farqlar ham mavjud.

Jabrlanuvchilarga "yetkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi model" birinchilardan bo'lib 1963 yilda Yangi Zelandiya va 1964 yil Buyuk Britaniyada "Jinoyat qurbonlarini qo'llab-quvvatlash to'g'risida sxema" qabul qilingan, 1965 yilda Shtat darajasida Nyu-York, Kaliforniya va Nyu-Djersi shtatlarida jabrlanuvchilarga moddiy kompensasiya to'lovlari tuzilgan. Bu to'lovlar asosan jinoyat qurbonlari zarari uchun to'langan mablag'lardan iborat bo'lgan, lekin federal miqyosida barqarorlashtirilmagan. Shvesiyada 1970-yillarda jinoyat jabrlanuvchilari uchun davlat hisobidan kompensasiya to'lovlari davlat dasturi shaklida boshlangan. Kanadada Shtat va provinsiya darajasida 1970-yillardan boshlab jinoyat jabrlanuvchilari uchun kompensasiya tizimi paydo bo'lgan, biroq 1976 yilda "Jinoyat natijasida jabrlanganlar uchun kompensasiya to'lash to'g'risidagi qonun" qabul qilingan.

ishi natijasida jinoyatdan zarar ko'rgan jabrlanuvchiga jinoyat yoki fuqarolik sudi tartibida mahalliy, maxsus fondlar yoki davlat hisobidan kompensasiya to'lovi undirib berilishi to'g'risida qonun qabul qilingan.

Umumjaxon miqyosida jinoyat natijasida yetkazilgan zarar **kompensasiya**, **restitutsiya** va **reabilitasiya** shaklida himoyalash mexanizmi yaratilgan. Ushbu modellar nafaqat anglo-amerika balki ayrim ramono-german (kontinental) huquq oilasiga tegishli davlatlar qonunchiligiga implementasiya qilingan, xususan, Yangi Zelandiya, Buyuk Britaniya, Avstraliya, AQSH, Kanada, Niderlandiya, Shvesiya, Daniya, Lyuksemburg, Germaniya, Fransiya, Norvegiya, Gresiya, Turkiya, Vengriya,

Chexiya, Polsha, Ispaniya, Italiya, Portugaliya, Shveysariya, Shotlandiya, Tailand, Yaponiya, Filippin, Janubiy Koreya va boshqa Yevropa davlatlarida jabrlanuvchilarga yetkazilgan zarar kompensasiya shaklida to‘lab beriladi.

Buyuk Britaniyaning jinoyat sudida jabrlanuvchi tushunchasi qo‘llanilmaydi, umumiy “jinoyat qurboni” atamasi ishlatiladi. Uzoq vaqt davomida “jinoyat qurboni” hech qanday huquqiy maqomga ega bo‘lmay, hatto unga yetkazilgan zararining qoplashni so‘rash huquqiga ham ega emas edi.

Buyuk Britaniyada zo‘rluk va shaxsga qarshi jinoyatlarning jabrlanuvchilariga ko‘mak beruvchi birinchi dasturi amalga 1974 yilda tatbiq etilgan. Oradan to‘rt yil o‘tib, Angliya, Uels va Shimoliy Irlandiyada 30 ga yaqin shu kabi dasturlar ishlab chiqilib, tatbiq etiladi va ular asosida ixtisoslashtirilgan “sxema”lar – davlat jamg‘armalari, xayr-ehsonlar hisobidan jinoyatdan jabr ko‘rganlarga yordam ko‘rsatuvchi xizmatchilar faoliyat ko‘rsata boshlaydi.

Jinoyatdan jabr ko‘rganlarga yordam ko‘rsatishning tatbiq etilishini quyidagi ma‘lumotlarda ham ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, 1974 yil Milliy Assosiasiya tuziladi. 10 yil o‘tgach, 1985 yilning boshlarida Angliya va Shimoliy Irlandiyada 219 mingdan ortiq jabrlanuvchilarga yordam ko‘rsatilgan. Ushbu davrda jinoiy zo‘rluk jabrlanuvchilariga tezkor yordam ko‘rsatuvchi 40 dan ortiq markaz yaratilgan bo‘lib, 1985 yilda faqatgina Londondagi shunday markazda 4 mingga yaqin jinoyat jabrlanuvchilariga yordam ko‘rsatilgan.

1990 yil 22 fevralda Britaniya hukumati jabrlanuvchilar uchun jinoyat qurbonlari Xartiyasini, ya‘ni jinoyat qurbonlari to‘g‘risidagi bayonotni e‘lon qildi. Ushbu xartiya jinoyat qurbonlarining huquqiy himoyasi, hurmati, xabardorlik va qo‘llab-quvvatlanish huquqlarini ta‘minlaydigan asosiy hujjat bo‘ldi va «Jabrlanuvchiga qo‘llanma» chop etildi. Unda jabrlanuvchining huquq va erkinliklari, shu qatorda huquqni muhofaza qiluvchi idoralarning majburiyatlari, ularga yetkazilgan zararining qoplanishi to‘g‘risida yo‘l-yo‘riqlari ko‘rsatib o‘tilgan.

2006 yil 3 aprelda Buyuk Britaniya “Jinoyat qurbonlari uchun prosessual kodeksi” qabul qilinishi oqibatida ularning huquqlari yanada kengaydi. Xususan, agar

biror kishi jinoyat qurboniga aylansa, u hech bo'lmaganda quyidagi huquqlarga ega bo'ldi:

- jinoyat qurbonining huquqlari to'g'risida polisiyani xabardor qilish;
- jinoyat qurbonlarini qo'llab-quvvatlash tashkilotlari to'g'risida axborot olish (Ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va psixologik yordam beruvchi tashkilotlar);
- muntazam ravishda ishning qaysi bosqichda ko'rilayotganligi to'g'risida xabardor bo'lish;
- ayblanuvchining qachon hibsga olinishi, sudlanishi va jazolanishi hamda qachon ozodlikka chiqarilishi to'g'risida xabardor qilib turiladi;
- kompensasiya olish huquqi va boshqalar.

Shuningdek, Buyuk Britaniyada jabrlanuvchiga ikki xil shaklda kompensasiya to'lovlari amalga oshiriladi:

1. Sud hukmiga asosan jinoyat sodir etgan ayblanuvchi tomonidan;
2. Davlat fondi tomonidan to'lanadigan kompensasiya²⁴⁹.

Buyuk Britaniyada ichki ishlar vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan kompensasiya to'lash dasturi mavjud. Unga ko'ra:

- Angliya, Uels, Shotlandiyada jinoyatdan yetkazilgan zararni to'lash jadvali;(The Criminal injuries Compensation Scheme 2009)²⁵⁰;
- Shimoliy Irlandiyada – shaxslarga jinoyat natijasida yetkazilgan tan jarohatining darajasiga qarab to'lanadigan kompensasiya jadvali; (Northern Ireland Criminal Injuries Compensation Scheme 2012);
- Angliya va Uelsda – fond hisobidan juda muhtoj hamda kam ish haqi oladigan fuqarolarga to'lanadigan kompensasiya to'lovlari jadvali (Hardship Fund);
- Angliya va Uelsda ommaviy tartibsizliklar oqibatida yetkazilgan zararni qoplash jadvali (Criminal injuries compensation a guide). Ushbu fond 2016 yil tashkil etilgan.

²⁴⁹ Савицкий В. Возмещение ущерба –государством. На кем именно, в каких случаях и из каких средств? / Российская юстиция. – 2012. – № 6. – С.12-13.

²⁵⁰ Criminal injuries Compesation Act 1995. <https://www.sentencingcouncil.org.uk/wp-content/uploads>.

Ushbu davlatlarda kompensasiya miqdori ichki ishlar vazirligining 1988 yil qabul qilingan maxsus yo'riqnomasi asosida belgilangan. Bunda jinoyatning og'irlik darajasiga qarab taqsimlangan. Masalan, biror tanasi yaralansa 50 funt sterling, oldidagi tishini yo'qotsa 1000 funt sterling, yon tishlarni yo'qotsa 250-800 funt sterling, burni sinisa 550 funt sterling, jag'i sinisa 1750 funt sterling, jinsiy zo'rlik ishlatga 5000 funt sterling, ko'z nurini yo'qotsa 13 000 funt sterling va boshqalar.

4-§. Avstraliya ittifoqida jabrlanuvchining manfaatlari muhofazasi

Avstraliya federativ tuzilmasida jabrlanuvchilarni huquqiy himoya qilish masalalari alohida shtatlar qonunchiligi bilan tartibga solinadi. Ularning har birida ushbu muammoga bag'ishlangan maxsus qonunlarni o'z ichiga olgan normativ hujjatlar amal qiladi. Masalan, Viktoriya, Kvinslend va Shimoliy hudud shtatlarida mos ravishda 2006-yildagi "Jinoyatdan jabrlanganlarni qo'llab – quvvatlash to'g'risida" gi qonunga muvofiq, jinoyatdan jabrlanganlarning huquqlari tartibga solinadi²⁵¹.

Janubiy Avstraliya shtatida esa 2013-yil 37-sonli Jabrlanuvchilar huquqlarini himoya qilish" to'g'risidagi qonun amal qiladi²⁵². Ushbu qonun to'rtta ilovadan iborat bo'lgan kompleks normativ hujjatdir.

Agar jinoyat sodir etilishi natijasida jabrlanuvchining sog'lig'iga zarar yetkazilgan yoki o'limga olib kelgan bo'lsa, u jinoyatning birlamchi jabrlanuvchisi deb e'tirof etiladi. Bunday jismoniy zarar jabrlanuvchiga, jumladan, jinoyatchini ushlash yoki to'xtatishga urinish vaqtida yoki boshqa jabrlanuvchi shaxsga yordam ko'rsatish vaqtida ham yetkazilishi mumkin (20-modda).

Shuningdek, jinoyatdan bevosita jabrlanmagan lekin jinoyat sodir etilganiga voyaga yetmagan shaxs guvoh bo'lsa birlamchi jabrlanuvchi hisoblanadi, voyaga

²⁵¹ Victims of Crime Assistance Act Vic 1996, Victims of Crime Assistance Act Qld 2009, Victims of Crime Assistance Act NT 2006. // <https://www.legislation.vic.gov.au/in-force/acts/victims-crime-assistance-act-2013>

²⁵² Victims of Crime Act SA 2001; Victims' Rights and Support Act 2013 No 37// https://classic.austlii.edu.au/au/legis/nsw/consol_act/vrasa2013318/

yetmagan jabrlanuvchining ota-onasi yoki vasiylari ikkilamchi jabrlanuvchilar hisoblanadi.

Qonunchilikga muvofiq, jabrlanuvchi, agar u jinoyat sodir etilishi natijasida vafot etgan birlamchi jabrlanuvchining oila a'zolari yoki yaqin qarindoshlari oilaviy jinoyat qurboni deb e'tirof etiladi.

Avstraliya kriminologiya instituti hisoboti ma'lumotlariga ko'ra, jinoyatlardan jabrlanganlarga yetkazilgan moddiy zarar o'rtacha yiliga 19 milliard Avstraliya dollari deb baholanadi. Bundan tashqari, davlat jabrlanuvchilarga moliyaviy yordam ko'rsatish uchun sarflaydigan xarajatlar yiliga taxminan 880 million dollarni tashkil etadi.

Jabrlanuvchilar va ularning oilalariga jinoyat qurboni bo'lishi natijasida yetkazilgan moddiy zarar turlichadir. Jismoniy zarar yetkazilgan holatlarda davolash va tibbiy xizmatlarga sarflanadigan o'rtacha harajat miqdori taxminan 1000 Avstraliya dollarini, qasddan odam o'ldirish holatida esa taxminan 7600 dollarni tashkil etadi. Davlat va ish beruvchilarning jabrlanuvchining sog'lig'iga zarar yetkazilganda vaqtincha mehnatga layoqatsizligi natijasida ko'radigan bilvosita zarar esa taxminan 3400 dollarni, jinsiy jinoyatlar sodir etilganda esa taxminan 4500 dollarni tashkil etadi²⁵³.

Jabrlanuvchilarning buzilgan huquqlarini tiklashning eng muhim kafolati bu ularga yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararni qoplash huquqidir. Jabrlanuvchilarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi qonunchilik Avstraliyaning shtati va hududiga qarab farqlanadi, ammo umumiy yondashuvlar bir xil.

Birinchidan, zarar yetkazgan shaxs jinoyat sodir etishda aybdor deb topilgan taqdirda, sudya yoki magistrat jinoyat prosessidada reparaatsiya yoki kompensatsiya buyrug'i berishga haqli bo'lib, bu buyruq jinoyat ishi bo'yicha hukmning bir qismi hisoblanadi. Ikkinchidan, Avstraliyaning har bir shtatida va barcha hududlarida jinoyatlardan jabrlanganlarga zararni suddan tashqari qoplash bo'yicha maxsus davlat dasturlari va tegishli moddiy yordam sxemalari amal qiladi. Uchinchidan, jinoyat

²⁵³Charter of Victims' Rights <https://victimsservices.justice.nsw.gov.au/victims-rights/charter-of-victims-rights.html>

natijasida jabrlanuvchiga yetkazilgan zarar, agar jabrlanuvchi sug'urtalangan bo'lsa, sug'urta kompaniyalari mablag'lari hisobidan qoplanishi mumkin. Ko'pgina ish beruvchilar ham o'z xodimlariga turli korporativ sug'urta dasturlarini taqdim etganlar. To'rtinchidan, ko'rilgan zararni qoplashning yana bir usuli bu zarar yetkazgan shaxsga nisbatan mustaqil ravishda fuqarolik da'vosi kiritish, ammo bu fuqarolik jarayoni doirasida amalga oshiriladi.

Aybdor shaxs tomonidan, shuningdek, turli yordam dasturlari mablag'lari hisobidan yetkazilgan zararni qoplashning asosiy prinsiplari BMT Bosh Assambleyasining 1985-yil 29-noyabrdagi 40/34-sonli rezolyusiyasi bilan qabul qilingan "Jinoyatlar va hokimiyatni suiiste'mol qilishdan jabrlanganlar uchun adolatning asosiy prinsiplari deklaratsiyasining 8, 9 va 12-moddalarida shakllantirilgan. Deklaratsiyaning 8-moddasida belgilanishicha, "huquqbuzarlar jabrlanuvchilarga, ularning oilalariga yoki qaramog'idagilarga adolatli restitutsiya²⁵⁴ berishlari lozimligini", 12-moddada esa "Agar kompensatsiyani huquqbuzardan yoki boshqa manbalardan to'liq hajmda olish imkoniyati bo'lmasa, davlatlar moliyaviy kompensatsiya berish choralarini ko'rishlari shartligi" belgilangan.

Avstraliyaning barcha shtatlarida jabrlanuvchilarga yetkazilgan zararni qoplash bo'yicha maxsus davlat dasturlari amal qiladi. Bundan tashqari, jinoyat sodir etganlikda ayblangan shaxs tomonidan jabrlanuvchiga yetkazilgan zararni qoplash to'g'risida jinoyat prosessi doirasida sud buyrug'ini chiqarish imkoniyati ham ko'zda tutilgan. G'arbiy Avstraliya shtatida ushbu buyruqqa muvofiq, faqat moddiy zararni qoplash mumkin²⁵⁵.

Bundan tashqari, jabrlanuvchi zarar yetkazilganligini tasdiqlovchi holat yuzasidan ish yurituvchi doirasida fuqarolik sudiga murojaat qilish huquqiga ega. Bunday da'volarni ishini ko'rib chiqish asosan Avstraliyaning umumiy huquqi asosida fuqarolik sudlarida tinglanadi. Da'vogar restitutsiya "avvalgi holatga to'liq

²⁵⁴ Реституция (Restitution) — жабрланувчига етказилган зарарни қоплаш ёки асл ҳолатни тиклаш мақсадида айбдор шахс томонидан тўланадиган моддий ёки бошқа шаклдаги тўлов.

²⁵⁵ Ғарбий Австралия штатининг Жазо тайинлаш тўғрисидаги қонуни (Sentencing Act 1995) 116-моддаси.

tiklash” huquqiga ega, ya’ni fuqarolik-huquqiy delikt umuman amalga oshirilmasa, davlat tomonidan kompensatsiya olishga haqlidir²⁵⁶.

Shunga qaramasdan, bu turdagi da’volar ko‘rib chiqilishining sezilarli murakkabligi va uzoq davom etishi sababli yetkazilgan zararni qoplashning oson usuli hisoblanmaydi va faqat zarar yetkazgan shaxsda undiruvga qaratilishi mumkin bo‘lgan biror bir mulk mavjud bo‘lgan hollardagina samarali amalga oshiriladi. Jabrlanuvchiga zarar yetkazgan shaxsga nisbatan ayblov qo‘yilgani yoki ayblov qo‘yish rad etilgan, aybdorga ilgari qo‘yilgan ayblovdagi har qanday o‘zgarishlar, shuningdek, har qanday aybga iqrorlik to‘g‘risidagi kelishuv va boshqa muqobil “adolatli kelishuvlar”, ya’ni “mediasiya” va “transanksiya”, “restarativ adolat”, “kechiktirilgan yoki alternativ jinoiy ta’qib” ish bo‘yicha dastlabki eshituvlarning sanasi va joyi, jarayon natijasi, shu jumladan, apellyasiya shikoyati va hukmning xususiyati hamda tayinlangan jazo muddati va miqdori haqida xabardor qilinish huquqiga ega. Qonunning 6.5-moddasining 2-qismi jinsiy jinoyatlar bo‘yicha aybga iqrorlik to‘g‘risida kelishuv tuzish haqida qarorni qabul qilishda jabrlanuvchining fikri hisobga olinishi lozimligini nazarda tutadi.

Xartiyaning qator normalari jabrlanuvchining maxfiyligini va ayblanuvchi (sudlanuvchi, mahkum) bilan ehtimoliy aloqalardan himoya qilinishini kafolatlaydi (6.7 – 6.9, 6.11-moddalar), xususan, jabrlanuvchiga sud jarayoni bosqichida sudlanuvchi bilan uchrashish, o‘zaro aloqadan himoyalanish kafolatlanadi. Jabrlanuvchining uy manzili va telefon raqami oshkor etilishi mumkin emas. Agar jabrlanuvchi o‘zining va yaqinlarining xavfsizligidan xavotirlansa, u himoyalanishni so‘rab murojaat qilishga haqli va uning iltimosi ko‘rib chiqilishi lozim.

Agar jabrlanuvchining biror mulki tergov jarayonida olib qo‘yilgan bo‘lsa, bu muqarrar ravishda yuzaga keladigan noqulayliklar minimallashtirilishi, mulkni imkon qadar tezroq qaytarilishi ta’minlanadi (6.10-modda).

Xartiyada ayblanuvchi (sudlanuvchi) uchun ehtiyot chorasini tanlash to‘g‘risidagi qarorning qabul qilinishi va shartlari haqida jabrlanuvchini xabardor

²⁵⁶ Trindade, F. and Cane, P., The Law of Torts in Australia. 3rd ed. 1999, p. 511. Charter of Victims Rights.

qilish majburiyatini nazarda tutadi (6.12, 6.13-moddalar). Jabrlanuvchi mahkumning jazoni ijro etish joylaridan ozod etilishi yoki qochib ketganligi yoki muddatidan oldin ozod qiliganligi, jazoning yengillashtirilgan turiga almashtirilganligi haqida xabardor qilinish huquqiga ega. Og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar sodir etgan shaxsning ozodlikdan mahrum etish joylaridan muddatidan oldin shartli ravishda ozod qilish masalasi ko'rib chiqilayotgan bo'lsa, jabrlanuvchi muddatidan oldin shartli ravishda ozod qilish komissiyasiga ushbu masala bo'yicha o'z mulohazalarini bildirish huquqiga ega. Ushbu huquq mahkumlarning ushbu toifasida jazoni qaysi JIEMda o'tayotganligi yuzasidan jabrlanuvchiga e'lon qilinadi (6.15, 6.16-moddalar).

Ushbu tadqiqot doirasida e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydigan muhim masala bu adolatni tiklash (*restorative justice*). Adolatni tiklash g'oyasi 1990-yillarning boshlarida Avstraliyaga bu amaliyot Yangi Zelandiyadan kirib kelgan va bugungi kunda qonunchilikka singdirilgan. Avstraliya birinchi tajriba loyihasini 1991-yilda Kanberra shahrida boshlangan²⁵⁷. Adolatni tiklashning amaliyoti asosiga jinoyat sodir etgan va jabrlangan shaxslarning o'zaro kelishuvi va zararni qoplash dasturlarida ishtirok etishi yondashuv mavjud. Adolatni tiklash g'oyasi jinoyatni muayyan shaxs va uning ijtimoiy muhiti manfaatlarini buzish sifatida tushunishga asoslanadi.

Avstraliyada adolatni tiklash dasturlari alohida shtatlar va hududlar darajasida tartibga solinadi va bir-biridan farq qiladi. Dastlab adolatni tiklash dasturlari faqatgina voyaga yetmagan huquqbuzarlarga nisbatan qo'llanilgan, biroq so'nggi paytlarda Avstraliyaning ayrim yurisdiksiyalarida ular voyaga yetgan shaxslarga ham tatbiq etilgan.

Hozirgi vaqtda Avstraliyada quyidagi adolatni tiklash dasturlari amal qiladi²⁵⁸

1. Barcha shtat va hududlarda voyaga yetmagan huquqbuzarlar uchun dasturlar (uchrashuvlar).

²⁵⁷ Kathleen Daly and Hennessey Hayes. Restorative Justice and Conferencing in Australia. Trends and Issues in Crime and Criminology. Australian Institute of Criminology. No. 186 February 2001. P. 2 [die/10072/4022/15328.pdf; sequence=1]

²⁵⁸ Jacqueline Joudo Larsen. Restorative Justice in the Australian Criminal Justice System. Australian Institute of Criminology. AIC Reports, Research and Public Policy Series. No. 127. 2014. P. iv. [. pdf] (дата обращения 31.10.2016).

2. Alohida shtatlarda voyaga yetgan huquqbuzarlar uchun dasturlar (uchrashuvlar).

3. Yangi Janubiy Uels va G'arbiy Avstraliya shtatlarida "Adolat doiralari".

4. Viktoriya shtati va Avstraliya poytaxti hududidan tashqari barcha shtat va hududlarda jabrlanuvchi va huquqbuzar o'rtasidagi mediatsiya, tarsaksiya (vositachilik, kelishuvlar).

Hozirgi vaqtda adolatni tiklashni rivojlantirishning asosiy yo'nalishi bu dasturlarning og'ir jinoyatlarni sodir etgan shaxslarga nisbatan tobora kengroq tarqalishidir, chunki dastlab ular faqat yengil jinoyatlarni sodir etgan shaxslarga nisbatan qo'llanilgan.

Voyaga yetmagan huquqbuzarlar uchun dasturlar (uchrashuvlar) o'tkazish barcha shtat va hududlarda mavjud. Ularning maqsadi yosh huquqbuzarga o'z harakatlarining oqibatlarini va ular boshqa shaxslarga yetkazgan zararni anglash imkoniyatini berishdan iborat. Ushbu uchrashuvlar jarayonning barcha bosqichlarida o'tkazilishi mumkin va polisiya, sud yoki maxsus voyaga yetmaganlar agentliklari tomonidan tashkil etiladi. Ularni o'tkazish imkoniyati yoki zarurati aybdorning o'z aybiga iqrор bo'lishi, chin dildan pushaymonligi, jabrlanuvchining buzilgan huquqlarini tiklashga qaratilgan harakatlariga asoslanadi. Huquqbuzar uchun dasturlarda ishtirok etish ixtiyoriy bo'lib, aybini majburiy tan olishni nazarda tutadi. dasturlarning formati aybdor va jabrlanuvchining polisiya vakillari, voyaga yetmagan huquqbuzarning ota-onalari yoki vakillari, jabrlanuvchi vakillari va boshqa shaxslar ishtirokidagi uchrashuvlardan iborat. Avstraliya yurisdiksiyalarining aksariyatida jabrlanuvchining o'zi bunday konferensiyalarda shaxsan ishtirok etishdan bosh tortish va o'z vakillarining ishtiroki bilan cheklanish huquqiga ega²⁵⁹.

Yosh huquqbuzarlarga o'zlarining noqonuniy xatti-harakatlariga turtki bo'lgan sabab va sharoitlarni tushuntirish, jabrlanuvchidan uzr so'rash hamda yetkazilgan zararni qoplash imkoniyati beriladi. Natijada tomonlar bajarilishi majburiy bo'lgan bitimlar tuzadilar. Ushbu bitim og'zaki yoki yozma tarzda uzr so'rash, jabrlanuvchiga

²⁵⁹ Jacqueline Joudo Larsen. Restorative Justice in the Australian Criminal Justice System. Australian Institute of Criminology. AIC Reports, Research and Public Policy Series. No. 127. 2014. P. 6.

kompensasiya to'lash, jamoat ishlarida ishtirok etish, reabilitasiya kurslariga qatnashish va boshqa choralarni sanksiya sifatida o'z ichiga olishi mumkin. Konferensiya natijasi qarori bilan rozi bo'lmagan huquqbuzarlar ishini odatiy tergov va sud organlarida ko'rib chiqish tartibiga qaytarish huquqiga ega²⁶⁰.

Voyaga yetgan huquqbuzarlar uchun adolatni tiklash dasturlari Avstraliyaning to'rtta yurisdiksiyasida Yangi Janubiy Uels, Viktoriya, Janubiy Avstraliya va Kvinslend shtatlarida mavjud.

“Adolat doiralari” Yangi Janubiy Uels va G'arbiy Avstraliya shtatlarida mahalliy xalq sudlari homiyligida mavjud. Ushbu dasturlarning maqsadi Avstraliyaning mahalliy xalq vakillari ishtirokidagi jinoiy ishlarni ushbu xalqlarning an'alarini hisobga olgan holda hamda oqsoqollar va ular uchun nufuzli bo'lgan boshqa shaxslarni jalb qilgan holda ko'rib chiqishdan iborat. Ushbu “doiralar”dagi jarayonga sudyalari, yuristlar, polisiya vakillari, huquqbuzarlarning o'zlari va jamoatchilik vakillari ishtirok etadi.

Jabrlanuvchi va huquqbuzar o'rtasidagi mediatsiya (vositachilik) dasturlari ba'zida jabrlanuvchilar va huquqbuzarlar o'rtasidagi konferensiyalar deb ham ataladi. Ular kam sonli shaxslarning jabrlanuvchilarning o'zi va huquqbuzarlar ishtirokini nazarda tutadi va faqatgina hukm qonuniy kuchga kirgandan so'ng ozodlikdan mahrum etish joylarida o'tkaziladi. Ushbu konferensiyalar ham faqat ikkala tomonning roziligi bilan va mahkum jinoyat sodir etganlikda aybiga iqror bo'lgan taqdirdagina o'tkaziladi. Qolgan jihatlarida, bu konferensiyalarning formati jarayonning boshqa bosqichlarida o'tkaziladigan huquqbuzarlar uchun mo'ljallangan boshqa konferensiyalar formatiga o'xshaydi.

Yangi Janubiy Uels shtatida jabrlanuvchilarning huquqlari muhofazasi jamoatchilik nazorati asosida “jabrlanuvchilar huquqlari bo'yicha vakil”, “jabrlanuvchilar masalalari bo'yicha maslahat kengashi”, “jabrlanuvchilarni qo'llab-quvvatlash fondi”, “ma'muriy qarorlar tribunali huzuridagi jabrlanuvchilarni qo'llab-

²⁶⁰ Jacqueline Joudo Larsen. Restorative Justice in the Australian Criminal Justice System. Australian Institute of Criminology. AIC Reports, Research and Public Policy Series. No. 127. 2014. P. 6. [http://www.aic.gov.au/media_library/publications/rpp/rpp127.pdf]

quvvatlash Kollegiyasi” va Adliya vazirligi huzuridagi “Adliya vazirligining jabrlanuvchilar bilan ishlash xizmati” faoliyat yuritadilar.

Jabrlanuvchilar huquqlari bo'yicha vakil lavozimi 2013-yilgi jabrlanuvchilar huquqlarini himoya qilish va ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi qonunning 3-qism, 1-bo'limi (8–13-moddalar) bilan ta'sis etilgan. Qonunda Vakil apparatiga va uning o'ziga yuklatilgan asosiy vazifalar sanab o'tilgan (10-modda). Jabrlanuvchilarga va bedarak yo'qolgan shaxslarning oila a'zolariga mavjud bo'lgan qo'llab-quvvatlash choralari haqida barcha zarur ma'lumotlarni taqdim etishi; shuningdek, huquqlaridan foydalanishda ularga yordam ko'rsatish; jabrlanuvchilar huquqlari Xartiyasi qoidalarining bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish; manfaatdor hokimiyat va boshqaruv organlariga jabrlanuvchilar huquqlari Xartiyasi qoidalariga rioya etishlari bo'yicha tavsiyalar berish; jumladan, o'quv va tushuntirishlar o'tkazish; jinoyat qurbonlaridan Xartiya tomonidan kafolatlangan huquqlarning buzilishi yuzasidan shikoyatlarni qabul qilish; tegishli hokimiyat va boshqaruv organlariga jabrlanuvchilarning huquqlari buzilgan taqdirda ulardan kechirim so'rash qismida tavsiyalar berish; viktimologiya masalalari bo'yicha tadqiqotlar va ta'lim dasturlarini o'tkazish; bosh attorneyning topshirig'i va so'rovlariga binoan ijtimoiy tahliliy sharhlar va tadqiqotlar o'tkazish; jabrlanuvchilar huquqlarini qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi qonunning bajarilishini monitoring qilish vakolati berilgan.

Jabrlanuvchilar huquqlari va qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi qonunga muvofiq, Vakil o'z vakolatlari va salohiyati doirasida maxsus tekshiruvlar o'tkazish (11-modda), shuningdek, har qanday jismoniy va yuridik shaxs yoki hokimiyat organidan zarur ma'lumotlarni, jumladan, hujjatlarni so'rab olish huquqiga ega, bila turib yolg'on ma'lumot taqdim etish jinoyat hisoblanishi va jarima jazosi qo'llanilishiga sabab bo'lishi belgilangan. (12-modda).

Jabrlanuvchilar masalalari bo'yicha maslahat kengashi jabrlanuvchilarni qo'llab-quvvatlash va rehabilitatsiya qilish to'g'risidagi Qonun asosida tuzilgan va “Jabrlanuvchilar huquqlarini qo'llab-quvvatlash to'g'risida”gi Qonunda uning barcha

a'zolarining vakolatlari tasdiqlangan (2-ilova, 10-modda). Maslahat kengashi jabrlanuvchilar huquqlarini qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi qonunning 111-moddasida belgilangan vazifalar ya'ni jabrlanuvchilarga yordam berish masalalari bo'yicha adliya vaziriga tahliliy xulosalar va maslahatlar taqdim etish; jabrlanuvchilar, jamoat tashkilotlari va jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatuvchi davlat organlariga maslahatlar berish; jinoyat qurbonlariga yordam ko'rsatish maqsadida ma'muriy va qonunchilik islohotlarini amalga oshirishga ko'maklashish vakolatlari mavjud.

Maslahat kengashi tarkibiga Vakil kiradi, u lavozimiga ko'ra uning raisi hisoblanadi, shuningdek, adliya vaziri tomonidan tayinlanadigan 11 nafardan ortiq bo'lmagan a'zolari mavjud bo'lishi kerak. Ulardan olti kishi jamoatchilik vakillaridan, bir kishi Yangi Janubiy Uels shtati Polisiya departamentidan, Bosh attorney departamenti va Adliya vazirligi taqdim etishi lozim (Jabrlanuvchilar huquqlarini qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi qonunning 110-moddasi). Maslahat kengashi a'zosi lavozimi haq to'lanadigan lavozimdir. Kengash a'zolari uch yildan oshmagan muddatga tayinlanadilar va qayta tayinlanishlari mumkin²⁶¹ (Jabrlanuvchilar huquqlarini qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi qonunning 1-ilovasi, 2, 3-moddalari).

Jabrlanuvchilar huquqlarini qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi qonun bilan maxsus Jabrlanuvchilarni qo'llab-quvvatlash Fondi ham tashkil etilgan. Bu Fond 1996 yilgi Jabrlanuvchilarni qo'llab-quvvatlash va reabilitatsiya qilish to'g'risidagi qonunga muvofiq, ilgari mavjud bo'lgan Jabrlanuvchilarni kompensatsiya qilish Fondi o'rniga tuzilgan (2013-yilgi Jabrlanuvchilar huquqlarii qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi Qonunning 2-ilovasi, 9-modda). Uni Bosh direktor boshqaradi.

Fondga mablag'ni jalb etish manbalari va ularni sarflashning asosiy yo'nalishlari Qonunning 15 va 16-moddalarida belgilangan. Fondni to'ldirish manbalari quyidagilardir:

²⁶¹ Government Information (Public Access) Act 2009.

- 1) Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni musodara qilish to'g'risidagi 1989-yilgi Qonunga muvofiq, musodara qilish natijasida tushgan mablag'larining yig'indisi;
- 2) Jinoiy aktivlarni qaytarish to'g'risidagi 1990-yilgi Qonunga muvofiq, Fondga tushishi kerak bo'lgan davlat byudjeti mablag'lari;
- 3) 2013-yilgi Jabrlanuvchilar huquqlari va qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi Qonunning 5 va 7-qismlariga muvofiq, tushadigan barcha moliyaviy mablag'lar;
- 4) G'aznachilikdan yoki Parlament qarori bilan Fondga tushadigan mablag'lar;
- 5) Qonunchilik qoidalariga muvofiq, Fondga tushadigan boshqa mablag'lar;
- 6) Jabrlanuvchilar huquqlari va qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi Qonunning 89-moddasi qoidalarini buzganlik uchun jarima to'lashdan tushgan barcha mablag'lar.

Fondga tushgan mablag'lar jabrlanuvchilar huquqlarini qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi Qonun normalariga muvofiq, jabrlanuvchilarga to'lovlar uchun, vakil va uning apparatining o'z funksiyalarini amalga oshirish jarayonida ko'rgan xarajatlarini qoplash maqsadida, maslahat kengashi xarajatlarini qoplash uchun hamda Fondning o'zi faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan xarajatlarni qoplashga sarflanadi.

Jabrlanuvchilarni qo'llab-quvvatlash va rehabilitatsiya qilish to'g'risidagi 1996-yilgi Qonun qabul qilingunga qadar jabrlanuvchilar jinoyat prosessi doirasida sudga byudjet mablag'lari hisobidan moddiy zararni qoplash to'g'risida sud buyrug'ini olish haqida iltimosnoma bilan murojaat qilish huquqiga ega edilar. Kompensatsiya miqdori sud tomonidan belgilanar edi. Qonunga muvofiq, jabrlanuvchilarga kompensatsiya qilish Tribunali tashkil etildi (59-modda) va kompensatsiya to'lashda tariflar tizimiga o'tildi. Yangi tarif tizimi jarohatlar va zarar turlari hamda ular uchun tegishli kompensatsiya miqdorlari ko'rsatilgan jadvallarni o'z ichiga olgan. Bundan tashqari, Qonun jabrlanuvchilarga jinoyat sodir etilgandan keyin 20 soat davomida bepul maslahat berish talabini kiritdi.

Jabrlanuvchilar huquqlarini qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi Qonun bilan Tribunal Ma'muriy qarorlar tribunali tarkibidagi jabrlanuvchilarni qo'llab-quvvatlash Kollegiyasiga aylantirildi. Shu munosabat bilan 1997-yilgi 76-sonli Ma'muriy qarorlar tribunali to'g'risidagi Qonunga²⁶² ushbu Kollegiyaning tashkil etilishi va faoliyatini tartibga soluvchi 3D kiritildi. Jabrlanuvchilar huquqlari va qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi Qonun tugatilgan Tribunalning barcha sudyalarining Ma'muriy qarorlar tribunali tarkibidagi Jabrlanuvchilarni qo'llab-quvvatlash Kollegiyasida faoliyat yuritish vakolatlarini tasdiqladi (Qonunning 2-ilovasi, 12-modda).

Hozirgi kunda Yangi Janubiy Uels shtatida jabrlanuvchilarga barcha turdagi yordam ko'rsatish bo'yicha ishlar Adliya vazirligining Jabrlanuvchilar masalalari departamenti ixtiyoridadir. Bundan tashqari, jabrlanuvchilarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha maxsus dastur doirasida yuridik maslahat yordami ko'rsatiladi, suddan tashqari tartibda (zarar yetkazgan shaxsdan da'vo ishlari doirasida mustaqil ravishda kompensatsiya talab qilishdan tashqari) moddiy yordam ko'rsatiladi.

Qo'llab-quvvatlash dasturlari bo'yicha jabrlanuvchilar uchun maslahatlar o'tkaziladi, yuridik va psixoterapevtik hamrohlik, shuningdek, moddiy kompensatsiya to'lovi amalga oshiriladi. O'z navbatida, Departament ko'rilgan xarajatlarni kompensatsiya qilish uchun keyingi regress talabi bilan zarar yetkazgan shaxsga murojaat qilish huquqiga ega.

Yangi Janubiy Uels shtatida jabrlanuvchilarga yetkazilgan zararni kompensatsiya qilishga qaratilgan maxsus qo'llab-quvvatlash dasturi amal qiladi²⁶³. Ushbu dasturni amalga oshirish shtatning Adliya vazirligi ixtiyoridadir. Ushbu dastur doirasida jabrlanuvchilarga har tomonlama yordam ko'rsatiladi. Har bir jabrlanuvchiga vaziyatni baholaydigan, zarur harakatlar rejasini ishlab chiqadigan, sud jarayonining barcha bosqichlarida va boshqa davlat organlariga murojaat qilishda jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatadigan maxsus qo'llab-quvvatlash koordinatori

²⁶² Criminal Assets Recovery Act 1990.// https://www.austlii.edu.au/au/legis/nsw/consol_act/cara1990272/

²⁶³ Administrative Decisions Tribunal Act 1997. // <https://legislation.nsw.gov.au/view/html/inforce/2005-08-12/act-1997-076>

biriktiriladi. Koordinator, shuningdek, jabrlanuvchiga o'ziga kerak bo'lgan barcha ma'lumotlarni taqdim etadi.

Har bir ish bo'yicha qo'llab-quvvatlash dasturi quyidagi yordam turlarini o'z ichiga oladi: zarur yuridik xizmat va ma'lumot taqdim etish, jinoyatdan keyingi stress holatlarida psixologik qo'llab-quvvatlash, zudlik bilan kerak bo'lgan ehtiyojlari uchun tezkor moliyaviy yordam to'lovi, ko'rilgan iqtisodiy zararni kompensatsiyasi to'lovi, yetkazilgan jismoniy zarar yoki tan jarohatining kompensatsiya to'lovi amalga oshiriladi

Jabrlanuvchilar huquqlarini qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi qonunning 25-moddasida ushbu dastur bo'yicha yordam olishga huquqi bo'lmagan shaxslar toifasi qonunning 6-qismi qoidalariga muvofiq, jinoyat prosessi doirasida sud qarori bilan kompensatsiya olgan yoki bunday kompensatsiya olish uchun ariza topshirgan va arizasi ko'rib chiqilayotgan shaxslar, yo'l-transport hodisalaridan jabrlangan shaxslar, o'zlari jinoyat sodir etish vaqtida zarar ko'rgan shaxslar, ozodlikdan mahrum etish joylarida jazoni o'tash vaqtida zarar ko'rgan mahkumlar dastur bo'yicha yordam olishga huquqiga ega emaslar.

Barcha jabrlanuvchilar sudda ishlarni ko'rib chiqishning barcha bosqichlarida, turli idoralar va davlat organlari bilan aloqada bo'lishda, murojaat va arizalar topshirishda yuridik va axborot ko'magidan foydalanishlari mumkin. Ushbu yordamni olish vaqt bilan chegaralanmagan va ariza asosida amalga oshiriladi.

“Birlamchi jabrlanuvchilar” va “oilaviy jabrlanuvchilar” (halok bo'lgan jabrlanuvchining oila a'zolari) tajovuz natijasida yuzaga kelgan zudlik bilan kerak bo'lgan ehtiyojlar uchun moliyaviy yordam olish huquqiga ega. Bu turdagi moliyaviy yordam yashash joyini o'zgartirish, uyda himoya va xavfsizlik vositalarini (masalan, qulflar, signalizatsiya va h.k.) o'rnatish, shuningdek, shoshilinch davolash xarajatlarini qoplashi mumkin. Bu turdagi moliyaviy yordamning umumiy miqdori 5 ming Avstraliya dollaridan oshmasligi kerak (3 322 AQSH dollari 11.12.2025 y).

Moddiy yordam olish uchun arizaga jabrlanuvchi o'zida mavjud bo'lgan barcha hujjatlar va dalillar, tibbiy kartalardan ma'lumotlar va ko'chirmalar, xizmatlar uchun to'lov cheklari va h.k.larni ilova qilishi lozim (39-modda). Ariza jinoyat sodir etilgan

kundan boshlab yoki voyaga yetmagan jabrlanuvchi 18 yoshga to'lgan kundan boshlab ikki yildan kechiktirmay berilishi kerak (Qonunning 40-moddasi). Tezkor moliyaviy yordam olish uchun ariza 15 ish kuni ichida ko'rib chiqilishi belgilangan.

“Birlamchi jabrlanuvchilar”, voyaga yetmagan “birlamchi jabrlanuvchilar”ning ota-onalari va vasiylari, shuningdek, “oilaviy jabrlanuvchilar” ko'rilgan iqtisodiy zarar uchun kompensatsiya so'rab murojaat qilish huquqiga ega bo'lib, uning umumiy miqdori 30 ming Avstraliya dollaridan oshmasligi kerak (19 935 AQSH dollari 11.12.2025 y.). Jabrlanuvchining jinoyat prosessidagi iqtisodiy zarari deganda yo'l kira transport xarajatlari, tibbiy xarajatlar, jinoyat sodir etilgan paytda ishlamagan jabrlanuvchilar uchun 5 ming Avstraliya dollarigacha miqdordagi joriy xarajatlar (turar joy ijarasi, yashash, bola parvarishi va h.k. xarajatlarini o'z ichiga oladi). Bu xarajatlar jinoyat sodir etilgandan so'ng yangi paydo bo'lgan yoki kutilmaganda yuzaga kelgan bo'lishi mumkin.

Ko'rilgan iqtisodiy zarar kompensatsiyasi sifatida to'lanishi lozim bo'lgan summalarni hisoblash jabrlanuvchilar huquqlari va qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi Qonunning 4-ilovasi 7, 9-moddalarida belgilangan bo'lib, jinoyat sodir etilishi natijasida shikastlangan yoki nobut bo'lgan mulkiga yetkazilgan zararni qoplash xarajatlari uchun to'lanadigan maksimal summa 1,5 ming Avstraliya dollaridan oshmasligi lozim.

Advokat xizmatlarini to'lashdan tashqari, jabrlanuvchining jinoyat prosessida ishtirok etishi bilan yuzaga kelgan chiqimlari uchun maksimal to'lov summasi 5 ming Avstraliya dollaridan oshmasligi lozim.

Jabrlanuvchiga jinoyatnatijasida ishga bora olmay qolgan kunlari uchun 20 ming Avstraliya dollarigacha miqdorda olinmay qolgan ish haqi kompensatsiyasi belgilangan bo'lib, arizaga vaqtincha mehnatga layoqatsizlik to'g'risidagi tibbiy ma'lumotnoma yoki muayyan davrda ish joyida bo'lmaganligi to'g'risidagi ish beruvchining ma'lumotnomasi kabi tegishli hujjatlar ilova qilinishi kerak (39-modda).

Ko'rilgan iqtisodiy zarar kompensatsiyasini olish uchun ariza jinoyat sodir etilgan kundan boshlab yoki voyaga yetmagan jabrlanuvchi 18 yoshga to'lgan

kundan boshlab ikki yildan kechiktirmay berilishi kerak (Qonunning 40-moddasi). Kompensatsiya to‘lash to‘g‘risidagi ariza uch oy ichida ko‘rib chiqilishi kerak. “Birlamchi jabrlanuvchilar” va ularning qaramog‘idagilar, shuningdek, voyaga yetmagan “birlamchi jabrlanuvchilar”ning ota-onalari va vasiylari olingan jarohat yoki sog‘liqqa yetkazilgan zarar uchun kompensatsiya so‘rab murojaat qilish huquqiga ega. Ushbu kompensatsiyani olish uchun arizaga shaxs aniq jinoyatdan jabrlanganligini tasdiqlash uchun huquqni muhofaza qilish organlaridan ma’lumotnoma ilova qilinishi kerak.

Jabrlanuvchilar huquqlarini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risidagi Qonunga muvofiq, to‘rt toifadagi kompensatsiyani ajratib ko‘rsatadi: A, V, S va D (35 va 36-moddalar). Aniq to‘lov summaları Qonunning 4-ilovasi 12-moddasida keltirilgan. A toifasiga jabrlanuvchining vafot etishi holatida to‘lanishi lozim bo‘lgan kompensatsiya hisoblanib, vafot etgan shaxsning qaramog‘idagilarga 15 ming Avstraliya dollari, ota-onalar va vasiylarga 7,5 ming Avstraliya dollarini tashkil etadi.

V toifasiga jabrlanuvchining sog‘lig‘iga og‘ir shikast yetkazilgan yoki qurol ishlatilgan yoxud takroran yoki ikki va undan ortiq shaxs tomonidan sodir etilgan jinsiy jinoyatlar sodir etilganda to‘lanadigan kompensatsiya kiradi. V toifasi kompensatsiyasining miqdori 10 ming Avstraliya dollarini tashkil etadi.

S toifasiga jismoniy zarar yetkazish, voyaga yetmagan shaxsni muttasil ravishda dopposlash, V toifasi kompensatsiyasi to‘lanishi nazarda tutilmagan jinsiy jinoyatlar va shaxsga qarshi jinoyat sodir etishga suiqasd qilingan hollarda to‘lanishi lozim bo‘lgan kompensatsiya kiradi. S toifasi kompensatsiyasining miqdori 5 ming Avstraliya dollarini tashkil etadi.

D toifasiga axloqqa qarshi jinoyatlar va o‘zgalar mulkini talon-toroj qilish bilan bog‘liq jinoyatlarni sodir etishda zo‘rlik ishlatib yoki qo‘rqitib, hujum qilish orqali sodir etilgan bosqinchilik, talonchilik jinoyatlarida to‘lanadigan kompensatsiya kiradi. D toifasi kompensatsiyasining miqdori 1,5 ming Avstraliya dollarini tashkil etadi.

Jabrlanuvchi faqat bir toifadagi kompensatsiyani olish huquqiga ega bo‘lib, arizani ko‘rib chiqishga 6 oydan 12 oygacha vaqt ajratilgan. Arizaning o‘zi jinoyat

sodir etilgan kundan boshlab yoki voyaga yetmagan jabrlanuvchi 18 yoshga to'lgan kundan boshlab ikki yildan kechiktirmay berilishi kerak. Jinsiy jinoyatlar, oilaviy zo'ravonlik va voyaga yetmaganlarga nisbatan zo'ravonlik holatlarida kompensatsiya berish to'g'risidagi arizani berish muddati 10 yilgacha amalga oshiriladi (40-modda).

Jabrlanuvchilar huquqlarini qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi Qonunga ko'ra, qo'llab-quvvatlash dasturi doirasida har qanday turdagi to'lash to'g'risidagi ariza barcha hollarda yoki jabrlanuvchining o'zi (uning ota-onasi yoki vasiysi) yoxud boshqa manfaatdor shaxs tomonidan jabrlanuvchi nomidan Vakilga topshirilishi kerak (38-modda). Aniq ishlar bo'yicha to'lovlar esa Vakilning qarori bilan Fond mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi (54-modda).

Barcha to'lovlar jabrlanuvchilar toifasiga qarab (26-modda) Jabrlanuvchilar huquqlari va qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi Qonunda quyidagicha umumlashtiriladi. "Birlamchi jabrlanuvchilar" ko'rilgan iqtisodiy zarar kompensatsiyasi jabrlanuvchining ehtiyojlari uchun tezkor moliyaviy yordam, sog'liqqa yetkazilgan shikast, jarohat kompensatsiyasini so'rab murojaat qilishga haqli, shuningdek, jinoyatdan keyingi stress holatlarida psixologik maslahat olish huquqiga ega.

Jabrlanuvchilar huquqlarini qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi Qonunga muvofiq, voyaga yetmagan "birlamchi jabrlanuvchi" ning ota-onalari va vasiylari jarohat yetkazilganligi yoki jismoniy zarar yetkazilganligi uchun kompensatsiya so'rab murojaat qilishga haqli (27-modda). "Ikkilamchi jabrlanuvchilar" inqirozli psixologik maslahat olish huquqiga ega (28-modda). "Oilaviy jabrlanuvchilar" (jinoyat natijasida vafot etgan "birlamchi jabrlanuvchi"ning oila a'zolari) stress holatlarida psixologik maslahat, ko'rilgan iqtisodiy zarar kompensatsiyasi, zudlik bilan kerak bo'lgan ehtiyojlar uchun tezkor moliyaviy yordam va dafn marosimi uchun kompensatsiya olish huquqiga egalar (29-modda).

Jabrlanuvchiga barcha tegishli kompensatsiyalar to'langandan so'ng, Adliya vazirligi to'langan pullarni zarar yetkazgan shaxsdan regress tartibida undirish huquqini oladi. Bunga Jabrlanuvchilar huquqlarini qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi Qonunning 5-qismi bag'ishlangan. Dastur doirasida to'langan summalarni undirish

faqat sud tomonidan jinoyat sodir etganlikda ayblangan zarar yetkazgan shaxsdangina undirilishi mumkin. Bunda undiruv suddan tashqari tartibda Vakil tomonidan restitutsiya to'g'risidagi buyruq chiqarish orqali amalga oshiriladi.

Vakil bunday buyruqni chiqarish uchun Jabrlanuvchilar huquqlarini qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi Qonunda jabrlanuvchini qo'llab-quvvatlash dasturi bo'yicha kompensatsiya olishga haqli bo'lgan muddat tugagan paytdan boshlab hisoblanadigan ikki yillik da'vo muddati belgilangan (59-modda). Vakil restitutsiya to'g'risidagi buyruqni nafaqat mahkumning o'ziga, uning mol mulkini yashirish holati sodir etilgan bo'lsa, uning mulkini yashirishga aloqador bo'lgan boshqa shaxslarga nisbatan ham chiqarishga haqli (60-modda).

Restitutsiya to'g'risidagi buyruqni chiqarib, Vakil uni buyruq chiqarilgan shaxsga e'lon qilishi, shundan so'ng bu shaxs 28 kun ichida Vakilga o'z e'tirozlarini yuborishga haqli. E'tirozlarni olgach, Vakil Jabrlanuvchilar huquqlarini qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi Qonunga ko'ra ularni ko'rib chiqishi va yoki ularni rad etish va o'z buyrug'ini o'zgarishsiz tasdiqlash, yoki buyruqni o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risida qaror qabul qilishi shart (63, 64-moddalar). Kelib tushgan e'tirozlar rad etilgan taqdirda, Vakil qabul qilingan qarorni asoslashi kerak. Agar restitutsiya to'g'risida buyruq chiqarilgan shaxs Vakilning yakuniy qarori va buyrug'iga rozi bo'lmasa, u ushbu buyruqni Ma'muriy qarorlar tribunaliga shikoyat qilishga haqli (66-modda). Qonuniy kuchga kirgan restitutsiya to'g'risidagi buyruq sud qarori bilan bir xil tartibda ijro etiladi (72-modda).

Muhimi jabrlanuvchiga zararni qoplash bo'yicha sud va suddan tashqari dasturlar o'zaro bir-birini istisno qiladi (Qonunning 25(1), 98(a)-moddalari). Xolbuki, agar fuqaro sud tartibida moddiy kompensatsiya olgan bo'lsa yoki uning ishi sudda ko'rib chiqilayotgan bo'lsa, u yuqorida tasvirlangan suddan tashqari kompensatsiyaga umid qilishga haqli emas. Shu kabi, agar jabrlanuvchiga avval suddan tashqari dastur doirasida kompensatsiya to'langan bo'lsa, sud kompensatsiya to'lash to'g'risida qaror qabul qilishga haqli emas.

Jabrlanuvchilar huquqlarini qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi Qonunga muvofiq, jinoyat sodir etilganligi uchun ayblov hukmi chiqarilganda, sud jabrlanuvchining

sogʻligʻiga yetkazilgan zarar uchun mahkumning mulki hisobidan moddiy kompensatsiya undirish toʻgʻrisida sud buyrugʻini chiqarishga haqli (94-modda). Bunday holatda mumkin boʻlgan kompensatsiya miqdori 50 ming Avstraliya dollaridan oshmasligi kerak (95-modda). Sud bunday buyruqni ham oʻz tashabbusi bilan, ham jabrlanuvchining arizasiga binoan chiqarishi mumkin (94(2) - modda). Bunda maksimal kompensatsiya miqdori fuqarolik sud ishlarini yuritish tartibida undirilishi lozim boʻlgan qarzning maksimal miqdori bilan chegaralanadi (98(b)-modda).

Jabrlanuvchilarni qoʻllab-quvvatlash dasturlari va Fondni moliyalashtirish uchun Yangi Janubiy Uels shtatida Jabrlanuvchilar huquqlari va qoʻllab-quvvatlash toʻgʻrisidagi Qonunga muvofiq, sud tomonidan jinoyatlar sodir etganlikda aybdor deb topilgan barcha shaxslardan jabrlanuvchilarni qoʻllab-quvvatlash uchun majburiy yigʻim undiriladi (7-modda). Yigʻim 69 dollardan 156 Avstraliya dollarigachani tashkil etadi va aybdordan undiriladigan boshqa kompensatsiyalar va toʻlovlardan tashqari toʻlanadi (106-modda). Shu bilan birga, huquqbuzarlik sodir etilganda aybdor shaxs yigʻimni toʻlashdan ozod qilinadigan bir qator harakatlar mavjud. Ularga milliy huquqiy tizimda maʼmuriy huquqbuzarlik sifatida koʻrib chiqiladigan harakatlar kiradi yaʼni mayda bezorilik, jamoat joylarida soʻkinish, avtotransport vositalarini toʻxtash va toʻxtab turish qoidalarini buzish, jamoat transportida yoʻl haqi toʻlamaganli va xak. (105(2)-modda).

III - BOB. ROMANO-GERMAN HUQUQ OILASIDA JABRLANUVCHINI HIMOYA QILISH TAJRIBASI

1-§. Kontinental huquq oilasiga mansub davlatlarda jabrlanuvchining huquq va manfaatlari muhofaza qilinishi

Kontinental huquq oilasiga mansub davlatlar (Fransiya, Germaniya, Italiya, Ispaniya, Yaponiya va boshqalar) jinoyat-prosessual tizimida jabrlanuvchining huquqiy maqomi va uning manfaatlarini himoya qilish kafolatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Bu davlatlarda jabrlanuvchi shaxs faqatgina dalil manbai sifatida emas, balki mustaqil prosessual ishtirokchi sifatida tan olinadi. Bunday yondashuv insonparvarlik va adolat prinsiplariga asoslangan bo'lib, fuqarolarning davlatga nisbatan ishonchini mustahkamlaydi.

Kontinental (Ramon-german) huquq oilasi tizimi. Ushbu tizimining o'ziga xosligi shundan iboratki, unda normativ-huquqiy aktlarning ustuvorligi yaqqol ko'rinadi va ular asosan kodifikatsiyalashtirilgan holatda bo'ladi. Ushbu tizim asosan Yevropa qit'asining aksariyat davlatlarida (Fransiya, Germaniya, Ispaniya, Belgiya, Italiya, Gollandiya, Avstriya, Portugaliya, Monako, Lyuksemburg, Shveysariya, Finlyandiya va h.k.), Afrika va Osiyoning bir qator davlatlarida o'rnatilgan.²⁶⁴

Ramon-german va anglo-sakson huquq oilalarida jinoyat prosessida jabrlanuvchining huquqlari va manfaatlarini himoya qilishda muhim farqlar va afzalliklar mavjud. Masalan, ramono-german huquq oilasida jabrlanuvchi prosessda faol ishtirokchisi (jabrlanuvchi), u sudda da'vogar sifatida ham qatnashishi mumkin (xususiyl ayblovlchi). Fransiya, Germaniya, Italiyada jabrlanuvchi "fuqaroviy da'vogar" sifatida o'zining huquqlarini muhofazasini talab qiladi.

Kontinental huquq oilasiga mansub mamlakatlarda jinoyat prosessining an'anaviy markazi ayblanuvchi hisoblansa-da, oxirgi o'n yilliklarda jabrlanuvchining

²⁶⁴ Gunay Karimova – "The Romano-Germanic and Anglo-Saxon Legal Systems" (2024) Journal Title: Ancient Land - Year 2024, Vol 6, Issue 5// researchgate.net/publication/381293679_the_romano-germanic_and_anglo-saxon_legal_systems/citation/download

huquq va manfaatlarini ta'minlash masalasi jinoyat-prosessual siyosatning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylangan. Fransiya, Germaniya, Italiya, Ispaniya kabi davlatlar jinoyat qurbonlariga davlat himoyasini ta'minlovchi mustahkam huquqiy asoslarni shakllantirgan.

Germaniya Federativ Respublikasi jinoyat-prosessual huquqida jinoyat jabrlanuvchisining (*Verletzter, Geschädigter*) huquqiy maqomi an'anaviy ravishda davlat ayblovining ustuvorligiga asoslangan inkvizision elementlar bilan uyg'un holda shakllangan bo'lib, jabrlanuvchi, avvalo, dalil manbai sifatida qaraladi. Germaniya Jinoyat-prosessual kodeksi (Strafprozessordnung, StPO)ga muvofiq, jinoyatdan jabr ko'rgan shaxs, birinchi navbatda, guvoh sifatida ishtirok etadi va uning ko'rsatmalari jinoyat ishi bo'yicha dalillar tizimining bir qismi sifatida baholanadi. Ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanishicha, bunday yondashuv jabrlanuvchini videoyazuvlar yoki DNK izlari kabi "dalil manbai" sifatida qabul qilish tendensiyasini aks ettiradi²⁶⁵. Biroq zamonaviy nemis jinoyat-prosessual huquqi jabrlanuvchining faqat passiv guvoh emas, balki muayyan holatlarda faol prosessual ishtirokchi sifatida qatnashishini ham nazarda tutadi. Germaniyada jabrlanuvchi jinoyat-prosessual qonunga muvofiq jabrlanuvchining huquqiy maqomi klassik jinoyat prosessi ishtirokchilari tizimidan farqli ravishda, yagona institut sifatida emas, balki bir nechta o'zaro bog'liq prosessual shakllar orqali tartibga solingan. Germaniya qonun chiqaruvchisi jabrlanuvchini mustaqil prosessual tomon sifatida e'tirof etmagan bo'lsa-da, uning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash maqsadida keng qamrovli maxsus vakolatlar tizimini joriy etgan.

Jinoyat - prosessual normalarida jinoyat natijasida bevosita zarar ko'rgan shaxs "jabrlanuvchi", "jarohatlangan shaxs", "jabrlangan shaxs" tushunchasi orqali ifodalanadi. Ushbu maqom jabrlanuvchiga jinoyat ishi yuritilishi jarayonida axborot olish, tergov harakatlarida belgilangan tartibda ishtirok etish, shuningdek, shaxsiy xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan prosessual himoya choralaridan foydalanish

²⁶⁵ Roxin C. *Strafverfahrensrecht*. — München: C.H. Beck, 2020. — S. 92–94. <https://www.beck-shop.de/roxin-schuenemann-strafverfahrensrecht/product/26636464?srsId=AfmBOooeOdmUoTGoZwJpDj-VrcYSN9DuNYRI29ZpdKB0gKfPD6lBzpQf>

huquqini beradi²⁶⁶. Biroq bu maqom jabrlanuvchiga ayblovni amalga oshirish yoki sud muhokamasida to'liq tomon sifatida qatnashish imkoniyatini avtomatik ravishda bermaydi.

Germaniya qonunchiligi jabrlanuvchiga jamoat aybloviga qo'shilish orqali "xususiy qo'shimcha ayblovchi" sifatida jinoyat ishida ishtirok etish huquqini beradi. Ushbu institut jabrlanuvchining prosessual maqomini sezilarli darajada kengaytiradi hamda uning manfaatlarini himoya qilishda mustaqil huquqiy vositalarni taqdim etadi. "Xususiy qo'shimcha ayblovchi" instituti doirasida jabrlanuvchi sud muhokamasining barcha bosqichlarida, jumladan ochiq sud majlisida qatnashish, savollar berish, dalillarni talab qilish to'g'risida iltimosnomalar kiritish, shuningdek shaxsan yoki o'z vakili orqali bayonotlar berish huquqiga ega bo'ladi²⁶⁷. Bundan tashqari, xususiy qo'shimcha ayblovchining advokati sud muhokamasi yakunida nutq so'zlash huquqiga ham ega bo'lib, bu jabrlanuvchining pozitsiyasini sud oldida to'liq ifoda etish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, Germaniya jinoyat prosessi jabrlanuvchiga xususiy ayblovchi (Privatkläger) sifatida ham ishtirok etish imkoniyatini beradi. Qonunning 374–394-paragraflarida belgilangan ushbu tartibga ko'ra, ayrim uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar bo'yicha jabrlanuvchi davlat ayblovchisiz mustaqil ravishda ayblov qo'zg'atishi mumkin²⁶⁸. Bu institut jabrlanuvchining adolatga bo'lgan ehtiyojini qondirish bilan birga, jinoyat sudlovida dispozitivlik elementlarini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Jamoat aybloviga qo'shilmagan jabrlanuvchilar uchun ham muayyan prosessual kafolatlar mavjud. Xususan, qonunning 406f-moddasiga muvofiq, jabrlangan shaxs advokat yordamidan foydalanish yoki advokat orqali vakillik qilinishi huquqiga ega. Bunday advokat ilmiy adabiyotlarda "guvoh maslahatchisi" yoki "jabrlanuvchi advokati" sifatida tavsiflanadi. U jabrlanuvchining so'roq qilinishi

²⁶⁶ Meyer-Goßner L., Schmitt B. *Strafprozessordnung. Kommentar.* 66. Aufl. – München: C.H. Beck, 2023. – S.47. <https://jurcase-shop.com/meyer-gossner-schmitt-2023-kommentar-zur-stpo-66-auflage-2023/>

²⁶⁷ Meyer-Goßner L., Schmitt B. *Strafprozessordnung: Kommentar.* 66. Aufl. — München: C.H. Beck, 2023. – § 397–400. jurcase-shop.com/meyer-gossner-schmitt-2023-kommentar-zur-stpo-66-auflage-2023/

²⁶⁸ Weigend T. *Germany.* In: *Handbook of Criminal Procedure.* — Oxford University Press, 2019. — P. 415–417. <https://biblioteca.corteidh.or.cr/engine/download/blob/cidh/168/2021/37/758048>

jarayonida ishtirok etishi, uning huquqlari buzilishining oldini olishi hamda prosessual muvozanatni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi²⁶⁹.

Germaniya Federativ Respublikasi jinoyat-prosessual qonunchiligida jabrlanuvchining huquqiy maqomi klassik "guvoh" konsepsiyasidan chiqib, faol prosessual ishtirokchi modeliga bosqichma-bosqich yaqinlashib bormoqda. Davlat hisobidan advokat tayinlash va guvoh advokati instituti kabi mexanizmlar jabrlanuvchining jinoyat prosessidagi rolini kuchaytirishga, uning qonuniy manfaatlari va inson huquqlarini samarali himoya qilishga qaratilgan bo'lib, bu Germaniya jinoyat-prosessual huquqining insonparvarlikka yo'naltirilgan rivojlanish tendensiyasini yaqqol namoyon etadi. Jabrlanuvchi ko'p hollarda guvoh sifatida qatnashadi va u quyidagi huquqlarga ega:

- ko'rsatma berishdan bosh tortish (yaqin qarindoshlar holatida);
- ayrim savollarga javob bermaslik;
- prosess davomida himoya choralaridan foydalanish (maxfiylik, alohida so'roq).

Ayrim yengil jinoyatlar bo'yicha jabrlanuvchi davlat ayblovchisi ishtirokisiz o'zi mustaqil ravishda ayblov qo'zg'atish huquqiga ega.

Bu holatda jabrlanuvchi ayblovchi tomon sifatida chiqadi, dalillar keltiradi, sud qaroridan shikoyat qilish huquqiga ega²⁷⁰.

U og'ir jinoyatlar bo'yicha (jinsiy jinoyatlar, zo'ravonlik, odam savdosi va h.k.):

- davlat ayblovchisiga qo'shimcha ayblovchi sifatida qo'shiladi;
- sud muhokamasida faol ishtirok etadi.
- sud majlisida qatnashish;
- savol berish;
- dalillarni taqdim etish;
- iltimosnoma kiritish;

²⁶⁹ Strafprozessordnung (StPO). § 406f; Ambos K. *Internationales Strafrecht*. — München: C.H. Beck, 2021. — S. 311 <https://www.department-ambos.uni-goettingen.de/data/documents/Abteilung/Ambos/Veroeffentlichungen.pdf>

²⁷⁰ Bundesministerium der Justiz. *Strafprozessordnung (StPO)* – §395–397. Retrieved from: <https://www.gesetze-im-internet.de/stpo/>

- sud qaroridan shikoyat qilish;
- advokat yordamidan foydalanish (ayrim hollarda davlat hisobidan).

Jabrlanuvchi jinoyat ishi doirasida:

moddiy va ma'naviy zararni undirish haqida fuqaroviy da'vo qo'zg'atishi mumkin. Bu Germaniya huquqida adgezion tartib²⁷¹ deb ataladi va alohida fuqaroviy sudga murojaat qilmasdan zararni qoplash imkonini beradi.

Jinoyat prosessida jabrlanuvchi jinoyat ishining holati, gumonlanuvchining ozod qilinishi, sud qarorlari haqida axborot olish huquqiga ega. JPK jabrlanuvchini prosessual himoya (masofaviy so'roq, maxfiy ma'lumotlar) psixologik yordam, jabrlanuvchiga hamroh shaxs ishtiroki; maxsus ishonchli shaxslar (ayniqsa bolalar uchun). Ayrim toifadagi jabrlanuvchilarga bepul advokat tayinlanadi, ayniqsa jinsiy va og'ir zo'ravonlik jinoyatlarida.

“jabrlanuvchi tarafidan sudga qo'shilgan shikoyatchi” ya'ni jinoyat ishida “yordamchi ayblovcchi” sifatida ishtirok etishi mumkin, bu esa unga sud jarayonida notiqlik qilish, dalil taqdim etish va sud hukmi ustidan shikoyat qilish huquqlarini beradi. Shuningdek, Germaniyada “Jabrlanuvchilarga yordam to'g'risidagi qonun”²⁷² asosida jabrlanuvchilarga davlat tomonidan psixologik va moliyaviy yordam ko'rsatiladi. Germaniya JPKning 406d-406h1-§ ga asosan jinoyatdan jabr ko'rgan shaxs jinoyat prosessida qo'shimcha ayblovcchi yoki jinoyat prosessi davomida mustaqil fuqarolik-huquqiy talablar qo'yadigan jabrlanuvchi sifatida ishtirok etishi mumkinligidan qat'i nazar hisoblanadi. Jabrlanuvchi tushunchasi JPKning 406-§ amal qilishi doirasida JPKning 172-paragrafida jabrlanuvchi sifatida sodir qilingan jinoyatdan bevosita zarar ko'rgan shaxs deb topiladi. Xususan, jabrlanuvchining jinoyat ishini qo'zg'atish maqsadida shikoyat berish huquqidan kengroq talqin etish shart²⁷³.

²⁷¹ Адгезион тартиб - бу жиноят ишлари доирасида жабрланувчи шахсининг моддий ва маънавий зарар (компенсация) талабларини тўғридан-тўғри судда, айблов суди ёки асосий жиноят иши билан боғлиқ равишда кўриб чиқиш жараёни.

²⁷² Opferentschädigungsgesetz (OEG), BGBl. I 1985, 1955. // http://www.bgbl.de/xaver/bgbl/start.xav?start=%2F%2F*%5B%40attr_id%3D%27bgbl185s0001.pdf%27%5D

²⁷³ OLG oblenz StV 1988, 332 m, Anm. Schauer, A KMR-Stockel, Vor § 406 d Rn 10; vert. Velten, Vor §§ 406 d-406h Rn; Walther, JR2008,405.

Jabrlanuvchining eng muhim, eng muammoli huquqi bu jinoyat ishi hujjatlari bilan tanishish huquqidir²⁷⁴. Ushbu huquqdan jabrlanuvchi faqat advokati yordami orqali foydalanishi mumkin. Umumiy tarzda, mazkur huquqning asosi bo'lib, jabrlanuvchi o'zining huquqiy manfaati haqida arz qilishidir.

Jabrlanuvchining advokati ish hujjatlari bilan tanishishi masalasini surishtiruv bosqichida prokuratura hal qiladi. uning qarorlari ustidan sud tergovchisi har doim shikoyat qilishi mumkin (JPK 406ye IV 1 Alt.2-§).

Jabrlanuvchi o'z iltimosnomasiga binoan sud prosessi natijasi haqida xabardor qilinishi lozim, chunki bu unga bog'liq hodisadir. Ma'lum zo'rlik yo'li bilan sodir etilgan jinsiy jinoyatlar yoki zo'ravonlik jinoyatlari mavjudligi hamda boshqa holatlarda qaror qabul qilishda yoxud ozodlikdan mahrum qilish muddati tugallanganida, shuningdek, jazoni ijro etish sharoitlari o'zgarganida yoki ta'til taqdim etilganida jinoyat qurbonining qonuniy manfaatlari ham inobatga olinishi lozim.

Zo'ravonlik jinoyati qurboniga yetkazilgan zararni qoplash Germaniyaning 1976 yil 11 maydagi "Zo'ravonlik jinoyatlari jabrlanuvchilariga kompensasiya to'lash to'g'risida"gi qonuniga ko'ra jabrlanuvchilar yoki ularning yaqin qarindoshlari hamda merosxo'rlariga jismoniy, ma'naviy va moddiy zarar yetkazilganda davlat byudjeti hisobidan kompensasiya qilinadi. Bunda: birinchidan, jabrlanuvchiga hayoti yoki sog'ligiga zarar yetkazilganda kompensasiya to'lanadi. Ikkinchidan, jabrlanuvchi yoki uning vakili zudlik bilan jinoyat haqida xabar berishi va jinoyatning ochilishida faol ishtirok etishi talab etiladi. Uchinchidan, jabrlanuvchiga yetkazilgan zarar miqdori tibbiy mezonlar asosida aniqlanadi, masalan, jabrlanuvchi sog'lig'ining 10-20 % ga yomonlashuvi 800 yevro, 50-60 % uchun 5800 yevro, 70-90 % uchun 10 200 yevro, biron bir a'zosining butunlay ishdan

²⁷⁴ Вернер Бойльке Германия Федератив Республикасининг жиноят-процессуал ҳукуқи. Дарслик. 12-нашр, қўшимча ва ўзгартиришлар билан. – Т., – 2017. 603 б.

chiqishi yoki yo'qotilganligi uchun maksimal to'lov miqdori 28 500 yevroni tashkil etadi²⁷⁵.

Bundan tashqari, Germaniyada jabrlanuvchini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va jinoyat natijasida yetkazilgan zararni qoplashda muhtojlarga yordam berish maqsadida xususiy va jamoaviy fondlar tashkil etilgan. Masalan, zo'ravonlik va ekstremistik harakatlarga qarshi kurashuvchi Berlin Fondi Ushbu fond zo'ravonlik va ekstremistik harakatlar natijasida jabrlanganlarga bir martalik 400 yevro miqdorida pul ajratadi.

Yo'l harakati xavfsizligi bilan bog'liq jinoyatlardan jabrlanganlarga maxsus Avto Fond mavjud unda yo'l harakati qurbonlari, Germaniyada sodir bo'lgan baxtsiz hodisalar uchun kafolatlar fondi sifatida, transport vositasini noma'lum yoki sug'urta qilinmagan avtotransport vositalari sababli yoki qasddan va noqonuniy yo'l bilan "qotillik qurboni" bo'lganlarga ijtimoiy yordam beruvchi fond hisoblanadi. Unda o'rtacha 500 yevro miqdorida bir marotabalik to'lov ajratiladi.

Shtutgart Fondi – ushbu fond odam savdosi va majburiy fohishalik bilan bog'liq jinoyatlardan jabrlanganlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida tashkil etilgan.

Gassen Fondi – ushbu fond jazoni ijro etish muassasalari mahbuslari tomonidan sodir etilgan jinoyatlardan jabrlanganlarni qo'llab-quvvatlovchi fond, o'rtacha 20 ming yevro miqdorida pul ajratadi.

Baden Vyrtemberg yer fondi – ushbu yer hududida sodir etilgan jinoyatlarning jabrlanuvchilariga moddiy yordam beruvchi va Baden-Vyrtembergda doimiy yashovchi fuqarolariga jinoyat natijasida yetkazilgan zararni to'liq qoplab beruvchi fond, o'rtacha 10 ming yevro hisobida bir martalik pul ajratadi.

Shuningdek, Germaniya qonunchiligida jabrlanuvchi bilan yarashuv instituti keng qo'llaniladi. Unga asosan jinoyat natijasida yetkazilgan moddiy, jismoniy va

²⁷⁵ Richter H. Opfer krimineller Gewalttaten: Individuelle Folgen und ihre Verarbeitung. Mainz; См:решения Федерального социального суда от 16 декабря 2014 По делу В 9 В1/13Р/; ? (электрон ресурса мурожаат этилган вақт 24.03.2020.)

ma'naviy zarar ayblanuvchi yoki uning yaqinlari tomonidan undirib berilishi²⁷⁶ nazarda tutilgan.

Fransiyada 1977 yil 3 yanvarda qabul qilgan qonunga asosan Fransiya JPKsiga “Jabrlanuvchiga jinoyat natijasida yetkazilgan zararni kompensasiyasi” nomli yangi bo‘lim va 706-3dan to 706-13-moddalari hamda 1983 yil 8 iyundagi 83-608-sonli “Jinoyatdan jabrlanganlar himoyasini kuchaytirish to‘g‘risida”gi qonunlar orqali jabrlanuvchilarning yuridik, psixologik, ijtimoiy yordam uchun kompensasiya olish huquqi kafolatlangan²⁷⁷.

Jabrlanuvchiga jinoyat sodir etilgandan so‘ng sud oldida ayblanuvchi hozir bo‘lishi bilan davlat tomonidan kompensasiya to‘lovlari amalga oshiriladi, keyinchalik regress holatda aybdordan davlat hisobiga to‘lov undiriladi. Fransiya qonunchiligida “Davlat fuqarolariga nisbatan sodir etilgan jinoyat zararini barchasini o‘z zimmasiga oladi va fuqarolarning manfaatlarini kafolatli himoya qiladi”²⁷⁸ shiorini ilgari suradi. Fransiya Jinoyat va jinoyat prosessual kodeksida va boshqa meyoriy hujjatlarda “jinoyat qurboni”, “jabrlanuvchi” va “jabrdiyda” deb tarjima qilingan atamasi qo‘llaniladi. Shu bilan birga, umumiy qoidaga ko‘ra, jabrlanuvchi sifatida umumiy jinoyat (oilaviy zo‘ravonlik, nomusga tegish, o‘g‘rilik, badanga og‘ir, o‘rtacha og‘ir va yengil shikast yetkazish va boshqalar) tufayli zarar ko‘rgan shaxs bo‘lishi mumkin. Fransiyada esa jinoyat ishlari yuzasidan jabrlanuvchi shaxsning jinoyat ishida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishtirok etishi va o‘z fuqarolik da’vosini ilgari surishi jarayonini anglatadi” instituti joriy etilgan bo‘lib, uning orqali jabrlanuvchi o‘zini alohida fuqarolik da’vogari sifatida sud ishiga qo‘shish imkoniga ega²⁷⁹. Shuningdek, Fransiyada 2008 yildan beri jabrlanuvchilarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha milliy dasturlar amal qiladi, jumladan, “Fransiyadagi milliy

²⁷⁶ Уголовный кодекс ФГР. с. 46а.

²⁷⁷ *Меньших А.А.* О возмещении ущерба жертвам преступлений во Франции. // Журнал российского права. – 1999. – №9. – Б.48.

²⁷⁸ Уголовный кодекс Франции.– СПб., 2002. – С.97.

²⁷⁹ Dervieux, D. (2010). *La constitution de partie civile: outil de la participation des victimes au procès pénal*. Revue de Science Criminelle.// <https://theses.hal.science/tel-04086667/document>

jabrlanuvchilarga yordam va mediasiya instituti” tashkiloti orqali psixologik va huquqiy yordam ko‘rsatiladi²⁸⁰.

Fransiyada jabrlanuvchilarning huquqlarini himoya qilish va ularga yordam ko‘rsatish tizimi juda rivojlangan bo‘lib, shuningdek suddan tashqari nizolarni hal qilish mexanizmlari ham mukammallashtirilgan. Shu nuqtai nazardan, Fransiyadagi milliy jabrlanuvchilarga yordam va mediasiya instituti jinoyatdan jabrlangan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash va sud jarayonida ularning huquqlarini ta‘minlashda markaziy rol o‘ynaydi. INAVEM jabrlanuvchilarga huquqiy, psixologik va ijtimoiy yordam ko‘rsatish bilan shug‘ullanadi, shuningdek ularni sud jarayonida va mediasiya orqali nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilish jarayonida qo‘llab-quvvatlaydi. Bu institutning asosiy vazifalari jumladan jabrlanuvchilarning moddiy va ma‘naviy zararni qoplashda huquqiy maslahat berish, psixologik qo‘llab-quvvatlash va huquqiy himoyani ta‘minlashdan iboratdir. Shuningdek, INAVEM²⁸¹ jinoyatdan jabrlangan shaxs va gumonlanuvchi o‘rtasida suddan tashqari kelishuvlar orqali nizolarni hal qilishni yo‘lga qo‘ygan mediasiya xizmatini ham amalga oshiradi, bu esa jabrlanuvchilar uchun huquqiy va psixologik xavfsizlikni ta‘minlaydi. Institut shu bilan birga jabrlanuvchilar va huquq himoyachilari uchun ilmiy va amaliy qo‘llanmalar, treninglar va seminarlar tashkil etish orqali ularning huquqiy bilimini oshirish va prosessual ishtirokini samarali qilishga xizmat qiladi. Institut faoliyati Fransiya JPKsi hamda jabrlanuvchilar huquqlariga oid qonunlar asosida tartibga solinadi va u jabrlanuvchilarning fuqaroviy da‘vo” sifatida jinoyat ishiga qo‘shilishi yoki mediasiya orqali kelishuvda ishtirok etishida ularga huquqiy va amaliy yordam ko‘rsatadi. Shu tariqa, INAVEM jinoyat ishlari va fuqarolik da‘vosi o‘rtasidagi bog‘lanishni ta‘minlaydi, jabrlanuvchilarning huquq va manfaatlarini samarali himoya qilishni kafolatlaydi hamda jinoyat jarayonini soddalashtirishga va huquqiy muvozanatni ta‘minlashga xizmat qiladi.

²⁸⁰ INAVEM. (2023). *Aide aux victimes en France*. Retrieved from: <https://www.france-victimes.fr>

²⁸¹ Institut National d’Aide aux Victimes et de Médiation (Миллий Жабрланувчиларга Ёрдам ва Медиация Институту)

Niderlandiya qonunchiligiga muvofiq, jinoyat qurboni (victim) bu jinoyat hisobiga qayd etilgan holat natijasida to'g'ridan-to'g'ri zarar ko'rgan shaxs hisoblanadi. Zararga jismoniy zarar, moliyaviy yo'qotish, mulkning buzilishi yoki o'g'irlanishi kabi oqibatlar kiradi²⁸². Shuningdek, yuridik shaxslar ham jinoyat qurboni sifatida e'tirof etilishi mumkin. Niderlandiyaning Jinoyat-prosessual kodeksida ushbu tushuncha alohida belgilangan biror shaxs to'g'ridan to'g'ri jinoyat oqibatida moliyaviy yoki boshqa zarar ko'rganida u qurbon deb qaraladi.

Niderlandiyada jinoyat jarayoni ikki asosiy bosqichdan iborat:²⁸³

Dastlabki tergov (investigation) polisiya va prokuratura tomonidan jinoyat sodir bo'lganligini aniqlash, gumonlanuvchini topish va dalillar to'plash.

Sud majlisi (trial) sud yig'ilgan dalillarga asosan gumonlanuvchining aybli yoki aybsizligi to'g'risida qaror qabul qiladi.

Jinoyat qurbonlari mazkur jarayonda quyidagi asosiy huquqlarga ega:

- jinoyat sodir etilganidan keyin va sud jarayonida o'z ishi haqida ma'lumot olish. Bu huquq sizning ishingiz qay darajada ekanini, sud qanday yo'lga qo'yilganini bilishingizga imkon beradi²⁸⁴;

- to'g'ri munosabat huquqi, polisiya, prokuratura va sud organlari qurbonni hurmat bilan muomala qilishlari shart va uning ehtiyojlarini hisobga olishlari kerak²⁸⁵;

- qurbon yuridik maslahat olish, advokat bilan maslahatlashish va zarur bo'lsa, tarjimon yordamida huquqiy ma'lumot olish huquqiga ega;

- ayrim holatlarda qurbon sudda guvoh sifatida so'zlash yoki yozuv tarzida bayonot berish huquqiga ega bo'ladi (xususan jiddiy jinoyatlarda)²⁸⁶.

²⁸² Victims' rights – Netherlands (European e-Justice Portal) — definition of victim. e-justice.europa.eu.

²⁸³ Ibid — rights from 1 January 2011 e-justice.europa.eu.

²⁸⁴ Code of Criminal Procedure, Section 51 a definitions https://www.unodc.org/cld/en/legislation/nld/code_of_criminal_procedure/book_m

²⁸⁵ “As a victim you have rights” (politie.nl — official police info). <https://www.politie.nl/en/information/as-a-victim-of-a-crime-you-have>

²⁸⁶ Public Prosecution Service at a glance - victim rights overview. <https://www.prosecutionservice.nl/binaries/prosecutionservice/documenten/publications/openbaar-ministerie/algemeen/alles/netherlands-public-prosecution-service-at-a-glance/Netherlands%2BPublic%2BProsecution%2BService%2Bat%2Ba%2Bglance.pdf>

– qurbon jinoyat ishlari bo'yicha ish materiallarini ko'rishni talab qilish mumkin, bu uning prosessdagi ishtirokini kuchaytirishi mumkin.

Niderlandiyada jabrlanuvchilarni qo'llab quvvatlash xizmati qurbonlarga jinoyat sodir bo'lganidan keyin turli yordam xizmatlari ko'rsatiladi, masalan huquqiy va amaliy, psixologik yordam ko'rsatadi. Bu tashkilot qurbonlarga jinoyatni xabar qilish, sud jarayoni va kompensasiya bilan bog'liq masalalarda maslahat beradi.

Jamoat bo'yicha qo'llab-quvvatlash oilaviy ruxiy zo'ravonlik, jinsiy zo'rlik kabi holatlarda yordam ko'rsatadi.

Bu xizmatlar qurbonlarga bepul va maxfiy asosda ko'rsatiladi va zarur hollarda huquqiy hamda psixologik ko'makni qamrab oladi⁵.

Niderlandiyada qurbonlarga yetkazilgan zararni qoplash mexanizmi ikki asosiy yo'l bilan amalga oshiriladi 1) sudda moliyaviy kompensasiya talab qilish, qurbon jinoyat ishi doirasida ayblanuvchidan zararni to'lashni talab qilishi mumkin. Bu mexanizm Niderlandiyada sud qarori orqali amalga oshiriladi, ya'ni sud ayblanuvchi aybli deb topilgan taqdirda zarar uchun to'lov majburiyatini belgilashi mumkin²⁸⁷.

2) Niderlandiyada maxsus zo'ravonlik jinoyatlari kompensasiya jamg'armasi ham mavjud. Bu jamg'arma qurbonlarning ba'zi turdagi zararlari uchun (masalan, jismoniy va ma'naviy zarar) bir marotaba moliyaviy to'lovni amalga oshiradi, ayniqsa boshqa manbaalar orqali to'lash imkoniyati bo'lmagan holatlarda.

Niderlandiyada qurbonlarning huquqlari asosan Jinoyat-prosessual kodeksda belgilanadi, xususan 51a–51h moddalari qurbonning huquqiy maqomi va uning huquqlarini aniqlaydi. Unga ko'ra, qurbon deb hisoblanadigan shaxs jinoyat oqibatida to'g'ridan-tog'ri moliyaviy yoki boshqa zarar ko'rgan shaxs hisoblanadi, hamda jamoat prokurori qurbonning munosib muomala qilinishi uchun mas'uldir.

Niderlandiya huquqiy tizimi qurbonlarning huquqlarini keng qamrab olgan holda muhofaza qiladi va quyidagi asosiy ustunliklarni ta'minlaydi:

Niderlandiyada qurbonlar huquqlari nafaqat milliy qonunlar bilan, balki Yevropa Ittifoqining Jinoyat qurbonlari huquqlari bo'yicha 2012/29/YEU

²⁸⁷ NCJRS report discussion on victims' position and compensation

direktivasini ham majburiy ravishda joriy qilish orqali xalqaro standartlarga muvofiq ta'minlanmoqda. 1986 yil 15 oktabrda qabul qilingan Dekret asosida, ushbu davlatda ham "Kafolatli Fond" tashkil etilgan. Fond mablag'lari har oylik sug'urta foizlari va mulkiy shartnomalardan undiriladigan bojlar hisobiga to'ldirilib boriladi va moliya va iqtisod vazirligi tomonidan nazorat qilinadi. Undan tashqari, fuqarolar tomonidan xayriya pullari yig'iladi va fondga yo'naltiriladi. Jabrlanuvchilar ikki hafta ichida bepul tibbiy ko'rikdan o'tkaziladi va ularga kompensasiya pullari 3 oy ichida to'lab berilishi belgilangan.

Tayland zamonaviy jinoyat prosessual huquqida jabrlanuvchilarning huquqlarini himoya qilish huquqiy tartibotning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tailandda qurbonlar huquqining meyoriy bazasi bir necha huquqiy manbalarda mujassamlashgan bo'lib, ular jinoyat jarayonida qurbonlarga nisbatan ta'minlanadigan huquqiy kafolatlar, kompensasiya mexanizmlari va davolash xizmatlarini o'z ichiga oladi. Tailand qonunchiligi qurbonning huquqlarini ta'minlashda xalqaro standartlar, jumladan Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1985 yilgi "Jinoyat qurbonlari va xokimiyatning suiste'mollariga uchraganlar uchun adolat bo'yicha asosiy prinsiplar"ni inobatga oladi, bunda qurbonlar adolatli muomala va zudlik bilan yordam olish huquqiga ega bo'ladi²⁸⁸.

Tailandda qurbonlar huquqi asosan Jinoyat-prosessual Kodeksning moddalari hamda huquq va ozodliklarni himoya qilish bo'yicha davlat organlari orqali ta'minlanadi. Jinoyat Kodeksi qurbonlarga belgilangan jinoyat oqibatida moliyaviy, jismoniy va ma'naviy zararni qoplash uchun shartli huquqlar bergan bo'lib, prokuratura ayrim holatlarda qurbon nomidan zararni sud orqali talab qilishi mumkin, masalan jinoyat-prosessual kodeksning 43-moddasida qurbonning unga yetkazilgan moddiy zarar uchun unga tegishli mulkni yoki uning qiymatini tiklashni talab qilish huquqi belgilangan, ayniqsa o'g'irlik, firibgarlik kabi jinoyatlar uchun prokurorning qurbon nomidan da'vo yuritish imkoniyati mavjud²⁸⁹. 44/1-modda esa tergovchilarga

²⁸⁸ United Nations Basic Principles of Justice for Victims of Crime and Abuse of Power (OHCHR).

²⁸⁹ Thai Criminal Justice System and restitution provisions (Criminal Procedure Code §§43–44/1); prosecutor may claim compensation on behalf of victim. https://www.unafei.or.jp/publications/pdf/RS_No93/

qurbon nomidan kimgadir yetkazilgan zarar uchun kompensasiya talab qilish huquqini beradi²⁹⁰.

Qurbonlarni himoya qilishning amaliy mexanizmi sifatida Tailandda Adliya vazirligi tizimidagi mazkur bo'lim qurbonlarga huquqiy maslahat, huquqlar va kompensasiya imkoniyatlari bo'yicha ma'lumot beradi va ularni adliya tizimidagi xizmatlarga yo'naltiradi²⁹¹. Bu bo'lim qurbonlar va guvohlarga bepul huquqiy maslahat xizmatini taqdim etadi hamda ayrim holatlarda davlat kompensasiyasi uchun ariza berishda ko'maklashadi.

Shtat kompensasiya va qonunchilikdagi jamg'armalar Tailand hukumati vaqti-vaqti bilan mahalliy organlar orqali qurbonlarga moddiy yordam berishni ta'minlaydi.

Shu bilan birga, Adliya vazirligi ham qurbonlarga huquqlar to'g'risida axborot tarqatish va ularni ma'lumot bilan ta'minlash bo'yicha faol ishlar olib boradi. Har yili minglab qurbonlar jinoyat munosabati bilan kompensasiya talab qilish uchun murojaat qiladi. Jabrlanuvchilarga moddiy yordam beruvchi davlat Fondi Tailandda ham mavjud. 1996 yil qabul qilingan Konstitusiyasida belgilanganidek, davlat kompensasiyasi jabrlanuvchiga aybdor tomonidan zarar to'liq qoplamaganda yoki qisman qoplanganda qolgan qismini to'lab berishni nazarda tutadi. YA'ni:

a) jabrlanuvchi jinoyat natijasida jiddiy tan jarohati olganda, jismoniy yoki aqliy holati yomonlashganda;

b) jabrlanuvchining vafot etishi yoki oilasi boquvchisini yo'qotgan holatda.

Tailand Konstitusiyasiga asosan jabrlanuvchi yoki uning oilasiga davlat tomonidan restitutsiya²⁹² tarzda adliya vazirligi qoshidagi **maxsus fond**dan kompensasiya to'lanadi. Bu fond xuquqbuzarliklar natijasidagi jarimalar, mahbuslar ish haqi, jinoiy daromadlar, jinoyatchilarning xatlangan va sotilgan mulklari

²⁹⁰ Chanthorn C., Wongiantong T., *Protection of victim's right in the case where the court appoints a lawyer*, MCU Haripunchai Review, 2025.

²⁹¹ Rights and Liberties Protection Department (RLPD) provides state compensation and legal counselling <https://www.routes2remedy.com/remedies/thailand>

²⁹² Ромоданновский К.О. Сравнительный анализ законодательства различных стран в области государственной защиты потерпевших, свидетелей и иных участников уголовного судопроизводства / Российский следователь. – 2005. – №10. – С.44.

hisobidan to'ldirib boriladi. Bu maxsus fond Tailand Prezidentining 1998 yil 27 mayda qabul qilingan Dekreti asosida tashkil etilgan. 2025 yili qabul qilingan yangi tartibda qurbonlar, xususan, qiynoq va inson huquqlarini buzish holatlari uchun zarur kompensasiya, huquqiy va ijtimoiy yordam olish imkoniyati belgilandi. Shu jumladan, qiynoq qurbonlari uchun 500,000 bat, shafqatsiz muomala qurbonlari uchun 100,000 250,000 batgacha moddiy ko'mak nazarda tutilgan.

Tailandda jinoyat qurbonlarining huquqlari milliy jinoyat qonuni va xalqaro inson huquqlari standartlari asosida tartibga solinadi. Qurbonlar huquqiy muomala, ma'lumot olish, ishtirok etish va kompensasiya talab qilish kabi bir qator huquqiy kafolatlarga ega bo'lib, ularni amalga oshirishda Adliya vazirligi va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faol ishtirok etadi. Shu bilan birga, davlat tomonidan moddiy yordam va kompensasiya mexanizmlari ham mavjud bo'lib, ular qurbonlarning qayta tiklanish jarayonini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Tailandda qurbonlar huquqini himoya qilish tizimi doimiy ravishda takomillashtirilmoqda va xalqaro standartlarga muvofiq rivojlanmoqda.

Italiya qonunchiligida jabrlanuvchi va guvohlarning xavfsizligini ta'minlash maqsadida "maxsus kafolat» va moddiy zararni qoplash"da himoya qilinuvchi shaxs to'g'risidagi ma'lumotlarning maxfiyligi ta'minlanadi. Italiyada jinoiy uyushmalarning (mafiya) rivojlanganligi sababli davlat mafiya jinoyatchilik olamiga (Palerma 1986–1987 yillar) qarshi kurash jarayonini rivojlantirish maqsadida jinoyat qilmaslik sharti bilan mafiya a'zolidan chiqsa, davlat tomonidan himoya va ko'plab imtiyozlar berilishi belgilangan²⁹³. Buning uchun davlat tomonidan jabrlanuvchi yoki uning oila a'zolarini boshqa yashash joyiga ko'chirish, ish yoki o'qish joyi, yuz-chehrasini operatsiya yo'li bilan va ismi, familiyasini o'zgartirish ishlarini davlat zimmasiga oladi.

Shvesiya jinoyat prosessiga nazar tashlaydigan bo'lsak, jinoyat sodir qilinganligi aniqlangandan keyin huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan jinoyat ishi qo'zg'atilib, jinoyat ishi qo'zg'atish to'g'risidagi qarorning bir nusxasi

²⁹³ Гуценко К.Ф., Головкин Л.В., Филимонов Б.А. Уголовный процесс западных государств. Изд. 2-е, доп. и испр., – М., 2002. – С.70.

jabrlanuvchiga yuboriladi. Qaror asosida jabrlanuvchiga yetkazilgan zarar davlat tomonidan kompensasiya qilib, qoplanadi²⁹⁴. Shvesiya qonunchiligida taqiqlangan ijtimoiy xavfli qilmish qurboni **“jinoyat qurboni” (brottsoffer)**²⁹⁵, deb ta’riflanadi va davlat tomonidan ijtimoiy, tibbiy va ruhiy yordam olish huquqi hamda jinoyat natijasida yetkazilgan zararni davlat tomonidan qoplab berish kafolati²⁹⁶ yaratilgan davlatlar sirasida yetakchilardandir. Jinoyat qurbonlarining huquq va erkinliklari **“Jinoyat natijasida yetkazilgan zararni qoplash(kompensasiya) Fondi”**²⁹⁷ to’g’risidagi qonunida yoritilgan. Shvesiyada 1978 yilda **“Jinoyat qurbonlariga yordam beruvchi Agentligi”** tashkil etilgan bo’lib, jabrlanuvchilarga nafaqat jinoyat natijasida yetkazilgan zararni qoplashda, balki jinoyat prosessining barcha bosqichlarida vujudga kelgan muammolarni hal etishda yordamlashadi hamda jinoyatdan oldingi holatini tiklash masalasida reabilitatsiya markazlarida davolanishi bilan birga, jamiyatga moslashishiga ko’maklashadi²⁹⁸. 1980–2000 yillarda yuzdan ortiq jinoyat qurbonlariga yordam beruvchi tashkilotlar vujudga keldi²⁹⁹. 1988 yildan buyon **“Jinoyat qurbonlari”** nomli jurnal nashr qilinmoqda va unda jinoyat jarayonida vujudga kelayotgan muammo, ularning yechimlari to’g’risidagi maqolalar chop etiladi.

Stokgolm universitetining professori H.Thamning tadqiqotlari natijasida Shvesiya qonunchiligi 1978–2009 yillar davomida jinoyat qurbonlarining huquq va manfaatlarini himoya qiluvchi 29 ta qonun qabul qilinganligini tahlil qilgan. Ayrim rivojlangan davlat prosessualist olimlari jabrlanuvchilarning huquq va manfaatlarini muhofaza qilish uchun davlatda Kodeks qabul qilinishini tasdiqlashgan. Masalan, M.A.Musayev o’zining tadqiqot ishida **“Jinoyat qurbonlari huquqlarini ijtimoiy himoyalash to’g’risida”** kodeks yaratishni, ushbu kodeksda jinoyat prosessida

²⁹⁴ Андурусенко С.П. Уголовно-правовая защита жертв преступлений по законодательству Швеции XX-XXI вв. (Историко-правовой анализ) // Журнал зарубежного законодательства и сравнительного правоведения. 2016., – №6. – С.126-134.

²⁹⁵ Osterberg E. Fran part I mallet till brottsoffer – Det moderna sallets framvax. In Brottsoffer I Forskningen. Umea, Sweden, 2007. – P.43.

²⁹⁶ Lindren M., Pettersson K-A., Haggiund B. Op.cit. 2014. – P.25.

²⁹⁷ URL: <http://www.government.se/sb/d/584> (мурожаат этилган вақт 07.12.2019).

²⁹⁸ Tham H., Ronneling A., Rytterbro L.L. Op. cit. – P.556.

²⁹⁹ Jostitiedepartementet, Sexuella övergrepp (Report of the commission on sexual crimes). Betänkande avgivet av Sexualbrottsutredningen. SOU. Stockholm, 2008. – P.59.

jabrlanuvchilarning huquq va manfaatlarini muhofaza, himoya qilish va huquqlarini ta'minlash tizimini tartibga soluvchi normalar qamrab olinishi lozimligini taklif qilgan³⁰⁰.

Shvesiyada davlat tomonidan zarar ish batafsil o'rganilib, jinoyat qurboni bo'lishiga olib kelgan sharoit aniqlanib, shaxsning jinoyat sodir etishga undovchi qilgan harakatlari psixotrop yoki alkogol mahsulotlari ta'sirida bo'lgan bo'lsa, (ushbu moddalar ta'siridagi shaxs kriminologik muhitni yaratishga moyil hisoblanadi³⁰¹) jinoyat qurbonining xulq-atvori, yashash tarzi inobatga olingan holda kompensasiya miqdori belgilanadi.

Latviya Respublikasi jinoyat-prosessual huquqi zamonaviy kontinental huquq an'alariga asoslangan holda, jinoyatdan jabr ko'rgan shaxsning huquqlari, qonuniy manfaatlar va prosessual maqomini ta'minlashni jinoyat sudlovining muhim vazifalaridan biri sifatida belgilaydi. Jinoyat prosessida jabrlanuvchining manfaatlarini muhofaza qilish nafaqat jinoyatni fosh etish va aybdorni jazolash, balki yetkazilgan moddiy, ma'naviy va jismoniy zararni qoplash orqali adolatni tiklashga qaratilgan kompleks huquqiy institut sifatida namoyon bo'ladi.

Latviya Jinoyat-prosessual qonuniga muvofiq, jabrlanuvchi jinoyat natijasida ma'naviy, jismoniy yoki mulkiy zarar ko'rgan shaxs sifatida e'tirof etiladi va u mustaqil prosessual maqomga ega ishtirokchi hisoblanadi³⁰². Jabrlanuvchining prosessual maqomini qonun darajasida aniq belgilash uning jinoyat prosessida faol ishtirok etishi, o'z manfaatlarini himoya qilishi va zararining qoplanishiga erishishi uchun huquqiy asos yaratadi. Bu holat romano-german huquq tizimida jabrlanuvchini faqat dalil manbai sifatida emas, balki huquq va manfaatlarini muhofaza qilinadigan shaxs sifatida e'tirof etish tendensiyasini aks ettiradi.

Latviya jinoyat prosessida jabrlanuvchining huquqlari keng doirada belgilangan bo'lib, ularga jinoyat ishi materiallari bilan tanishish, dalillar taqdim etish, iltimosnomalar kiritish, prosessual qarorlar ustidan shikoyat qilish hamda sud

³⁰⁰ *Мусаев М.А.* Защита жертв преступлений: автореф...дисс.док-ра юрид.наук. – М. 2011., – 8 с.

³⁰¹ *Herber A.* Good versus Evil? Victims, offenders and victim-offenders in Swedish Crime Policy Bills // *The European Journal of Criminology*. 2014. №.11 (4). – P.152.

³⁰² Criminal Procedure Law of the Republic of Latvia. <https://www.at.gov.lv/files/uploads/files>

muhokamasida ishtirok etish huquqlari kiradi³⁰³. Ayniqsa, jabrlanuvchining o'z manfaatlarini himoya qilishda va zararni qoplashga qaratilgan talablarni ilgari surishda advokat yordamidan foydalanish huquqi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa jinoyat prosessida taraflar tengligi va adolatli sudlov tamoyillarining amaliy ifodasi hisoblanadi.

Yetkazilgan zararni qoplash masalasi Latviya jinoyat prosessida alohida huquqiy institut sifatida shakllangan. Jabrlanuvchi jinoyat ishi doirasida fuqaroviy da'vo qo'zg'atish huquqiga ega bo'lib, ushbu da'vo orqali u moddiy va ma'naviy zararni qoplashni talab qilishi mumkin³⁰⁴. Fuqaroviy da'voni jinoyat prosessi doirasida ko'rib chiqish jabrlanuvchi uchun prosessual iqtisodiy ahvolini ta'minlaydi, ya'ni u alohida fuqarolik sudloviga murojaat qilmasdan, o'z huquqlarini tiklash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bundan tashqari, Latviya qonunchiligida davlat tomonidan kompensasiya to'lash mexanizmi ham nazarda tutilgan. Ayniqsa, og'ir va zo'ravonlik jinoyatlari qurbonlari uchun davlat kompensasiyasi instituti joriy etilgan bo'lib, u aybdor shaxsdan zarar undirish imkoni mavjud bo'lmagan hollarda jabrlanuvchining ijtimoiy himoyasini ta'minlashga qaratilgan³⁰⁵. Mazkur institut jabrlanuvchi manfaatlarini muhofaza qilishda davlatning faol rolini ko'rsatadi va jinoyat qurbonlarini himoya qilish bo'yicha Yevropa standartlariga mos keladi.

Latviya Respublikasining Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lishi jabrlanuvchi huquqlarini muhofaza qilish sohasida milliy jinoyat-prosessual qonunchilikni takomillashtirishga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Xususan, Yevropa Ittifoqining jinoyat qurbonlarining huquqlari, qo'llab-quvvatlanishi va himoyasi to'g'risidagi direktivalari milliy qonunchilikka implementasiya qilinib, jabrlanuvchilarga axborot berish, xavfsizlikni ta'minlash va psixologik yordam ko'rsatish kabi kafolatlar

³⁰³ Ashworth A. *The Criminal Process*. Oxford University Press, 2015. <https://books.google.com/books/about>

³⁰⁴ Van Dijk J. *Victims of Crime: Rights and Protection*. Springer, 2009. <https://link.springer.com/content/pdf/10.1007/978-3-319-64589-6.pdf>

³⁰⁵ Council of Europe. *Compensation for Victims of Violent Crimes*. Strasbourg, 2008. <https://rm.coe.int/1680079751>

mustahkamlangan³⁰⁶. Bu esa jinoyat prosessida jabrlanuvchining rolini kuchaytirishga va uning manfaatlarini kompleks muhofaza qilishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Latviya Respublikasi jinoyat prosessida jabrlanuvchining manfaatlarini muhofaza qilish va yetkazilgan zararni qoplash huquqiy jihatdan tizimli va ko'p bosqichli mexanizm orqali ta'minlanadi. Jabrlanuvchining mustaqil prosessual maqomi, fuqaroviy da'vo instituti, davlat kompensasiyasi mexanizmi hamda Yevropa Ittifoqi standartlarining implementasiya qilinishi Latviya jinoyat-prosessual huquqini jabrlanuvchiga yo'naltirilgan zamonaviy huquqiy tizim sifatida tavsiflash imkonini beradi. Ushbu tajriba qiyosiy-huquqiy tahlil nuqtai nazaridan O'zbekiston va boshqa davlatlar jinoyat-prosessual qonunchiligini takomillashtirishda nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Latviya jinoyat qonunida jinoiy qilmish sodir etgan shaxs "jabrlanuvchi bilan kelishuvga erishsa" jinoiy javobgarlikdan ozod etilishi mumkinligi ta'kidlanib, mazkur asos voyaga yetmaganlarga nisbatan jinoyat sodir etilishi holatlariga tatbiq etilmasligi alohida ko'rsatib o'tilgan. Ko'rinib turibdiki, jinoyat qonunchiligining isloh qila turib latviyalik qonunshunos mazkur vaziyatda jabrlanuvchining vakillari bilan yarashish mumkinligi kabi umumevropa tendensiyasini to'liq qabul qilmagan. Biroq 2013 yil 9 oktabrdan jabrlanuvchilarning psixologik qo'llab-quvvatlaydigan "Skalbes Assosiasiyasi" tashkil etilib, faoliyat yurita boshladi. U kunning istalgan vaqtida butun Yevropa bo'ylab jinoyat jabrlanuvchilariga bepul psixoterapevtik xizmatlar ko'rsatadi.

Ispaniya Qirolligi jinoyat prosessida jabrlanuvchining huquq va qonuniy manfaatlarini muhofaza qilish masalasi adolatli sudlovni ta'minlashning muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Ispaniya huquq tizimida jabrlanuvchi (*la víctima*) yoki jabr ko'rgan shaxs (*perjudicado*) jinoyat prosessida faol ishtirok etuvchi subyekt sifatida e'tirof etiladi va u faqat dalil manbai emas, balki mustaqil huquq va manfaatlarga ega shaxs hisoblanadi.

³⁰⁶ Directive 2012/29/EU of the European Parliament and of the Council establishing minimum standards on the rights, support and protection of victims of crime. <https://eur-lex.europa.eu/eli/dir/2012/29/oj/eng>

Ispaniya Konstitusiyasining 24-moddasida har bir shaxsning samarali sud himoyasiga bo'lgan huquqi mustahkamlangan bo'lib, ushbu qoida jabrlanuvchilarga nisbatan ham to'liq tatbiq etiladi³⁰⁷. Mazkur konstitusiyaviy kafolat jinoyat prosessida jabrlanuvchining huquqiy maqomini belgilash va uning manfaatlarini himoya qilish uchun asosiy huquqiy poydevor hisoblanadi.

Ispaniya jinoyat prosessual qonun 1882 yilda qabul qilingan Jinoyat-prosessual qonun (Ley de Enjuiciamiento Criminal) bilan tartibga solinadi. Ushbu qonunda jabrlanuvchiga prosessual ishtirokchi sifatida bir qator muhim huquqlar berilgan. Xususan, jabrlanuvchi jinoyat ishini qo'zg'atish tashabbusi bilan chiqish, tergov harakatlarida ishtirok etish, dalillar taqdim etish, iltimosnomalar kiritish va prosessual qarorlar ustidan shikoyat qilish huquqiga ega³⁰⁸.

Ispaniya jinoyat prosessida jabrlanuvchining manfaatlarini muhofaza qilishda "xususiy ayblov" instituti alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu institutga muvofiq, jabrlanuvchi davlat ayblovchisidan mustaqil ravishda ayblovni qo'llab-quvvatlash huquqiga ega bo'ladi. Bu holat jabrlanuvchiga jinoyat ishining taqdiriga faol ta'sir ko'rsatish, ayblovning to'liq va xolis olib borilishini ta'minlash imkonini beradi³⁰⁹. Mazkur mexanizm anglo-sakson huquq tizimidan farqli o'laroq, kontinental huquqda jabrlanuvchining rolini kuchaytirishga qaratilgan o'ziga xos institut sifatida baholanadi.

Yetkazilgan zararni qoplash masalasi Ispaniya jinoyat prosessida markaziy o'rin tutadi. Jabrlanuvchi jinoyat ishi doirasida fuqaroviy da'vo qo'zg'atish huquqiga ega bo'lib, u orqali moddiy va ma'naviy zararni undirishga erishishi mumkin³¹⁰. Ispaniya qonunchiligida jinoyat natijasida yetkazilgan zararni qoplash jinoiy javobgarlikning ajralmas qismi sifatida qaraladi, bu esa jabrlanuvchi manfaatlarining ustuvorligini ko'rsatadi.

³⁰⁷ Constitución Española de 1978, art. 24. <https://app.congreso.es/consti/constitucion/indice/titulos>

³⁰⁸ Ley de Enjuiciamiento Criminal (1882). <https://www.boe.es/buscar/act.php?id=BOE-A-1882-6036>

³⁰⁹ Roxin C. *Strafverfahrensrecht*. München, 2012. <https://www.beck-elibrary.de/de/document/view/detail/uuid>

³¹⁰ Mir Puig S. *Derecho Penal. Parte General*. Barcelona, 2018. <https://www.dykinson.com/libros/derecho-penal-parte-general/9788460815822>

Bundan tashqari, Ispaniyada jinoyat qurbonlarini himoya qilishga qaratilgan maxsus qonun “Jinoyat qurbonlari to‘g‘risidagi umumiy qonun” (Ley 4/2015, del Estatuto de la Víctima del Delito) qabul qilingan. Ushbu qonun jabrlanuvchilarga axborot olish, psixologik yordam, xavfsizlikni ta‘minlash, ikkinchi marta jabrlanishdan himoyalaniş kabi kafolatlarni belgilaydi³¹¹. Mazkur qonun Yevropa Ittifoqining 2012/29/EU Direktivasi talablariga muvofiq ishlab chiqilgan bo‘lib, Ispaniya jinoyat prosessida jabrlanuvchiga yo‘naltirilgan yondashuvni yanada mustahkamladi. Bugungi kunda Ispaniya Qirolligi jinoyat prosessida jabrlanuvchiga yetkazilgan zararni qoplash masalasi adolatli sudlovning muhim elementi sifatida qaraladi va u jabrlanuvchining huquq va qonuniy manfaatlarini real tiklashga qaratilgan kompleks huquqiy mexanizmlar orqali ta‘minlanadi. Ispaniya huquq tizimida zararni qoplash nafaqat jinoiy javobgarlikning oqibati, balki jinoyat natijasida buzilgan ijtimoiy adolatni tiklash vositasi sifatida ham e‘tirof etiladi.

Ispaniya jinoyat-prosessual qonunchiligiga muvofiq, jabrlanuvchi jinoyat ishi doirasida yetkazilgan zararni qoplashni talab qilish huquqiga ega. Bu, avvalo, jinoyat prosessida fuqaroviy javobgarlik instituti orqali amalga oshiriladi. Jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan paytdan boshlab jabrlanuvchi ayblanuvchiga nisbatan moddiy va ma‘naviy zararni qoplash to‘g‘risida fuqaroviy da‘vo bildirishi mumkin³¹². Mazkur da‘vo jinoyat sudi tomonidan aybdorlik masalasi bilan bir vaqtda ko‘rib chiqilib, sud hukmida zararning miqdori va uni undirish tartibi belgilanadi.

Ispaniya qonunchiligida jinoyat natijasida yetkazilgan zararning qoplanishi, odatda, aybdor shaxs zimmasiga yuklatiladi. Sud aybdorni javobgar deb topgan taqdirda, u jabrlanuvchiga yetkazilgan mulkiy zararni, davolanish va reabilitasiya bilan bog‘liq xarajatlarni, yo‘qotilgan daromadni hamda ma‘naviy zararni qoplash majburiyatini yuklaydi³¹³. Bu holat Ispaniya jinoyat huquqida jabrlanuvchining manfaatlarini jinoiy javobgarlikning ajralmas qismi sifatida qarash tendensiyasini namoyon etadi.

³¹¹ Ley 4/2015, del Estatuto de la Víctima del Delito. <https://www.boe.es/buscar/act.php?id=BOE-A-2015-4606>

³¹² Ley de Enjuiciamiento Criminal (1882). <https://www.boe.es/buscar/act.php/1882-6036>

³¹³ Código Penal de España, arts. 109–116. <https://www.boe.es/buscar/act.php/1995-25444>

Shu bilan birga, amaliyotda aybdor shaxsning to'lov qobiliyati mavjud bo'lmagan hollar ham uchraydi. Bunday vaziyatlarda jabrlanuvchining manfaatlarini ta'minlash maqsadida Ispaniyada davlat tomonidan kompensasiya berish mexanizmi joriy etilgan. Xususan, og'ir zo'ravonlik jinoyatlari, jinsiy jinoyatlar va terrorchilik bilan bog'liq jinoyatlar qurbonlari uchun maxsus davlat yordami tizimi amal qiladi³¹⁴. Davlat kompensasiyasi aybdor shaxsdan zarar undirish imkoniyati bo'lmagan yoki jinoyat ishi tugallanmagan hollarda ham jabrlanuvchini minimal ijtimoiy himoya bilan ta'minlashga qaratilgan.

Davlat kompensasiyasi tizimi Ispaniyada jabrlanuvchilarni himoya qilish to'g'risidagi maxsus qonunlar orqali tartibga solinadi. Xususan, "Jinoyat qurbonlari to'g'risidagi umumiy qonun" jabrlanuvchining davlatdan kompensasiya olish, ijtimoiy, psixologik va huquqiy yordam ko'rsatilishini talab qilish huquqini mustahkamlaydi³¹⁵. Mazkur qonun Yevropa Ittifoqining jabrlanuvchilar huquqlarini ta'minlashga qaratilgan direktivalariga muvofiq qabul qilingan bo'lib, Ispaniya jinoyat prosessida jabrlanuvchiga yo'naltirilgan yondashuvni institusional darajada mustahkamladi.

Zararni qoplash amaliyotida jabrlanuvchilarga amaliy yordam ko'rsatish maqsadida Ispaniyada jinoyat qurbonlariga yordam ko'rsatuvchi maxsus idoralar Jinoyat qurbonlariga yordam ofislari faoliyat yuritadi. Ushbu idoralar jabrlanuvchilarga kompensasiya talab qilish tartibi, ariza berish, dalillar tayyorlash va sud qarorlarini ijro etish masalalarida huquqiy va tashkiliy ko'mak ko'rsatadi³¹⁶. Bu esa zararni qoplash mexanizmining faqat normativ emas, balki amaliy samaradorligini ham oshirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, ilmiy tadqiqotlarda qayd etilishicha, Ispaniyada zararni qoplash mexanizmi mavjud bo'lishiga qaramay, amaliyotda qator muammolar

³¹⁴ Council of Europe. *Compensation for Victims of Violent Crimes*. Strasbourg, 2008. <https://www.coe.int/web/conventions/full-module=signatures-by-treaty&treatynum>

³¹⁵ https://commission.europa.eu/strategy-and-policy/policies/justice-and-fundamental-rights/criminal-justice/protecting-victims-rights/eu-strategy-victims-rights-2020-2025_e

³¹⁶ European Commission. *Victims of Crime in the EU*. Brussels, 2020 https://commission.europa.eu/strategy-and-policy/policies/justice-and-fundamental-rights/criminal-justice/protecting-victims-rights/eu-strategy-victims-rights-2020-2025_en

saqlanib qolmoqda. Xususan, davlat kompensasiyasi olish jarayonining murakkabligi, byurokratik to'siqlar va to'lov miqdorining cheklanganligi jabrlanuvchilarning to'liq qanoatlanishiga to'sqinlik qilishi mumkin³¹⁷. Bu esa Ispaniya jinoyat prosessida jabrlanuvchi manfaatlarini muhofaza qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish zaruratini ko'rsatadi.

Ayniqsa, zo'ravonlik, jinsiy jinoyatlar va oilaviy zo'ravonlik ishlarida jabrlanuvchining shaxsiy daxlsizligi va xavfsizligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan. Sud tomonidan himoya orderlari, ayblanuvchi bilan aloqani cheklash, masofaviy ko'rsatmalar berish imkoniyati kabi prosessual choralar qo'llaniladi³¹⁸. Bu choralar jabrlanuvchining psixologik holatini saqlash va jinoyat prosessida samarali ishtirok etishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ispaniya jinoyat qonunida esa jabrlanuvchi tomonidan aybdorni kechirilishi kabi jinoiy javobgarlikni tugatilishining noyob asosi mavjud.

Bunday "kechirishning" talablari quyidagilar: kechirish tushunarli shaklda aniq bayon etilishi; jazoni ijro etilishi boshlangunga qadar bildirilishi shart. Bundan tashqari, voyaga yetmagan yoki muomalaga layoqatsiz shaxslarga nisbatan jinoyat (masalan, tuhmat yoki haqorat qilish) sodir etilgan bo'lsa, "kechirish" huquqi nafaqat jabrlanuvchining o'zi, balki uning qonuniy vakili (vasiysi)ga ham tegishli bo'ladi.

Xorijiy davlatlar zamonaviy jinoyat huquqi manbalarining tahlili, jabrlanuvchining huquq va manfaatlarini muhofaza qilishda u bilan yarashish, javobgarlikdan ozod qilish institutini izchil rivojlanishining asosi hisoblanadi va qonunchiligimizga ham jabrlanuvchilarning huquq va manfaatlarini ta'minlashni yanada kuchaytirish bilan bog'liq bo'lgan shunga o'xshash normalarning kiritilishi maqsadga muvofiqdir, degan xulosaga kelish imkonini beradi.

Ispaniyada jabrlanuvchi jinoyat ishi bo'yicha mustaqil ravishda da'vo arizasi berish, to'liq taraf sifatida ishtirok etish va sudga dalillar taqdim etish huquqiga ega.

³¹⁷ Van Dijk J. *Victims of Crime and Abuse of Power*. United Nations, 2010. https://www.unodc.org/pdf/criminal_justice/UNODC_Guide_for_Policy_Makers_Victims_of_Crime_and_Abuse_of_Power.pdf

³¹⁸ Directive 2012/29/EU of the European Parliament and of the Council. <https://eur-lex.europa.eu/eli/dir/2012/29/oj>

2015 yilda qabul qilingan “Jinoyat qurbonlarni himoya qilish to‘g‘risidagi organik qonun” orqali jabrlanuvchilarning huquqiy maqomi yanada mustahkamlandi³¹⁹.

Italiyada jinoyat-prosessual kodeksi jabrlanuvchi (parte offesa) va fuqarolik da’vogari (parte civile) o‘rtasidagi farqni belgilab beradi. Bu tizimda jabrlanuvchi o‘zini moddiy va ma’naviy zarar ko‘rgan shaxs sifatida tanitib, aybdor shaxsdan to‘g‘ridan-to‘g‘ri kompensatsiya talab qilish imkoniga ega bo‘ladi³²⁰.

Ispaniya jinoyat prosessida jabrlanuvchining huquq va manfaatlari konstitusiyaviy kafolatlar, prosessual institutlar va maxsus qonunlar orqali kompleks ravishda muhofaza qilingan. Jabrlanuvchining ayblovni qo‘llab-quvvatlashda ishtirok etishi, zararni qoplash huquqi hamda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari Ispaniya jinoyat-prosessual huquqini jabrlanuvchiga yo‘naltirilgan zamonaviy model sifatida tavsiflash imkonini beradi. Ushbu tajriba qiyosiy-huquqiy tahlil nuqtai nazaridan O‘zbekiston jinoyat-prosessual qonunchiligini takomillashtirishda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, Ispaniyada bugungi kunda jabrlanuvchiga yetkazilgan zararni qoplash jinoyat prosessi doirasida fuqaroviy da’vo orqali, aybdor shaxs zimmasiga yuklatilgan javobgarlik asosida, shuningdek, davlat tomonidan kompensasiya berish mexanizmlari orqali amalga oshiriladi. Ushbu tizim jabrlanuvchining huquq va manfaatlarini tiklashga qaratilgan kompleks model sifatida baholanishi mumkin bo‘lib, qiyosiy-huquqiy nuqtai nazardan O‘zbekiston jinoyat-prosessual qonunchiligini rivojlantirishda muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Umuman olganda, kontinental huquq oilasiga mansub mamlakatlarda jabrlanuvchining huquqiy maqomi faqat prosessual ishtirokchi sifatida emas, balki jinoyat oqibatlarini bartaraf etishda faol subyekt sifatida qoraladi. Davlat tomonidan huquqiy, psixologik va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining joriy etilishi mazkur mamlakatlar huquqiy siyosatining insonparvarlikka va jamiyatda adolatni tiklashga qaratilganini ko‘rsatadi.

³¹⁹ Ley Orgánica 4/2015, de 27 de abril, del Estatuto de la víctima del delito. Boletín Oficial del Estado, España. Retrieved from: <https://www.boe.es>

³²⁰ Codice di Procedura Penale Italiano, artt. 74–85. Retrieved from: <https://www.normattiva.it>

Fikrimizcha, *kontinental huquq oilasiga mansub davlatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, jabrlanuvchining huquqiy maqomini mustahkamlash, uning manfaatlarini ta'minlash va jarayonda faol ishtirokini kafolatlash demokratik huquqiy davlat qurishda muhim omil hisoblanadi.*

O'zbekiston Respublikasining jinoyat-prosessual qonunchiligida mazkur davlatlar tajribasiga tayangan holda:

- jabrlanuvchining huquqlarini to'liq va aniq ifodalash,*
- axborotga ega bo'lish, himoya qilish va kompensatsiya olish kabi kafolatlarni mustahkamlash,*
- hamda insonparvar, adolatparvar huquqiy yondashuvni amalda joriy etish dolzarb hisoblanadi.*

Albatta dunyodagi yuqorida nomi tilga olingan huquq oilalari tizimlanishidan kelib chiqqan holda xorij mamlakatlarida sudga qadar ish yurituvda jabrlanuvchilarning huquq va manfaatlarini muhofazasini tahlil qilish mumkin. Lekin biz tahlilni bugungi kunda dunyoda rivojlangan deb tan olingan g'arb mamlakatlarining, bizga o'zining milliy, huquqiy va etnografik jihatlari bo'yicha yaqin bo'lgan Osiyo davlatlari va sobiq ittifoq tarkibida bo'lgan aynan mamlakatimiz kabi o'zining mustaqil huquq tizimini shakllantirish va takomillashtirish yuzasidan islohotlarni amalga oshirayotgan ba'zi MDH davlatlarining tajribasini o'rganish nuqtai nazaridan amalga oshirish maqsadga muvofiq, deb hisobladik.

Jinoyat prosessida jabrlanuvchining huquq va manfaatlarini muhofaza qilish masalasi har bir davlatning huquqiy tizimida muhim ahamiyatga ega. Osiyo mamlakatlari misolida bu masalaga yondashuvlar turlichadir, chunki ularning huquqiy tizimlari, madaniyatlari va an'analari bir-biridan farq qiladi³²¹.

Jabrlanuvchining huquqiy maqomi Kontinental mamlakatlarda jabrlanuvchiga rasmiy huquqiy maqom berish jinoyat prosessining muhim qismi hisoblanadi. Uning maqomi jabrlanuvchiga jinoyat prosessida faol qatnashish imkoniyatini beradi. Aksariyat Osiyo mamlakatlarida jabrlanuvchiga huquqiy maslahat berish va uning

³²¹ Hiroshi Fukurai, *People's Participation in Criminal Trials in Asia*, Asian Journal of Criminology, Vol. 7, 2012.

manfaatlarini himoya qilish uchun advokat yoki davlat tomonidan tayinlangan himoyachi jalb qilinadi. Jabrlanuvchining huquq va manfaatlari muhofazasi jabrlanuvchiga ishning har bir bosqichida ma'lumot berish majburiyati, jumladan, tergov, sud jarayoni va hukm chiqarilishi jarayonidan boxabar qilinadi, Masalan, Yaponiyada jabrlanuvchilarga jinoyat prosessning bosqichlari haqida xabardor qilish huquqi va uning roziligi, ularning sud majlislarida ishtirok etishi, guvohlik berish va o'z manfaatlarini himoya qilish uchun sudga murojaat qilish huquqi mavjud.

Ba'zi Osiyo mamlakatlarida, jumladan, Janubiy Koreya va Filippinda jabrlanuvchilarga bu huquq cheklangan yoki qonun bilan aniq belgilanmagan³²². Ushbu davlatlarda jabrlanuvchilarni muhofaza qilishning amaliy mexanizmlari mavjud bo'lib jabrlanuvchilarga tahdid solingan hollarda, ularni himoya qilish uchun maxsus choralar qo'llanilishi mumkin. Masalan, Xitoyda jabrlanuvchilarni himoya qilish uchun maxsus vakolatli shaxslar yoki advokat orqali huquqlarini himoya qilish belgilangan³²³. 2018-2023 yillarda Xitoy JPKga jabrlanuvchining huquqlari va qonuniy kafolatlarini yaxshilashga qaratilgan bir qator o'zgartishlar kiritilgan. Ko'plab G'arb davlatlaridan farqli ravishda, Xitoyda jabrlanuvchi jinoyat prosessida ishtirok etishni xohlamasa, unga majburlov choralari ishlatilmaydi. Uning ishtiroki ixtiyoriy asosda, lekin himoya qilish imkoniyatlari keng³²⁴. Jabrlanuvchilarga jinoyat prosessida psixologik yordam ko'rsatish Yaponiya va Singapur kabi mamlakatlarda jabrlanuvchilarga psixologik maslahat berishdan tortib ularni qayta jamiyatga ijtimoiylashtirish choralari keng qo'llaniladi.

Jabrlanuvchilar huquqlarini himoya qilish bo'yicha BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan qabul qilingan normalarni amalda qo'llash maqsadida jumladan, Bangladesh va Indoneziyada xalqaro konvensiyalar talablariga muvofiq,

³²² Halliday, T. C., & Liu, S. (2017). *Criminal Justice in China: An Empirical Inquiry*. Cambridge University Press.

³²³ 中华人民共和国刑事诉讼法// Хитой Халқ Республикасининг Жиноят-процессуал кодекси Хитой Халқ Республикасининг Жиноят-процессуал кодекси (中华人民共和国刑事诉讼法). Электрон манба: [мурожаат этилган вақт: 20.02.2025.] https://www.gov.cn/flfg/2012-03/17/content_2094354.htm

³²⁴ Haomin Lu –“Study on the Protection of Victims in Criminal Recovery of Reparations” (2023)// *International Journal of Frontiers in Sociology*, 2023, 5(16); doi: 10.25236/IJFS.2023.051623.// Электрон манба: [мурожаат этилган вақт: 20.02.2025.] <https://francispress.com/papers/14381>

milliy qonunchiligini takomillashtirishgan ya'ni **milliy qonunchilikni** xalqaro standartlarga moslashtirilgan³²⁵.

Fikrimizcha, jinoyat proessida jabrlanuvchining huquq va manfaatlarini himoya qilish har bir jinoyat proessining muhim qismi bo'lib, uni ta'minlash uchun huquqiy, psixologik va amaliy mexanizmlar ishlab chiqilishi lozim. Osiyo mamlakatlari misolida jabrlanuvchilarning huquqlarini himoya qilish sohasida xalqaro tajribadan foydalanish va milliy qonunchilikni takomillashtirish muhim ahamiyatga ega

Jabrlanuvchilarni jinoyat sodir etgan shaxslarning reabilitatsiya jarayoniga integratsiya qilishga urinishlar doirasida ko'plab olimlar³²⁶ va advokatlar va bir yuridik oliy ta'lim muassasalari restorativ adolat g'oyasini qo'llab-quvvatlamoda³²⁷.

Restorativ adolat bu jinoyat sodir etilganidan keyin jamiyat, jabrlanuvchi va jinoyatni sodir etgan shaxs o'rtasida adolatni tiklashga qaratilgan yondashuv bo'lib, u klassik jazoga asoslangan sistemadan farqli ravishda, zararni bartaraf etish, uzr so'rash, kelishuv va yarashuv, tranzaksiya orqali adolatni ta'minlashni maqsad qiladi. Yaponiya, Kanada, Niderlandiya kabi mamlakatlarda yuridik tizim sifatida joriy etilgan

Restorativ adolat jinoyat oqibatida yetkazilgan zararni bartaraf etish, jabrlanuvchi va jinoyatni sodir etgan shaxs o'rtasida o'zaro muloqot orqali yarashuvni ta'minlash va jamiyatdagi munosabatlarni tiklashga qaratilgandir³²⁸.

Restorativ adolatning asosiy tamoyillari quyidagilar³²⁹:

1. jabrlanuvchining manfaatlarini birinchi o'rinda turadi;

³²⁵ Доклад Рабочей группы по универсальному периодическому обзору Бангладеш// GE.13-15522 (R 130813 150813 //file:///C:/Users/user/Downloads/CCPR_C_138_D_2342_2014-RU%20(1).pdf

³²⁶ Anderson, K., & Ambler, L. (2006). The Slow Birth of Japan's Law of Evidence and the Problem of False Confessions. Columbia Journal of Asian Law. <https://researchportalplus.anu.edu.au/en/publications/the-slow-birth-of-japans-quasi-jury-system-saiban-in-seido-interi>

³²⁷ With U.S. State Department DRL Bureau grant funding <https://regionaldialogue.org/article/rd-has-offered-a-new-restorative-justice-seminar-now-for-nearly-three-years-at-the-tsul>

³²⁸ Василенко А.С. Медиация и другие программы восстановительного правосудия в уголовном процессе стран англосаксонского права// тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 12.00.09// автореферат. <https://www.dissercat.com/content/mediatsiya-i-drugie-programmy-vosstanovitel'nogo-pravosudiya-v-ugolovnom-protssesse-stran-angl>

³²⁹ Daniel W. Van Ness & Karen Heetderks Strong "Restoring Justice: An Introduction to Restorative Justice"// <https://www.amazon.com/Restoring-Justice-Fifth-Introduction-Restorative/dp/1455731390>

2. ayblanuvchi javobgarlikni qabul qilishi va zararni qoplashi lozim;
3. yarashuv va kechirim orqali jamiyatga integratsiyalashuv
4. jamoat birlashmalari va jamoalarning faol ishtirok etishi

Restorativ adolat aksariyat xolatlarda yo‘l-transport hodisalari, yoshlar o‘rtasida sodir etiladigan jinoyatlarda, maishiy zo‘ravonlik va boshqa ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan va uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatlarda qo‘llaniladi.

Fikrimizcha, O‘zbekistonda jinoiy- huquqiy siyosat isloh qilinib, inson huquqlari, adolat va insonparvarlik tamoyillariga asoslangan yangi yondashuvlar shakllanmoqda. Bu jarayonda jinoyat - prosessual huquq nazariyasi ham ilmiy va amaliy jihatdan takomillashtirilishi zarur. Shu nuqtai nazardan, restorativ adolat tushunchasining milliy huquq tizimiga tadbiq etilishi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Restorativ adolat an‘anaviy jazoga qaratilgan repressiv (repressiv) yondashuvdan farqli o‘laroq, jinoyat natijasida jabrlanuvchi, jinoyatchi va jamiyat o‘rtasida yuzaga kelgan zarar va munosabatlarni tiklashni maqsad qiladi. Bu yondashuvda jabrlanuvchi shaxs faqatgina dalil manbai emas, balki uning ehtiyojlari, huquqlari va ruhiy holati inobatga olinadi. Shu bilan birga, jinoyat sodir etgan shaxsga ham o‘z qilmishining oqibatlarini anglash, javobgarlikni his qilish va isloh etilish imkoniyati yaratiladi.

O‘zbekistonda restorativ adolat elementlari ayrim qonun hujjatlarida, jumladan, Jinoyat-prosessual kodeksida va Yangi tahrirdagi Jinoyat kodeksi loyihasida ayrim tarzda aks etgan. Masalan, yarashtirish instituti, yarashtiruvchi vositachilar (mediatorlar) ishtiroki, o‘z o‘rnida ayrim turdagi jinoyatlar bo‘yicha jinoyat ishini tugatish imkoniyati — bularning barchasi restorativ adolat mexanizmlarining boshlang‘ich ko‘rinishlaridir.

Shu bilan birga, mavjud tartibotlarda bu tushunchaning nazariy-amaliy asoslari to‘liq ishlab chiqilmagan. Restorativ adolatning tamoyillari, qoidalari va proseduralarini milliy jinoyat prosessual huquq tizimiga to‘liq integratsiya qilish zarur. Buning uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

Restorativ adolatning huquqiy asoslarini belgilash: JPK va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga maxsus moddalarni kiritish orqali uning maqsadi, subyektlari, vositalari va jarayonlarini aniq belgilash;

Mediatorlik institutini rivojlantirish: mustaqil, tayyorlangan va etik meyorlarga rioya qiluvchi vositachilar korpusini shakllantirish;

Jabrlanuvchining huquqiy maqomini mustahkamlash: uning huquq va manfaatlarini muhofaza qilishda vakolatlari, axborot olish, kompensatsiya, sud muzokaralarida ishtirok etish kabi huquqlari kafolatlanishi lozim.

Shunday qilib, O‘zbekistonda restorativ adolat tushunchasini jinoyat prosessual huquq nazariyasiga tadbiq etish nafaqat inson huquqlarini kafolatlash, balki jinoyatchilikningoldini olish, ijtimoiy adolatni tiklash, jabrlanuvchilarning ruhiy barqarorligini ta’minlashda ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

2-§. Yaponiya qonunchiligida jabrlanuvchining manfaatlari muhofaza qilinishi

Yaponiya davlatining jabrlanuvchining huquq va manfaatlarini muhofaza qilish borasidagi tajribasi xalqaro miqyosda yuqori baholanadi. Yaponiya jinoyat - prosessual qonunchiligiga muvofiq, “jabrlanuvchi”³³⁰ – jinoyat natijasida jismoniy yoki moddiy zarar ko‘rgan yoki boshqa huquqiy manfaatlariga tajovuz qilingan shaxs tushuniladi. Yaponiyada jinoyatdan jabrlangan shaxs “jinoyat qurboni” deb nomlanadi.

Yaponiyada jabrlanuvchilarni himoya qilish borasidagi davlat islohotlari 2000 yillarda boshlangan bo‘lib, bu jarayonni shartli ravishda 3 bosqichga ajratish mumkin:

I – bosqich (2000–2004) – jinoyatdan jabrlanganlarni huquq va manfaatlarini muhofaza qilishga doir qonunchilik bazasi shakllantirilgan bo‘lib, unga muvofiq,

³³⁰ UNODC Global Report on Crime Trends (2023).

dastlab 2000 yilda “Jinoyat qurbonlarini himoya qilish bo‘yicha asosiy siyosat” dasturi qabul qilindi³³¹.

II – bosqich (2005–2010) bevosita jinoyatdan jabrlanganlarni himoyasini ta’minlovchi institusional tizimni tashkil etildi: polisiya, prokuratura, sog‘liqni saqlash va NNTlar o‘rtasida hamkorlik mexanizmi yo‘lga qo‘yildi³³².

III – bosqich (2011–2025) jabrlanuvchilarga ijtimoiy va psixologik yordamni kuchaytirish: mahalliy markazlar va qo‘llab-quvvatlash xizmatlari joriy qilindi³³³.

Jinoyat qurbonlarining huquqlarini ta’minlash va ularni jamiyatga qayta moslashtirish jinoiy-huquqiy siyosatidagi eng muhim yo‘nalishlardan biridir. Bugungi kunda bu masala xalqaro darajada xususan, Yaponiyada jinoyat qurbonlarini huquqiy, psixologik, ijtimoiy, moddiy jihatdan himoya qilishni kafolatlovchi huquqiy asoslar shakllantirilgan³³⁴.

Shaxsni jabrlanuvchi sifatida ishda ishtirok etishga jalb qilishda jinoyat oqibatida to‘g‘ridan-to‘g‘ri jabr ko‘rgan shaxs tan olinadi³³⁵. 2000 yilda qabul qilingan “Jinoyat qurbonlarini qo‘llab-quvvatlashga oid bazaviy siyosat” dasturiga muvofiq, va 2004 yildagi “Jabrlanuvchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonun hamda jinoyat prosessual kodeksining 292-moddasida “jabrlanuvchi sud jarayonida ishtirok etib, jinoyatning ta’siri, jinoyat oqibatida ko‘rilgan moddiy va ma’naviy zarar, shuningdek, ayblanuvchiga qanday jazo belgilanishi to‘g‘risida o‘z fikrini bildirish huquqiga ega” 316-moddaning (2 va 33 primlarida) – Jabrlanuvchining huquqiy maqomi belgilangan³³⁶.

Jabrlanuvchi sud jarayonida ishtirok etish, jinoyat yuzasidan tushuntirish, bayonot berish va jinoyat ishi bilan bog‘lik ma’lumotlarni olish kabi bir qator huquqlarga ega bo‘ladilar³³⁷;

³³¹ Government of Japan, “Basic Policy on Crime Victims,” 2000.

³³² Cabinet Office of Japan, “Crime Victim White Paper,” 2005.

³³³ National Police Agency of Japan, “Victim Support System Overview,” 2012.

³³⁴ NSPV Official Website: <https://www.npcsv.or.jp/english/>

³³⁵ Code of Criminal Procedure of Japan, Amendments of 2008.

³³⁶ Code of Criminal Procedure of Japan, Amendments of 2008.

³³⁷ Suzuki, T. (2019). ChallenGES in Victim Assistance in Rural Japan. Tokyo Law Review, Vol. 45(2)

2008 yilda Jinoyat-prosessual kodeksiga kiritilgan o'zgartishlar natijasida jabrlanuvchi sud jarayonida ishtirok etishi, guvohlar va ayblanuvchiga nisbatan fikr bildirishi mumkinligi belgilandi³³⁸;

Bundan tashqari, jabrlanuvchi suddan guvohni chaqirish yoki so'roq qilish taklifini kiritish huquqi; bolalar, zo'ravonlik qurbonlari va ayollar uchun sudda Onlayn tarzda (axborot texnologiyalari orqali) so'roq qilish, shaxsiy ma'lumotlarni maxfiy saqlash imkoniyatlari vujudga keldi³³⁹.

Yaponiya JPKga asosan jinoyat ishlari bo'yicha sudga qadar ish yurituvni polisiya surishtiruv va dastlabki tergov shaklida polisiya va prokuratura tomonidan amalga oshiriladi.

Polisiya jinoyat haqidagi xabar yuzasidan surishtiruvni amalga oshiradi. Yaponiya JPKga muvofiq, polisiya surishtiruv bosqichida bir qator kam ahamiyatli qilmishlar to'g'risidagi ishlarni tugatish vakolatiga ega bo'ldilar. Sud polisiyasi va prokuraturaning faoliyati ustidan nazorat Yaponiya Milliy jamoat xavfsizligi komissiyasi va prefektura (hududiy) jamoat xavfsizligi komissiyalari tomonidan amalga oshiriladi³⁴⁰.

Yaponiyada sudga qadar ish yurituvning asosiy va biz uchun qiziqarli bo'lgan jihati "ayblov e'lon qilishni kechiktirish" instituti hisoblanadi³⁴¹. Ushbu institut Yaponiya jinoyat kodeksida belgilangan yengil va hatto og'ir jinoyatlarga ham nisbatan qo'llanilishi mumkin. Ushbu institut gumondor shaxsning jinoyat sodir etishda aybi isbotlangan va sudga unga nisbatan ayblov hukmi chiqarilishi ehtimoli katta bo'lgan hollarda ham qo'llaniladi.

"Ayblov e'lon qilishni kechiktirish" institutining talablariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- jabrlanuvchiga yetkazilgan zararni bartaraf etish yoki qoplash;
- jabrlanuvchidan kechirim so'rash;

³³⁸ Ministry of Justice Japan. "White Paper on Crime 2004.

³³⁹ Criminal Procedure Code of Japan, Article 316-33 to 316-38 (Victim Participation System)

³⁴⁰ Praktikum po ugolovnomu protsessu. (2018). Rossiya: – M.: – 2018. s. 403.

³⁴¹ Hiroshi Nakajima, Keiji Shihō Niokeru "Kagaisha" to "Higaisha" ["Offenders" and "Victims" in the Criminal Justice System], 548 HŌGAKU seminar 66 (2000).

- prokuror tomonidan ogohlantirish berish;
- jamiyat manfaatlariga munosib hayot tarzini yuritish to'g'risida tilxat olish;
- ishga kirish va mehnat faoliyatini yuritish va hokazolar.

Ushbu institutni qo'llash natijasida shaxsga nisbatan jinoiy tergovni (ta'qibni) qo'zg'atish bir oydan bir yilgacha muddatga kechiktirilishi mumkin. Gumondorning hatti-harakatlari va o'zini tutishidan kelib chiqqan holda jinoiy ta'qibni amalga oshirish yoki uni tugatish masalasi hal etiladi³⁴².

Yaponiyada jinoyat ishlari bo'yicha jabrlanuvchilarga jinoyat natijasida yetkazilgan zarar davlat tomonidan kafolatlangan holda to'lab beriladi. Ular quyidagi holatda amalga oshiriladi:

Birinchidan, Yaponiyada jinoyatdan jabrlangan shaxslar uchun maxsus kompensasiya tizimi mavjud: Bu tizim jabrlanuvchilarga zararni qoplash uchun moliyaviy yordam ko'rsatadi. Bu kompensasiya jarayoni jinoyat ishlari bo'yicha Yaponiyada jabrlanuvchilarga moliyaviy yordam ko'rsatish masalalari bir necha qonun va nizomlar orqali tartibga solinadi. Ular quyidagilar:

Yaponiyada jabrlanuvchilarning huquqlarini muhofaza qilish bir necha muhim normativ xujjatlar va institutlar orqali ta'minlanadi:

“Jabrlanuvchilarni qo'llab-quvvatlash to'g'risida” gi qonun (2000) ushbu qonunga muvofiq, jabrlanuvchilarga huquqiy, psixologik va ijtimoiy yordam ko'rsatishni nazarda tutadi³⁴³.

“Jabrlanuvchilarga yetkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi qonun” Ushbu qonun jabrlanuvchilarga moliyaviy yordam ko'rsatish va ularning huquq va manfaatlarini muhofaza qilish maqsadida amalga oshiriladi.

Jabrlanuvchilarni muhofaza qilish markazlari davlat va nodavlat tashkilotlari tomonidan tashkil etilgan bo'lib, maslahat, sudga tayyorgarlik va huquqiy yordam xizmatlarini amalga oshiradi³⁴⁴.

³⁴² The Japanese Judicial system//https://www.nichibenren.or.jp/en/about/activities/Criminal_Justice.html
https://www.nichibenren.or.jp/en/about/judicial_system/justice_system_reform.html#:~:text=From%202009%2C%20various%20improvements%20and,enhancing%20oral%20argument%20and%20direct

³⁴³ Basic Act on Crime Victims (2000), Article 2–9./<https://www.japaneselawtranslation.go.jp/en/laws/view/2515/en>

“Jabrlanuvchilarni himoya qilish uchun mo‘ljallangan davlat fondlari”³⁴⁵: Yaponiyadagi “Jabrlanuvchilarga yetkazilgan zararni qoplash uchun mo‘ljallangan davlat fondi”– jinoyat qurbonlariga moddiy yordam ko‘rsatish maqsadida davlat tomonidan tuzilgan maxsus moliyaviy tizimdir. Ushbu fond quyidagi asosiy manbalar hisobidan shakllantiriladi:

1. Davlat byudjeti mablag‘lari. Bu fondning asosiy qismi Yaponiyaning umumiy davlat byudjeti hisobidan moliyalashtiriladi, ya’ni har yili Parlament jinoyat qurbonlariga kompensatsiya to‘lash uchun alohida byudjetdan mablag‘lar ajratadi.

2. Sud hukmi asosida to‘langan jarimalar va konfiskatsiya qilingan mablag‘lar – ya’ni jinoyat ishi bo‘yicha aybdor deb topilgan shaxslar tomonidan to‘langan jarimalarning bir qismi ushbu fondga yo‘naltiriladi.

Shuningdek, musodara qilingan pul mablag‘lari, mulklar yoki aktivlardan kelib tushgan daromadlar ham fondni moliyalashtirish manbai hisoblanadi.

3. Maxsus to‘lovlar va davlat yig‘imlari – jinoyat-prosessual xarajatlar yoki ma’muriy jarimalardan tushgan ayrim yig‘imlar fondni qo‘llab-quvvatlash uchun yo‘naltiriladi.

4. Sug‘urta hissalar va jamoat xayriyalari (cheklangan holda) – ya’ni ayrim hollarda xususiy tashkilotlar yoki xayriya fondlari ham ushbu davlat dasturini qo‘llab-quvvatlaydi, biroq bu asosiy manba hisoblanmaydi.

Fond jabrlanuvchilarga moliyaviy yordam ko‘rsatish uchun tashkil etilgan bo‘lib, jabrlanuvchilarning moddiy, jismoniy va ma’naviy zararlarini qoplashga ko‘maklashadi; “Qonundagi moliyaviy yordamni so‘rash tartibi”³⁴⁶: Bu nizom jabrlanuvchilarga moliyaviy yordam so‘rash tartibi va mexanizmini belgilab beradi

“Mamlakatning mahalliy hokimiyatlari va sud organlari tomonidan amalga oshiriladigan himoya choralari”³⁴⁷: Mahalliy hokimiyatlar va sud organlari

³⁴⁴ National Police Agency, “Support System for Crime Victims.” <https://www.npa.go.jp>

³⁴⁵ State Compensation Fund for Victims of Crime <https://www.moj.go.jp/content/001348855.pdf>

³⁴⁶ “For Victims of Crime”// https://www.moj.go.jp/EN/keiji1/keiji_keiji1

³⁴⁷

パーキング・メーター等管理業務の委託契約に係る入札説明書等配付のご案内 https://www.keishicho.metro.tokyo.lg.jp/multilingual/english/safe_society/become_a_victim/you_victim.html

jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatish va ularning huquqlarini himoya qilish uchun qo'shimcha chora-tadbirlar amalga oshirishlari mumkin.

Bu qonun va qonun osti aktlarda mustahkamlangan bo'lib, jinoyatdan jabrlanganlarga moliyaviy yordam ko'rsatish, ularning huquqlarini muhofaza qilish va jinoyatlarning ta'sirini kamaytirishga qaratilgandir.

Ikkinchidan, jabrlanuvchilarga hukumat tomonidan to'lanadigan kompensatsiya ham mavjud. Bu kompensatsiya jinoyat qurbonlari uchun moliyaviy yordam ko'rsatish maqsadida tashkil etilgan. Yaponiyada jabrlanuvchilarga hukumat tomonidan to'lanadigan kompensatsiyalar turlari va ularning maqsadlari quyidagi tartibdagi qonun va nizomlar asosida amalga oshiriladi:

Jismoniy va ruhiy zararlar uchun kompensatsiya (Compensation for Physical and Mental Injury)³⁴⁸: ushbu kompensatsiyani to'lashdan maqsad jabrlanuvchilarga jismoniy yoki ruhiy zararlarini bartaraf etishga yordam beradi. Ular asosan: medisiina xizmatlari, davolash, reabilitatsiya va psixologik yordam sifatida amalga oshiriladi.

O'lim yuz berganda to'lanadigan kompensatsiyasi (Compensation for Death): jinoyat natijasida shaxs vafot etsa jabrlanuvchining oila a'zolari va qarindoshlariga moddiy yordam ko'rsatiladi. Yordam o'limdan keyingi dafn qilish harajatlari, oilasiga va farzandlariga ko'mak hamda farzandlari voyaga yetgunga qadar marhumning farzandlarini moliyaviy ta'minlashdan iborat.³⁴⁹

Jinoyat ta'sirida boy berilgan foyda kompensatsiyasi (Compensation for Loss of Income), ushbu kompensatsiya jabrlanuvchi ishdan bo'shsh yoki ish vaqtini yoki ishchanlik qobiliyatini yo'qotganligi sababli boy berilgan foydani qoplash.

Jabrlanuvchilarga moddiy yordam (Financial Assistance) jabrlanuvchilarning kundalik ehtiyojlarini qoplash va iqtisodiy yordam berish ya'ni mehmonxona xarajatlari, ijara puli va boshqa hayotning muhim xarajatlari uchun kompensatsiya.

³⁴⁸ 事件事故を目撃した時や巻き込まれた時のための情報を掲載しております// Compensation for Physical and Mental Injury// https://www.keishicho.mental.tokyo.lg.jp/jiken_jiko/index.html

³⁴⁹ Compensation for Death// Justice for the Accused or Justice for Victims?: The Protection of Victims' Rights in Japan http://manoa.hawaii.edu/aplpj/wp-content/uploads/sites/120/2012/02/APLPJ_13-1_Matsui.pdf

Huquqiy yordam (Legal Assistance) jabrlanuvchilarga huquqiy maslahat va yuridik xizmatlar ko'rsatish maqsadida ishni sudga qadar yuritish va sud jarayonidagi advokatlik xizmatlari va huquqiy maslahatlar berish.

Psixologik yordam jabrlanuvchilarning psixologik salomatligini tiklashga yordam ya'ni psixoterapiya, konsalting va boshqa psixologik xizmatlar.

Ushbu kompensatsiyalar Yaponiya hukumati tomonidan jinoyatdan jabrlangan shaxslarning huquq va manfaatlarini muhofaza qilish jinoyat natijasida yetkazilgan zararlarni qoplash va manzilli, har tomonlama hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan. Kompensatsiyalar turlari va ularning shartlari muayyan qonunlar va nizomlarga muvofiq, amalga oshiriladi, masalan, "Jabrlanuvchilarni himoya qilish to'g'risidagi qonun" ga asosan tartibga solinadi. Yaponiyada jabrlanuvchilarga hukumat tomonidan to'lanadigan kompensatsiya miqdori va shartlari quyidagi tartibda belgilangan:

Yaponiyada jabrlanuvchining vafoti yuz bergan holatda, uning yaqin qarindoshlari (oila a'zolari) davlat tomonidan belgilangan tartibda kompensatsiyaya olish huquqiga ega bo'ladilar. Kompensatsiya miqdorini aniqlashda bir qator omillar, jumladan, oila a'zolarining umumiy soni, ularning ijtimoiy-maishiy va moliyaviy ahvoli inobatga olinadi. Mazkur holatda to'lanadigan maksimal kompensatsiya summasi jinoyat qurbonining qarindoshlariga nisbatan qo'llaniladigan adolatli yondashuvni ta'minlashga qaratilgan. Agar jabrlanuvchi jinoiy tajovuz oqibatida vafot etgan bo'lsa, uning oilasiga beriluvchi kompensatsiya miqdori tegishli organlar tomonidan individual tartibda, har bir holatning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Jinoyat qurbonining o'limi natijasida oila a'zolariga to'lanadigan kompensatsiya tizimiga muvofiq³⁵⁰ vafot etgan jabrlanuvchining oila a'zolari soni va ularning moliyaviy ahvoli hisobga olinadi. O'lim yuz berganda kompensatsiya summasi oila a'zolarining ijtimoiy va moliyaviy ahvolidan kelib chiqib belgilanadi. Jumladan, jinoyat natijasida shaxs vafot etsa uning oila a'zolariga kompensasiya

³⁵⁰制度犯罪被害給付制度 (Seido Hanzai Higai Kyūfu Seido) Sistema kompensatsiy jertvam prestupleniy. <https://www.npa.go.jp/higaisya/kyuhu/index.html>

miqdori 3,200,000 yapon ienasidan (taxminan 21, 487 AQSH dollari) 30,600,000 yapon ienasigacha (taxminan 200 000 AQSH dollari) miqdorda to‘lanishi mumkin³⁵¹. (2025 yil).

Agar jinoyat natijasida jabrlanuvchi halok bo‘lgan bo‘lsa, uning farzandlari uchun o‘qishi, ilm olishiga davlat kafil hisoblanadi va o‘qish xarajatlari to‘lab beriladi. Kompensatsiya miqdori va ularning shartlari har yili hukumat tomonidan qayta ko‘rib chiqilishi va o‘zgarishi mumkin.

Aksariyat xollarda jabrlanuvchiga zararni qoplash uchun ayblanuvchi kompensatsiya to‘lashi buyurishi mumkin, bunday kompensatsiya odatda aybdorga sud qaroriga muvofiq, summa asosida to‘lanadi, biroq qaror ayblanuvchining moliyaviy, iqtisodiy ahvolidan kelib chiqib tayinlanadi.

Jabrlanuvchilarga huquqiy yordam ko‘rsatish sud jarayonida va kompensatsiya talab qilishda tekin yuridik xizmatlar va konsultatsiyalar beriladi. Bu yordam bilan jabrlanuvchi kompensatsiya olish uchun imkoniyatlarini to‘g‘ri va samarali amalga oshiradi.

Fikrimizcha, mamlakatimizda ham jabrlanuvchilarning huquq va manfaatlarini himoya qilish sohasida bunday kompleks yondashuvni joriy etish samarali bo‘ladi. Xususan, jabrlanuvchilarni qo‘llab-quvvatlash milliy markazini tashkil etish (Yaponiyadagi NSPV modeli asosida, Ichki ishlar vazirligi, Adliya vazirligi, prokuratura va NNTlar o‘rtasida hamkorlik mexanizmlarini shakllantirish; psixologik va ijtimoiy yordamni kafolatlovchi maxsus qonunni qabul qilish; jabrlanuvchilarga davlat tomonidan ko‘mak berish huquqiy asosda belgilab qo‘yilishi kerak; sud jarayonida jabrlanuvchining ishtiroki, fikrini bildirishi, kompensatsiya talab qilishi va axborot olishiga huquqiy kafolatlar berish; jabrlanuvchilar uchun davlat byudjeti hisobidan maxsus fond tashkil etish; (kompensatsiya, rehabilitatsiya va jamiyatga moslashuv jarayonlarini moliyalashtirish

³⁵¹ 犯罪被害者等給付金支給制度 (Hanzai higaisha-tō kyūfukin shikyū seido) — “Жиноят қурбонларига компенсация тўлаш тизими//2024–2025 йилги Япония Адлия Вазирлиги ва Жабрланувчиларни қўллаб-қувватлаш Миллий Маркази (NSPV) маълумотлари

uchun) huquqiy ta'lim va OAV orqali jabrlanuvchilar huquqlari to'g'risida aholi orasida huquqiy targ'ibot ishlarini amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Fikrimizcha, milliy qonunchiligimizga jinoyat natijasida jabrlanganlarning huquq va manfaatlarini mustahkamlovchi quyidagi normalarni kiritish taklif etiladi;

- jabrlanuvchilarga zarur ma'lumot va maslahatlar taqdim etish;
- jabrlanuvchilarning jarohatlar uchun tovon olishni talab qilishini qo'llab-quvvatlash hamda jinoyat ishlari bo'yicha sud jarayonlarini fuqarolik da'volari bilan muvofiqlashtiradigan tizimni joriy etish;
- jamoatchilik tomonidan ko'rsatiladigan to'lovlarning samaradorligini oshirish;
- jabrlanuvchilarga jarohat oqibatlaridan tiklanishda yordam berish maqsadida zarur tibbiy va ijtimoiy xizmatlar taqdim etish;
- qo'shimcha jarohatlarning oldini olish, jabrlanuvchining xavfsizligini ta'minlash va zarur hollarda jabrlanuvchilar ishtirokida ehtiyot choralarini ko'rish bo'yicha chora-tadbirlarni qabul qilish.
- jabrlanuvchilar sudda guvoh sifatida ko'rsatma berishga majbur bo'lgan hollarda ehtiyot choralarini ko'rish va ularning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish;
- jabrlanuvchilar oldingi yashash joyida qolish imkoniyati bo'lmagan taqdirda, ularni davlat uy-joylariga qabul qilishda alohida e'tibor qaratish;
- aholi bandlikka ko'maklashish markazlariga jinoyatdan jabrlanganlarni ish bilan ta'minlash masalasida aniq chora tadbirlar yo'l xaritasini belgilash;
- jabrlanuvchilarni jinoyat ishlari yuzasidan sud jarayonlarining borishi haqida xabardor qilish va ularning sud jarayonlarida ishtirok etishini ta'minlash bo'yicha choralar joriy etish;
- jinoyat tergovlari va sud jarayonlari davomida jabrlanuvchilarning sha'ni va shaxsiy hayoti daxlsizligiga yetarli darajada hurmat bilan munosabatda bo'lish, shuningdek, jabrlanuvchilarga muomala qilishda maxsus bilimga ega mutaxassislarni ishga jalb etish;

- jabrlanuvchilar holatini tushunish va ularning sha'ni hamda shaxsiy hayotiga hurmat bilan munosabatda bo'lish muhimligini jamoatchilik orasida targ'ib qilish maqsadida ta'lim va reklama faoliyatlarini amalga oshirish;
- jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni ilgari surish, resurslarni yig'ish, va jabrlanuvchilarga yordam bera oladigan mutaxassislarni tayyorlash;
- jabrlanuvchilarning ijtimoiy fikrlarini tahlil qiladigan tizimni joriy etish, reja va uning ijrosini takomillashtirish, hamda rejalashtirish jarayonida ochiqlikni ta'minlash maqsadga muvofiqdir.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash lozimki, Yaponiya tajribasi jabrlanuvchini faqat prosess ishtirokchisi sifatida emas, balki davlat himoyasiga muhtoj ijtimoiy subyekt sifatida qarashga asos bo'ladi. Yaponiya jinoyat prosessual huquqida jabrlanuvchini kompleks himoya qilishda davlat va jamiyatning uzviy hamkorligi asosida shakllangan tizimni namoyon etadi hamda ushbu tizim huquqiy, psixologik, moddiy va axborot yordamini qamrab olgan holda jinoyatdan jabrlanganlarning inson sifatida qadrini ta'minlashga qaratilgan. Yaponiya tajribasi jinoyat qurbonlarini (jabrlanuvchilarni) himoya qilishda kompleks va davlat kafolatiga asoslangan yondashuvni rivojlantirgan ilg'or model hisoblanadi. Mamlakatda 2000-yillardan boshlangan islohotlar natijasida jabrlanuvchilarning huquqiy, psixologik va moliyaviy himoyasini ta'minlovchi keng qamrovli huquqiy-tashkiliy tizim shakllantirilgan. Yaponiya jinoyat prosessual qonunchiligida jabrlanuvchi faqat prosess ishtirokchisi emas, balki davlat muhofazasiga muhtoj shaxs sifatida e'tirof etiladi. Sud jarayonida ishtirok etish, kompensatsiya talab qilish, guvohlarni so'roq qilishda ishtirok etish kabi huquqlar qonunan kafolatlangan. Jabrlanuvchilarni qo'llab-quvvatlash milliy markazlari, davlat fondi va jamiyat bilan hamkorlik mexanizmlari mazkur tizimning asosiy poydevorlaridir. Ushbu tajriba jinoiy adolat tizimining insonparvarlashuvi va jamiyat bilan aloqadorligini namoyon etadi. Yaponiyada jabrlanuvchilarga davlat tomonidan kompensasiya faqat jinoyat natijasida jismoniy zarar ko'rgan hollardagina to'lanadi. Mabodo, jinoyat prosessida

jabrlanuvchining ataylab shaxsni jinoyatga undovchi harakatlari aniqlansa, davlat kompensasiya to'lash majburiyatini olmaydi.

3-§. Ayrim Osiyo mamlakatlarida jabrlanuvchining huquq va manfaatlari muhofazasi

Turkiya davlatida jinoyatdan jabrlanganlarning huquq va manfaatlari Turkiya konstitutsiya³⁵²sida, *jinoyat kodeksida (Türk Ceza Kanunu, TCK)*³⁵³ jabrlanganlarning huquqlarini ta'minlashga qaratilgan jinoyatlar va ularning jazolariga oid maxsus moddalarni o'z ichiga oladi meyorlarni belgilaydi, *Turkiya Respublikasida alohida jabrlanganlarini muhofaza qilish va ijtimoiy xizmatlarning rivojlantirilishi haqidagi 6284-sonli qonuni*³⁵⁴, ushbu qonun jinoyatdan jabrlanganlar, ayniqsa, zo'ravonlikdan jabrlanganlarning huquqlarini himoyalashga qaratilgan, **Turkiya** Jinoyat prosessual kodeksi jabrlanganlarning huquqlarini himoya qilish va sud jarayonida ularning manfaatlarini ta'minlash uchun belgilangan qoidalarini o'z ichiga oladi. Turkiya jinoyat prosessual kodeksi (Türk Ceza Muhakemesi Kanunu, CMK)³⁵⁵ jabrlanuvchiga (ma'lumotda "jabrlangan" deb ataladi) bag'ishlangan bir qator moddalarni o'ziga qamrab oladi. 2004 yil 4 aprelda qabul qilingan va 5271-sanali kodeks jabrlanuvchilarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan maxsus qoidalarini o'z ichiga oladi.

Bundan tashqari, Davlat tomonidan jinoyatdan jabrlanganlarga psixologik yordam va ijtimoiy xizmatlarni taqdim etishga qaratilgan dasturlar va tashkilotlar mavjud. Bu sohada davlat va nodavlat tashkilotlari faoliyat ko'rsatadi.

Gruziya Gruziya kontinental huquq oilasiga tegishli. Uning huquq tizimi Rim huquqiga asoslangan bo'lib, XIX asrda Rossiya imperiyasi davrida shakllangan. Gruziyaning huquq tizimida quyidagi xususiyatlar mavjud: Qonunchilikning asosiy

³⁵² Конституция Турции (Турецкой Республики) 1982 йилан
<https://legalns.com/download/books/cons/turkey.pdf>

³⁵³ Türk Ceza Kanunu/<https://avsaimincekas.com/ru/><https://www.mevzuat.gov.tr/mevzuat?MevzuatNo=5237>

³⁵⁴ Görüntülemekte olduğunuz Kanun//26.9.2004 // <https://www5.tbmm.gov.tr/kanunlar/k5237.html>

³⁵⁵ Ailenin korunması ve kadına karşı şiddetin önlenmesine dair kanun//08.03.2012.//
<https://www5.tbmm.gov.tr/kanunlar/k6284.html>

manbasi: Gruziyada qonunchilik hujjatlari asosiy huquq manbasi hisoblanadi. Sudlar qonunlarni talqin qilib, ularni ishlatishlari kerak, lekin ular qonunlarni o'zgartira olmaydilar. Huquq tizimining kodekslashgan tuzilishi: Gruziyada qonunlar mavzular bo'yicha o'z-o'zidan to'liq va mantiqan bog'langan kodekslar (qonun to'plamlari) shaklida tuzilgan bo'ladi. Sud tizimining "inkvizision" xarakteri: Gruziyada sudlar jinoyat ishini o'zlari o'rganish va tegishli hujjatlarni yig'ishga mas'ul. Huquqiy doktrinaning ta'siri: Gruziyada huquqiy doktrina ham muhim rol o'ynaydi. Huquqiy doktrina degani, huquq shunaqasiga talqin qilinishi kerak degan fikrlarni ishlab chiqadigan huquqshunoslar tomonidan yozilgan kitoblar va maqolalar. Gruziya kontinental huquq oilasining asosiy xususiyatlarini saqlab qolgan bo'lsa-da, so'nggi yillarda anglo-amerika huquq tizimining ta'siri ham sezilib qolmoqda. jinoyat prosessual kodeksida jabrlanuvchining huquqiy maqomini o'zgarlanligini ko'rish mumkin, unga ko'ra jabrlanuvchi ayblovdan ishtirok etimaydi, jabrlanuvchi jinoyat prosessida faqat guvoh sifatida ishtirok etib, guvohning maqomidan foydalanadi³⁵⁶. Gruziya JPKsining 56-moddasiga muvofiq, guvohning barcha huquq va erkinliklaridan foydalanadi.

Gruziyada jinoyatdan jabrlanganlarning huquq va manfaatlarini muhofaza qilishda jinoyat qurbonlari uchun moliyaviy kompensatsiya berish mexanizmlari mavjud. Bu kompensatsiya jinoyat natijasida yetkazilgan zararlarni qoplashga yo'naltirilgan. Gruziyada "Victim Compensation Fund"³⁵⁷ tashkil etilgan bo'lib, nafaqat har hil vaziyatlardan jabrlangan balki jinoyat qurbonlariga ham kompensatsiya ajratib jabrlanuvchilarga moliyaviy yordam ko'rsatish bilan shug'ullanadi.

Gruziyada jinoyatdan jabrlanganlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish mexanizmlari huquqiy va amaliy jihatdan boshqa davlatlardan farq qilishi mumkin,

³⁵⁶ Махарадзе А. Статус потерпевшего согласно уголовно-процессуальному законодательству Грузии// Современные подходы к доказательствам в уголовном судопроизводстве, <https://inlibrary.uz/index.php/evidence-criminal-proceedings/article/view/29410> Acceso em: 3 сен. 2024

³⁵⁷ Фонд помощи МУС для пострадавших <https://www.justiceinfo.net/en/68922-icc-victims-fund-waiting-for-godot-in-georgia.html>

ammo asosiy maqsad jabrlanuvchilarga adolatli kompensatsiya va qo'llab-quvvatlashni ta'minlashdir.

Xitoy Xalq Respublikasi (XXR) jinoyat-prosessual tizimida jabrlanuvchining maqomi an'anaviy kontinental huquq oilasi ta'sirida shakllangan bo'lib, u alohida prosessual subyekt sifatida tan olingan va muayyan huquq va vakolatlarga ega. XXR Jinoyat-prosessual kodeksida jabrlanuvchi shaxs³⁵⁸ jabrlanuvchi shaxs yoki jinoyatdan jabr ko'rgan shaxs degan ma'noni anglatadi. XXR Jinoyat-prosessual kodeksida jabrlanuvchi mustaqil huquqiy maqomga ega prosessual shaxs sifatida tan olinadi³⁵⁹ va huquqiy himoya va prosessual ishtirok imkoniyatlarini bersada, bu huquqlar amalda prokuror va sud organlarining faolligi va qarorlariga bog'liq tarzda amalga oshadi. XXR odil sudlov tizimida yarashtirish va mediatsiya keng qo'llaniladi³⁶⁰ Jabrlanuvchi va ayblanuvchi o'rtasida yarashtirishga erishilsa sud ayblanuvchiga yengilroq jazo tayinlashi yoki jarima bilan cheklanishi mumkin.

Biroq Xitoyning huquq tizimida anglo-amerika huquq tizimining ta'siri ham mavjud. Masalan, Xitoyda presedent huquq ham mavjud va sudlar o'z qarorlarida boshqa sudlarning qarorlariga tayanadilar. Shuningdek, Xitoyning huquq tizimida Xitoyda kommunistik partiyaning ta'siri kuchli bo'lib, bu huquq tizimiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Xitoy Xalq Respublikasi Jinoyat-prosessual qonunining 99-modasiga muvofiq, jabrlanuvchilar jinoyat natijasida yetkazilgan jismoniy va mulkiy zararlarni qoplab berishni talab qilishi va jinoyat ishini ko'rish jarayonida fuqaroviy da'vo qo'zg'atishlari mumkin. Shuningdek, ushbu qonunning 277-279-moddalariga muvofiq, jabrlanuvchi va ayblanuvchi o'rtasida yarashuv qo'llanilishi mumkin. Yarashuvning qo'llanilishi uchun quyidagilar talab qilinadi:

1) aybdor shaxs chin ko'ngildan pushaymon bo'lib, yetkazilgan zararni qoplashi, jabrlanuvchidan kechirim so'rashi;

³⁵⁸ Уголовно-процессуальный кодекс КНР Китайской Народной Республики // http://chinalawinfo.ru/procedural_law/law_criminal_procedure

³⁵⁹ Criminal Procedure Law of the People's Republic of China (2018 Amendment), Articles 82–88.

³⁶⁰ Kwai Hang Ng & Xin He, *Internal Contradictions of Restorative Justice: A Case Study of Mediation in the Chinese Criminal Justice System*, Law & Society Review, Vol. 46, No. 3, 2012

2) qasddan sodir etilgan jinoyat uchun jazo uch yildan ko‘p bo‘lmagan ozodlikdan mahrum etish yoki boshqa yengilroq jazoni nazarda tutsa;

3) ehtiyotsizlikdan sodir etilgan jinoyat uchun jazo yetti yildan ko‘p bo‘lmagan ozodlikdan mahrum etish yoki boshqa yengilroq jazoni nazarda tutsa, burchni bajarmaslik bilan bog‘liq jinoyatlar bundan mustasno.

Ilgari javobgarlikka tortilgan shaxs besh yil ichida qasddan qayta jinoyat sodir etgan bo‘lsa, yarashuv qo‘llanilmaydi. Sud jinoyatning ijtimoiy xavfliligi va boshqa holatlarni inobatga olib shaxsga yengilroq jazo tayinlashi yoki uni javobgarlikdan ozod qilishi mumkin.

Jabrlanuvchi jinoyat natijasida yetkazilgan moddiy yoki ma’naviy zarar uchun fuqarolik da’vogari sifatida ishtirok etib, kompensatsiya talab qilishi mumkin³⁶¹.

Xitoy Xalq Respublikasining jinoyat prosessual qonunchiligida “...agar jinoyat xaqida ariza beruvchi, xabar va shikoyat bergan shaxs uning ismi va shikoyati bilan bog‘liq harakatlari oshkor etilishini istamasa, huquqni muhofaza qiluvchi organlari tomonidan uning shaxsiy ma’lumotlari sir saqlanishi lozim”³⁶²

Xitoy Xalq Respublikasi JPK, 2018 yil tahriri, 96-modda (jabrlanuvchi) tushunchasi va uning prosessual huquqlari belgilangan³⁶³. jinoyat qurboni vafot etgan taqdirda prosessda ishtirok etayotgan yaqin qarindoshini jabrlanuvchi sifatida tan olmaydi³⁶⁴. Jabrlanuvchining yaqin qarindoshlariga marhumning huquqlarini himoya qilish imkoniyatlari cheklanganligini ko‘rish mumkin³⁶⁵.

Xitoy Xalq Respublikasi JPKga muvofiq, jabrlanuvchi ba’zi huquqlardan faqat shaxsan foydalanishi mumkinligi sababli masalan, Xitoy JPKning 121-moddasiga

³⁶¹ Criminal Procedure Law, Articles 101–106.// http://www.npc.gov.cn/zgrdw/englishnpc/Law/2007-12/13/content_1384067.htm

³⁶² Уголовно-процессуальный кодекс КНР 2016-01-11 02:11 [электрон манба: мурожаат этилган вақт 15.04.2025] http://ru.china-embassy.gov.cn/rus/zfhz/zgflyd/201601/t20160111_3149371.htm

³⁶³ 中华人民共和国刑事诉讼法 [The Criminal Procedure Law of the People's Republic of China], 2018 йил тахрири

³⁶⁴ Criminal Procedure Law, Article 62 (Witness and victim protection). [электрон манба: мурожаат этилган вақт 15.04.2025] http://ru.china-embassy.gov.cn/rus/zfhz/zgflyd/201601/t20160111_3149371.htm

³⁶⁵ 中华人民共和国刑事诉讼法 [The Criminal Procedure Law of the People's Republic of China], 2018 йил тахрири.

binoan, qo'shimcha ekspertiza faqat tirik, bevosita jabrlanuvchining iltimosiga binoan o'tkazilishi mumkin.³⁶⁶

Agar yaqin qarindoshi vafot etgan jabrlanuvchining vakili sifatida qo'shimcha yoki takroriy ekspertiza o'tkazishni talab qilsa ham, ushbu talab qonunchilikka muvofiq, qanoatlantirilmaydi. Xitoy qonunchiligida guvohning daxlsizligi to'g'risida qoida yo'q, guvohlik berish jabrlanuvchining zimmasidadir. Xech qanday shaxsiy manfaat guvohlik majburiyatlaridan ozod qilish uchun asos bo'la olmaydi. XXR JPKning 182-moddasiga muvofiq, jabrlanuvchi jinoiy ishda ishtirok etsa ham, xukm ustidan faqat davlat ayblovcisi orqali kassatsiya tartibda shikoyat berishi mumkin. Gumon qilinuvchi va ayblanuvchiga nisbatan malakali yuridik yordam olish brasida tengsizlik mavjud. XXR JPKning 34-moddasiga muvofiq, ayblanuvchi advokat xizmatlaridan, shu jumladan, bepul foydalanish huquqiga ega va advokatga xaq to'lash bilan bog'liq exarajatlar davlat byudjeti hisobidan qoplanadi. Shu bilan birga, agar jabrlanuvchi moliyaviy qiyinchiliklar tufayli o'z manfaatlari himoyachisi sifatida vakilni taklif qilish imkoniyatiga ega bo'lmasa, u malakali yuridik yordam olish imkoniyatini yo'qotadi.

XXR JPKning 145 va 170-moddaning 3-qismiga muvofiq, jabrlanuvchining xususiy ayblovg'a bo'lgan huquqlari doirasi kengaytirilgan, biroq qonunosti xujjatlarida prokuratura jinoiy ish qo'zg'atishdan bosh tortgan taqdirda jabrlanuvchiga xususiy ayblovg'a qo'yishga ruxsat beruvchi aniq qoidalar mavjud emas. Shu bilan birga, jabrlanuvchining dalillarni to'plash qobiliyati sezilarli darajada cheklangan va jabrlanuvchi tomonidan to'plangan dalillar, qoida tariqasida, sud organlari tomonidan hisobga olinmaydi³⁶⁷.

Xitoy Xalq Respublikasi Jinoyat-prosessual kodeksining 151-moddasiga binoan, sud muhokamasini boshlash to'g'risida qaror qabul qilgandan so'ng, xalq

³⁶⁶Jiang, S. (2015). *Victims' Rights in the Chinese Criminal Justice System: A Comparative Perspective*. Asian Journal of Criminology, 10(3), 237–254. https://www.researchgate.net/publication/8355153_Social_and_Legal_Control_in_China_A_Comparative_Perspective.

³⁶⁷ He, Jiahong. (2010). *Back from the Cold? The Victim's Role in the Chinese Criminal Justice System*. In: "Crime, Punishment, and Policing in China", Rowman & Littlefield Publishers. <https://www.cambridge.org/core/journals/asian-journal-of-law-and-society/article/suspended-execution-beyond-chinas-borders/101E2A549C987D5FD02FDBE206D1709D>

sudi xalq prokurori tomonidan tuzilgan ayblov xulosasining nusxasini ayblanuvchiga sud muhokamasi boshlanishidan kamida o'n kun oldin yuborishi shart. Biroq jabrlanuvchiga ayblov xulosasining nusxasini majburiy olish huquqi berilmaydi, bu uning sud zalida jinoyatchiga qarshi ayblov qo'yish va uning manfaatlarini himoya qilish huquqini bevosita cheklaydi.

Shunisi e'tiborliki, Xitoy JPKning 37-moddasida ayblanuvchining ximoyachisi dalillarni shaxslarning roziligi asosida so'rov o'tkazish orqali yig'ish huquqi belgilangan, biroq jabrlanuvchining vakilida bunday huquq belgilanmagan³⁶⁸.

Ommaviy ayblov bo'yicha jabrlanuvchining o'zi ayblov e'lon qila olmaydi. Agar prokuror ayblov e'lon qilishdan bosh tortsa, sud jabrlanuvchining roziligi yoki davlat ayblovchisining bunday rad etishni asoslash uchun keltirgan dalillari bilan rozi bo'lmaganidan qat'i nazar, jinoyat ishini tugatishga majburdir³⁶⁹. Bunday vaziyatda jabrlanuvchi ijtimoiy adolatsizlikka uchraydi. Shuning uchun qonun chiqaruvchi jabrlanuvchining ayblovini faqat davlat ayblovi mavjud bo'lgandagina qo'llab quvvatlaydi.

Tojikiston Respublikasining huquq tizimi Rim huquqiga asoslangan bo'lib, Sovet Ittifoqi davrida shakllangan. Tojikiston mustaqillikka erishgandan keyin ham o'z huquq tizimini kontinental huquq oilasi doirasida saqlab qolgan. Jabrlanuvchiga yetkazilgan zararni qoplash bilan bog'liq jarayonlarni tartibga soluvchi qoidalar bizning qonunchiligimizga deyarli o'xshash bo'lsada, ayrimlari farqli va qonunchiligimizga tatbiq etish mumkin bo'lgan ijobiy xususiyatlarga ega. Xususan, yarashuv instituti bilan bog'liq qoidalar. Tojikiston Respublikasi Jinoyat-prosessual kodeksining 30-moddasida (Jabrlanuvchi bilan yarashganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish) yarashuvni qo'llash shartlari keltirilgan bo'lib, unga ko'ra qilmish ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan (bizning qonunchiligimizda esa aynan qaysi jinoyatlarga nisbatan qo'llanilishi belgilab

³⁶⁸ Lu, Hong. (2018). *China's Legal Reform: The Role of Victims in the Criminal Justice System*. In: International Journal of Law, Crime and Justice, 55, 45–59. https://www.researchgate.net/publication/300083310_Death_Penalty_Disposition_in_China_What_Matters

³⁶⁹ Xin Fu. Public prosecutors in the Chinese criminal trial – courtroom discourse from the prosecution perspective// <https://www.degruyterbrill.com/document/doi/10.1515/ijld-2016-0019/html?srsId=AfmBOoohDjYUZXCjXrtxifbSkWzR4eblzpef4p-a00zEo0pGhbQDQM6R>

qo'yilgan) toifadagi jinoyat bo'lishi, shaxs jabrlanuvchi bilan yarashgan bo'lishi va zararni qoplagan bo'lishi shart. Yarashuv sudya yoki prokuror tomonidan, shuningdek, prokuror roziligi bilan tergovchi tomonidan qo'llanilib, unga asosan jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish yoki shaxsga nisbatan jinoyat ishini tugatish mumkinligi ham ushbu moddada belgilab qo'yilgan. Bizning qonunchiligimizdan farqli o'laroq yarashuv tergovga qadar tekshiruv davomida ham qo'llanilishini kuzatishimiz mumkin.

Shuningdek, ushbu kodeksning 109-moddasiga (Garov) muvofiq, garov ehtiyot chorasi jinoyat natijasida yetkazilgan mulkiy ziyon to'liq qoplangan taqdirdagina qo'llanilishi mumkin. 122-moddasida esa agar fuqaro qonunga xilof harakat yoki qaror natijasida ma'naviy, jismoniy yoki moddiy zarar ko'rgan bo'lsa, unga zararni qoplash yoki bartaraf etishga bo'lgan huquqlari hamda ushbu huquqni amalga oshirish tartibi tushuntirilishi belgilab qo'yilgan.

Turkmaniston Respublikasi jinoyat-prosessual qonunchiligida jabrlanuvchi jinoyat oqibatida moddiy, ma'naviy yoki jismoniy zarar ko'rgan shaxs sifatida alohida huquqiy maqomga ega. Uning huquqlarini aniq belgilash va muhofaza qilish, fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchini oshirish va jinoyat-huquqiy siyosatning insonparvarlik tamoyillarini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi. Turkmaniston Jinoyat-prosessual kodeksining 86-moddasiga muvofiq, "Jinoyat oqibatida jismoniy, moddiy yoki ma'naviy zarar ko'rgan shaxs jabrlanuvchi deb e'tirof etiladi"³⁷⁰.

Jabrlanuvchi ish materiallari bilan tanishish, dalillar taqdim etish, ayblanuvchiga nisbatan qo'yilgan ayblov haqida ma'lumotga ega bo'lish, sud muhokamasida ishtirok etish, bayonnoma va qarorlarga e'tiroz bildirish; prosessual qaror va harakatlar ustidan shikoyat kiritish; tovon talab qilish huquqi: moddiy va ma'naviy zararni qoplashni so'rash; tarjimon yordamidan foydalanish, ona tilida bayonot berish huquqiy yordamchi vakillar orqali ishda ishtirok etish va boshqa huquqlarga ega.

³⁷⁰ Уголовно-процессуальный кодекс Туркменистана. <https://legislationline.org/ru/taxonomy/term/17439>

2016 yil 12 yanvarda “Jinoyat-prosessual faoliyatda jabrlanuvchi, guvoh va boshqa ishtirokchilarni davlat tomonidan himoya qilish to‘g‘risida”gi Turkmaniston Qonuni³⁷¹ qabul qilingan. Ushbu Qonun Turkmanistonda inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi xalqaro standartlarga mos keladi va BMTning 1985 yilgi Deklaratsiyasida ko‘rsatilgan talablarning milliy huquq tizimiga integratsiyalashuvini aks ettiradi.

Ushbu Qonunning asosiy maqsadi — jinoyat-prosessual faoliyatda ishtirok etayotgan shaxslarning (ayniqsa, jabrlanuvchi, guvoh, ekspert, tarjimon, prosessual vakil va boshqalarning) hayoti, sog‘lig‘i va mulkiga xavf tug‘diruvchi holatlarda ularni davlat tomonidan himoya qilish choralari belgilovchi meyoriy-huquqiy asosni yaratishdan iboratdir³⁷².

Qonun bunda quyidagi ikki asosiy yo‘nalishda himoyani nazarda tutadi:

- 1) Xavfsizlik choralari: shaxsning hayoti, sog‘lig‘i va mulkini jismoniy yoki huquqiy muhofaza qilishga qaratilgan tadbirlar majmuasi;
- 2) Ijtimoiy himoya choralari: jinoyat ishlarida ishtirok etgani tufayli shaxsning ijtimoiy-iqtisodiy holatiga yetgan zararni kamaytirish va qoplashga qaratilgan choralalar;

Qonun jinoyat prosessida ishtirok etgan shaxslar xavfsizligini ta’minlashda davlatning kafolatlangan mas’uliyatini belgilaydi. Bu nafaqat jabrlanuvchi va guvohlarning huquqlarini himoya qilish, balki ularning jinoyat ishlarida erkin va ta’sirsiz ishtirok etishini ta’minlashga xizmat qiladi. Qonun bilan belgilangan chora-tadbirlar inson huquqlari va sud adolatini ta’minlashning ajralmas qismi hisoblanadi.

Turkmaniston Jinoyat kodeksida jinoyat orqali yetkazilgan zararni qoplashni ta’minlash choralari huquqiy tartibga solinishida o‘xshash yondashuv belgilab qo‘yilgan bo‘lib, unda zararni qoplash majburiyatini yuklash jazoning eng yengil turi sifatida qaraladi (Turkmaniston Jinoyat kodeksi, 44-modda, 1-qism, “a” bandi). U

³⁷¹Закон Туркменистана О государственной защите потерпевших, свидетелей и иных участников уголовного судопроизводства <https://www.parahat.info/law/2016-01-23-zakon-turkmenistana-o-gosudarstvennoy-zaschite-poterpevshih-svideteley-i-inyh-uchastnikov-ugolovnog-sudoproizvodstva>

³⁷² Закон Туркменистана О государственной защите потерпевших, свидетелей и иных участников уголовного судопроизводства// <https://www.parahat.info/law/2016-01-23-zakon-turkmenistana-o-gosudarstvennoy-zaschite-poterpevshih-svideteley-i-inyh-uchastnikov-ugolovnog-sudoproizvodstva>

mazkur jazo turi ham asosiy, ham qo'shimcha jazo sifatida qo'llanishi mumkin (JK 45-modda, 2-qism).

Masalan, asosiy jazo sifatida zararni qoplash majburiyati, ehtiyotsizlik orqali katta miqdorda mulkni yo'q qilish yoki shikastlash kabi mulkiy jinoyatlar uchun tayinlanadi. Qo'shimcha jazo sifatida esa, bunday majburiyat mulkiy jinoyatlar bo'yicha, jumladan, ozodlikdan mahrum etish yoki harbiy-islohot muassasalarida saqlash jazolari bilan bir qatorda belgilanishi mumkin³⁷³.

Agar zararni qoplash majburiyati jazo sifatida voyaga yetmagan shaxsga tayinlansa, sud quyidagi ikki mezonni inobatga olishi lozim:

Bu tartib tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishga qaratilgan majburiy tartib-tadbir hisoblanadi va jazolovchi xarakterga ega emas; faqatgina birinchi marta sodir etilgan yengil jinoyatlar uchun, voyaga yetmagan shaxsning moliyaviy holati va mehnat ko'nikmalari mavjudligini hisobga olgan holda qo'llanilishi mumkin (JK 89-modda, 2-qism, "v" bandi; 90-modda, 3-qism)³⁷⁴.

Turkmaniston Jinoyat kodeksining 46-moddasiga ko'ra, zararni qoplash majburiyatini tayinlash shartlariga sud tomonidan zararning xarakteri, uning real ravishda bartaraf etilishi imkoniyati, aybdor shaxsning shaxsiy sifatlari va yetkazilgan zararni bartaraf etish qobiliyati kiritilgan.

Turkmaniston Jinoyat-ijroiya kodeksi (2011 yil 25 martdagi №164-IV) va JK 46-moddasining 1-qismiga muvofiq, zararni qoplash majburiyati sudlangan shaxs tomonidan quyidagi shartlar asosida bajarilgan deb hisoblanadi:

a) yetkazilgan zararni bevosita bartaraf etish (masalan, sudlangan shaxsning o'z hisobidan va o'z kuchi bilan shikastlangan mulkni tiklashi);

b) moddiy va ma'naviy zararni qoplash (jumladan, pul kompensatsiyasi to'lash, shikastlangan yoki yo'q qilingan mulk o'rniga yangi mulk berish, jabrlanuvchiga foydali ishlar qilish);

³⁷³ Смирнов А.В., Калиновский К.Б. Комментарий к Уголовному кодексу Туркменистана. Постатейный / под общ. ред. проф. А.В. Смирнова. Ашхабад, 2013 // URL: <http://continent-online.com>

³⁷⁴ О внесении изменений и дополнений в Уголовный кодекс Туркменистана и утверждении его в новой редакции от 17 апреля 2022 года № 456-VI//<https://ombudsman.gov.tm/doc81.pdf>

v) jabrlanuvchidan omma oldida kechirim so‘rash (jamoat joyida yoki boshqa shaxslar ishtirokida to‘liq tan olish va chin dildan pushaymonligini bildirish).

Turkmaniston Jinoyat-ijroiya kodeksi (13-modda, 1–2-qismlari va 23-modda)³⁷⁵ ga ko‘ra, zararni qoplash majburiyati ko‘rinishidagi jazoni ijro etish hukm chiqargan sudning sud ijrochilari tomonidan, yoki sudlangan shaxs yashaydigan joydagi, uning mulki joylashgan yoki u ishlaydigan joydagi sudlar tomonidan amalga oshiriladi.

Agar bu turdagi jazo ozodlikdan mahrum etish yoki harbiy muassasasida saqlash jazosiga qo‘shimcha sifatida tayinlangan bo‘lsa, uni amalga oshirish turma muassasalari yoki harbiy muassasalari vakolatiga kiradi.

Sudlangan shaxs zararni qoplash majburiyatini bajarishdan bo‘yin tovlasa, sud mazkur jazoni jarima yoki jamoat ishlariga almashtirishi mumkin. Bu almashtirish jazoning tegishli moddasi sanksiyasida ko‘rsatilgan muddatda yoki agar u yerda ko‘rsatilmagan bo‘lsa, JKning 47 va 50-moddalarida belgilangan eng kam miqdorlarda amalga oshiriladi. Shunga o‘xshash qoida Turkmaniston Jinoyat-ijroiya kodeksining 24-moddasida ham mustahkamlab qo‘yilgan.

Turkmanistonda ham jabrlanuvchi bilan yarashuv instituti mavjud bo‘lib, faqatgina 3 turdagi jinoyatga nisbatan qo‘llanilishi belgilangan³⁷⁶. Yarashuv qo‘llanilgandan so‘ng jinoyat sodir etgan shaxs o‘zaro kelishuv qoidalariga amal qilmagan taqdirda unga nisbatan jinoyat ishi yurituvi qayta tiklanishi mumkinligi bilan bog‘liq qoida 2014-yilda ushbu davlatning Jinoyat-prosessual kodeksiga kiritiladi³⁷⁷.

Ushbu davlatning jinoyat qonunchiligini o‘rganganimizda “Yetkazilgan zararni qoplash majburiyatini yuklash” jinoiy jazosi (Turkmaniston JKning 43-moddasi) ya’ni **yetkazilgan** zararni qoplash majburiyati - bu jabrlanuvchiga yetkazilgan zararni to‘g‘ridan-to‘g‘ri bartaraf etish, moddiy va ma’naviy ziyonni qoplash, shuningdek,

³⁷⁵Уголовно - исполнительный кодекс Туркменистана// minjust.gov.tm/ru/hukuk/merkezi/hukuk/211

³⁷⁶ Бекирова, А. (2020). Жабрланувчи мақоми ва ҳуқуқлари: Туркменистон тажрибаси // «Юриспруденция и практика». №4. – С. 105–112

³⁷⁷ Nazarova, M. (2017). *Criminal Procedural Rights of Victims in Central Asia: A Comparative Review*. Journal of Legal Reform in Post-Soviet States, Vol. 9(1), pp. 22–30.

jabrlanuvchidan ommaviy kechirim so‘rashdan iboratdir³⁷⁸. Ushbu jazo asosiy va qo‘shimcha jazo sifatida qo‘llanilishi mumkin va sud ushbu jazoni qo‘llash vaqtida yetkazilgan zarar miqdorini, shaxsning zararni qoplash uchun haqiqiy imkoniyati mavjudligini, sudlanuvchining shaxsi va uning tuzalish yo‘liga kirganligi holatlarini aniqlashi lozim. Agarda, mahkum yetkazilgan zararni qoplash majburiyatini bajarishdan bosh tortsa, ushbu jazo jarima yoki axloq tuzatish ishlari jazosiga almashtirilishi mumkin³⁷⁹.

Jinoyat prosessida jabrlanuvchining huquq va manfaatlarini ta‘minlashda davlatning kafolatlangan mas‘uliyatini belgilaydi. Bu nafaqat jabrlanuvchi va guvohlarning huquqlarini himoya qilish, balki ularning jinoyat ishlarida erkin va ta‘sirsiz ishtirok etishini ta‘minlashga xizmat qiladi. Qonun bilan belgilangan chora-tadbirlar inson huquqlari va odil sudlovni ta‘minlashning ajralmas qismi hisoblanadi.

Qozog‘iston Respublikasi qonunchiligida roman-german qonunchiligiga xos, jinoyat prosessida jinoyatdan jabr ko‘rgan shaxs yozma yoki elektron shakldagi ariza bilan murojaat qilishi mumkin. Bizning qonunchiligimizda esa ayni shu holatda elektron murojaat qilish tartibi JPK doirasida tartibga solinmagan. Shuningdek, ushbu davlatda shaxsni ishda fuqaroviy da‘vogar sifatida e‘tirof etish, e‘tirof etishni rad etish yoki shaxsning fuqaroviy da‘vogar sifatida ishda ishtirok etishini tugatish to‘g‘risida qarorlar chiqarishi mumkinligi tartibga solingan. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-prosessual kodeksining 282-moddasida da‘voda voz kechishning qabul qilinishi da‘vo bo‘yicha ish yuritishni tugatishga asos bo‘lishi mumkinligi qayd etilgan bo‘lsa-da, ushbu holatda fuqaroviy da‘vogar sifatida jalb qilingan shaxsga nisbatan amalga oshiriladigan prosessual harakatlar tartibga solinmagan, ya‘ni shaxsning fuqaroviy da‘vogar sifatida ishda ishtirok etishini tugatish to‘g‘risida qaror chiqarilishi qonun chiqaruvchi e‘tibordan chetda qolgan.

Qozog‘iston Respublikasi JPKning 166-moddasida (Jinoyat prosessida ko‘riladigan fuqaroviy da‘volar) vakillik xarajatlari, surishtiruv, dastlabki tergov va

³⁷⁸ Уголовный кодекс Турмениистана от 12 июня 1997 года № 222-І. (с изменениями и дополнениями по состоянию на 12.04.2025 г.) // <https://wipolex-resources-eu-central58922420655.xdocs/laws/ru/tm/tm015ru.pdf>

³⁷⁹ Bekirova, A. (2020). Zärer çekenî hukuk ýagdaýy we hukuklary: Türkmen tejribesi // «Hukuk we amalyýet» žurnaly. №4. – S. 105–112.

sudda ishtirok etish bilan bog‘liq xarajatlarni qoplash to‘g‘risidagi fuqaroviy da‘volar ham ko‘rib chiqilishi belgilab qo‘yilgan.

Mamlakatda 2018-yil 10-yanvar kuni “Jabrlanganlar uchun kompensatsiya jamg‘armasi to‘g‘risida”gi qonun³⁸⁰ qabul qilinganligi jinoyat natijasida zarar ko‘rgan shaxslarning huquqlarini tiklash uchun tashlangan katta qadam bo‘ldi. Ushbu qonun jinsiy zo‘ravonlik bilan bog‘liq jinoyatlarning qurboni bo‘lgan voyaga yetmaganlar, odam savdosi va qiynoqlar bilan bog‘liq jinoyat jabrlanuvchilari, sog‘ligiga jiddiy zarar yetkazilgan yoki orttirilgan immunitet tanqisligi virusi bilan kasallangan shaxslar, jabrlanuvchi vafot etgan taqdirda, uning huquqlari o‘tgan shaxslarga kompensatsiya to‘lab berishni huquqiy jihatdan tartibga soladi.

“Jabrlanganlar uchun kompensatsiya jamg‘armasi to‘g‘risida”gi qonun Qozog‘iston Jinoyat kodeksining 46 ta moddasidagi 124 ta jinoyat tarkibi bo‘yicha jabrlangan shaxslarga kompensatsiya to‘lab berishni nazarda tutadi.

Qonunga ko‘ra shaxs jabrlanuvchi deb e‘tirof etilgandan so‘ng 3 yil davomida kompensatsiya to‘lash to‘g‘risida ariza bilan murojaat qilishi kerak. Uning murojaati qabul qilingandan so‘ng 10 kalendar kuni ichida ko‘rib chiqilish va sud kompensatsiya ajratilishi yoki murojaatni rad etish bo‘yicha qaror chiqarishi shart³⁸¹. Sud quyidagi hollarda murojaatni rad etishi mumkin: Ariza berish mumkin bo‘lgan 3 yillik muddat o‘tkazib yuborilgan bo‘lsa; soxta hujjatlar taqdim etilgan bo‘lsa; shaxsga yetkazilgan zarar aybdor shaxs tomonidan to‘liq hajmda qoplangan bo‘lsa; tegishli organ tomonidan shaxsning jabrlanuvchi sifatidagi maqomi tugatilgan bo‘lsa. Kompensatsiya ajratish bo‘yicha sud qaror chiqargandan so‘ng 10 kalendar kunidan kechiktirmasdan kompensatsiya to‘lashga mas‘ul organ tomonidan jabrlanuvchi yoki uning qonuniy vakilining bank hisob raqamiga tegishli miqdordagi pul summasi o‘tkazib beriladi. To‘lanadigan kompensatsiya miqdori birinchi toifaga kiritilgan jinoyatlar uchun Qozog‘iston 30 MRP (oylik hisob ko‘rsatkichi)da bo‘lib 2025 yil

³⁸⁰ Закона Республики Казахстан «О Фонде компенсации потерпевшим» от 10 января 2018 года № 131-VI. https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=34216824

³⁸¹ Бектенов А. Е., Омарова Н.Н. Фонд компенсации потерпевшим: недостатки и преимущества// Вестник Института Законодательства И Правовой Информации РК № 2 (65) -2021 file:///C:/Users/user/Downloads/fond-kompensatsii-poterpevshim-nedostatki-i-preimuschestva%20(1).pdf

holatida 117 960 qozoq tengesini; ikkinchi toifaga kiritilgan jinoyatlar uchun 40 MRP ya'ni 157 280 qozoq tengesini; uchinchi toifadagi jinoyatlar uchun esa 50 MRP ya'ni 196 600 qozoq tengesini tashkil etadi. Ushbu fond o'tgan yil hisobida jami 312 million qozoq tengesida jinoyatlardan jabrlanganlarga to'lab berilgan³⁸².

Ushbu kompensatsiya jamg'armasining pul mablag'lari quyidagilardan shakllantiriladi:

- sud tomonidan undirilgan majburiy to'lovlar;
- sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi asosida undirilayotgan axloq tuzatish jazosidan undirilayotgan pullar (Qozog'iston Respublikasi Jinoyat kodeksining 42-moddasiga ko'ra axloq tuzatish ishlari jazosi aybdor shaxs daromadining 10 foizidan 50 foiziga qadar miqdorda belgilanishi mumkin, taqqoslash uchun O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 46-moddasiga ko'ra bu miqdor 10 foizdan 30 foizga qadar bo'lishi mumkin);
- regress talabi asosida undirilgan pul mablag'lari (aybdor shaxsdan undiriladi);
- prosess ishtirokchilarining o'z majburiyatlarini bajarmaganligi uchun qo'llanilgan jarima bilan bog'liq pul mablag'lari.

Yuqoridagi keltirilgan qiymat jabrlanuvchilar soniga taqsimlanganda uncha ham ko'p miqdorni tashkil etmasada, bu ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar uchun muhim qadam hisoblanadi.

A.V. Sumachevning fikricha "jinoyatdan jabrlangan shaxsga yetkazilgan zararni kompensatsiya qilish ma'suliyati davlat zimmasiga yuklanadi va uning tartibga solish munosabatlaridagi kafolatidan ya'ni fuqarolarning shaxsiy xavfsizligini ta'minlash majburiyatidan kelib chiqadi"³⁸³ deb ta'kidlaydi. N.V. Geynrix yuqoridagi olimning fikriga qo'shilgan holda "Agar inson huquqlari, erkinliklarini himoya qilish va xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha konstitutsiyaviy mas'uliyatga ega bo'lgan davlat, sodir etilgan jinoyat faktining oldini olishga qodir

³⁸² Қозоғистон Республикаси Бош Прокуратурасининг ҳисоботи
<https://www.gov.kz/memleket/entities/prokuror/press/news/details/515404?lang=ru>

³⁸³ Сумачев А. В. Публичность и диспозитивность в уголовном праве. М., 2023. С.124.

bo'lmasa, buning uchun u tomonidan zarar ko'rgan shaxs oldida javobgar bo'lishi kerak. birinchi navbatda jinoyat sodir etildimi? Javobgarlikning muqarrarlighi prinsipiga muvofiq, davlatning jinoyat sodir bo'lishiga yo'l qo'yilganligi va yetkazilgan zararni qoplash majburiyatini zimmasiga olishda ifodalanishi kerak.”³⁸⁴

Bektenov A.YE va Omarova N.N.larning fikricha “jinoyat natijasida jabrlanganlarga kompensatsiya to'lash va jinoyat prosessual qonunchiligidagi o'zgartishlar Qozog'iston Respublikasida jinoyat natijasida yetkazilgan zararni qoplashning chinakam samarali tizimi yaratilishiga zamin bo'ldi”³⁸⁵ deya ta'kidlaydilar.

Qozog'iston Respublikasida Fond o'zining ijtimoiy saytida shaffof holatda faoliyat yuritishi kuzatish mumkin va bugungi kundagi mablag'i 250 mlyard³⁸⁶ qozoq tengesini tashkil etadi.

Qirg'iz Respublikasi Jinoyat-prosessual kodeksida zarar tushunchasiga “pul bilan o'lchanadigan ma'naviy, jismoniy yoki mulkiy zarar” deya ta'rif berilgan. Ushbu kodeksning 50-moddasida (Jabrlanuvchining huquq va majburiyatlari) jabrlanuvchi jinoyat natijasida yetkazilgan zararni davlat hisobidan qoplash huquqiga ega ekanligi qayd etilgan.

Garov ehtiyot chorasini uning miqdori yetkazilgan zarar miqdoridan uch barobar ko'p bo'lgan taqdirdagina qo'llanilishi mumkinligi belgilangan. Iqtisodiy sohadagi jinoyatlarni sodir etib, yuqorida belgilangan summani garov sifatida qo'ygan shaxslarga nisbatan qamoq ehtiyot chorasi qo'llanilmasligi belgilangan.

Shuningdek, ushbu davlatda voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar bo'yicha alohida yarashuv instituti mavjud bo'lib, uni qo'llash uchun asoslardan biri sifatida yetkazilgan zarar qoplangan bo'lishi talab qilinadi.

Mamlakatimizda jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan mulkiy zararlarni kompensatsiya qilish bo'yicha respublika va hududiy maqsadli jamg'armalarini

³⁸⁴ См.: Когамов М. Обвинение, защита, правосудие в контексте нового УПК// URL: <http://online.zakon.kz/>

³⁸⁵ Нурсейтова Т. Иоган Меркель рассказывает о новых механизмах защиты граждан при уголовном преследовании // URL: <http://online.zakon.kz/>

³⁸⁶ <https://qazaqstanhalqyna.kz/ru>

tashkil qilish lozimligi to'g'risidagi Vazirlar Mahkamasining "Jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan mulkiy zararlarni kompensatsiya qilish bo'yicha maqsadli jamg'armalar mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi to'g'risida nizomni tasdiqlash haqida"³⁸⁷gi 2024 yil 5 yanvardagi 9-son qarori nizomida belgilab o'tilgan. Unga muvofiq, davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari va xizmatchilarining qonunga xilof deb topilgan qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) natijasida jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan va sudning qonuniy kuchga kirgan qarori bilan aniqlangan zararlarni hududiy kompensatsiya jamg'armalari tomonidan qoplab berilishi hamda tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar, surishtiruv, dastlabki tergov, prokuratura organlari va sudning qonunga xilof deb topilgan harakatlari yoki harakatsizligi tufayli yetkazilgan zarar va ma'naviy ziyonlar to'lab berilishi lozim, biroq ushbu jamg'armalar aynan jinoyatdan jabrlanganlarga yetkazilgan zararni qoplash masalasining aniq mexanizmi qonun bilan belgilanmaganligi uchun jabrlanuvchilarning huquq va manfaatlari yetarli darajada muhofaza qilinmayotganligini kuzatish mumkin.

Fikrimizcha, mamlakatimizda tadqiqotimiz natijasida ishlab chiqilgan "Jinoyat natijasida yetkazilgan zararni qoplash"(Ilova №3) hamda "Davlat organing yoki uning mansabdor shaxsining qonunga xilof qarori yoki harakati yohud harakatsizligi tufayli yetkazilgan zararining o'rnini qoplash to'g'risida"gi (Ilova№2) qonun loyihalarini qabul qilish maqsadga muvofiqdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Osiyo mamlakatlarida jabrlanuvchiga rasmiy huquqiy maqom berish jinoyat proessining muhim qismi hisoblanadi. Uning maqomi jabrlanuvchiga jinoyat proessida faol qatnashish imkoniyatini beradi. Aksariyat Osiyo mamlakatlarida jabrlanuvchiga huquqiy maslahat berish va uning manfaatlarini himoya qilish uchun advokat yoki davlat tomonidan tayinlangan

³⁸⁷ Вазирлар Маҳкамасининг "Жисмоний ва юридик шахсларга етказилган мулкий зарарларни компенсация қилиш бўйича мақсадли жамғармалар маблағларини шакллантириш ва улардан фойдаланиш тартиби тўғрисида низомни тасдиқлаш ҳақида"ги 2024 йил 5 январь №9 сонли қарори //Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 10.01.2024 й., 09/24/9/0012-сон) <https://lex.uz/docs/4130273?ONDATE=10.01.2024>

himoyachini jalb qilinadi³⁸⁸. Jabrlanuvchining huquq va manfaatlari muhofazasi jabrlanuvchiga ishning har bir bosqichida ma'lumot berish majburiyati, jumladan, tergov, sud jarayoni va hukm chiqarilishi jarayonidan boxabar qilinadi, Masalan, Yaponiyada jabrlanuvchilarga jinoyat prosessning bosqichlari haqida xabardor qilish huquqi va uning roziligi, ularning sud majlislarida ishtirok etishi, guvohlik berish va o'z manfaatlarini himoya qilish uchun sudga murojaat qilish huquqi mavjud.

Hindistonda, jabrlanuvchilarga o'z huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun sudda mustaqil ravishda yoki advokat orqali ishtirok etish imkoniyati beriladi hamda ularda qarshilik bildirish huquqi ya'ni jabrlanuvchiga ayblanuvchiga nisbatan qabul qilingan qarorlarga qarshi shikoyat qilish huquqi mavjud. Ba'zi Osiyo mamlakatlarida, jumladan, Janubiy Koreya va Filippinda, jabrlanuvchilarga bu huquq cheklangan³⁸⁹ yoki qonun bilan aniq belgilanmagan.

Jabrlanuvchilar huquqlarini himoya qilish bo'yicha BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan qabul qilingan normalarni amalda qo'llash maqsadida Osiyo mamlakatlari, jumladan, Bangladesh va Indoneziyada xalqaro konvensiyalar talablariga muvofiq, o'z milliy qonunchiligini takomillashtirishgan ya'ni milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirilgan.

Yaponiya, Tojikiston va Qirg'iz Respublikasi tajribalari asosida ehtiyot chorasi sifatida garov qo'llanilganda uning eng kam miqdori jinoyat natijasida yetkazilgan zarar, shuningdek, keyinchalik unga qo'llanilishi mumkin bo'lgan jarima jazosining eng yuqori miqdoridan kam bo'lmasligi bilan bog'liq qoidalarini jinoyat-prosessual qonunchilikka kiritish lozim deb hisoblaymiz. Bunday tartibdagi garov qo'llanilgan shaxslarga nisbatan qamoq ehtiyot chorasi (agar ehtiyot chorasi bilan belgilangan majburiyatlarni bajarmagan hollar bundan mustasno) qo'llanilmasligi va aksincha yetkazilgan zarar miqdori to'liq qoplanmagan taqdirda garov yoki boshqa yengilroq

³⁸⁸ Программа «Средняя Азия – Верховенство Права»: Содействие прозрачности и борьбе с экономическими преступлениями <https://iphronline.org/ru/articles/centralnaja-azija-ushhemlenie-prav-cheloveka-vo-imja-stabilnosti-20150518>

³⁸⁹ Terence Yung, *Victim Protection and Restorative Justice in East Asia*, *Asian Criminology*, 2019.// https://www.researchgate.net/publication/327312326_Routledge_International_Handbook_of_Restorative_Justice

ehtiyot choralarini qo'llashga yo'l qo'yilmasligi maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

O'zbekiston Respublikasi jinoyat-prosessual qonunchiligiga mediativ kelishuv institutini joriy etish orqali jinoyat natijasida yetkazilgan zararning qoplanishini bir muncha yaxshilanishiga erishish mumkin deb hisoblaymiz. Bunda yarashuvdan farqli ravishda tomonlarning kelishuviga jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan organlar qatnashmaydi va kelishuvga erishish faqatgina tomonlar ishtirokida mediator tomonidan hal qilinadi. Agar tomonlar o'zaro bunday kelishuvga erishgan bo'lsalar, ularga nisbatan sud tomonidan jazo tayinlash jarayonida agar shaxs sodir etgan jinoyatning sanksiyasi bir yilgacha ozodlikdan mahrum etish yoki unga tenglashtirilgan jazoni nazarda tutsa va shaxs jinoyat natijasida yetkazilgan zararni to'liq qoplagan bo'lsa, sud ularga jazo tayinlamasdan hukm chiqarishi shartligi bilan bog'liq qoidaning kiritilishi, agar ushbu shaxsga nisbatan tayinlanishi mumkin bo'lgan jazo bir yildan oshiq muddatdagi ozodlikdan mahrum etish yoki unga tenglashtirilgan jazoni nazarda tutsa, jazo tayinlanishi mumkin bo'lgan miqdorning yarimidan oshmasligi belgilanishi lozim.

Singapur davlati tajribasida³⁹⁰ kuzatilgan aybdor shaxs sud hukm chiqarishiga qadar jinoyat natijasida yetkazilgan zararni qoplamagan bo'lsa, sud tomonidan unga nisbatan ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq qo'shimcha jazo tayinlanishi mumkinligi (zarar miqdoriga qarab, albatta) bilan bog'liq amaliyotning bizning davlatda ham qo'llab ko'rilishi ijobiy samara berishi mumkin degan fikrdamiz.

Xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalarini o'rganish ushbu sohadagi faoliyatni tartibga solish va jinoyatdan jabr ko'rgan shaxslarning huquqlarini tiklash, ularga yetkazilgan zararni qoplashda ma'lum bir darajada yordam berishga xizmat qiladi.

Xulosa sifatida shuni qayd etish lozimki, mamlakatimizda jinoyatdan jabrlanganlarning huquq va manfaatlarini muhofaza qilish har bir jinoyat prosessining muhim qismi bo'lib, uni ta'minlash uchun huquqiy, psixologik va amaliy

³⁹⁰ Chan, Gary Kok Yew. Prosecutorial discretion and the legal limits in Singapore [online]. Singapore Academy of Law Journal, Vol. 25, No. 1, Mar 2013: 15-50 [Электронный ресурс]. URL: <http://search.informit.com.au/documentSummary> (мурожаат этилган вақт.: 07.02.2025)

mexanizmlar ishlab chiqilishi lozim. Osiyo mamlakatlari misolida jabrlanuvchilarning huquqlarini himoya qilish sohasida xalqaro tajribadan foydalanish va milliy qonunchilikni takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Kontinental mamlakatlar jinoyat prosessida jabrlanuvchining huquq va manfaatlari muhofazasi Anglo-amerika huquq tizimiga qaraganda biroz boshqacharoq tartibga solingan. Kontinental mamlakatlarda jabrlanuvchi jinoyat ishida “ikkinchi taraf” tomon deb hisoblanadi. Bu degani, u jinoyat ishining asosiy subyekti emas va unda faqat o‘z huquqlarini himoya qilishga haqli bo‘ladi. Ammo, so‘nggi yillarda, jabrlanuvchining huquqlari kontinental mamlakatlarda ham kengaytirilmoqda va ularning jinoyat ishida faolroq ishtirok etishiga imkoniyatlar bermoqda. Kontinental mamlakatlarda jabrlanuvchining huquqlarini muhofaza qilish quyidagi tamoyillarga asoslangan:

1. Jabrlanuvchining huquqlarini e‘tirof etish: Jabrlanuvchilarning o‘zlarini qo‘llab-quvvatlash va o‘z huquqlarini himoya qilishga haqli ekanligi kontinental mamlakatlar qonunchiligida ham tan olingan. Jabrlanuvchilarning huquqlarini himoya qilish bo‘yicha qonunlar va normativ hujjatlar qabul qilingan;

2. Jabrlanuvchining prosessual huquqlari jinoyat ishida o‘zlarining huquqlaridan xabardor bo‘lishga, prokuror bilan aloqa qilishga va sudda ishtirok etishga haqli ekanligi tasdiqlangan. Jabrlanuvchilarning jinoyat ishi bo‘yicha o‘z fikrlarini bildirishga va guvohlik berishga haqli ekanligi tasdiqlangan. Jabrlanuvchilarning sudda o‘z azob-uqubatlari haqida gapirishga va jabrlanuvchilarni himoya qilish xizmatlaridan foydalanishga haqli ekanligi tasdiqlangan;

3. Jabrlanuvchining moliyaviy va ruhiy yordami: Jabrlanuvchilarning tibbiy xarajatlar, psixologiya xizmatlari va boshqa xarajatlarni qoplashga haqli ekanligi tasdiqlangan. jabrlanuvchilarni himoya qilish xizmatlaridan foydalanishga haqli ekanligi tasdiqlangan. Jabrlanuvchilarning sudda ayblanuvchi tomonidan yetkazilgan jismoniy va ruhiy zarar uchun kompensatsiya olishga haqli ekanligi tasdiqlangan;

4. Jabrlanuvchilarni himoya qilish bo‘yicha davlat organlari: Kontinental mamlakatlarda ham davlat organlariga jabrlanuvchilarni himoya qilish va ularga

yordam berish bo'yicha mas'uliyat yuklaydi hamda ularni qo'llab-quvvatlash va himoya qilish bo'yicha maxsus xizmatlar tashkil etilgan;

5. Jabrlanuvchilarning o'z huquqlari haqida xabardor bo'lishlari va o'z huquqlarini himoya qilishni o'rganishga haqli ekanligi tasdiqlangan. Kontinental mamlakatlarda jabrlanuvchilarning huquqlarini muhofaza qilish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib boriladi va ushbu sohada yangi qonunlar qabul qilinib, jabrlanuvchilarning huquqlarini yanada mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshiriladi; Ammo, kontinental mamlakatlarda ham jabrlanuvchilarning huquqlarini himoya qilishda ayrim muammolar mavjud. Masalan, jabrlanuvchilarning sudda o'z huquqlaridan foydalanish imkoniyatlari hali ham cheklangan, jabrlanuvchilar sud jarayonidan xabardor bo'lmasligi mumkin, jabrlanuvchilarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha resurslar yetarli emas. Jabrlanuvchilarning huquqlarini himoya qilish bu hamma mamlakatlar uchun muhim masala bo'lib, jabrlanuvchilarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha yanada yaxshi natijalarga erishish uchun ishlar davom ettirilishi kerak.

Bu davlatlarning huquq tizimlarida bir-biriga o'xshash tomonlari, masalan, Rim huquqiga asoslangan bo'lishi, qonunchilikning asosiy manbasi ekanligi, sud tizimida kassatsiya sudlari bo'lishi va hakoza bor. Ammo, har bir davlatning tarixi va madaniyati sababli ularning huquq tizimlarida ayrim farqlar ham mavjud. Kontinental huquq oilasiga dunyoning ko'plab davlatlari kiradi. Bu tizim Rim huquqiga asoslangan bo'lib, Yevropadan boshlanib, Amerika, Afrika va Osiyoga tarqalgan.

XULOSA

Xalqaro huquqda jabrlanuvchining huquq va manfaatlarini himoya qilish masalasi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab alohida e'tiborga tusha boshladi. Avvalo, inson huquqlarini ta'minlash va adolatli sud muhitini yaratish nuqtai nazaridan, xalqaro tashkilotlar jinoyat qurbonlarining huquqiy maqomini mustahkamlashga intila boshladilar.

Yangi O'zbekiston taraqqiyotining ustuvor g'oyasiga aylangan inson huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini to'laqonli himoya qilish hamda adolatni qaror toptirishni dalat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylantirgan, ushbu sohada mutlaqo yangi xalqaro tashabbuslar muallifi bo'lgan davlat sifatida tanilmoqda va e'tirof etilmoqda.

So'nggi yillarda mamlakatimizda "Inson qadri uchun" degan ezgu g'oyani to'liq ro'yobga chiqarish, inson huquq va erkinliklari sohasidagi xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implemantatsiya qilish, davlat organlari faoliyatiga tizimli va bosqichma-bosqich joriy etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Inson huquqlari va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish hamda qonun ustuvorligini ta'minlash, shuningdek, jamiyat va har bir fuqaro hayotiga ularni tadbiiq etish Yangi O'zbekistonning ichki va tashqi siyosatida markaziiy o'rinni egallab kelmoqda.³⁹¹

Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasida "Har bir inson o'z huquq va erkinliklarini musaqil amalga oshirishida davlatning roli katta hisoblanadi", ya'ni davlat tuzilishi va siyosiiy rejimidan qat'iiy nazar, inson huquqlarini ta'minlashi zarur.

1. BMTning universal hujjatlari, Yevropa Ittifoqi, Xalqaro yuristlar komissiiyasi (XYUK) nodavlat tashkiloti, Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi, "Human Rights Watch", "Amnesty International" va boshqa tashkilotlar shug'ullanadilar. Mavjud qonunchilikni tahlil qilishdan oldin, milliiy qonunchilikning rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan bir qator xalqaro-huquqiiy hujjatlardan biri

³⁹¹ "Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси қабул қилинганлигининг 75 йиллигини кенг нишонлаш тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони ПФ-70-сон 2023 йил 12 май. // Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари // Илмий-маърифий журнал 2(98)-2023. 39-6.

BMTning 1948 yil 10 dekabrda qabul qilingan “Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi”dir. Unda jabrlanuvchilarning holati to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatilmasada, ammo ba’zi qoidalar ushbu maqomni shakllantirish uchun zarur bo‘lgan asosni yaratadi: 3-moddasida: “Har bir inson yashash, erkin bo‘lish va shaxsiy daxlsizlik huquqlariga egadir”, 8-moddasida: “Har bir inson unga konstitutsiya yoki qonun orqali berilgan asosiy huquqlari buzilgan hollarda nufuzli milliy sudlar tomonidan bu huquqlarning samarali tiklanishi huquqiga ega”, 28-moddada: “Har bir inson ushbu Deklaratsiyada bayon etilgan huquq va erkinliklar to‘liq amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy va xalqaro tartib bo‘lishi huquqiga egadir”, deb belgilangan³⁹². BMTning 1966 yil 19 dekabrda “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt” qabul qilindi. Paktning 2-modda 3-qismida belgilanishicha, ushbu paktga ishtirok etuvchi har bir davlat o‘z zimmasiga quyidagi majburiyatlarni oladi: a) mazkur Paktga tan olingan huquq va erkinliklari buzilgan har bir shaxsning, agar bu xol rasmiy sifatda harakat qilgan shaxslar tomonidan sodir etilgan bo‘lsa ham, huquqiy himoyalaniishning samarali vositalari bilan ta’minlanishi shart; b) ana shu himoya talab qiluvchi har qanday shaxs uchun yuridik himoya nufuzli sud, ma’muriy yoki qonuniy hokimiyatlar tomonidan yoki davlatning tizimida nazarda tutilgan boshqa nufuzli organlar tomonidan ta’minlansin va sud orqali himoyalaniish imkoniyati rivojlantirilsin; s) huquqiy himoya vositalari berilganda, nufuzli hokimiyatlar buni qo‘llashni ta’minlasinlar. Deklaratsiyaga muvofiq, restitutsiya (lot. restitutio – tiklash) – buzilgan huquqlarini qayta tiklash, mulkni qaytarish yoki yetkazilgan zararni qoplashni talab qiladi.

Yuqoridagi xorijiy davlatlarning ijobiy tajribasini o‘rganish natijasida olingan xulosalardan kelib chiqib quyidagilar tavsiya etiladi:

– AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Yaponiya, Isroil, Qozog‘iston davlatlarida mavjud bo‘lgan zararni qoplab berish bo‘yicha davlat, xususiy va jamoat fondlarini mamlakatimizning iqtisodiy va huquqiy imkoniyatlarini inobatga olgan holda maqbul tartibda joriy etish va keyinchalik ushbu qoplab

³⁹² БМТнинг Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон Декларацияси. (электрон манба)
<https://constitution.uz/uz/pages/humanright>

berilgan pul summasini jinoyat sodir etishda aybdor deb topilgan shaxsdan regress tartibida undirib olish.

– Jinoyat natijasida yetkazilgan zarar qoplangan shaxslarning javobgarlik yoki jazodan ozod qilinishi bilan bog‘liq normalarda keltirilgan jinoyatlar ko‘lamini kengaytirish zarur deb hisoblaymiz. Germaniya tajribasiga mos ravishda ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyatlar bu borada asosiy o‘rinda turishi lozim.

– Hindistonda, jabrlanuvchilarga o‘z huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun sudda mustaqil ravishda yoki advokat orqali ishtirok etish imkoniyati beriladi hamda ularda qarshilik bildirish huquqi ya’ni jabrlanuvchiga ayblanuvchiga nisbatan qabul qilingan qarorlarga qarshi shikoyat qilish huquqi mavjud.

– Fundamental Akt o‘tmishda jabrlanuvchilar huquqlarining qo‘pol ravishda yetarlicha e’tibor berilmaganligini bartaraf etish maqsadida, jabrlanuvchilarni himoya qilish bo‘yicha turli chora-tadbirlarni joriy etadi. Fundamental Aktning maqsadi – jabrlanuvchilarni himoya qilish chora-tadbirlarini qabul qilish uchun ularning huquqlariga oid asosiy tamoyillarni belgilash, milliy hukumat, mahalliy hukumat va keng jamoatchilikning majburiyatlarini e’lon qilish, ushbu chora-tadbirlarni tizimli ravishda ilgari surish hamda jabrlanuvchilarning huquq va manfaatlarini himoya qilishdan iborat.

– Yaponiyada jinoyatdan jabrlangan shaxslar uchun maxsus kompensatsiya tizimi mavjud bu tizim jabrlanuvchilarga zararni qoplash uchun moliyaviy yordam ko‘rsatadi. Bu kompensatsiya jarayoni jinoyat ishlari bo‘yicha qonunlar va nizomlar xususan, Yaponiyada jabrlanuvchilarga moliyaviy yordam ko‘rsatish masalalari bir necha qonun va nizomlar orqali tartibga solinadi. Xususan, Angliyada “Jabrlanuvchilar kodeksi” mavjud bo‘lib, 2004 yildagi Oiladagi zo‘ravonlik, jinoyatchilik va qurbonlar to‘g‘risidagi qonunning 32-bo‘limiga muvofiq, Adliya Davlat kotibi tomonidan chiqarilgan³⁹³ bo‘lib “Angliya va Uelsda jinoyat qurbonlari uchun amaliyot kodeksi (Jabrlanuvchilar kodeksi)” qabul qilingan bo‘lib, jinoyat

³⁹³ "The Code of Practice for Victims of Crime in England and Wales (Victims' Code) was updated on 29 January 2025." <https://www.gov.uk/government/publications/the-code-of-practice-for-victims-of-crime/code-of-practice-for-victims-of-crime-in-england-and-wales-victims-code#fnref:1>

qurbonlariga davlat organlari, xususan polisiya, prokuratura, sud va boshqa idoralar tomonidan qanday munosabatda bo'lish lozimligi, ularga qanday huquq va xizmatlar taqdim etilishi kerakligi belgilab berilgan. Unga muvofiq jabrlanuvchi quyidagi asosiy huquqlarga ega: jinoyat yuzasidan olib borilayotgan ishlar to'g'risida axborot olish, tergov va sud jarayonida o'z huquqlarini himoya qilish hamda huquqiy yordam va maslahatlardan foydalanish, ehtiyojdan kelib chiqib psixologik yoki moliyaviy yordam olish, jinoyat oqibatida ko'rilgan zararlar haqida bayon etish, shuningdek, ayblanuvchi ozod qilingan taqdirda bu haqda xabardor qilinishi va boshqa tegishli prosessual huquqlardan foydalanish huquqi kafolatlangan.

O'zbekistonda restorativ adolat tushunchasini jinoyat prosessual huquq nazariyasiga tadbiq etish nafaqat inson huquqlarini kafolatlash, balki jinoyatchilikning oldini olish, ijtimoiy adolatni tiklash, jabrlanuvchilarning ruhiy barqarorligini ta'minlashda ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Jinoyat qurbonining oila a'zolariga to'lanadigan maksimal kompensatsiya summasini belgilashda oila a'zolarining soni va ularning moliyaviy ahvoli hisobga olinadi. O'lim yuz berganda kompensatsiya summasi oila a'zolarining ijtimoiy va moliyaviy ahvolidan kelib chiqib belgilanadi.

Transaksiya (yoki jinoiy javobgarlikdan pul to'lash yoki zararni qoplash orqali ozod qilish mexanizmi) - bu odil sudlovning samaradorligini oshirishga qaratilgan, lekin juda nozik institutdir. Uni noto'g'ri jinoyatlarga qo'llash "pul bilan adolat sotib olish" taassurotini uyg'otishi va korrupsiyaga yo'l ochishi mumkin. Transaksiyani qo'llash maqsadga muvofiq, bo'lgan jinoyatlar toifasi uchta asosiy prinsipga asoslanadi ya'ni jinoyat shaxsning hayoti, sog'lig'i yoki jinsiy daxlsizligiga tahdid solmagan bo'lishi kerak. Kompensatsiya qilish mumkinligi: Yetkazilgan zarar asosan moddiy (pulda ifodalash mumkin bo'lgan) bo'lishi lozim bo'lgan ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan, uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar. Transaksiyani qo'llash ma'qul bo'lgan jinoyatlar toifasiga iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlarni kiritish mumkin. Bu toifadagi jinoyatlarda asosiy zarar davlat g'aznasiga yetkaziladi va bu zarar aniq hisoblanadi. Transaksiya bu yerda eng samarali hisoblanadi.

Jinoyat ijtimoiy xavfliligidan qat'iy nazar ehtiyotsizlik natijasida sodir etilgan jinoyatlar uchun ham qo'llash samarali hisoblanadi.

Qozog'iston qonunchiligidagi "buyruq tartibi" qo'llaniladigan jinoyatlar transaksiyaga mos keladi.

Transaksiya mexanizmidan quyidagi toifadagi jinoyatlarda qat'iy ravishda voz kechish kerak, chunki bu jamoatchilik adolatga bo'lgan ishonchini yo'qotadi shaxsga qarshi jinoyatlar ya'ni xayotga, sog'liqqa, jinsiy daxlsizlikka qarshi jinoyatlar zo'rash, pedofiliya va boshqalar.

Transaksiya bu adolatning tiklash (Restorative Justice) va iqtisodiy samaradorlik tamoyillarini qo'llash imkoni bo'lgan, asosan moddiy zararli va yengil jinoyatlar uchun eng ma'qul yechimdir. Bu shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod etish evaziga jabrlanuvchiga yoki davlatga yetkazilgan zararni tez va to'liq qoplashni ta'minlaydi.

JPKga maxsus 62²-bob kiritilib, "Jinoyat prosessida mediativ kelishuv" deb nomlangan bob kiritilib mediatsiya tartib-taomillarini shartlari va natijalari aniq belgilab berilishi taklif etiladi:

62²-bob. Jinoyat prosessida mediativ kelishuv

586¹¹-modda. Jinoyat ishlari bo'yicha mediatsiyani qo'llashning maqsadi, asoslari va tamoyillari

Jinoyat ishlari bo'yicha mediatsiya – bu ayblanuvchi (sudlanuvchi, mahkum) va jabrlanuvchi o'rtasidagi nizoni mediator ko'magida hal qilishga qaratilgan ixtiyoriy tartib-taomil bo'lib, uning maqsadi jabrlanuvchiga yetkazilgan zararni to'liq va samarali qoplanishini ta'minlash, taraflar o'rtasidagi nizoni samarali hal etish, taraflarni o'zaro kelishuvga erishishga yo'naltirish, yarashuv institutida qo'llanilmaydigan, lekin qonun bilan ruxsat etilgan toifadagi jinoyat ishlari bo'yicha taraflarni kelishtirishdan iborat.

Mediatsiya taraflarning kelishuvga o'zaro ixtiyoriy roziligi asosida, jinoyat natijasida yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararni to'liq qoplanganda yoki uni qoplash tartibi bo'yicha kelishuvga erishilgan hollarda qo'llaniladi.

Jinoyat ishlari bo'yicha mediatsiyada ishtirok etishga ayblanuvchi (sudlanuvchi, mahkum) va jabrlanuvchining ixtiyoriy yozma roziligi bo'lishi shart;

Mediatsiya jarayoni xavfsiz hudud hisoblanadi. U yerda taraflar erkin gaplashishlari, hech qanday prosessual oqibatlardan qo'rqmasdan, bir-birlariga nisbatan ochiq takliflar berishlari kerak. Agar kelishuvga erishilsa, faqatgina o'sha kelishuvning o'zi ishga qo'shiladi. Agar kelishuv bo'lmasa, butun jarayon sir saqlanadi va jinoyat ishi bo'yicha foydalanilmaydi;

Mediatorning betarafligi va mustaqilligi, faqatgina ayblanuvchi va jabrlanuvchi o'rtasidagi muloqotni yo'lga qo'yish va ularning o'ziga yechim topishiga ko'maklashish uchun xizmat qilishini ta'minlaydi. Mediator jinoyat ishining natijasidan manfaatdor bo'lmasligi lozim.

586¹²- Mediatsiya qo'llaniladigan ishlar toifasi

Mediatsiya qonunchilikda ruxsat berilgan yoki Jinoyat kodeksining maxsus moddalarida nazarda tutilgan tartibda umumiy qoidalarga ko'ra yarashuvga (JK 66¹-modda) yo'l qo'yilmaydigan, lekin sud qaroriga ta'sir etuvchi boshqa toifadagi ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan hamda ayrim og'ir jinoyatlar (asosan mulkiy va iqtisodiy) jinoyat ishlari bo'yicha qo'llanilishi mumkin.

Mediatsiya, asosan, jinoiy-huquqiy oqibatlar (jazo) emas, balki fuqarolik-huquqiy oqibatlar ya'ni yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararni qoplash bo'yicha taraflar o'rtasida kelishuvga erishish uchun qo'llaniladi.

586¹³-modda. Jinoyat prosessida mediatorning huquqiy maqomi

Jinoyat prosessida mediator sifatida ushbu Kodeksning 71¹,71²-moddalarida belgilangan, mediatorlarning professional reyestriga kiritilgan, ishning natijasidan manfaatdor bo'lmagan shaxs ishtirok etadi.

Mediator guvoh sifatida so'roq qilinishi mumkin emas.

Mediator jinoyat ishi materiallari bilan taraflarning roziligi doirasida tanishish huquqiga ega.

586¹⁴-modda. Mediatsiyani tayinlash va o'tkazish uchun ish yuritishni to'xtatib turish

Tergovchi, prokuror yoki sud ish yuritishning har qanday bosqichida, taraflarning iltimosiga ko'ra yoki o'z tashabbusi bilan, mediatsiya o'tkazishni taklif qilishga haqli.

Taraflar mediatsiya o'tkazishga rozi bo'lgan taqdirda, ish yuritayotgan suishtiruvchi, tergovchi, prokuror qaror, sud mediatsiyani o'tkazish to'g'risida ajrim chiqaradi.

Mediatsiya o'tkazish uchun jinoyat prosessining harakati to'xtatib turilishi mumkin.

Mediatsiya "Mediatsiya to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud taraflarning mediatsiya tartib-taomilini qo'llash to'g'risidagi qo'shma iltimosnomasiga asosan jinoyat ishi bo'yicha yuritishni 15 kungacha muddatga to'xtatib turishga haqli.

Zarur hollarda ushbu muddat yana 15 kunga uzaytirilishi mumkin.

Mediatsiya muddati davomida da'vo muddatini o'tishi va tergov muddatlarini hisoblash to'xtatiladi.

586¹⁴-modda. Jinoyat ishi bo'yicha mediativ kelishuv

Mediatsiya natijasida tuzilgan kelishuv yozma shaklda rasmiylashtiriladi va unda quyidagilar ko'rsatiladi:

Zararni qoplash miqdori, shakli va muddatlari;

Jabrlanuvchining gumon qilinuvchiga nisbatan da'vosi yo'qligi;

Taraflarning kelishuvga bo'lgan istagi.

Mediativ kelishuv taraflar va mediator tomonidan imzolanadi.

586¹⁵-modda. Mediativ kelishuvning huquqiy oqibatlari va ahamiyati

Jinoyat prosessida tuzilgan mediativ kelishuv quyidagilarga asos bo'ladi:

JPKning 84-moddasining 4-qismiga muvofiq (mediativ kelishuv tuzilganligi munosabati bilan) jinoyat ishini tugatish;

Agar jinoyat og'ir bo'lsa, jazoni tayinlashda javobgarlikni yengillashtiruvchi holat sifatida inobatga olish;

Fuqaroviy da'vo bo'yicha ish yuritishni tugatish.

Tergovchi yoki prokuror mediativ kelishuv tuzilganligini jinoyat ishi bo'yicha aybni yengillashtiruvchi holat sifatida (Jinoyat kodeksining 55-moddasi) hisobga oladi.

Mediativ kelishuv, agar unda fuqarolik-huquqiy majburiyatlar nazarda tutilgan bo'lsa, fuqarolik prosessual qonunchiligiga muvofiq majburiy ijro etilishi mumkin.

586¹⁶-modda. Mediatsiya muvaffaqiyatsiz tugagandagi harakatlar

Agar mediatsiya natijasida kelishuvga erishilmasa yoki ayblanuvchi (sudlanuvchi) yoxud jabrlanuvchi mediatsiyada ishtirok etishdan voz kechsa, jinoyat prosessi to'xtatib turilgan bo'lsa, ish yuritish davom ettiriladi. Mediatsiya jarayonida aytilgan fikrlar va takliflar jinoyat ishi bo'yicha dalil sifatida foydalanilishi mumkin emas.

“Yarashuv” bilan farqi Yangi mediasiya tartibi, mavjud Yarashuv instituti (JK 66¹-modda) ishlaydigan holatlar uchun qo'shimcha mexanizm sifatida xizmat qilishi kerak. Mediasiyada asosiy e'tibor tovon puliga emas, balki muloqotni tiklash va professional mediator ishtirokiga qaratiladi.

Mediatorning maqomi JPKga ushbu bobni kiritishda, albatta, “Mediasiya to'g'risida”gi Qonunda belgilangan mediatorning maqomi va talablaridan foydalaniladi.

Jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatish milliy institutini shakllantirishda nazarda tutiladigan asosiy yo'nalishlar milliy qonunchilik va huquqni muhofaza qilish amaliyotida jarohatlangan shaxs manfaatlarini to'liq ta'minlash maqsadida jinoyat turiga qarab jabrlanuvchilarni maxsus guruhlariga ajratish hamda ularga kompleks yordam ko'rsatish tizimini yaratish dolzarb masaladir. Bunday institut jinoyat oqibatlarini bartaraf etish, jabrlanuvchilarning ijtimoiy adolatga ishonchini tiklash va qayta jabrlanishning oldini olishga xizmat qiladi. Shu bois, milliy institutni barpo etishda quyidagi konseptual yo'nalishlar nazarda tutiladi. Milliy institut jabrlanuvchilarni jinoyat turiga qarab klassifikasiya qilishni ya'ni jinoyatlar tabiati va yetkazilgan zarar xususiyatidan kelib chiqqan holda jabrlanuvchilarni quyidagi asosiy toifalarga ajratishni nazarda tutadi. Shaxsga qarshi jinoyatlar (qasddan odam o'ldirish, tan jarohati yetkazish qilish va b.) jabrlanuvchilariga tergov jarayonlarida

himoya mexanizmlarini kuchaytirish zarur. Unga muvofiq, yordamning psixologik va psixoterapevtik yoʻnalishi ustuvor hisoblanadi.

Jinsiy erkinlik va jinsiy daxlsizlikka qarshi jinoyatlar jabrlanuvchilari maxfiylik va daxlsizlikni qoʻshimcha muhofaza qilish. Ushbu turdgi jinoyat jabrlanuvchilariga psixiatr-psixolog koʻmagi, uzoq muddatli reabilitasiya hamda ixtisoslashgan krizis markazlarida jabrlanuvchilarni qoʻllab quvvatlash chora tadbirlarini amalga oshirish lozim boʻladi.

Oilaviy-maishiy zoʻravonlik jabrlanuvchilariga esa ijtimoiy panohgohlar (shelters) tashkil etish hamda zoʻravonlikdan himoya orderlari, ijtimoiy xodimlar, yuristlar, mediatorlar ishtirokida kompleks koʻmak ishlarini yoʻlga qoʻyish lozim boʻladi.

Mol-mulkka qarshi jinoyatlar jabrlanuvchilariga moddiy zararni tezkor qoplash mexanizmlarini ishlab chiqish, sugʻurta va kompensasiya fondlarini tashkil etish bilan bogʻliq chora tadbirlar amalga oshirilishi lozim.

Terrorizm va ommaviy falokatlar jabrlanuvchilariga davlat kafolatidagi tibbiy va psixologik reabilitasiya markazlari, uzoq muddatli ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash bilan bogʻliq chora tadbirlarni yoʻlga qoʻyish lozim boʻladi.

Kiberjinoyatlar jabrlanuvchilariga axborot himoyasini tiklashga yordam berish, moliyaviy zararni qoplash boʻyicha maxsus mexanizmlarni joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Taklif etilayotgan milliy institutning mustahkam huquqiy bazasi quyidagilardan iborat boʻlishi maqsadga muvofiq: “Jabrlanuvchilarni qoʻllab-quvvatlash toʻgʻrisida”gi alohida qonun loyihasi ishlab chiqildi va qonun jabrlanuvchining maqomi, ularga koʻrsatiladigan yordam turlari va kafolatlari, davlat organlarining vakolatlari, maxsus reabilitasiya markazlari faoliyati, kompensasiya va moddiy yordam mexanizmlarini tartibga soladi.

Maxsus “Davlat kompensasiyasi jamgʻarmasi”ni tashkil etish hamda ushbu jamgʻarmani tashkil etishda dastlab davlat byudjetidan mablagʻ ajratishi, ayblanuvchi zararni qoplamaganda, zararni davlat tomonidan qoplashni nazarda tutadi bundan

tashqari, jamg'armani musodara qilingan mol-mulk, jarimalar, jinoyat natijasida topilgan mablag'lar va boshqalar.

Amaldagi JPKga jabrlanuvchiga huquqiy yordam olish kafolatini kiritish; tinchlik-kelishuv jarayonlarida uning manfaatini kuchaytirish; qayta viktimizasiyaga yo'l qo'ymaslik bo'yicha maxsus normalar kiritish taklif etiladi.

Jabrlanuvchilarga kompleks yordam mexanizmlarini shakllantirish milliy institutning asosiy vazifasi jabrlanuvchiga zarur yordamning har bir turini tizimli taqdim etish. YA'ni moddiy yordam, tezkor pulli kompensasiya, davlat tomonidan vaqtincha turar joy bilan ta'minlash, daromadini yo'qotgan shaxslarga subsidiyalar ajratish lozim.

Jabrlanuvchilarga ma'naviy va psixologik yordam ko'rsatida psixolog, psixoterapevt, krizis markazlari tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir.

Bolalar-jabrlanuvchilar uchun maxsus kabinetlar (child-friendly rooms) tashkil etilib, psixologik diagnostika, reabilitasiya qilish, ularga viktimologik yordam, jinoyatdan keyin xavfsizlikni ta'minlash, qayta jabrlanishdan himoya qilish lozim.

Jabrlanuvchining huquqiy madaniyatini oshirish maqsadida ijtimoiy yordam, jamoaviy adaptasiya va reabilitasiya, ishga joylashtirish, ta'lim va qayta tayyorlash, yuridik maslahatlar, advokat xizmatlaridan foydalanish.

Ixtisoslashgan markaz va xizmatlarni joriy etish maqsada milliy institut quyidagi infratuzilmani nazarda tutadi: Viloyat va tumanlarda "Jabrlanuvchilarni qo'llab-quvvatlash markazlari" unda psixologik yordam, yuridik maslaxat, tibbiy xizmatlar, ijtimoiy xizmatlar, 24/7 ishlaydigan ishonch telefonlari koll -markazlar ishini tashkil etish, ularga maxfiylik kafolati, tezkor qo'llab-quvvatlash hamda favqulodda vaziyatda yo'l-yo'riqlar ko'rsatish ishlarini tashkil etish lozim.

Bolalar bilan ishlash bo'yicha ixtisoslashgan markazlar tashkil etib, travmaga yo'naltirilgan psixologik reabilitasiya, gumanistik so'roq uslublari (Barnahus modeli)ni joriy etish kerak.

Milliy institutni samarali ishini tashkil etish uchun psixologlar, viktimologlar, yuristlar, ijtimoiy xodimlar tayyorlash, tergovchilar uchun "viktimologik yondashuv"

bo'yicha maxsus kurslar, tibbiyot xodimlari va huquqni muhofaza qilish organlari uchun treninglar tashkil etish.

Jabrlanuvchilar to'g'risida yagona milliy elektron reyestrni yuritish va unda axborot-statistik tizim yaratish, jinoyat turlari bo'yicha tahlil qilish, Davlat siyosatini rejalashtirish uchun statistik baza yaratish lozim.

Jabrlanuvchilarni qo'llab quvvatlash milliy institutini, milliy qonunchilikni xalqaro andozalarga muvofiqlashtirish, iilliy institut BMTning "Jabrlanuvchilar huquqlari Deklarasiyasi" (1985), Yevropa kengashi Konvensiyalari (jumladan, Istanbul Konvensiyasi), Viktimologiya bo'yicha ilmiy standartlarga moslashtirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining Rezolyusiyasi 217 A (III) bilan 1948 yil 10-dekabrda qabul qilingan. [Elektron manba] <https://constitution.uz/uz/pages/humanrights> (Murojaat yetilgan sana: 15.01.2024)
2. Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi Xalqaro Pakt. 1966 yil 16 dekabr, AQSH, Nyu-York, O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisining 1995 yil 31 avgustdagi 127-1-sonli “1966 yil 16 dekabrda fuqaroviy va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktga qo‘shilish haqida”gi qaroriga asosan tasdiqlangan. [Elektron manba] <https://lex.uz/docs/2640479>(Murojaat yetilgan sana: 15.01.2024)
3. Декларация основных принципов правосудия для жертв преступления и злоупотребления властью (Принята резолюцией 40/34 Генеральной Ассамблеи от 29 ноября 1985 года) // URL: https://www.un.org/ru/documents/decl_sonv/declarations/rower.shtml (Murojaat yetilgan sana: 20.03.2024)
4. Основные принципы и руководящие положения, касающиеся права на правовую защиту и возмещение ущерба для жертв грубых нарушений международных норм в области прав человека и серьезных нарушений международного гуманитарного права (резолюция 60/147 Генеральной Ассамблеи от 16 декабря 2005 года)//https://www.un.org/ru/documents/decl_sonv/sonventions/rinsirles_right_to_remedy.shtml (Murojaat yetilgan sana: 30.05.2024).
5. Rights of Victims in the Indian Criminal Justice System// The compulsory protection of Witnesses And Victims of Crimes Bill, 2017, <https://www.ielrc.org/content/a0402.pdf>
6. Конвенция о неприменимости срока давности к военным преступлениям и преступлениям против человечества. Принята резолюцией 2391 (XXIIII) Генеральной Ассамблеи ООН от 26 ноября 1968 года

7. Азиатский форум по правам человека «Итоги 70-летия Всеобщей декларатсии прав человека: вызовы времени и реальность» (Материали Азиатского форума по правам человека 22-23 ноябрь 2018 г., г. Самарианд) отв.ред.А.Х.Саидов – 2019. – 248 с.

8. Декларация ООН от 29 ноября 1985 г. “Об основных принципах правосудия в отношении жертв преступлений и злоупотребления властью. [хтtps://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/powэр.шTML](https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/powэр.шTML)

9. Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti: insoniylik mezonlari sohasidagi majburiyatlar // ma’sul muharrir: A.X.Saidov – yuridik fanlari doktori, professor. – T.: Inson huquqlari bo’yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2012. – 368 b.

10. Inson huquqlari umumjahon deklarasiyasi (1948-y. 10-dekabr). – T.: “Adolat” milliy huquqiy markazi, 2023. – 32 b.

11. Рекомендующее види практики в области защиты свидетелей при производстве по уголовним делам, касающимся организованной преступности. Управление Организатсии Объединенных Натсий по наркотикам и преступности. [https://www.unodc.org/documents/organized-crime/V085336620Practices%20\(R\).pdf](https://www.unodc.org/documents/organized-crime/V085336620Practices%20(R).pdf)

12. Рекомендатсии Комитета министров Совета Европи “О положения жертв преступлений в рамках уголовного права и уголовного просесса” 1985 г. <https://www.osce.org/files/f/documents/7/9/460096.pdf>

13. Сборник международных документов Комитете ООН по правом ребенка/ отв.ред. А.Х.Саидов – T.: Носиональный центр Республики Узбекистан по правом человека, 2014 год. –451 с.

14. Qiynoqlarga solish va shavqatsiz yoki qadr-qimmat kamsitiladigan muomala yoki jazolashning oldini olish bo’yicha Yevropa qo‘mitasi standartlari/ Ma’sul muharrir va muqaddima A.X.Saidov.– T.: Inson huquqlari bo’yicha O‘zbekiston Milliy markazi, 2016. – 192 b.

15. План действий по осуществлению Декларатсии основных принципов правосудия для жертв преступлений и злоупотребления властью (резолюсия 1998/21 Экономического и Сосиального Совета). Сборник стандартов и норм ООН

в области предупреждения преступности и уголовного правосудия. (Электрон манбага мурожаат қилинган вақт: 21.05.2025).

16. Руководящие принципы, касающиеся правосудия в вопросах, связанных с участием детей – жертв и свидетелей преступлений (Резолюция 2005/20 Социального и Экономического Совета). (Электрон манбага мурожаат қилинган вақт: 23.05.2025).

17. Основные принципы и руководящие положения, касающиеся права на правовую защиту и возмещение ущерба для жертв грубых нарушений международных норм в области прав человека и серьезных нарушений международного гуманитарного права (резолюция 60/147 Генеральной Ассамблеи) Сборник стандартов и норм ООН в области предупреждения преступности и уголовного правосудий. (Электрон манбага мурожаат қилинган вақт: 22.05.2025).

18. Конвенция Организации Объединенных Наций против транснациональной организованной преступности (резолюция 55/25 Генеральной Ассамблеи, статья 25). .) Международные акты о правах человека сбор. документов.– М. «НОРМА», 2000 С. 166-169.

19. Протокол о предупреждении и пресечении торговли людьми, особенно женщинами и детьми, и наказании за нее, дополняющий Конвенцию Организации Объединенных Наций против транснациональной организованной преступности (резолюция 55/25 Генеральной Ассамблеи, статьи 6–8). Сборник стандартов и норм ООН в области предупреждения преступности и уголовного правосудий. (Электрон манбага мурожаат қилинган вақт: 11. 05.2025).

20. Конвенция Организации Объединенных Наций против коррупции (резолюция 58/4 Генеральной Ассамблеи, статья 32) Сборник стандартов и норм ООН в области предупреждения преступности и уголовного правосудий. (Электрон манбага мурожаат қилинган вақт: 25.08.2023).

21. Конвенция о правах ребенка (резолюция 44/25 Генеральной Ассамблеи, 1989 год, статья (Электрон манбага мурожаат қилинган вақт: 28.08.2023).

22. Типовые стратегии и практические меры по искоренению насилия в отношении женщин в области предупреждения преступности и уголовного

правосудия (приложение к резолюции 52/86 Генеральной Ассамблеи, 1997 год). (Электрон манбага мурожаат қилинган вақт: 29.08.2023).

23. Основные принципы применения программ реституционного правосудия в вопросах уголовного правосудия (приложение к резолюции 2002/12 Экономического и Социального Совета от 24 июля 2002 года). (Электрон манбага мурожаат қилинган вақт: 29.08.2023).

24. Резолюция (77) 27*комитета министров совета Европы «О компенсации потерпевшим от преступлений» Принята Комитетом Министров 28 сентября 1977 года на 275-м заседании Представителей Министров Совет Европы и Россия Сборник документов – М.: Издательство «Юридическая литература», 2004 – С. 243.

25. Африканская хартия прав и благосостояния ребенка, Док. ОАЕ САБ/ЛЕГ/24.9/49 (1990), вступил в силу 29 ноября 1999 года. [хтtps://www.упр-инфо.орг/ситес/дефавлт/филес/документ/свазиланд/сессия_12](https://www.упр-инфо.орг/ситес/дефавлт/филес/документ/свазиланд/сессия_12).

26. Межамериканская конвенция о предотвращении и искоренении насилия в отношении женщин и наказании за него (Конвенция, подписанная в Белем-ду-Пара) ОАГ, 1994 год – [хтtps://www.охчр.орг/РУ/Нewсевентс/](https://www.охчр.орг/РУ/Нewсевентс/). (Электрон манбага мурожаат қилинган вақт: 20.04.2023).

27. Европейская конвенция о компенсации жертвам преступлений, совершенных с применением насилия, 1983 год (Электрон манбага мурожаат қилинган вақт: 20.04.2023).

28. Рекомендация Совета Европы Р (85) 11 о положении потерпевшего в рамках уголовного права и уголовного процесса (Электрон манбага мурожаат қилинган вақт: 20.04.2024).

29. Рекомендация Совета Европы Р (87) 21 о помощи жертвам и предупреждении виктимизации (ноябрь, 1987 год).

30. Рекомендация Совета Европы Рес (2006) 8 о помощи потерпевшим от правонарушений (июнь, 2006 год) – [хтtps://рм.соэ.инт/16806680ас](https://рм.соэ.инт/16806680ас)

31. Рамочное решение Совета Европейского союза от 15 марта 2001 года о статусе потерпевших в уголовном процессе (Электрон манбага мурожаат қилинган вақт: 20.04.2024).

32. Директива Совета 2004/80/ЕС от 29 апреля 2004 года относительно компенсации жертвам преступлений (Электрон манбага мурожаат қилинган вақт: 20.02.2025).

Xorijiy mamlakatlarning normativ-huquqiy hujjatlari:

33. Gesetz über die Entschädigung für Opfer von Gewalttaten (Ausfertigungsdatum: 11.05.1976) (2021-yil 2-iyun holatiga ko'ra) // URL: <https://www.gesetze-im-internet.de/oeg/> (Murojat etilgan sana: 13.04.2024)

34. Loi n° 77-5 du 3 janvier 1977 garantissant l'indemnisation de certaines victimes de dommages matériels résultant d'une infraction // URL: <https://www.legifrance.gouv.fr/loda/id/JORFTEXT000000704552/> (Murojaat etilgan sana: 28.03.2024)

35. Texas Crime Victims' Compensation Program enrollment. URL: <https://www.texasattorneygeneral.gov/crime-victims/crime-victims-compensation-program> (Murojaat etilgan sana: 21.03.2024)

36. The Code of Practice for Victims of Crime (Presented to Parliament pursuant to section 33 of the Domestic Violence, Crime and Victims Act 2004) // URL: https://www.srs.gov.uk/sites/default/files/documents/legal_guidance/OD_000049.pdf (Murojaat etilgan sana: 10.04.2024)

37. The Restitution Process for Victims of Federal Crimes. URL: [https://www.justice.gov/file/414321/download#:~:text=The%20Mandatory%20Restitution%20Act%20of,%2S%201996\)%20is%20also%20included](https://www.justice.gov/file/414321/download#:~:text=The%20Mandatory%20Restitution%20Act%20of,%2S%201996)%20is%20also%20included) (Murojaat etilgan sana: 21.03.2022)

38. Buyuk Britaniya hukumati tomonidan 1990-yil 22-fevral kuni qabul qilingan Jabrlanuvshilar nizomi: Jabrlanuvshi huquqlari bo'yisha bayonot (Victim's Charter: Statement of the Rights of Victims of Crime) // URL:

<https://www.ojr.gov/nsjrs/virtual-library/abstrasts/vistimss-sharter-statement-rights-vistims-srime> (Murojaat etilgan sana: 28.03.2024).

39. Buyuk Britaniyaning 2015-yil oktabr oyida qabul qilingan Jabrlanuvshilar kodeksi (Sode of Rrastise for Vistims of Srime) // URL: https://www.srs.gov.uk/sites/default/files/dosuments/legal_guidanse/OD_000049.rdf (Murojaat etilgan sana 30.03.2023)

40. Germaniya Federativ Resrublikasi jinoyat-rrotsessual kodeksi // URL: <https://dejure.org/gesetze/StRO/459h.html> (2022-yil 1-yanvar holatiga ko'ra) (Murojaat etilgan sana: 13.04.2024)

41. Gresiya Jinoyat-rrotsessual kodeksi, grek tilida // URL: <https://www.lawsrot.gr/nomikes-rlirofories/nomothesia/nomos-4620-2019> (Murojaat etilgan sana: 05.01.2024).

42. Israniya jinoyat kodeksi (09.11.2021 holatiga ko'ra) // URL: <https://www.sonsertosjuridisos.com/sodigo-renal/> (Murojaat etilgan sana: 05.04.2022)

43. Qozog'iston Resrublikasi Jinoyat-rrotsessual kodeksi (02.03.2022 holatiga ko'ra) // URL: <https://adilet.zan.kz/kaz/doss/K1400000231#z685> (Murojaat etilgan sana 20.04.2023)

44. Qozog'iston Resrublikasi Oliy sudining 2005-yil 20-iyundagi "Jinoyat rrotsessida fuqaroviy da'voni ko'rib shiqish to'g'risida"gi 1-son qarori // URL: https://adilet.zan.kz/kaz/doss/R05000001S_ (Murojaat etilgan sana 20.04.2024)

45. Qozog'iston Resrublikasining 2018-yil 10-yanvardagi "Jabrlanganlar ushun komrensasiya jamg'armasi to'g'risida"gi qonuni // URL: <https://adilet.zan.kz/kaz/doss/Z1800000131> (Murojaat etilgan sana: 20.04.2024)

46. Singarur Resrublikasi Jinoyat-rrotsessual kodeksi (01.04.2024-yil holatiga ko'ra) // URL: <https://sso.ags.gov.sg/Ast/SRS2010?RrovIds=R118-#rr360-> (Murojaat etilgan sana: 16.04.2024)

47. Tojikiston Resrublikasi Jinoyat-rrotsessual kodeksi (19.07.2022-yil holatiga ko'ra) // URL: <https://mmk.tj/> (Murojaat etilgan sana: 16.01.2023)

48. Turkmaniston Jinoyat kodeksi // URL: <https://br.gov.tm/laws/53/show> (Murojaat etilgan sana: 19.04.2023)

49. Turkmaniston Jinoyat-rrotsessual kodeksi // URL: <https://br.gov.tm/laws/52/show> (Murojaat etilgan sana: 19.04.2023)
50. Уголовно-просессуалний кодекс Республики Беларусь от 16 июля 1999 года (По состоянию на 20.07.2024) // URL: <https://kodeksy.by/ugolovno-rrotsessualnyy-kodeks> (Murojaat etilgan sana: 19.10.2024)
51. Уголовно-просессуалний кодекс Российской Федератсии от 18 декабря 2001 года (По состоянию на 07.10.2024) // URL: http://www.sonsultant.ru/dosument/sons_dos_LAW_34481 (Murojaat etilgan sana: 19.10.2024)
52. Уголовний кодекс Республики Армения // URL: <http://www.rarliament.am/legislation.rhr?sel=show&ID=1349&lang=rus> (Murojaat etilgan sana: 20.09.2024)
53. Уголовний кодекс Республики Казахстан // URL: https://online.zakon.kz/dosument/?dos_id=31575252&ros=5;-146#ros=5;-146 (Murojaat etilran sana: 20.09.2024)
54. Xitoy Xalq Resrublikasi Jinoyat-rrotsessual qonuni // URL: http://www.gov.sn/flfg/2012-03/17/sontent_2094354.htm (Murojaat etilgan sana: 16.04.2024)
55. Yaroniya jinoyat kodeksi // URL: <https://elaws.e-gov.go.jr/dosument?lawid=140AS0000000045> (Murojaat etilgan sana : 04.04.2025)
56. Yaroniya jinoyat-rrotsessual qonuni // URL: <https://elaws.e-gov.go.jr/dosument?lawid=323AS00000000131> (Murojaat etilgan sana : 16.01.2025)

MUNDARIJA

KIRISH	2
--------------	---

I BOB

JABRLANUBCHINING HUQUQIY MAQOMI BA MANFAATLARINI MUHOFAZA QILISH TUSHUNCHASINING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI

1-§. JINOYAT PROSESSIDA JABRLANUBCHINING MANFAATLARI MUHOFAZASINING IJTIMOY ZARURATI.....	5
---	---

2-§. XALQARO HUQUQIY XUJJATLARDA JABRLANUBCHINING HUQUQ BA MANFAATLARINI MUHOFAZA QILINISHI.....	35
--	----

3-§. GERMANIYA FEDERATIB RESPUBLIKASI JINOYAT-PROSESSUAL QONUNCHILIGIDA JABRLANUBCHINING MANFAATLARINI MUHOFAZA QILISHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI.....	50
--	----

4-§. Anrliya jinoyat-prosessual huquqi doktrinasida jabrlanubchi huquqiy maqomininr ilmiy-nazariy talqin etilishi.....	61
--	----

II - BOB

ANGLO-SAKSON HUQUQ OILASIDA JABRLANUBCHINI MUHOFAZA QILINISH TAJRIBASI

1-§.EBROPA MAMLAKATLARIDA JABRLANUBCHIGA JINOYAT NATIJASIDA ETKAZILGAN ZARARNI QOPLASH MASALALARI.....	88
--	----

2-§. AMERIKA QO'SHMA SHTATLARIDA JABRLANUBCHINING MUHOFAZASI.	97
---	----

3-§. ANGLO-AMERIKA HUQUQ OILASIGA MANSUB MAMLAKATLARDA JABRLANUBCHIGA JINOYAT NATIJASIDA ETKAZILGAN ZARARNI QOPLASH MASALALARI	116
--	-----

4-§. Avstraliya ittifoqida jabrlanuvchining manfaatlari muhofazasi.....	131
--	-----

III- BOB

ROMANO-GERMAN HUQUQ OILASIDA JABRLANUBCHINI HIMOYA QILISH TAJRIBASI

1-§. KONTINENTAL HUQUQ OILASIGA MANSUB DABLATLARDA JABRLANUBCHINING HUQUQ BA MANFAATLARINI MUHOFAZA QILINISHI	150
2-§. YAPONIYA QONUNCHILIGIDA JABRLANUBCHINING MANFAATLARI MUHOFAZA QILINISHI.....	180
3-§. AYRIM OSIYO MAMLAKATLARIDA JABRLANUBCHINING HUQUQ BA MANFAATLARI MUHOFAZASI	190

XULOSA.....	21
FOYDALANILGAN ADBIYOTLAR RO'YXATI.....	223

TURAYEVA DILNOZA RUSTAMBOYEVNA

**JINOYAT PROSESSIDA JABRLANUVCHINING
MANFAATLARINI MUHOFAZA QILISHNING
XORIJIY TAJRIBASI**

MONOGRAFIYA

Muharrir: M. Sultonova

Texnik muharrir: M. O‘rinov

Bosishga ruxsat etildi «26» 12 2025

y. Nashriyot hisob tabog‘i 9,2.

Adadi. Buyurtma №

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi,
700197, Toshkent sh., Intizor ko‘chasi, 68.